

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA  
INSTITUTI**

**KIMYO KAFEDRASI**

**DOTSENTI**

**NURILLOYEV ZAFAR  
ISMATILLOYEVICH**

**KIMYO**

*(60720700 – Texnologiya mashina jihozlari (kimyo sanoati))*

**ELEKTRON  
O'QUV MAJMUASI**

**Buxoro-2021**

# 1. KIRISH. FANNING ASOSIY TUSHUNCHА VA QONUNLARI

Reja:

1. Kimyoning maqsad va vazifalari
2. Kimyoning asosiy tushunchalari
3. Atom- molekulyar ta'limot
4. Kimyoning asosiy qonunlari

**Tayanch so'zlar:** atom, molekula, ion, allatropiya, valentlik, modda, qonun, agRejat holatlar, atom massa, ekvivalent, ekvivalent hajm, molyar massa, zichlik.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** Kimyo kursining maqsad va vazifalarini,kimyoning rivojlanish tarixi, misollar, boshqafanlar bilan bog'liqligi hamda talabalarga nima uchun kimyo fani kerakligi tushuntiriladi.

Kimyo tabiatni o'rgatuvchi fanlardan biri bo'lib, jismlar, xodisalar, jarayonlar orasidagi bog'liqlikni ma'lum qonunyatlar asosida tushintirib beradi. Bizni o'rabi turgan olam kishi ongiga bog'liq bo'lмагan holda mavjuddir. U xarakatdagi materiyaning turli ko'rinishlarini ifodalanishidan vujudga kelgan fandir.


- Materiya ikki tur o'zgarishlarga kirishi mumkin: tarkibini o'zgartirmasdan fazaviy holatini (gaz, suyuq va qattiq jism) o'zgartiruvchi fizikaviy o'zgarishlar; moddaning tarkibini o'zgartiruvchi kimyoviy reaksiyalar (**1.1 bo'lim**).

- Energiya bir necha o'zaro bir biriga o'tuvchi turlarda mavjud, lekin umumiyligi energiya doimiy. Materiyada kimyoviy o'zgarishlarning borishi doimo energiyaning o'zgarishlari bilan birga kuzatiladi (**1.2 bo'lim**).

- O'lchanan qiymat qandaydir son va o'lchov birligi bilan tavsiflanadi. O'tish koeffitsientlari bir o'lchov birligidan boshqasiga o'tish yoki boshqa birlik sistemasining o'lchov birliklariga o'tish imkoniyatini beradi (**1.3 bo'lim**).

- SI sistemasi asosiy birliklarni o'zida tutadi, shuningdek fizikaviy kattaliklar bo'lgan uzunlik, massa va temperaturalarni ham ifodalaydi. Zichlik, hajm va energiya kabilarni ifodalovchi boshqa o'lchov birliklari ham mavjud. Massa kabi ekstensiv xossalar moddaning miqdoriga bog'liq, intensiv xossalar esa moddaning miqdoriga bog'liq emas (**1.4 bo'lim**).

U yoki bu xossani tavsiflovchi har bir son ahamiyatli bo'lib o'lhash aniqligini ko'rsatadi.Tartiblilik xossanining o'lchanan qiymati uning real qiymatiga qanchalik yaqin ekanligini ko'rsatsa, aniqlik esa o'tkazilgan o'lhashlar bir-biriga qanchalik yaqin ekanligidan xabar beradi



## Mazmuni

### 1.1. Materiya xossalaringning ayrim asosiy ta'riflari

Materiyaning holatlari  
Kimyoda markaziy mavzu  
Energiyaning ahamiyati

### 1.2. Ilmiy yondoshuv - nazariyani rivojlantirish

O'lchov birliklari va birliklardan o'zaro o'tish koeffitsientlari  
Sistemmatik yondoshuv

### 1.3. Ilmiy tadqiqotlardagi birliklar sistemasi

SI sistemasi birliklarining o'ziga xosligi

Intensiv va ekstensiv xossalar

### 1.4. O'lhashlardagi noaniqlik: son qiymatlarini yiriklashtirishning ahamiyati

Ahamiyatli xatolarni aniqlash  
Xisoblashlar va olingan son qiymatlarini yiriklashtirish

Aniqlik, tartiblilik va kalibrovka usullari

Kimyo biz kundalik hayotda ishlatajotgan moddalarnigina o'rganmaydi. Sog'liqni saqlash, iqlim o'zgarishi, hayotning paydo bo'lishi va boshqa juda ham muxim masalalar va muammolarning asosiy qismini kimyoni qo'llamasdan va materiyaning fizikaviy va kimyoviy xossalarini tadqiqot usullarisiz hal qilish mumkin emas.

### 1.1. Ayrim fundamental holatlар


Kimyo materiyani va uning fizikaviy xossalarini, turli ta'sirlar natijasida doimo energetik o'zgarishlar bilan birga kuzatiluvchi o'zgarishlarni o'rganadi.

#### Materiyaning xossalari.

Olamni tashkil qiluvchi barcha narsalar materiyadir: havo, planetalar va boshqalar, ya'ni massa va hajmga ega bo'lgan barcha narsalar. Kimyogarlar doimo materiyaning tarkibini, uni tashkil qilgan oddiy moddalarning turlarini bilishni xoxlaydilar. Modda materiyaning bir turi bo'lib, u ma'lum o'zgarmas tarkibga ega. Materiya uning xossalari orqali o'rganiladi, chunki tavsiflovchi moddalar uni individualligini belgilaydi. Moddalarni identifikatsiya qilish uchun ikki tur - fizikaviy va kimyoviy xossalari o'rganiladi:

- **Fizikaviy xossalari** qaynash temperaturasi, suyuqlanish temperaturasi, zichlik, elektr o'tkazuvchanlik va boshqa ko'pgina xossalarni o'z ichiga oladi. Fizikaviy o'zgarish - bu modda o'zining fizikaviy xossalarni o'zgartirgan holda kimyoviy tarkibini saqlab qoladi.

Masalan, suyuqlanish jarayonida moddalarning fizikaviy xossalari o'zgaradi, xususan, qattiqligi, zichligi, oquvchanligi. Ammo bunda tarkib o'zgarmaydi: suv (qattiq) - suv (suyuq).



#### A. Fizikaviy o'zgarish

Suvning qattiq ko'rinishi (muz) suyuq ko'rinishiga o'tadi.

Suv molekulalari avvalgidek qoladi va ularning tarkibi ozgarmaydi


#### B. Kimyoviy o'zgarish.

Elektr toki suvni boshqa moddalarga parchalaydi (vodorod va kislorod). Molekulalar tok o'tguncha va o'tgandan keyin butunlay boshqacha, bu esa tarkib haqiqatdan o'zgarganini bildiradi.


- **Kimyoviy xossalari** moddani boshqa modda bilan o'zaro ta'sirlashishi jarayonida uni tavsiflarining o'zgarishini ko'rsatadi. Kimyoviy xossalari yonuvchanlik, korroziya, kislotalar bilan o'zaro ta'sirlashish kabilarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich modda boshqa moddaga o'zgaradigan xolat kimyoviy o'zgarish bo'lib, u kimyoviy reaksiya deyiladi. 1.1 rasmda suvdan elektr toki o'tkazilgandagi kimyoviy o'zgarish (reaksiya) ko'rsatilgan: bunda suv ikkita mutlaqo boshqa moddalarga parchalanadi – gazsimon vodorod va kislorodlarga. Moddaning tarkibi o'zgardi – suvning molekulasi endi yo'q bo'ldi. Molekulalarning kimyoviy o'zgarishi ushu holatda quyidagi sxema bo'yicha boradi: suv - gazsimon kislorod + gazsimon vodorod.

#### 1.1 Muammo.

**Topshiriq:** A – moddaning atom-molekulyar darajadagi holatini ko'rsatadi, u V va S kabi turli o'zgarishlarga uchratilgan. Ulardan qaysi biri kimyoviy yoki fizikaviy o'zgarish ekanligini aniqlang.



**Echish:** A sistemasida har bir zarracha bitta ko'k va ikkita qizil zarrachalardan iborat (uch atomli molekula). A sistemasiagi zarrachalar V sistemada ikki turga o'zgaradi: birinchisi qizil va ko'k, ikkinchisi ikkita qizil zarrachalardan iborat, ya'ni kimyoviy o'zgarish (reaksiya) sodir bo'lib, ikkita yangi zarrachalar xosil bo'ladi. Zarrachalar S sistemasida A sistemasidagidek bo'lib, faqat ular bir-biriga yaqinroq joylashgan.



### Materiyaning holati.

Materiya uch fizikaviy holatlarda bo'lishi mumkin – qattiq, suyuq va gazsimon.

**Holatlarni aniqlash.** Makroskopik darajada materiyaning har bir holati zarrachalar kolbani qanday yo'l bilan to'ldirishi bilan belgilanadi (1.2 rasm).

- **Qattiq holat** – zarrachalar kolbaning ko'rinishini qabul qilmaydi.
- **Suyuq holat** – zarrachalar kolbaning ko'rinishini qabul qiladi, ya'ni suyuqlik kolbada faqat yuqori sirtga ega.
- **Gazsimon holat** – gaz ham kolbaning ko'rinishini oladi, lekin uning butun hajmini egallaydiva xech qanday sirtga ega emas.

Atom darajasida har bir agRejat holat zarrachalarning nisbiy joylashishi bilan belgilanadi:

- *qattiq holatda* zarrachalar regulyar fazoviy panjarada bir-biriga juda yaqin joylashgan;
- *suyuq holatda* ham zarrachalar bir-biriga yaqin joylashgan, lekin ular bir-biriga nisbatan tartibsiz harakatlanadi;
- *gaz holatida* zarrachalar bir-biridan uzoq masofalarda bo'lib, idishning butun hajmi bo'yicha tartibsiz harakatlanadi.

### 1.2 rasm



<b>Qattiq</b> – zarrachalar bir-biriga yaqin va ma'lum ko'rinish kuzatiladi	<b>Suyuq</b> – zarrachalar bir-biriga yaqin, ularning holati tartibsiz	<b>Gaz</b> – zarrachalar bir-biridan uzoqlashgan, harakat xaotik
---	--	--

**Temperatura va holatlarning o'zgarishi.** Atrof muxitning temperaturasi va bosimiga bog'liq ravishda ko'p moddalar uchta holatlarning har biridan bir fizikaviy holatdan boshqasiga o'tishi mumkin. Masalan, temperatura ortishi bilan qattiq holatdagi suv (muz) suyuqlanadi va suyuq ko'rinishga o'tadi, u keyinchalik gazsimon holatga ham o'ta oladi (suv bug'lari).

Xuddi shunday, temperatura pasayganda suv bug'lari suyuq suvgaga aylanadi va sovutish davom ettirilganda suv muzlaydi, ya'ni qattiq ko'rinishga o'tadi. Ko'pgina boshqa moddalar, masalan, benzol, toluol va boshqalar ham temperatura o'zgarishi bilan xuddi shunday bir agRejat holatdan boshqasiga o'tadi.

Qizdirish natijasida kelib chiqqan fizikaviy o'zgarishlar sovutish orqali teskari tartibda keltirib chiqarilishi mumkinligini ta'kidlash lozim. Kimyoviy o'zgarishlar uchun bu tavsifli emas. Masalan, nam havoda temirni qizdirish uning sirtida zang xosil bo'lishi bilan boruvchi kimyoviy reaksiyani keltirib chiqaradi, ammo sovutish xosil bo'lgan zangni yo'qotmaydi (buning uchun qator kimyoviy reaksiyalarni o'tkazish kerak).

### 1.1 Muammo (1)

Quyida keltirilgan jarayonlarning qaysilari kimyoviy yoki fizikaviy xodisalar ekanligini aniqlang.

A) Nam oynada sovutilganda, ya'ni kechasi temperatura pasayganda, qirov paydo bo'ladi.

B) Urug'dan poya o'sib chiqadi.

C) Gugurt kul va gazlar xosil bo'lishi bilan olovlanadi.

D) Kumush vilka havoda asta-sekin xiralashadi.

#### Echish:

A) Fizikaviy o'zgarish – suvning agRejat holatlari o'zgaradi.

B) Kimyoviy xodisa – chunki urug' o'zida turli kimyoviy reaksiyalar sodir bo'lishi uchun suvni, havodan va tuproqdan turli moddalarni, quyosh energiyasini ishlataladi va mos ravishda tarkib o'zgarishi ham bo'ladi.

C) Kimyoviy o'zgarish – gogurt yonganda undagi moddalar boshqa moddalarga aylanadi.

D) Kimyoviy xodisa – havoda mavjud bo'lgan oltingugurt tutgan moddalar bilan ta'sirlashish natijasida kumush sulfat xosil bo'ladi.

### 1.2 muammo (2) mustaqil echish uchun.

Quyida keltirilgan jarayonlarning qaysilarini fizikaviy yoki kimyoviy

A) yodni qizdirganda uning bug'lari xisil bo'ladi.

B) avtobil dvigatelining silindridagi uchqundan benzin bug'lari yonadi.

V) ochiq yallig'lanish ustida qoplama xosil bo'lishi.

#### Kimyoning markaziy mavzusi

Kimyoviy va fizikaviy o'zgarishlar orasidagi farqlar moddaning tarkibi bilan belgilanadi, u mikroskopik darajada o'rganiladi. Uch fizikaviy holatlarning xoxlaganidagi moddalarning mikroskopik xossalari ularni tashkil qilgan zarrachalarning harakati tufayli paydo bo'ladi. Kimyoviy xodisani molekulyar darajada o'rganish, masalan shamming yonishi ko'rish, aslida nima bo'layotganini ongashga yordam beradi. Suv qaynayotganda va mis suyuqlanayotganda nima sodir bo'ladi? Zarrachalarning ko'rinas dunyosida qanday xodisalar bo'ladiki, ular urug'ni o'sib poya xisil qilishga, neonni nurlanishga, mixni zanglashga olib keladi. Bunday savollarga javob berish va ko'rinas o'zgarishlarni tushunish uchun, ko'zga ko'rinvchi xodisalar o'rganiladi.

### 1.2. Materiyani o'rganishda energiyaning ahamiyati.

Fizikaviy va kimyoviy jarayonlar energiyaning o'zgarishi bilan boradi. Energiyani ko'pincha ish bajarish qobiliyatini deb ta'riflanadi, ish tushunchasida esa biror narsani siljitish

nazarda tutiladi. Sizning qo‘lingiz kitobni varaqlaganda, avtomobil motori g‘ildiraklarni harakatga keltirganda, qoyadan tosh bo‘laklari tushayotganda o‘zi bilan grunt ni tashiyotganda ish bajariladi. Ish bajarayotgan sub’ekt (qo‘l, motor) o‘z energiyasining bir qismini ustidan ish bajarilayotgan ob’ektga (kitob, g‘ildirak) uzatadi.

Ob’ektning o‘zida tutgan umumiy energiyasi potensial va kinetik energiyalarning summasi bilan belgilanadi.

- **Potensial energiya** – ob’ektning boshqa ob’ektlarga nisbatan tutgan holati bilan belgilanuvchi energiya.

- **Kinetik energiya** - ob’ektning harakati bilan belgilanuvchi energiya.

Ushbu energiyalarning o‘zaro munosabatini ko‘rsatuvchi 4 sistemani ko‘rib chiqamiz: erdan ko‘tarilgan massa, prujinaga maxkamlangan ikkita shar, ikkita elektr ta’sirida zaryadlangan zarrachalar, yonayotgan yonilg‘i va xosil bo‘layotgan mahsulot. Bu sistemalarning hammasiga ikkita prinsip qo‘llanishi mumkin:


- 1.Energiya bir turdan ikkinchisiga o‘tayotganda to‘liq saqlanib qoladi va yo‘qolmaydi.

- 2.Energiyasi kamroq bo‘lgan holatlarning turg‘unligi yuqoriroq, shuning uchun ular energiyasi yuqoriroq bo‘lgan holatlarga nisbatan avzalroqdir.

Ko‘rib chiqilayotgan to‘rtta sistema 1.3 rasmda tasvirlangan.

- Erdan ko‘tarilgan massa (1.3a rasm). Jism ko‘tarilganda uning potensial energiyasi ortadi (energiya jismning holati bilan belgilanadi). Jism polga (erga) tushayotganda uning ortiqcha potensial energiyasi kinetik energiyaga aylanadi (bu energiya harakat bilan belgilanadi). Jism poldan balandda bo‘lganda uning potensial energiyasi yuqori va butun sistemaning stabilligi kamroq. Jism pastga tushayotganda potensial energyaning kamayishi xisobiga butun sistemaning stabilligi ortadi, chunki potensial energyaning bir qismi kinetik energiyaga o‘tadi.

- Ikkita shar spiralga maxkamlangan (1.3v rasm). SHarlar bir-biridan uzoqlashtirilganda prujina cho‘ziladi va bunda sistemaning potensial energiyasi ortadi. SHarlarni qo‘zg‘olmas holatdan ozod qilinganda potensial energyaning bu o‘zgarishi kinetik energiyaga o‘tadi. Ikkita shar va cho‘zilgan prujinadan iborat sistemaning stabilligi kamroqdir (katta potensial energiyaga ega).




**A.** Gravitations sistema. Ma’lum massali jism ko‘tarilganda uni potensial energiyasi kattaroq bo‘ladi va jism polga tushayotganda uning bir qismi kinetik energiyaga o‘tadi.

**B.** Prujinaga maxkamlangan 2 shardan iborat sistema. Prujina cho‘zilgan holatda potensial energiya yuqoriroq. Prujinani siqqanda sharlarning harakati bilan u kinetik energiyaga o‘tadi.

- Ikkita qarama-qarshi zaryadlangan zarrachalar (1.3s rasm). Ikkita qarama-qarshi zaryadlangan zarrachalar bir-biridan uzoqda bo‘lganda sistemaning potensial energiyasi ortadi (chunki elektrostatik kuchlar ushbu zarrachalarni birlashtirishga intiladi) va bu ortiqcha energiya zarrachalarning bir-biriga harakati tufayli intensiv energiyaga o‘tadi, bunda sistema barqarorroq holatga o‘tadi, chunki potensial energiya kamayadi.

- Yonilg‘ini yondirish va bunda xosil bo‘ladigan mahsulotlar (chiqayotgan gazlar). Ayrim zarrachalar boshqalariga nisbatan kattaroq potensial energiyaga ega. Masalan, benzin va

kislorod ulardan xosil bo‘lgan gazlarga nisbatan kattaroq kimyoviy potensial energiyaga ega. Bu farq kinetik energiyaga o‘tadi, u esa avtomobilni harakatga keltiradi. Xuddi shunday, iste’mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va havo bilan, buning natijasida xosil bo‘ladigan chiqindilar orasidagi potensial energiyaning farqi bizning harakatlanishimiz, o’sishimizni, temperaturani va normal hayot faoliyatini ta’minlaydi.



**C. Qarama-qarshi zaryadlangan zarrachalar sistemasi.**  
Zarrachalar ajratilgan holatda potensial energiya yuqori, zarrachalar yaqinlashganda uning bir qismi kinetik energiyaga o‘tadi.

### 1.1 Bo‘lim bo‘yicha xulosalar.

- Kimyogarlar materianing tarkibi va xossalarni hamda ularning o‘zgarishini o‘rganadi.
- Har bir modda noyob fizikaviy va kimyoviy xossalarga ega va shunga mos ravishda o‘zgarishlar ham fizikaviy va kimyoviy bo‘lishi mumkin.
  - Materiya uchta fizikaviy holatlarda mavjud: qattiq, suyuq va gazsimon; ularni har birining xossalari zarrachalarning joylashishi bilan belgilanadi.
  - Materiyadagi o‘zgarishlar energiya o‘zgarishlari bilan birgalikda kuzatiladi.
  - Kimyoviy potensial energiya moddadagi zarachalarning holati va o‘zarot ta’siriga bog‘liq ravishda paydo bo‘ladi. YUqoriroq potensial energiya (moddaning stabilligi kamroq holat) o‘zining qiymatini kamaytirganda (moddaning stabilligi ko‘proq holat), uning bir qismi kinetik energiyaga o‘tadi.

### 1.2 Bo‘lim bo‘yicha xulosalar.

- Ilmiy usul – turli xil xodisalarni tushuntirish uchun mo‘ljallangan jarayon.
- Xodisa qanday va nima uchun borishini kuzatish gipotezaga olib keladi. Xech qanday istisnolarsiz bir necha marta takrorlangan holda, ular tabiat qonuni ko‘rinishida ifodalanishi mumkin.
  - Gipotezalar nazorat tajribalar bilan tekshiriladi va zarurat tug‘ilganda reviziya qilinadi.
  - Agar qayta takrorlanuvchi ma’lumotlar gipotezaning to‘g‘riligini ko‘rsatsa, u holda kuzatilayotgan hodisani tushuntirish uchun model (nazariya) rivojlantiriladi. Qarama-qarshi ma’lumotlar paydo bo‘lgan holda model qayta ko‘rib chiqilishi, aniqlashtirilishi yoki inkor etilishi mumkin.

### 1.3. Ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishda qo’llaniladigan o‘lchov birliklari.

Birinchi birlik sistemasi 1790 yil Fransiyada ishlab chiqilgan bo‘lib, u “metrik sistema” deb aalgan. 1960 yil Fransiyada ushbu sistema qayta ko‘rib chiqildi va uning asosida universal birlik sistemasi – **SI sistemasi** ishlab chiqildi.

#### SI sistemasining tavsifli belgilari

SI sistemasi ettita fundamental birliklarga asoslangan bo‘lib, ularning har biri qandaydir fizikaviy kattalikni tavsiflaydi (1.1 jadval). Boshqa barcha o‘lchov birliklari ularning hosilalari va kombinatsiyalari xisoblanadi. Masalan, tezlik birligi bo‘lgan metr/sekund (m/sek) asosiy uzunlik birligi – metrni vaqtning asosiy birligi – sekundga bo‘lishga asoslangan. Asosiy birliklardan katta yoki kichik bo‘lgan birliklar uchun prefikslar yoki eksponensial ifodalardan

foydalaniladi. SI sistemasidan foydalanish Angliya birlik sistemasidan foydalanishga nisbatan ancha yengilroq ekanligini ta'kidlash lozim.

### **SI sistemasining kimyoda qo'llaniladigan ayrim muxim birliklari**

Ushbu bo'limda uzunlik, hajm, massa, zichlik, temperatura va vaqt uchun belgilangan o'lchov birliklari muhokama qilinadi. 1.3 jadvalda uzunlik, hajm va massa uchun SI sistemasida o'lchov birliklari va ularning Angliya sistemasida qabul qilingan ekvivalent birliklari keltirilgan.

#### **1.1 jadval SI sistemasining asosiy birliklari**

Fizikaviy kattalik	O'lchov birligi	Qisqa belgisi
Massa	Kilogramm	Kg
Uzunlik	Metr	M
Vaqt	Sekund	Sek
Temperatura	Kelvin	K
Elektr toki	Amper	A
Modda miqdori	Mol	Mol
Lyuminessent jadallik	Kandela	Kd

**Uzunlik.** SI sistemasida uzunlikning asosiy birligi metr (m) xisoblanadi. Metrning aniq ta'rifi: vakuumda nuring 1/299792458 sek da o'tgan masofasi. Metr yarddan ozgina kattaroq ( $1\text{ m} = 1,094\text{ yard}$ ).  $1\text{ sm} = 10^{-2}\text{ m}$  va  $1\text{ sm} = 0,9937\text{ dyuym}$ ;  $1\text{ dyuym} = 2,54\text{ sm}$ . Biologik xujayralarning o'lchamlarini ko'pincha mikrometrarda o'lchanadi ( $1\text{ mkm} = 10^{-6}\text{ m}$ ). Atom shkalasida nanometr ( $10^{-9}$ ) va pikometr ( $10^{-12}$ ) birliklari qo'llaniladi. Ko'p oqsillarning diametri 2 nm atrofida, atomlarning diametri 200 pm yaqinida (0,2 nm). Angstrem kabi birlik ham o'shllaniladi ( $1\text{ A}^{\circ} = 10^{-10}\text{ m} = 0,1\text{ nm} = 100\text{ pm}$ ).

#### **1.2 jadval SI sistemasida foydalaniladigan umumiy o'nlik tuzatmalar**

Prefiks	Simvol	So'z bilan	Odat.ifoda	Eksp.ifoda
Tera	T	Trillion	$1,000,000,000,000$	$1 \cdot 10^{12}$
Giga	G	Milliard	$1,000,000,000$	$1 \cdot 10^9$
Mega	M	Million	$1,000,000$	$1 \cdot 10^6$
Kilo	k	Ming	1,000	$1 \cdot 10^3$
Hecto	h	YUz	100	$1 \cdot 10^2$
Deka	da	O'n	10	$1 \cdot 10^1$
-	-	Bir	1	$1 \cdot 10^0$
Deci	d	O'ndan bir	0,1	$1 \cdot 10^{-1}$
Centi	c	YUzdan bir	0,01	$1 \cdot 10^{-2}$
Milli	m	Mingdan bir	0,001	$1 \cdot 10^{-3}$
Micro	μ	Milliondan bir	0,000001	$1 \cdot 10^{-6}$
Nano	n	Milliarddan bir	0,000000001	$1 \cdot 10^{-9}$
Pico	p	Trilliondan bir	0,000000000001	$1 \cdot 10^{-12}$

#### **Muammo 1.5 (2). Mustaqil echish uchun.**

Kasalxonada ozuqa moddaning eritmasini mushaklar ichiga sekundiga 1,5 tomchi tezlikda kiritiladi. Agar tomchining og'irligi 6,5 mg bo'lsa, 8 soat ichida kasal qancha kg ushbu moddadan oladi? Harakat haritasini ko'rsating.

**Zichlik** - bu massaning hajmga nisbati: zichlik = massa/hajm; massa = hajm·zichlik; hajm = massa / zichlik. Temperatura ta'sirida hajmning o'zgarishi mumkinligi sababli, shunga mos ravishda zichlikning qiymati ham o'zgaradi. Lekin ma'lum sharoitlarda (temperatura va bosim) moddaning zichligi xarakteristik fizikaviy xossa bo'lib, doimiy qiymatga egadir. SI sistemasida zichlik  $\text{kg/m}^3$ , lekin kimyoda zichlikning qiymati  $\text{g/l}$  ( $\text{g/dm}^3$ ) yoki  $\text{g/ml}$  ( $\text{g/sm}^3$ ) larda ifodalanadi (1.4 jadval). Gazlarning zichligi suyuqlik va qattiq jismlarning zichligidan juda kichik bo'ladi.

**Hajm:** Har bir materiya hajm (V), u egallagan fazo miqdoriga ega. SI sistemasida hajmning o‘lchov birligi sifatida  $m^3$  qabul qilingan. Kimyoda litr (l) o‘lchov birligi ham qo‘llaniladi. Tibbiyotda detsimetr kub ( $dm^3$ ) dan foydalaniladi:  $1 l = 1 dm^3 = 10^{-3} m^3$ .

1 ml yoki 0,001 litr  $sm^3$  ga ekvivalent:  $1 ml = 1 sm^3 = 10^{-6} m^3$

Litr kvadratdan (kv) bir oz kattaroq:  $1 l = 1,057 kv$ ;  $1 kv = 946,6 ml$ .

1.5 rasmida moddalarning hajmlari yoki ularning eritmalari bilan ishlashga mo‘ljallangan laboratoriya o‘lchov shisha idishi keltirilgan. Kolba va pipetkalar belgi bilan ko‘rsatilgan aniq shifrlangan hajmga ega.



**1.5 rasm.** Laboratoriya o‘lchov shisha idishi. Chapdan o‘ngga quyidagilar joylashgan: ikkita graduirlangan silindrlar, pipetka (eksperimentator qo‘lida), kolbaga aniq miqdorlardagi suyuqlikni o‘lchab solish uchun byuretka, ikkita o‘lchov kolbalari.

### 1.3 jadval SI sistemasidagi kattaliklar birliklari bilan Angliyada qabul qilingan birliklarning o‘zaro mosligi

Katta-lik	SI sistemasi	Ekvivalent birliklar	Ingliz birliklari	SI bilan ingliz birliklar sistemasi orasidagi munosabat
Uzunlik	1 kilometr (km)	$1000 (10^3)$ metr	0,6214 mil	$1 \text{ mil} = 1,609 \text{ km}$
	1 metr (m)	$100 (10^2)$ santimetrr	1,094 yard	$1 \text{ yard} = 0.9144 \text{ m}$
		1000 millimetrr (mm)	39,37 dyuym	$1 \text{ fut} = 0,3048 \text{ m}$
	1 santimetrr (sm)	$0,10 (10^{-2})$ metrov	0,3937 dyuym	$1 \text{ dyuym} = 2,54 \text{ sm}$
Hajm	1 metr kub ( $m^3$ )	1,000,000 sm kub	35,31 fut kub	$1 \text{ fut kub} = 0.02832 \text{ m}^3$
	1 dm kub ( $dm^3$ )	1000 sm kub	0.2642 gallon	$1 \text{ gallon} = 3,785 \text{ dm}^3$
	1 sm kub ( $sm^3$ )	0,001 dm kub	0,03381 unsiya hajmlari	$1 \text{ unsiya hajmi} = 2957 \text{ sm}^3$
Massa	1 kilogramm (kg)	1000 gramm	2,205 funt	$1 \text{ funt} = 0,4536 \text{ kg}$
	1 gramm (gr)	1000 milligramm (mg)	0.03527 unsiya	$1 \text{ unsiya} = 28,35 \text{ g}$

### 1.4 jadval Ayrim moddalarning zichligi ( $20^\circ S$ va 1 atm).

Modda	Fizikaviy holati	Zichlik ( $g/cm^3$ )
Vodorod	Gaz	0,0000899
Kislород	Gaz	0,00133
Spirt	Suyuqlik	0,788
Suv	Suyuqlik	0,998

Osh tuzi	Qattiq modda	2,16
Alyuminiy	Qattiq modda	2,70
Qo'rg'oshin	Qattiq modda	11,30
Oltin	Qattiq modda	19,30

**Muammo 1.5 (1).** Litiy – yumshoq, kul rang, zichligi eng kichik bo‘lgan metall bo‘lib, batareykalarning asosiy komponentidir. Litiyning bir bo‘lakchasi  $1,49 \cdot 10^3$  mg va tomonlarning o‘lchamilari 20,9; 11,1 va 11,9 ga teng. Litiyning zichligini  $\text{g/sm}^3$  larda xisoblang.

**Echish:** 1) Litiyning massasi (g) =  $1,49 \cdot 10^3$  mg  $\cdot 10^{-3}$  g/1mg = 1,49 g.

2) uzunlikni mm dan sm ga o‘tkazamiz: (1) uzunlik 20,9 mm  $\cdot 1\text{sm}/10\text{mm} = 2,09$  sm.

(2) va (3) uzunliklar uchun mos ravishda 1,11 va 1,19.

3) litiyning hajmini xisoblaymiz:  $\text{Li} = 2,09 \cdot 1,11 \cdot 1,19 = 2,76 \text{ sm}^3$ .

4) litiyning zichligi = massa/hajm =  $1,49 \text{ g}/2,76 \text{ sm}^3 = 0,540 \text{ g/cm}^3$


**Muammo 1.6 (2). Mustaqil echish uchun.** Galenit bo‘lakchasining hajmi  $4,6 \text{ sm}^3$ . Agar galenitning zichligi  $7,5 \text{ g/sm}^3$  bo‘lsa, uning massasi qancha bo‘ladi (kg da)? Harakat haritasini tuzing.

**Temperatura.** Temperatura bilan issiqlik orasida aniq farq bor.

- **Temperatura** – bir ob’ekt ikkinchisiga nisbatan qanchalik issiqlik yoki sovuqligining o‘lchovi. Temperatura sistema zarrachalarining o‘rtacha kinetik energiyasi bilan belgilanadi.

- **Issiqlik** – energiyaning bir turi bo‘lib, u yuqoriroq temperaturaga ega bo‘lgan ob’ektdan temperaturasi kichikroq bo‘lgan ob’ektga uzatiladi. Issiqlik sistemadagi alohida zarrachaning kinetik energiyasi bilan belgilanadi. Agar siz muz bo‘lakchasini qo‘lingizda ushlab turgan bo‘lsangiz, sovuq muzdan qo‘lingizga o‘tayotgandek bo‘lib tuyuladi, aslida esa issiqlik sizning qo‘linizdan muz bo‘lakchasiga o‘tayotgan bo‘ladi.

Laboratoriyalarda temperaturani simobli termometrlarda o‘lchanadi. Simobning issiqlikdan kengayishi va kapillyar bo‘yicha tepaga ko‘tarilishi xisobiga temperatura o‘lchanadi. Agar ob’ektning temperaturasi simobning temperaturasidan past bo‘lsa, unda aksincha, simob ichki trubka bo‘ylab pastga tushadi va  $0^\circ\text{S}$  (Selsiy shkalasi) ga nisbatan manfiy qiymatni ko‘rsatadi. 3 ta temperatura shkalalari mayjud: Selsiy, Kelvin va Farengeyt shkalalari. AQSH da ob-havoni e’lon qilganda temperaturani Kelvinlarda ifodalaydilar. Kelvin shkalasi Selsiy shkalasi bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazayotganda qo‘llaniladi. 1.6 rasmida suvning qaynash va muzlash temperaturalari uchta temperatura shkalalarida ko‘rsatilgan: Selsiy shkalasi bo‘yicha suvning muzlash temperaturasi  $0^\circ\text{S}$ , qaynash temperaturasi esa  $100^\circ\text{S}$ ; Kelvin shkalasi bo‘yicha suvning muzlash temperaturasi  $+273,5 \text{ K}$ , qaynash temperaturasi  $+373,15 \text{ K}$ ; Farengeyt bo‘yicha suv  $+32 \text{ F}$  da muzlaydi va  $+212 \text{ F}$  da qaynaydi.



**1.6 rasm.** Selsiy, Kelvin (absolyut) va Farengeyt shkalalari bo'yicha suvning muzlash va qaynash temperaturalari

Selsiy va Kelvin shkalalari orasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$T_K = T_S + 273,15 \quad (1.2)$$

$$T_S = T_K - 273,15 \quad (1.3)$$

Farengeyt shkalasi bo'yicha suv 32 F da muzlaydi va 212 F da qaynaydi. Demak, 180 F (212-32) Selsiy bo'yicha  $100^{\circ}S$  (yoki Kelvin bo'yicha 100 K) ga mos keladi.  $100^{\circ}S$  Farengeyt bo'yicha 180 F bo'lGANI uchun:

$$1^{\circ}S = 180/100 F = 9/5 F$$

bundan

$$T_F = 9/5 T^{\circ}C + 32 \quad (1.4)$$

Farengeyt shkalasida ifodalangan temperaturadan Selsiy shkalasida ifodalangan temperaturaga o'tish uchun quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$T^{\circ}S = (T_F - 32) \cdot 5/9 \quad (1.5)$$

### 1.5 jadval Temperatura shkalalari

Shkala	Birlik	Koeffitsient	Suvning $T_m$	Suvning $T_q$	Abs.nolda
Kelvin	K	-	273,15 K	373,15 K	0 K
Selsiy	$^{\circ}S$	1	$^{\circ}S$	$10^{\circ}S$	-273,15 S
Farengeyt	F	5/9	32 F	212 F	-479,67 F

**Muammo 1.7 (1).** Bola tanasining temperaturasi  $38,7^{\circ}S$ . Ushbu temperaturani Farengeyt va Kelvin shkalalarida ifodalang.

$$\text{Echish: } T_F = 9/5 T^{\circ}C + 32 = 9/5(38,7) + 32 = 101,7 F$$

$$T_K = T^{\circ}C + 273,15 = 38,7 + 273,15 = 311,8 K$$

**Muammo 1.7 (2). Mustaqil echish uchun.** Simob 234 K da suyuqlanadi. Simobning suyuqlanish temperaturasini Selsiy va Farengeyt shkalalarida ifodalang.

**Vaqt.** SI sistemasida vaqt atom standarti asosida sekundlarda (sek) ifodalanadi.

### Ekstensiv va intensiv xossalalar.

Ayrim o'zgaruvchilar moddaning miqdoridan bog'liq: ularni ekstensiv xossalalar deb atash qabul qilingan. Boshqa tarafdan, intensiv xossalalar moddaning miqdoridan bog'liq emas. Masalan, massa va hajm ekstensiv xossalarga ega, zichlik esa intensiv xossadir. Masalan, suv galonining massasi suv kvartasining massasidan 4 marta ko'p, lekin ularning hajmlari orasida ham xuddi shunday munosabat mavjud. Zichlik modda massasini uning hajmiga nisbati ekanligini nazarda tutsak, u ikkala sistema uchun ham bir xil bo'ladi, ya'ni zichlik intensiv

xossaga ega. Boshqa misol issiqlikga tegishli bo‘lib, u ekstensiv xossaga ega. Temperatura esa, intensivlik faktoridir. Masalan, katta samovarda qaynayotgan suv choynakda qaynayotgan suvgaga nisbatan ko‘proq issiqlikga ega, lekin ikkala sistemaning temperaturasi bir xil bo‘ladi.

#### **1.4 bo‘lim bo‘yicha xulosalar.**

- SI sistemasi qator asosiy birliklar va ularning xosilalariga ega.
- Uzunlikning birligi metr (m), shuningdek nanometr (nm) va pikometr (pm) kabi birliklar ham ishlataladi.
- Hajmning asosiy birliklari metrning kubi ( $m^3$ ) yoki litr (l).
- Massaning birligi kilogramm (kg). Hajmning massasi gravitatsion maydonning miqdorida bog‘liq.
- Zichlik moddalarning tavsifiy fizikaviy xossasi bo‘lib, modda massasini uning hajmiga nisbatini ko‘rsatadi.
- Temperatura bir necha shkalalarga ega va  $^{\circ}\text{S}$ , K, F larda ifodalanadi.
- Issiqlik – temperaturasi yuqoriqoq jismidan temperaturasi pastroq jismga o‘ta oladigan energiyadir.
- Massa, hajm va energiya kabi ekstensiv xossalar modda miqdoriga bog‘liq, zichlik va temperatura kabi intensiv xossalar esa moddaning miqdoriga bog‘liq emas.

#### **1.5 bo‘lim bo‘yicha xulosalar**

#### **O‘rganilgan ob’ektlar**

<p>1.Fizikaviy va kimyoviy xossalar orasidagi farq (§1.1).</p> <p>2.Materiya holatlarining tavsiflarini aniqlash (§1.1).</p> <p>3.Potensial va kinetik energiyalar va ularning o‘zaro o‘tishlari haqida tushuncha (§1.1).</p> <p>4.U yoki bu xodisani va uning bosqichlarini (kuzatish, gipoteza, tajriba va model) o‘rganishda ilmiy yondoshuv haqida tasavvur (§1.2).</p> <p>5.Xisoblarda o‘tish koeffitsientlaridan foydalanish (§1.3).</p>	<p>6.Massa va og‘irlik, issiqlik va temperatura, intensiv va ekstensiv xossalar orasidagi farq (§1.4).</p> <p>7.Uzunlik, massa, hajm va temperaturalarni ifodalash uchun xisoblarda qo‘llaniladigan umum qabul qilingan birliklarning nomlari (§1.4).</p> <p>8.Ahamiyatlari raqamlarning miqdorini aniqlash (§1.5).</p> <p>9.Tartiblilik va aniqlik hamda sistematik va tasodifiy xatolar orasidagi farq (§1.5).</p>
--	--

#### **Kalitli so‘zlar**

<b>1.1 bo‘lim.</b>	<b>1.2 bo‘lim.</b>	<b>1.3 bo‘lim.</b>	<b>1.4 bo‘lim.</b>
<p>Kimyo (3), materiya (3), tarkib(3), xossa(3), fizikaviy xossa materianing holati (5), qattiq holat (5), suyuq holat (5), gazsimon</p>	<p>Ilmiy usul (9), kuzatish (9), tajriba (9), qonun (9), gipoteza (9), o‘zgaruvchi (9), nazorat tajribasi (9), model (9).</p>	<p>O‘tish koeffitsienti (10).</p>	<p>SI birliklari (14), asosiy birliklar (14), metr (14), hajm (14), metr kub (15), litr (15), millilitr (15), massa (16), kilogramm (16), og‘irlik (16), zichlik (17), temperatura (18), issiqlik (18), termometr (18), Kelvin (18), Selsiy shkalasi (18), Kelvin shkalasi (18), sekund (20), ekstensiv xossalar (20), intensiv xossalar (24), kalibrovka (25).</p>

#### **Asosiy tenglamalar va munosabatlar.**

**1.1.** Massa va hajm orqali zichlikni xisoblash (17):

$$\text{zichlik} = \text{massa} / \text{hajm}$$

**1.2.**  $^{\circ}\text{S}$  dan K ga o‘tish (19):

$$T \text{ K} = T^{\circ}\text{S} + 273,15$$

**1.3.** K dan  $^{\circ}\text{S}$  ga o‘tish (19):

$$T^{\circ}\text{S} = T \text{ K} - 273,15$$

**1.4.**  $^{\circ}\text{S}$  dan F ga o‘tish (19):

$$T \text{ F} = 9/5 T^{\circ}\text{S} + 32$$

**1.5.** F dan  $^{\circ}\text{S}$  ga o‘tish:

$$ToS = (T F - 32) - 5/9$$

### Yuqorida keltirilgan masalalarga qisqa javoblar.

**1.1.** Kimyoviy o'zgarish

**1.2.** a) fizikaviy o'zgarish. Qattiq gazsimonga o'tadi.

b) kimyoviy o'zgarish. Gazolin turli moddalar xosil qilib yonadi.

c) kimyoviy o'zgarish. Havo bilan ta'sirlashib boshlang'ich moddalar oqibatda boshqa moddalarga aylanadi.

**1.4.** Ribosoma radiusi (dm) =  $21,4 \text{ nm} / 2 \cdot 1 \text{ dm} / 10^8 \text{ nm} = 1,07 \cdot 10^{-7} \text{ dm}$ .

Ribosoma hajmi ( $\text{dm}^3$ ) =  $4/3\pi r^3 = 4/3(3,14)(1,07 \cdot 10^{-7} \text{ dm})^3 = 5,13 \cdot 10^{-21} \text{ dm}^3$

Ribosoma hajmi (ml) =  $5,13 \cdot 10^{-21} \text{ dm}^3 \cdot 1/1 \text{ dm}^3 \cdot 10 \text{ ml}/11 = 5,13 \cdot 10^{-15} \text{ ml}$ .

**1.5.** Eritma massasi (kg) =  $8 \text{ soat} \cdot 10 \text{ min}/1 \text{ soat} \cdot 60 \text{ sek} / 1 \text{ min} \cdot 1,5 \text{ g} / 1 = 2,8 \text{ kg}$ .

**1.6.** Namuna massasi (kg) =  $4,6 \text{ sm}^3 \cdot 7,5 \text{ g} / 1 \text{ sm}^3 = 0,034 \text{ kg}$

**1.7.**  $T^\circ S = 234 \text{ K} - 273,15 = -39^\circ S$ ;  $T F = 9/5(-39 \text{ C}) + 32 = -38 \text{ F}$

**1.8.** a) 31,070 mg    b) 0,0606 g    v) 850 S    g)  $200 \cdot 10^2 \text{ ml}$ .

**1.9.**  $27,65 \text{ ml} + 37,4 \text{ ml} / 73,53 (1 \text{ min} / 60 \text{ sek}) = 5,4 \text{ ml/min}$ .


### 1.5ning harakat xaritasi

vaqt (soat)	V ( $\text{cm}^3$ )
1 soat = 60 minzichlikka ko'paytiriladi	
vaqt (min)	massa (g)
1 min = 60 sek 1 kg / $10^3 \text{ g}$	
vaqt (s)	massa(kg)
1 s = 1,5 tomchi	
tomchidagi moddaning №	
1 tomchi = 65 mg	
eritmaning massasi (mg)	
$10^3 \text{ mg} = 1 \text{ g}$	
eritmaning massasi (g)	
$10^3 \text{ g} = 1 \text{ kg}$	
eritmaning massasi (kg)	

### Muammo.

#### Ayrim fundamental xolatlardan.

**1.1.** A –D rasmlarda moddalarning atom darajasidagi turli holatlari keltirilgan.



A) Neytral sharoitlarda a va b moddalar aralashtirilmoqda va buning natijasi g rasmida keltirilgan. Fizikaviy yoki kimyoviy o'zgarish bo'lmoqdamni?

B) Ikkinchchi sharoitlarda xuddi shu moddalar aralashtirilmoqda va natija b rasmida keltirilgan. Fizikaviy yoki kimyoviy o'zgarish bo'lmoqdamni?

**1.2.** Quyida keltirilgan sistemalarning (xona temperaturasidagi) fizikaviy holatini aniqlang:

balondagi geliy; termometrdagi simob;

**1.3.** Quyidagi jarayonlarda qanday o'zgarishlar borayotganini aniqlang:

A) gaz holatidagi xlor natriy bilan ta'sirlashib natriy xlorid cho'kmasini xosil qiladi;

B) temir va rux zarrachalaridan iborat aralashma bilan magniy ta'sirlashmoqda;

**1.4.** Quyidagi sistemalarda kimyoviy yoki fizikaviy o'zgarishlar borayotganini aniqlang:

A)  $\text{MgCl}_2$  suyuqlanmasidan elektr toki o'tkazilganda Mg suyuqlanmasi va gazsimon xlor xosil bo'ladi;

B) temir parchasi kukungacha maydalangan.

**1.5.** Quyida keltirilgan o'zgarishlarning qaysilari kimyoviy?

A) sho'rvani qaynatish;

B) non burdasini qovurish;

V) daraxt to'nkasini kesish;

G) daraxt to'nkasining yonishi.

<p>C) Uchinchi sharoitlarda sistemasi d holatga o'tmoqda. Fizikaviy yoki kimyoviy o'zgarish bo'lmoqdamni</p>	<p><b>1.6.</b> Sistemaning qaysi komponenti kattaroq potensial energiyaga ega?</p> <p><b>1.7.</b> A) benzobakdag'i yonilg'i yoki yonish mahsulotlaridan iborat chiqarilayotgan gazlar;</p> <p>B) olovdag'i daraxt yoki yongandan keyingi kul;</p> <p><b>1.8.</b> Qanday holatda sistemada kinetik energiya ko'proq ekanligini ko'rsating.</p> <p>A) tepalikda turgan china yoki tepalikdan tushayotgan china;</p> <p>B) to'g'onda to'silgan suv yoki to'g'ondan tushayotgan suv.</p>
--	--

**Adabiyotlar:** M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 2-18 betlar


## 2. KIMYONING ASOSIY QONUNLARI

**Reja:**

1. Moddalar massasining saqlanish qonuni.
2. Tarkibning doimiylik qonuni
3. Gey - Lyussakning hajmiy nisbatlar qonuni.
4. Avogadro qonuni
5. Ekvivalentlar qonuni

Atom-molekular ta'lilot nuqtai nazaridan kimyoning asosiy qonunlariga moddalar massasining saqlanish qonuni, tarkibining doimiylik qonuni, karrali nisbatlar qonuni, hajmiy nisbatlari qonuni, ekvivalentlar qonuni, Avogadro qonuni va energiyaning saqlanish qonuni kiradi.

**Moddalar massasining saqlanish qonuni.** Bu qonun dastlab M.V.Lomonosov (1748) keyinchalik A.Lavuazye (1788) tomonidan ta'riflangan. *Reaksiyaga kirishayotgan moddalar massasining yig'indisi reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalar massasining yig'indisiga teng.*



Bu qonun barcha kimyoviy hisoblashlarda qo'llaniladi.

**Tarkibning doimiylik qonuni** birinchi marta 1781 - yilda Lavuazye tomonidan kashf etilgan. U karbonat angidrid gazini 10 xil usul bilan hosil qildi va gaz tarkibida uglerod bilan kislorod orasidan massalari nisbiy 3:8 ekanligini aniqladi. 1803 yili Fransuz Bertole o'zining ba'zi bir tajribalariga asoslanib, bu qonunga qarshi chiqdi. U ikki elementdan tarkibi o'zgarib boruvchi bir necha birikma hosil bo'ladi, ya'ni tarkib uzlusiz o'zgaradi, degan fikrga keldi. Shu vakillardan Prust Bertolening yuqoridagi xulosasiga qarshi chiqib, o'zining qator analizlari bilan toza birikmalarning miqdoriy tarkibi bir xil bo'lishini isbotladi.

Qonuning ta'rifi. *Har qanday kimyoviy toza modda qayerda bo'lishidan va qanday usulda olinishidan qat'iy nazar doimo bir xil sifat va miqdor tarkibiga ega bo'ladi.*


Bu qonunning ma'nosini quyidagi misol bilan tushuntirsa bo'ladi.

Osh tuzi - NaCl moddasini quyidagi reaksiyalar bo'yicha hosil qilish mumkin.

1)  $2\text{Na} + \text{Cl}_2 = 2\text{NaCl}$  2)  $\text{NaOH} + \text{HCl} = \text{NaCl} + \text{H}_2\text{O}$  3)  $\text{BaCl}_2 + \text{Na}_2\text{SO}_4 = 2\text{NaCl} + \text{BaSO}_4$   
Tenglamalardan ko'rinish turibdiki, uchchala reaksiya (uchta usul) bilan hosil qilingan NaCl moddasi tarkibida 1atom Na ga 1atom Cl to'g'ri keladi. Bu modda qayerdasoqlanmasin (laboratoriya, idishda va hokazo), uning tarkibi NaCl ligicha qolaveradi. yoki CaO ni hosil qilish reaksiyalarida ko'riash mumkin.



**Gey - Lyussakning hajmiy nisbatlar qonuni.** Fransuz olimi Gey Lyussak 1808 - yilda o'zining qator tajribalariga asoslanib, o'zining hajmiy nisbatlar qonunini ta'rifladi: *kimyoiy reaksiyalarga kirishuvchi gazlarning hajmlari o'zaro va reaksiya natijasida hosil bo'lgan gazlarning hajmlari bilan oddiy butun sonlar nisbati kabi nisbatida bo'ladi*. Masalan:



$$1 : 1 : 2$$

Bir hajm vodorod bir hajm xlor bilan reaksiyaga kirishib, ikki hajm HCl hosil qiladi.




$$1 : 2 : 2$$

Bir hajm O bilan ikki hajm H reaksiyaga kirishib, ikki hajm suv bug'i hosil qiladi.

### 1. Principles of General Chemistry. Silberberg M. 1 BOB, 1. bo'lim, 2-8 bet

Demak, kislород bilan vodorod hajmlari nisbati 1:2, H hajmining suv bug'i hajmiga nisbati 2:2 O hajmining suv bug'i hajmiga nisbati 1:2 gidrid, ya'ni ular hajmining nisbati o'zaro butun sonlar nisbati kabitidir. Is gazi (CO) ning yonish reaksiyasi tenglamasida,



$$2 : 1 : 2$$

reaksiyaga ikki hajm uglerod (II) – oksidi bir hajm kislородни biriktirganda ikki hajm uglerod (IV) – oksidi hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Bunda gazlarning hajmiy nisbatlari 2 : 1 : 2 bo'ladi.

Demak, gazlar hajmlarining kichik butun sonlar nisbatida bo'lishi har ikki gaz moddalari molekulasidagi atomlarning nisbatlaridan kelib chiqadi.

### Avogadro qonuni

Kimyoiy reaksiyalar gazsimon moddalar ishtirokida ham boradi. Gazsimon moddalar ishtirokida boradigan reaksiyalardagi miqdoriy nisbatlarni 1811 yilda Italian olimi A. Avogadro o'rganib, quyidagi qonunni yaratdi.

**Bir xil sharoit (bir xil bosim va bir xil haroratda)da teng hajmda olingan gazlardagi molekulalar (atomlar) soni teng bo'ladi.** Avogadro qonunidan ikkita xulosa kelib chiqadi.

a) Normal sharoit ( $T=273 \text{ K}$ ,  $P=101,325 \text{ kPa}$ ) da har qanday gazsimon moddaning «1 mol» miqdori 22,4 litr hajmni egallaydi va bunga gazlarning molar hajmi deyiladi.  $V$  molar =  $V_0=22.4 \text{ l/mol}$  hajmda belgilanadi. Bu xulosaga ko'ra 1 mol  $\text{N}_2$  gazi normal sharoitda 22,4 l, 0,1 moli 2,24 l hajmni egallaydi.

b) Gazsimon moddaning hajmi va miqdori uning tarkibidagi zarracha (molekula, atom) lar soniga bevosita bog'liqdir.

Shunga ko'ra, ikkinchi xulosa kelib chiqadi: Har qanday moddaning «1 mol» miqdori tarkibida  $6,02 \cdot 10^{23}$  ta zarracha (molekula, atom) bo'ladi. Bu son  $N=6.02 \cdot 10^{23}$  Avogadro soni deyiladi.

Demak, 1 mol  $\text{H}_2$  tarkibida  $6,02 \cdot 10^{23}$  ta vodorod molekulasi bo'lib,  $22,4 \text{ l}$  xajimni egallaydi. 10 mol  $\text{H}_2$  da  $6,02 \cdot 10^{24}$  ta molekula bo'lib,  $224 \text{ l}$  hajm egallaydi. 0,5 mol  $\text{O}_2$  gazi  $16 \text{ g}$  bo'lib,  $3,0 \cdot 10^{23}$  ta molekula bor, ular  $11,2 \text{ l}$  hajmni egallaydi.  $2,24 \text{ l}$   $\text{Cl}_2$  gazida  $6,02 \cdot 10^{22}$  ta molekula bo'lib, uning miqdori 0,1 mol va massasi  $7,1 \text{ g}$  bo'ladi.

Avogadro fikricha gaz holatidagi oddiy moddalarning vodorod, kislород, azot, xlor va boshqalarning mayda zarrachalari molekulalar bo'lib, ular ikki atomdan tuzilgan  $\text{H}_2, \text{O}_2, \text{Cl}_2, \text{N}_2$  va boshqalar ( $\text{F}_2, \text{Br}_2, \text{J}_2$ )

Avogadro qonuni asosida hajmiy nisbatlar qonuni juda qulay isbotlanadi. M:  $\text{O}_2$  va  $\text{N}_2$  ning har qaysi molekulasi ikki atomdan iborat  $\text{H}_2$  ning ikki molekulasi,  $\text{O}_2$  ning butta molekulasi bilan reaksiyaga kirishadi.  $\text{O}_2$  ning bir atomi  $\text{H}_2$  ning, ikki atomi bilan birikib, bir molekula suv hosil qiladi.  $\text{O}_2$  ning ikkinchi atomi qolgan  $\text{H}_2$  molekulasi bilan birikib, yana bir molekula suv hosil qiladi: Ya'ni



Kislородning vodorodga nisbatan zichligi  $D(\text{H}_2) = 16$ , kislород gazining 1 litri vodorod gazining 1litriga nisbatan 16 marta og'ir bo'ladi. Gazlarning nisbiy zichligi ko'pincha vodorodga  $D(\text{H}_2)$ , havoga ( $D_{\text{havo}}$ ) yoki boshqa biron bir gazga nisbatan hisoblanadi. Gazlarning nisbiy zichligidan foydalanib, ularning molekular massasi hisoblanadi. Masalan: tarkibi uglerod va

vodoroddan iborat gazsimon moddaning vodorodga nisbatan zichligi 1,03448 bo'lsa, shu gazning molar va bitta molekulasini massasining hisoblang.

$$D(H_2) = \frac{M}{M(H_2)} M_{gaz} = D_{H_2} \cdot M_{(H_2)} = D_{H_2} \cdot 2 = 15 \cdot 2 = 30 \text{ g/mol}$$

$M_{havo} = 29 \text{ g/mol}$  qabul qilinadi:

$$D_{(havo)} = \frac{M(gaz)}{M(H_2)}$$

$$M_{gaz} = D_{havo} \cdot M_{havo} = 1,03448 \cdot 29 = 30 \text{ g/mol}$$

Avogardo soniga asosan:

$$6,02 \cdot 10^{23} \text{ ta molekula} - 30 \text{ g bo'lsa}$$

1 ta molekula - m g bo'ladi

$$m = \frac{1 \cdot 30}{6,02 \cdot 10^{23}} = 5 \cdot 10^{-23} \text{ g}$$

Mendeleyev – Klayperon tenglamasi-bu usul tajriba sharoitida gazlarni molekulyar massalarini aniqlashda ishlataladi.

Har qanday sharoitda "1 mol" gaz uchun:  $PV = nRT$ , bunda

$n = m/M$  bo'lib, qiymatlarni o'rniga quysak:

$$PV = \frac{mRT}{M}$$

Bunda gazsimon moddaning molekular og'irligi:

$$M = \frac{mRT}{PV} \text{ kelib chiqadi.}$$

$R$  – universal gaz doimiysi 8,314 j/mol · grad.

### Ekvivalentlar qonuni


Tarkibning doimiylig qonunidan ma'lumki, har qanday kimyoviy birikmalarning tarkibiga kiruvchi elementlar o'zaro aniq va doimiy og'irlilik nisbatlarida bo'ladi. Bu nisbatlar shu elementlarning ekvivalentlariga muvofiq keladi. Shunga ko'ra moddalarning kimyoviy jihatdan teng kuchli miqdoriy nisbatlarini ifodalash uchun ekvivalent tushunchasi kiritilgan.

Moddalarning ekvivalentini ifodalashda nisbiy ekvivalent birlik sifatida 1 mol H-atomi og'irligi (1g) yoki 1 mol O-atomi og'irligining yarmi (8 g) qabul qilingan.

Moddaning ekvivalenti deb, uning 1g (og'irlilik qism) vodorod yoki 8 g (o.q.) kislород bilan birikadigan (yoki o'rnini oladigan) og'irlilik miqdoriga aytildi. Ekvivalent "gr/mol" birlikda o'lchanadi.

Ekvivalent so'zi teng qiymatli demakdir. Masalan: suvda bir og'irlilik qism vodorodga sakkiz og'irlilik qism kislород to'g'ri keladi. Xuddi shuningdek bir og'irlilik qism vodorodga 35,5 og'irlilik qism Cl to'g'ri keladi. Demak vodorod kislород va xlorning ekvivalentlari 1:8:35,5 ga tengdir.

Elementning bir massa qism vodorod yoki sakkiz massa qism kislород bilan birika oladigan miqdori uning ekvivalenti massasi deb ataladi. Masalan:



**Elementlar bir - biri bilan o'zlarining ekvivalentlariga proporsional miqdorda birikadi va almashinadi.**

Ekvivalent odatda «E» harfi bilan belgilanadi. Elementning atom massasini valentligiga bo'lish bilan ham shu elementning ekvivalentini hisoblab topish mumkin:

$$E = A/V; \quad E_H = 1/1 = 1 \text{ gr/mol} \quad E_O = 16/2 = 8 \text{ gr/mol.}$$

$$E_{\text{Al}} = 27/3 = 9 \text{ gr/mol}; \quad E_{\text{Ca}} = 40/2 = 20 \text{ gr/mol.}$$

Agar element o'zgaruvchan valentlikka ega bo'lsa,  $\text{FeCl}_2$  va  $\text{FeCl}_3$  larda temirning ekvivalentligi mos ravishda  $E_{\text{Fe}} = 56/2 = 28 \text{ gr/mol}$  va  $E_{\text{Fe}} = 56/3 = 18,66 \text{ gr/mol}$  bo'ladi.

Murakkab moddalarning ekvivalentini quyidagicha hisoblash mumkin:

Oksidlarning ekvivalentini oksidlarning molyar massasini elementning valentligini soniga ko`paytmasiga bo`lish kerak. Oksidlarning ekvivalenti

$$E_{\text{oksid}} = \frac{M(\text{oksid})}{V_n}$$

$$E(\text{Na}_2\text{O}) = \frac{62}{2} = 31 \text{ g/mol}$$

$$E(\text{Al}_2\text{O}_3) = \frac{102}{2*3} = 17 \text{ g/mol}$$

Kislota ekvivalentini hisoblash uchun uning molekulyar massasini kislotaning negizligiga bo`lish kerak.

$$M: E(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{98}{2} = 49 \text{ g/mol}$$

$$E(\text{HCl}) = \frac{36,5}{1} = 36,5 \text{ g/mol}$$

- 1) Asos ekvivalentini topish uchun uning molekular massasini shu asos tarkibidagi metallning valentligiga bo`lish kerak.

$$M: E(\text{Ca}(\text{OH})_2) = \frac{74}{2} = 37 \text{ g/mol}$$

$$E(\text{Al}(\text{OH})_3) = \frac{78}{3} = 26 \text{ g/mol}$$

- 2) Tuz ekvivalentini topish uchun uning molekular massasini tuz tarkibidagi asos yoki kislota qoldigining umumiy valentligiga bo`lish kerak.

3)

$$M: E(\text{AlCl}_3) = \frac{133,5}{1*3} = 44,5 \text{ g/mol}$$

$$E(\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3) = \frac{400}{2*3} = 66,66 \text{ g/mol}$$

Agar metallarning og`irligini  $m_{\text{Me}}$ , vodorodning og`irligini  $m(\text{H}_2)$  va metallning ekvivalent massasini  $E_{\text{Me}}$ , vodorodning ekvivalent massasini  $E$   $m(\text{H}_2)$  bilan belgilasak, u holda:

$$\frac{m_{\text{Me}}}{E_{\text{Me}}} = \frac{m(\text{H}_2)}{E(\text{H}_2)}$$

bo`ladi.

Vodorodning miqdori odatda hajm birliklarida o`lchangani uchun  $\frac{m\text{H}_2}{E(\text{H}_2)}$  nisbatni unga teng

qiymatli  $\frac{V(\text{H}_2)}{EV(\text{H}_2)}$  nisbat bilan almashtirish mumkin, bu erda  $V(\text{H}_2)$  – normal sharoitda siqib chiqarilgan vodorodning hajmi (ml),  $E_{\text{V(H}_2)}$  vodorodning n.sh. dagi 11200 ml. gat eng ekvivalent hajmi. Bundan:

$$\frac{m_{\text{Me}}}{E_{\text{Me}}} = \frac{V(\text{H}_2)}{EV(\text{H}_2)}$$

$$E_{\text{Me}} = \frac{m_{\text{Me}} * E_{\text{V(H}_2)}}{V(\text{H}_2)} \text{ bo`ladi.}$$

## 2.7. Amaliy mashg'ulot


**1-masala.** Massasi 5,0g. bo`lgan metal kislorod bilan birikib, 9,44g. oksidni hosil qildi. Shu metallning ekvivalent molyar massasini aniqlang.

**Berilgan :Yechish:**

$$m_{\text{Me}} = 5,0 \text{ g.}$$


$$m_{\text{Me}_x\text{O}_y} = 9,44 \text{ g.}$$

$$\varnothing_{\text{Me}} - ?$$



$$m_{\text{O}_2} = m_{\text{Me}_x\text{O}_y} - m_{\text{Me}} = 9,44 - 5,0 = 4,44 \text{ g.}$$

$$A = \varnothing \cdot V = 9 \cdot 3 = 27 \text{ mol [Al]}$$



**2-masala.** Agar 2,69 g metall xloriddan 1,95 g metall gidroksid olingan bo'lsa metallning ekvivalent massasi va nomini aniqlang?

Ekvivalentlar qonunidan foydalanib  $\text{Cl}^-$  va  $\text{OH}^-$  larning ekvivalent massalarini topamiz.

$$\text{Ek}(\text{Cl}^-) = \text{Mr}/v = 35,5/1 = 35,5 \text{ g/ekv} \quad \text{Ek}(\text{OH}^-) = \text{Mr}/v = 17/1 = 17 \text{ g/ekv}$$

$$2,69 \text{ g} \quad 1,95 \text{ g}$$

$$\text{MeCl}_x = \text{Me}(\text{OH})_x$$

$$x+35,5 \quad x+17$$

proporsiya tuzib bir noma'lumli tenglamadan x ni topamiz.

$$2,69 \cdot (x + 17) = 1,95 \cdot (x + 35,5); \quad 2,69x + 45,73 = 1,95x + 69,225$$

$$2,69x - 1,95x = 69,225 - 45,73; \quad 0,74x = 23,495; \quad x = 31,75 \text{ g/ekv Me}$$

$$\text{Ar(Me)} = \text{Ek(Me)} \cdot v(\text{Me}) = 31,75 \cdot 2 = 63,5 \text{ g/mol Cu}$$


**3-masala.** 1,8 g metall oksidini qaytarish uchun 840 ml vodorod sarf bo'ldi. Metall va uning oksidi ekvivalentini aniqlang?

840 ml vodorodning massasini aniqlaymiz.

$$22400 \text{ ml H}_2 \cdots \cdots \cdots 2 \text{ g keladi}$$

$$840 \text{ ml H}_2 \cdots \cdots \cdots x \text{ g keladi} \quad x = 0,075 \text{ g H}_2$$

$$1,8 \text{ g} \quad 0,075 \text{ g}$$



$$x + 8 \text{ g/ekv} \quad 1 \text{ g/ekv}$$

$$1,8 \cdot 1 = 0,075 \cdot (x + 8); \quad 1,8 = 0,075x + 0,6; \quad 1,8 - 0,6 = 0,075x; \quad 1,2 = 0,075x; \quad x = 16 \text{ g/ekv}$$

$$\text{Ekv} (\text{Me}_x\text{O}_y) = x + 8 = 16 + 8 = 24 \text{ g/ekv}$$

### 1.3. Laboratoriya ishi

#### Metall ekvivalentining molyar massasini aniqlash

##### Ishning maqsadi:

- Ostvald probirkasida suyultirilgan kislotadan metall ta'sirida vodorod ajratish.
- Ajralgan vodorod gazning tajriba sharoitidagi hajmini tutash idishlar yordamidaaniqlash.
- Shu gaz hajmini gaz holat tenglamasi yordamida normal sharoitga keltirishda nomogrammadan foydalanishni o'rganish.
- Vodorodning parsial bosimini hisoblashda jadvaldan foydalanish.
- Tajriba yakunida metall ekvivalentining molar massasini hisoblash.

Bu ishni bajarish uchun quyidagi tushunchalarni bilish va o'zlashtirish talab qilinadi: nisbiy va molekular massa, element valentligi, modda miqdori /mol/, moddaning molar massasi, ekvivalent, ekvivalentlar qonuni, Avogadro soni, gazlarning holat tenglamasi, «mol» tushunchasi va ulardan foydalanib, tegishli formulalar yordamida berilgan metall ekvivalentining molar massasini hisoblash.

##### Tajriba: Metall ekvivalentining molar massasini hisoblash


Tajriba berilgan metallning miqdorini 10% li xlorid kislotasidan ajralib chiqaradigan vodorod hajmini tutash idish yordamida o'lchashgaasoslangan. Ishlatiladigan asbob Ostvald probirkasi (1), byuretka (2) va tenglashtiruvchi shisha naydan (3) iborat. Ostvald probirkasi rangli suv to'ldirilgan byuretka (u darajalarga bo'lingan) bilan rezinali nay va probkaorqali ulangan.

**Tajriba o'tkazish uchun quyidagilarni bajaring:**

Ostvald probirkasining bir tomoniga taxminan 10 ml suyultirilgan xlorid kislotadan quying, ikkinchi tomoniga esa filtr qog'oziga o'ralgan 0,05 g metall naveskasini extiyotkorlik bilan soling.

2. Asbobning germetikligini (tig'izligini) tekshiring. Buning uchun tenglashtiruvchi va o'lchov byuretkalaridagi suv sathlarini barobarlashtiring, so'ngra tenglashtiruvchi naydagi suv sathini 4-5 ml ga pasaytiring. Agar o'lchov byuretkasidagi suv sathi o'zgarishi kuzatilmasa, asbob germetik deb hisoblanadi (agar suv sathi o'zgarmasa, birlashtiruvchi probkalarni zinch qilib berkitish kerak).

3. Asbobning germetikligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin, byuretka va tenglashtiruvchi va o'lchov byuretkadagi suv sathini belgilab ( $V_{bosh}$ ), hisobot varag'iga yozing. Byuretkadagi suv sathini pastki menisk orqali o'lchang. Tutash idish ichidagi havo bosimi tashqi (atmosfera) bosimiga ( $P_{atm}$ ) teng bo'lishi fizika kursidan ma'lum. Atmosfera bosimini ( $P_{atm}$ ) barometr yordamida aniqlang.



**1.1-Rasm.**Ajralgan gazning hajmini tutash idishlar

### Tajribani bajarish tartibi:

1. Ostvald probirkasini qiyalatib, kislotani metall solingen tomonga quying va chayqating. Bu vaqtdaajralib chiqadigan vodorod tenglashtiruvchi naydagi suv sathini ko'taradi.
2. Vodorod ajralayotgan vaqtida byuretkalardagi suv sathlarini tenglashtirib turish shart, chunki hosil bo'ladigan bosim ostida vodorod gazining bir qismi atmosferaga chiqib ketishi mumkin. Bu esa noto'g'ri natijagaolib keladi.
3. Reaksiya tugagandan so'ng Ostvald probirkasidagi eritma haroratini xona haroratiga keltirish zarur.
4. Harorat pasaygandan so'ng, sathlarni tenglashtirib, o'lchov byuretkadagi suv sathini aniqlang ( $V_{oxir}$ ) va hisobot varag'iga yozing.

### Tajriba natijalarini hisoblash:

1. Ajralgan vodorod hajmi  $V_t(H_2)$ :  $V_t(H_2) = (V_{oxir}) - (V_{bosh})$  (ml)
2. Tajriba vaqtidagi xona harorati:  $t^0C = TK =$
3. S dug'i to'yungan suv bug'ining bosimi  $P(H_2O)$  mm.s.u.  
(ma'lumotnomaga asosida)  $P(H_2O) =$
4. Tajriba sharoitidagi vodorodning parsial bosimi:  $P(H_2) = P(atm) - P(H_2O)$  (mm.s.u.)
5. Vodorodning normal sharoitga keltirilgan hajmi gazning holat tenglamasi yordamida topiladi:

$$\frac{P_0 V_0}{T_0} = \frac{P_{(H_2)} * V_{t(H_2)}}{P_0 T} \rightarrow V_0 = \frac{P_{(H_2)} * T_0}{P_0 T} V_{t(H_2)}$$

Bu yerdagi  $\frac{P_{(H_2)} \cdot V_{t(H_2)}}{PT}$  nisbatini K deb belgilab, uning qiymatini nomogramma

yordamidaaniqlash mumkin. Bunda «K»  $V_{t(H_2)}$  dan  $V_0$  ga o'tish koeffitsenti vazifasini bajaradi,

$$ya`ni V_{0(H_2)} = KV_{t(H_2)}$$

6. Vodorodning massasi (Avogadro qonuni xulosasigaasosan):

$$M_{(H_2)} \text{ g/mol} \cdot V_m / 22,4 \text{ l/mol} = 22400 \text{ ml/mol}$$

$$m_{(H_2)} \text{ g} - V_{0(H_2)} \text{ ml} \quad m_{(n_2)} = \frac{V_{o(H_2)}}{V_m} \cdot M_{(H_2)}$$

7. Metallning ekvivalent massasi (ekvivalent qonuni asosida):

a) vodorod massasi bo'yicha      b) vodorodning hajmiy ekvivalenti bo'yicha

$$\frac{m_{(M_e)}}{m_{(H_2)}} = \frac{M_{(E)}}{M_{e(H_2)}} \quad \frac{m_{(M_2)}}{V_{0(H_2)}} = \frac{M_{e(Me)}}{V_{e(H)}} \quad M_{e(H_2)} = \frac{m_{(M_2)} * V_{e(H)}}{V_{0(H_2)}}$$

Metallning ekvivalent molar massasini aniqlash.

Quyidagi tushunchalarni ta'riflang va matematik ifodasini keltiring.

1. Oddiy va murakkab moddalarning kimyoviy ekvivalenti (ta'rif):

2. Ekvivalentlar qonuni (ta'rifi va matematik ifodasi):

3. Oddiy moddaning ekvivalent molar massasini hisoblash:

$$M_e(\text{od.m.}) =$$

4. Murakkab moddaning ekvivalent molar massasini hisoblash:

$$a) \text{kislotaning } M_e(k\text{-ta}) =$$

$$b) \text{tuzning } M_e(\text{tuz}) =$$

5. Avogadro qonunidan kelib chiqadigan xulosa (ta'rif va matematik ifoda): Gazning molar hajmi (ta'rif):

6. Gazlarning hajmiy ekvivalenti (ta'rif):

7. Vodorod va kislorodni ekvivalent molyar hajmini hisoblash:

$$V(H_2) = \quad V_e(O_2) =$$

### 1.1-jadval

#### Hisoblash natijasi

Metall massasi	Byuretkadagi suv sathi		V <sub>t(H<sub>2</sub>)</sub>	Harorat		Suvning to'yin-gan bug' bosimi P(H <sub>2</sub> O), mm.s.u.	Atmosfera bosimi P <sub>atm</sub> mm.s.u.
	V <sub>bosh</sub>	V <sub>oxir</sub>		T <sup>0</sup> C	TK		

#### 1.4. Tarqatma material

1. 4,56g. magniy yonganda 7,56g. magniy oksid hosil bo'ladi. Magniyning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 12,45 g/mol).
2. Mis xlorid tarkibida 47,25% mis bor. Xlorning ekvivalent molyar massasi 35,45 g/mol ga teng. Misning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 31,77 g/mol).
3. Ekvivalent molyar massasi 12,15 g/molga teng bo'lgan magniyning 24,32 grammi bilan 98,08 gramm sulfat kislota reaksiyaga kirishadi. Sulfat kislotaning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 49,04 g/mol).
4. 0,0547g. metall kislotada eritilganda (n.sh) 50,4 ml vodorod ajralib chiqqan. Metallning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 12,14 g/mol).
5. 0,5415 g. metall oksidi qizdirilganda 0,04g. kislorod ajralib chiqqan. Shu metallning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 100,3 g/mol).
6. 0,336g. kislotani neytralash ushun 0,292g. o'yvchi natriy sarf bo'lgan. Kislotaning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 46 g/mol).

7. Oksid tarkibida 68,42% xrom va 31,58% kislород bor. Xromning valentligini toping. (javob: 3).
8. Temir xlorid tarkibida 34,43% temir bor. Xlorning ekvivalent molyar massasi 35,45 g/molga neng. Birikmadagi temirning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (javob: 18,6 g/mol).
9. 1,8g. oksidni qaytarish uchun (n.sh)833ml. vodorod sarf bo`ldi. Metall va uning oksidining ekvivalent molyar massasini xisoblang. (javob:  $\Theta_{Me}(\text{oksidi})=24 \text{ g/mol}$ ,  $\Theta_{Me}=16 \text{ g/mol}$ ).
10. 5,4g. metallni eritish uchun ekvivalent molyar massasi 36,5 g/molga teng bo`lgan xlorid kislotadan 21,5g. sarf bo`ldi. Metallning ekvivalent molyar massasini hamda metallni eritish vaqtida ajralib chiqqan vodorod hajmini xisoblang.

### 1.5. Test sinov variant savollari

1.  $1,580 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$ . metallni eritish uchun  $1,47 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$ . sulfat kislota sarflanadi. (Sulfat kislotaning ekvivalent molyar massasi 49g/mol.) Metallning ekvivalent molyar massasini aniqlang.
    - A. 43,2
    - B. 51,3
    - C. 56,3
    - D. 112,4
    - E. 224,0
  2. 1g. metall kislota bilan reaksiyaga kirishib, (n.sh) o`lchan 90 ml. vodorod siqib chiqardi. Metallning ekvivalent molyar massasini aniqlang.
    - A. 1,24
    - B. 12,40
    - C. 15,80
    - D. 24,80
    - E. 30,20
  3.  $\text{Al(OH)}_2\text{Cl}$  ning ekvimolekulyar miqdordagi vodorod xlorid bilan reaksiyaga kirishganda ekvivalent molyar massasini aniqlang.
    - A. 24,1
    - B. 4,0
    - C. 4,5
    - D. 95,5
    - E. 18,0
  4. Oltingugurt VI-oksidi tarkibidagi oltingugurtning ekvivalent molyar massasi nimaga teng
    - A. 2,0
    - B. 5,3
    - C. 10,5
    - D. 13,3
    - E. 15,0
  5. Metall oksidi tarkibidagi metallning ekvivalent molyar massasi 15 g/molga teng. Metallning oksid tarkibidagi foiz ulushi qanday bo`ldi?
    - A. 48,0
    - B. 48,4
    - C. 50,0
    - D. 65,2
    - E. 70,0
  6. Tarkibi 8kg. kislород va 7kg. azotdan iborat bo`lgan aralashmaning(n.sh) hajmni aniqlang.
    - A. 5,6
    - B. 11,2
    - C. 22,4
    - D. 11,0
    - E. 33,6
  7. Hajmi  $10^{-6} \text{ m}^3$  bo`lgan molekulyar vodorodning molekulalar sonini aniqlang.
    - A.  $3 \cdot 10^{20}$
    - B.  $3 \cdot 10^{24}$
    - C.  $3 \cdot 10^{23}$
    - D.  $3 \cdot 10^{18}$
    - E.  $3 \cdot 10^{22}$
  8. Massasi 10kg.  $\text{SO}_2$  temperatura  $323^0\text{K}$ , bosimi 405300Pa teng bo`lganda, qanday hajmni egallaydi ( $\text{m}^3$ )
    - A. 1,0
    - B. 1,035
    - C. 3,105
    - D. 2,070
    - E. 4,210
  9. Massasi 2,8g. gazning hajmi 2,24lga teng (n.sh). Shu gazning molekulyar massasini aniqlang.
    - A. 15,8
    - B. 28,0
    - C. 32,8
    - D. 44,0
    - E. 55,6
  10. Gazning havoga nisbatdan zichligi 0,55ga teng. Shu gazning nisbiy molekulyar massasini aniqlang (g.)
    - A. 2
    - B. 4
    - C. 16
    - D. 20
    - E. 24
- Adabiyotlar:** M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 2-30,31-36 betlar.

### 3. ANORGANIK BIRIKMALARNING ENG MUHIM SINFLARI

#### Reja:

1. Anorganik birikmalarning sinflari
2. Oksidlar va ularning birikmalari.
3. Kislotalar va ularning kimyoviy xossalari.
4. Asoslar, kimyoviy xossalari.
5. Tuzlar, kimyoviy xossalari.

Tayanch so‘zlar: Anorganik birikmalarning sinflari, Oksidlar, kislotalar, asoslar, tuzlar.

Anorganik birikmalarni 2 ta katta sinfga bo‘lib o‘rganamiz ular: 1.Oddiy moddalar (Metallar va metallmaslar). 2.Murakkab moddalar (Oksidlar, kislotalar, asoslar, tuzlar.)

#### Oksidlar.

Elementlarning kislorod bilan hosil qilgan birikmalari oksidlar deyiladi. Demak, oksid biror element bilan kisloroddan iborat.

Oksidlar, nomenklaturasi (sistematik nomi)

MnO-marganets (II)-oksidi yoki marganets monooksid

Mn<sub>2</sub>O<sub>7</sub>-marganets (VII)-oksidi yoki dimarganetsning gepto oksidi

Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-temir (III)-oksidi yoki temir uch oksidi

CO<sub>2</sub>-uglerod (IV)-oksidi yoki uglerod dioksid

#### Oksid turlari


A) Tuz hosil qilmaydigan oksidlar: N<sub>2</sub>O, GeO, NO, CO

B) Tuz hosil qiluvchi oksidlar:

Asosli oksid	Amfoter oksid	Kislotali oksid
K <sub>2</sub> O	ZnO	CO <sub>2</sub>
CaO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	SO <sub>3</sub>
BaO	SnO	N <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
MgO	BeO	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>

#### Oksidlarning olinishi

Oddiy moddaning kislorod bilan birikishidan




Murakkab moddaning parchalanishdan:

a) Gidroksidlarni parchalashdan




b) Kislota va fosfor (Y)- oksidning o‘zaro ta’siridan



v) Tuzlarni parchalashdan



g) Kislotalarning parchalanishi:



Murakkab moddalarning yonishidan:



Tarkibida kislorod bo‘lgan moddalarni ko‘mir bilan qaytarishdan




Metallotermiya usulida:  $3\text{Mg} + \text{Fe}_2\text{O}_3 = 3\text{MgO} + 2\text{Fe}$

### **Kislotalar**

Elektrolitik dissotsiatsiya nuqtai nazaridan dissotsialanganda vodorod ionlari va kislota qoldig‘ini hosil qiluvchi elektrolitlar kislotalar deyiladi.

Kislotalar nomenklaturasi


Agar element faqat bir xil kislota hosil qilsa, uning nomiga «at» qo‘sishimchasi bilan tugallanadi:



Agar element ikki xil kislota hosil qilsa, uning nomi ikki xil qo‘sishimcha bilan tugallanadi: kichik valentli kislota hosil bo‘lganda «it», yuqori valentli kislota hosil bo‘lganda «at» qo‘sishimcha qo‘shiladi.



Agar element ikkidan ortiq kislota hosil qilsa, ularning nomlari valentligining ortib borishi tartibida “gipo”, “it”, “at”, “per” qo‘sishimchalarini qo‘sish bilan hosil qilinadi.



Agar bitta angidridning o‘zi bir necha kislota hosil qilsa, kislota nomining oxiriga “meta” va “orto” qo‘sishimchasi qo‘shiladi.



Kislorodsiz kislotalarning nomi kislota hosil qilgan element nomiga “id” qo‘sishimchasini qo‘sish bilan hosil qilinadi.



Suvdagagi eritmalarda bir negizli kislotalar bir bosqichda, ko‘p negizli kislotalar bir necha bosqichda ionlanadi;




Kislotalarning turlari

a) Kislorodsiz kislotalar: HF, HCl, HBr, HJ, H<sub>2</sub>Se.


b) Kislorodli kislotalar: HNO<sub>2</sub>, HNO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>, HClO<sub>3</sub>, HMnO<sub>4</sub>

Kislotalar negizligiga qarab 3 guruhga bo‘linadi:

#### **I negizli**



#### **II negizli**




#### **III va ko‘p negizli**



Kislotalarning olinishi


a) Elementlardan sintez qilib, so‘ngra suvda eritish yo‘li bilan




b) Kislota oksidlarini suvda eritib



v) Kislotalaning tuz bilan o‘zaro ta’siridan yangi kislota hosil qilinadi.



g) Suv bilan ta’sirlashmaydigan kislotali oksidlarga tegishli kislotalar uning tuzlariga boshqa biror kuchli kislota ta’sir ettirib olinadi.







Kislotalarning kimyoviy xossalari

Kislotalarning oksidlovchilik xossasiga misollar:



Cu+H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>(s) = reaksiya bormaydi.



### Asoslar

Elektrolitik dissotsiatsiya nuqtai nazaridan dissotsialanganda metall va gidroksid ionlari hosil qiladigan elektrolitlar asoslar deyiladi yoki boshqacha aytganda, tarkibida gidroksid guruh tutgan va suvdagi eritmalar ko‘pincha ishqoriy xususiyatga ega bo‘lgan birikmalar asoslar deb ataladi.



Asoslar nomenklaturasi

NaOH-natriy gidroksid yoki natriy oksidininggidrati

Mg(OH)<sub>2</sub>-magniy gidroksid yoki magniy oksidininggidrati

Al(OH)<sub>3</sub>-alyuminiy gidroksid yoki alyuminiy oksidininggidrati

Asoslar molekulasidagi gidroksil guruhi soniga qarab bir yoki bir necha bosqich bilan dissotsiyalanadi.



Asoslarning turlari

a) Suvda eriydigan asoslar, ya’ni ishqorlar NaOH, KOH, RbOH, CsOH, Ca(OH)<sub>2</sub>,

b) Suvda erimaydigan asoslar Fe(OH)<sub>2</sub>, Cu(OH)<sub>2</sub>, Fe(OH)<sub>3</sub>, Mg(OH)<sub>2</sub>

v) Amfoter gidroksidlar Zn(OH)<sub>2</sub>, Al(OH)<sub>3</sub>, Cr(OH)<sub>3</sub>, Be(OH)<sub>2</sub>

Asoslarning olinishi


a) Ishqoriy va ishqoriy er metallarning suv bilan o‘zaro ta’siridan



b) Asosli oksidlarga suv ta’sir ettirishdan




v) tuz va ishqorlarning ta’siridan



g) tuzlarning suvli eritmaları elektrolizidan

*elektroliz*



### Tuzlar

Elektrolitik dissotsiatsiya nuqtai nazaridan dissotsiyalanganda metallarning kationlari (shuningdek ammoniy kationi NH<sub>4</sub><sup>+</sup>) va kislota qoldiqlarining anionlari hosil bo‘ladigan elektrolitlar tuzlar deyiladi yoki boshqacha aytganda, molekulasi metall atomi (shuningdek ammoniy kationi NH<sub>4</sub><sup>+</sup>) va kislota qoldiqlaridan tarkib topgan birikmalar tuzlar deyiladi.

Tuzlar nomenklaturasi: KNO<sub>3</sub> – kaliy nitrate; FeSO<sub>4</sub> – temir sulfat;

$\text{NaHSO}_4$  - natriy gidrosulfat

$\text{KH}_2\text{PO}_4$  – kaliy digidrofosfat

$\text{Al(OH)SO}_4$  – alyuminiy gidroksosulfat  $\text{Al(OH)}_2\text{Cl}$  – alyuminiy digidroksoxlorid

Tuzlarning turlari

- a) O‘rtta tuzlar  $\text{KCl}$ ;  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ;  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$ ;  $\text{MgCO}_3$ ;  $\text{CuS}$ ;  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$
- b) Nordon tuzlar  $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$ ;  $\text{NaHS}$ ;  $\text{NaHCO}_3$ ;  $\text{NaHSO}_4$ ;  $\text{Cu}(\text{HSO}_4)_2$
- c) Asosli tuzlar  $\text{Al(OH)}_2\text{NO}_3$ ;  $\text{Cr}_2(\text{OH})_2\text{SO}_4$ ;  $\text{Mg}(\text{OH})\text{Cl}$ ;  $\text{AlOH}(\text{CH}_3\text{COO})_2$
- g) Qo‘sh tuzlar  $(\text{NH}_4)_2\text{Fe}(\text{SO}_4)_2$ ;  $\text{KCr}(\text{SO}_4)_2$ ;  $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$
- d) Kompleks tuzlar  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ;  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$ ;  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{NO}_3]\text{Cl}$   
 $[\text{Cr}(\text{NH}_3)_6]\text{Cl}_3$ ;  $[\text{Al}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$ ;  $\text{K}_2[\text{PtCl}_6]$

Tuzlarning olish usullari

1). Metall va metalmasning o‘zaro ta’siridan.




2) Metall va kislota ta’siridan  $2\text{Al} + 3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 + 3\text{H}_2\text{O}$


3) Asosli oksid va kislota ta’siridan



4) Metallarning tuzlariga metallar ta’siridan



5) Kislotali oksid bilan asosli oksid ta’siridan




6) Asos bilan kislota ta’siridan (neytrallanish reaksiyasi)




7) Kislotalarning tuzlar bilan o‘zaro ta’siridan  $\text{H}_2\text{S} + \text{CuCl}_2 \rightarrow \downarrow \text{CuS} + 2\text{HCl}$




8) Metalmaslarga ishqorlar ta’siridan  $\text{Cl}_2 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{KCl} + \text{KClO} + \text{H}_2\text{O}$




9) Amfoter oksid hosil qiladigan metalga ishqor ta’sir ettirishdan



yoki amfoter oksid va gidrooksidlar ta’siridan




10) Ikkita har xil tuzlarning o‘zaro ta’siridan



11) Asoslarning kislotali oksidlar bilan o‘zaro ta’siridan




12) Ishqorlarning tuzlar bilan o‘zaro ta’siridan



13) Nordon tuzlarning olinishi  $\text{NaOH} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NaHSO}_4 + \text{H}_2\text{O}$





14) Asosli tuzlarning olinishi  $\text{Mg}(\text{OH})_2 + \text{HCl} \rightarrow \text{Mg}(\text{OH})\text{Cl} + \text{H}_2\text{O}$



15) Qo‘sh tuzlarning olinishi  $\text{K}_2\text{SO}_4 + \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \rightarrow 2\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$



16) Kompleks tuzlarning olinishi  $\text{Cu}(\text{OH})_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}_2[\text{Cu}(\text{OH})_4]$



Kompleks birikmalarning hosil bo'lishini valentlik to'g'risidagi ta'limot bilan izohlab bo'lmaydi. Ularning tuzilishi 1893 yilda Alfred Verner tomonidan taklif qilingan koordinatsion nazariya asosida tushintiriladi.

Bu nazariya quyidagilardan iborat:

1. Ko'pchilik elementlar o'zining asosiy valentliklaridan tashqari yana qo'shimcha valentliklar namoyon qiladi.

2. Har qaysi element o'zining asosiy va qo'shimcha valentliklarini tuyintirishga harakat qiladi.

3. Markaziy atomning qo'shimcha valentliklari fazoda ma'lum yo'nalishga ega bo'ladi.

Ushbu nazariyaga binoan kompleks birikmaning markazida odatda markaziy ion turadi va u kompleks hosil qiluvchi deb ataladi. Bu ion atrofida unga bevosita yaqin joyda ma'lum sondagi qarama-qarshi zaryadlangan ionlar yoki elektroneutral molekulalar joylashadi, boshqacha aytganda koordinatlanadi, bu ion yoki molekulalar addent (ligand) deb ataladi. Addent va markaziy ion kompleksning ichki sferasini tashkil etadi. Ichki sferaga sig'may qolgan ionlar markaziy iordan ancha uzoqda sirtqi koordinatsion sferani tashkil qiladi.

Kompleksda markaziy ion bilan bog'langan neytral molekulalar va ionlarning umumiyligi soni kompleks hosil qiluvchining koordinatsion soni deb ataladi. Koordinatsion soni 2,4,6,8 bo'lishi mumkin. Misol uchun  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]\text{Cl}_3$  da kobaltning koordinatsion soni 6 ga teng.

Kompleks birikmalar 3 xil ya'ni ichki sferaning zaryadiga qarab bo'ladi: anion, kation, neytral kompleks birikmalar.

Anion komplekslarga:  $\text{K}[\text{Ag}(\text{CN})_2]$    Kation komplekslarga:  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]\text{Cl}_3$    Neytral komplekslarga:  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_3(\text{NO}_2)_3]$

### **1.3 Laboratoriya ishi Anorganik birikmalarning asosiy sinflari.**

**Ishning maqsadi :** Anorganik birikma sinflari: oksid, asos, kislota, tuz. Ularning turlari. Moddalarni bir-biridan ajrata olish. Kimyoviy xossalarni o'rGANISH. Kimyoviy jarayonning borish ketma-ketligini farklash. Moddalarning olinish reaksiyalarini o'rGANISH.

#### **1-tajriba: Elementni kislorod bilan to'g'ridan to'g'ri biriktirib oksidlar hosil qilish.**

Buning uchun temir qoshiqchaga ozgina oltingugurt kukunidan olib gorelka alangasida ohista qizdiring. Oltingugurt yonishi bilanoq uni oldindan tayyorlab qo'yilgan suvli bankaga tushuring. Yonish tamom bo'lganidan so'ng, idishdagi suvni yaxshilab chayqating. Qilingan ishining reaksiya tenglamasini yozing va hosil qilingan oksidning xossalarni xarakterlab bering.

#### **2- tajriba : Ba'zi tuzlarning parchalanishidan oksid hosil qilish.**

Buning uchun oson parchalanadigan tuzlarni parchalash natijasida ham oksidlar hosil qilish mumkin . Oson parchalanadigan tuzlar sifatida ammoniy dixrimat  $(\text{NH}_4)\text{Cr}_2\text{O}_7$  yoki kaliy dixromat  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  dan foydalanish mumkin. Bu tuzlardan ozroq miqdorda olib chinni plitkacha ustiga solinadi. Uning ustiga ozgina spirit tomiziladi va yoqiladi. Bunda ammoniy dixromat tuzi huddi sun'iy vulqon hosil qilgandek bo'lib parchalanadi. Tajribaning borishini kuzatganimiz holda reaksiya tenglamasini yozing. Kuzatilayotgan o'zgarishlarni tushuntiring .

### **3-tajriba : Oksidlarga kislotalar ta'sir ettirib, tuz hosil qilish.**

Bu ishni bajarish uchun probirkaga mis(II) – oksiddan ozroq soling. Uning ustiga 20 % li sulfat kislotalidan yetarli miqdorda quying. So'ng probirkani shtatiga o'rnatib, ohista qizdirish jarayonini probirkadagi mis oksidi batamom erib *ketguncha* davom ettiring. Eritmaning rangi qanday o'zgarishini kuzating va bajarilgan tajribaning reaksiya tenglamasini yozing.

### **4- tajriba : Neytrallash reaksiyasi asosida tuz hosil qilish.**

Buning uchun 1 l suvda 160 gr *NaOH* eritib tayyorlangan eritmasidan 10 ml o'lchab olib, ilgaritddan tayyorlab qo'yilgan og'irligi ma'lum bo'lgan, chinni kosachag solinadi. Uning ustiga 1 l suvda 146 gr xlorid kislota eritilgan eritmadan tomiziladi. Kislotali muhit hosil qilinganligi lakmus qog'izi yordamida aniqlanadi. Hosil bo'lgan eritmani bug'latib nam tuz hosil qilinadi. So'ng uni qurutish shkafida quritiladi. Bajarilgan tajribaning reaksiya tenglamasi yoziladi va olingan tuzning nazarii qiymatiga nisbatan ishning hatosi hisoblanadi.

### **5-tajriba: Metallarga suv ta'sir ettirib asos hosil qilish.**

Bu tajribani bajarish uchun probirkaga 5 – 10 ml suv solib uning ustiga magniy metallining kukunidan ozroq solinadi. So'ng probirkka shtativga o'rnatiladi va 5 – 6 min. davomida ohista ohista qizdiriladi. Probirkadagi suyuqlikka ozgina fenolftalen tomiziladi. Tajriba davomida sodir bo'layotgan o'zgarishlar kuzatib boriladi va reaksiya tenglamasi yoziladi.

### **6-tajriba: Neytrallash reaksiyasi yordamida tuz hosil qilish.**

Buning uchun *HCL* dan kichkina kolbachaga 10-15 ml solinadi. Uning ustiga bir necha tomchi fenolftaleni tomiziladi. So'ng maxsus tayyorlangan ishqor yordamida neytrallanadi. Buning uchun ishqor eritmasi kolbachadagi kislota ustiga asta-sekin tomiziladi. Bunda kislota bilan ishqorning normalligi bir xil bo`lishi lozim. Neytrallanish reaksiyaning oxirgi borgan-bormaganligini, eritma rangining o`zgarishi bilan aniqlash mumkin. Ishqor solingan byuretkanining hajmi ma'lum bo`lgani tufayli, 10 ml bir normallik kislotani titirlash uchun ketgan ishqorning miqdorini hisoblash mumkin.

### **7-tajriba: Amfoter asoslarini hosil qilish.**

Buning uchun probirkaga aliminiy sulifat tuzuning suvdagi eritmasidan ozgina solinadi. Uning ustiga ishqor eritmasidan cho`kma hosil bo`lguncha oz-ozdan tomiziladi. Hosil qilingan eritma bilan cho`kma yaxshilab chayqatiladi va ikkita probirkaga taqsimlanadi. Birinchi probirkaga xlorid kislota, ikkinchi probirkaga cho`kma erib ketguncha natriy ishqoridan tomiziladi. Ikkala probirkadagi cho`kmaning erib ketgani sababini tushuntiring. Qilingan ishning reaksiya tenglamasini yozib ko`rasating.

### **2.1-Jadval**

#### **1- ish bo`yicha xisobot.**

Tajriba ishlarning nomi	Kuzatish natijalari (reaksiya jarayon-dagi o`zgarishlar)	Kimyoiy reaksiya, moddalarning nomi, ularning grafik tasviri	Xulosa
1- Tajriba			
2- Tajriba			
3- Tajriba			
4- Tajriba			
5- Tajriba			
6- Tajriba			
7- Tajriba			

#### **1.4. Tarqatma material**

1. Oksidlarning qanday turlari ma'lum?
2. Oksidlanish darajasi birdan sakkizgacha bo`lgan metall oksidlarning formulalarini yozing
3. Quyidagi oksidlarning  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{BaO}$ ,  $\text{N}_2\text{O}_3$ ,  $\text{N}_2\text{O}_5$  suv bilan birikish tenglamalarini yozing, bu oksidlarning asosli yoki kislotali ekanligini reaksiya tenglamasida asoslab tavsiyalang
4. Quyidagi gidroksidlarning  $\text{AuOH}$ ,  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Fe}(\text{OH})_3$  parchalanishidan hosil bo'ladigan oksidlarning formulalarini yozing
5. Kumush (I)-oksidi, Oltin(III)-oksidi, niobiy(IV)-oksidi, Sirkoniy(IV)-oksidi, surma(V)-oksidi, Ruteniy(VIII)-oksidi, marganes(III)-oksidi, xlor(VII)-oksidi va karbon(II)-oksidlarning empiric va strukturaviy formulalarini yozing
6. Quyidagi oksidlarning  $\text{CaO}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{CO}$ ,  $\text{P}_2\text{O}_5$ ,  $\text{NO}_2$ ning biri o`zaro reaksiyaga kirishi mumkin va reaksiya natijasida qanday moddalar hosil bo'ladi?
7. Quyidagi murakkab moddalar  $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{Zn}(\text{OH})_2$ ning parchalanishi natijasida qanday oksidlar hosil bo'lishi mumkin?
8. Quyidagi kaliy gidrokarbonat, magniy gidrokarbonat, natriy digidrokarbonat, temir (II) – nitrat, mis sulfat va kaliy sulfidlarga mos kislota qoldiqlarini hosil qiling va ularning oksidlanish darajalarni ifoda qiling
9. Oltingugurt kimyoviy reaksiyalarda qanday oksidlanish darajasida bo'ladi. Ularning har qaysisiga tegishli oksidlanish darajalarini yozing
10. Metall oksidlari Metallmas oksidlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?

#### **Adabiyotlar:**

M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 31-45, 51-68 betlar.

### **5. АТОМ ТУЗИЛИШИ УНИНГ ЯДРОВИЙ МОДЕЛИ. КВАНТ СОНЛАР, ПАУЛИ ПРИНЦИПИ. ЭЛЕКТРОННИНГ АТОМДА ТАҚСИМЛАНИШИ.**

#### **Режа:**

1. Атом тузилишиб унинг ядервий модели
2. Квант сонлар
3. Даврий қонун: очилиши, ўша замондаги ва ҳозирги замон тарифлари.
4. Электроннинг атомда тақсимланиши

Таянч сўзлар: даврий система, даврий қонун, даврлар, гурухлар, асосий гурухлар, кўшимча гурухлар, тартиб рақам, масса сони, ядро заряди. Кимёвий боғ, боғланиш, ион, ковалент, металл, водород боғланиш.

Атомнинг электронейтрал системаси. Модомики, атомда электронлар бор экан, уларни нейтраллаб турадиган мусбат зарядли қисми ҳам бўлиши керак. Дарҳақиқат, инглиз олими Резерфорд атомнинг мусбат қисми борлигини 1911 йилда кашф этди ва уни атом ядроси деб атади. Резерфорднинг шогирди Чадвик мис, олтин пластинкалар (масалан қалинлиги тахминан 0,0005 мм бўлган олтин зар) сиртига  $\alpha$ -заррачалар ёғдириб, уларнинг металлдан ўтиш йўлларини текширди. Ажойиб натижага кузатилди. Ёғдирилган  $\alpha$ -заррачалардан кўпчилик қисми ўзининг дастлабки йўлидан маълум бурчакка оғади, лекин баъзи заррачаларгина (юз мингдан биттаси) дастлабки йўлнинг қарама-қарши томонига қайтди. Бу ҳодиса  $\alpha$ -заррачаларнинг ёйилиши деб аталади.  $\alpha$ -заррачалардан баъзилари ўз ҳаракат йўналишини бундай кескин ўзгаришига сабаб шуки, улар атом ичидаги унинг мусбат заряди ва  $\alpha$  - заррачага қараганда катта массали таркибий қисми билан тўқнашади, мусбат зарядли ядронинг электр майдони  $\alpha$  – заррача ҳаракатига қаршилик кўрсатиши натижасида, заррача ўз йўналишини маълум бурчакка ўзгартиради ёки тамомила орқага қайтади.  $\alpha$  – заррачанинг электрон билан тўқнашиши унинг дастлабки йўлини сезиларли

даражада ўзгартира олмайды, чунки электрон массаси  $\alpha$  – заррача массасига қараганда қарийб 7360 марта кичикдир. Резерфорд бу тажриба натижаларига асосланиб, атом тузилишининг нуклеар назариясини яратди. Бу назарияга мувофиқ, ҳар қандай элемент атоми марказида жуда кичик ўринни эгалловчи ядро жойлашади, унинг атрофида электронлар худди планеталар қүёш атрофида харакат қилгани каби, ўз орбиталлари бўйлаб айланиб туради. Атомнинг қарийб ҳамма массаси ядрода бўлиб, у мусбат зарядга эга. Ядро материалининг солиштирма массаси ниҳоятда катта, чунки ядронинг ҳажми жуда кичикдир. Атомнинг диаметри 10-13 – 10-12 см ни ташкил қилади. Агар ядро массаларни бир жойга зич йиғиш мумкин бўлса эди, 1 см<sup>3</sup> га ғуж йиғилган атом ядроларнинг массаси 116 миллион тонна келар эди.

Атом электронейтрал бўлиб, ядро атрофидаги электронларнинг умумий сони ядронинг мусбат зарядига тенгдир. Кейинчалик олиб бориладиган тадқиқотлар атом ядросининг мусбат заряди ўша элементнинг Д.И.Менделеев даврий системасидаги тартиб рақамига тенг эканлиги исбот қилинди.

1920 йилда Чадвик  $\alpha$  – заррачаларнинг металл пластинкалардан ўтишини текшириб, мис атомининг ядро заряди 29,3 га, кумуш атомининг ядро заряди 46,3 га тенг эканлигини топди.

Демак, атом ядросининг заряди элементнинг Менделеев даврий системасидаги тартиб рақамига тенг.


Резерфорд назариясига мувофиқ, электронлар ядро атрофида доимий айланиб туради. Мусбат ядро билан электронлар орасида тортилиш кучи электронларнинг марказидан қочиш кучи билан мувозанатда бўлади:  $mv^2/1 = e^2/r^2$  бу ерда  $m$  – электрон массаси,  $v$  – тезлик,  $e$  – заряди,  $r$  – ядро билан электрон орасидаги масофа.

Резерфорд назарияси ёрдами билан элементларнинг кўпгина физик ва кимёвий хоссаларини изоҳлаб бериш мумкин бўлди, лекин бу назарияда баъзи камчиликлар мавжуд, яъни классик электродинамикага мувофиқ электр зарядига эга бўлган бирор жисм харакат қилса, у ўзидан электромагнит нурлар чиқариши лозим ва бунинг натижасида унинг энергияси камайиши керак. Бундан ташқари, агар Резерфорд назарияси қониқарли назария бўлганида эди, элементларнинг атом спектрлари ёппа спектрлар бўлиши керак эди. Ваҳоланки, барча элементларнинг спектрлари айрим-айрим чизиқлардан иборат. Фанда узоқ вақт атом бўлинмас деган фикр хукм суриб келди. Элемент атомини ҳар қандай шароитда ҳам қандайдир бошқа элемент атомига айлантириб бўлмайди, деб ҳисобланар эди. Бироқ XIX аср охирига келиб атомлар мураккаб таркибга эга эканлиги ва атомлар ўзаро бир-бирига айлана олишини тасдиқловчи бир қатор фактлар аниқланади. Бу фактлардан бири инглиз физиги Ж.Томсон томонидан 1897 йилда электроннинг кашф этилишидир.


Электрон элементар заррача бўлиб, табиатда мавжуд бўлган энг кичик манфий электр заряди ( $1,602 \cdot 10^{-19}$  Кл) га эга. Электроннинг массаси  $9,1095 \cdot 10^{-28}$  г га тенг, водород атоми массасидан деярли 2000 марта кичикдир. Электронлар исталган элементлардан ажратиб олиниши мумкинлиги аниқланди. Электронлар металларда ток ўтказувчилар вазифасини бажаради, кўпчилик моддалар қиздирилганда, ёритилганда ёки рентген билан нурлантирилганда ўзларидан электронлар чиқаради. Мъълум бўлишича электронлар ҳамма элементларнинг атомларида бўлади. Атомлар мураккаб тузилишига эга бўлиб, янада майда структура бирликларидан ташкил топган. Атомнинг мураккаб тузилишини аниқлашда радиоактивликнинг очилиши мухим қадам бўлди.

Атом ядросининг тузилиши. Ҳозирги замон тасавурларига кўра, атом ядрои протон ва нейтронлардан иборат. Бу заррачалар умумий ном билан нуклонлар (лотинча nucluss -ядро) деб аталади.

Протон элементар заррача бўлиб, массаси 1,00728 у.б.га тенг ва абсолют миқдори жиҳатдан электрон зарядига тенг бўлган мусбат зарядга эга. Нейтрон ҳам элементлар заррача бўлиб, унинг электр зарди ийќ, массаси 1,00867 у.б.га тенг. Протонни р билан, нейтронни p билан ифодалаш қабул қилинган. Атом ядроидаги протон ва нейтронлар сони йиғиндиси атом (ядро) нинг масса сони деб юритилади. Атомнинг масса сони тахминан элементнинг атом массасини ифодалайди. Қуйидаги қаторда атомлар таркибидаги нуклонлар сони келтирилган бўлиб, изотопларнинг ҳам фарқли томонлари яққол намоён бўлиб кўриниб турибди.



\* Shriver and Atkins' Inorganic Chemistry, Fifth Edition// New York, 2014



H	1 протон	=1 нуклон ;	D	1 протон+ 1 нейтрон	=1 нуклон
T	1 протон + 2 нейтрон	=1 нуклон;	He	2 протон + 2 нейтрон	= 4 нуклон
Li	3 протон + 4 нейтрон	= 7 нуклон;	Be	4 протон + 5 нейтрон	= 9 нуклон
B	5 протон + 6 нейтрон	= 11 нуклон;	C	6 протон +6 нейтрон	= 12 нуклон
N	7 протон + 7 нейтрон	= 14 нуклон;	O	8 протон + 8 нейтрон	= 16 нуклон
F	9 протон +10 нейтрон	= 19 нуклон ;	Ne	10 протон + 10 нейтрон	= 20 нуклон

Ядро ўзининг ўлчами жиҳатдан атом ўлчамидан минг марта кичик ва жуда юқори зичликка эга бўлиши билан фарқланади: 1 см<sup>3</sup> ядро моддаси 1011 кг келади. Агар 1 та буғдой дони, фақат ядро моддасидан ташкил топган бўлганда эди, унинг оғирлиги 100 минг тоннага teng бўлар эди. Атом ядроидаги протонлар сони ядронинг мусбат зарядлари сонига teng, яъни элементнинг тартиб рақамига teng; бинобарин нейтронлар сони атомнинг масса сонидан элементнинг тартиб рақамининг айримасига tengдир.

Ядрони ташкил қилувчи заррачалар ўртасида 2 куч ўзаро таъсирилашади: мусбат зарядланган протонларнинг ўзаро итарилиш электростатик кучлари ва ядро таркибида киравчи ҳамма заррачалар ўртасидаги ўзаро тортишиш кучлари (бу кучлар ядро кучлари деб юритилади). Ядродаги кучлар ниҳоятда кичик масофадагина (1015м) ўз таъсирини кўрсатади. Ҳар қайси нуклон фақат ўзига яқин қўшни бир неча нуклонларгагина таъсири кўрсатади. Атом ядроини ташкил этувчи заррачалар орасидаги масофа жуда кичик бўлганда, ядро кучларини тортиш қобилияти, бир хил зарядлар ҳосил қиладиган итариш кучидан юқори бўлади ва ядроларнинг барқарорлигини таъминлайди.


Атом ядроининг массаси тахминан ядрони ҳосил қилувчи протон ва нейтронлар массалари йигиндисига tengдир. Протон ва нейтронлар массасининг аниқ қийматлари асосида ҳисоблаб чиқарилган ядролар массалари билан шу ядроларнинг тажриба йўли билан топилган массалари қийматлари орасида фарқ келиб чиқади. Масалан, 2 та протон ва 2 нейтрондан ташкил топган гелий ядроининг массаси қўйидагича ҳисоблаб чиқарилади:  $2 \cdot 1,00728 + 2 \cdot 1,00867 = 4,03190$  у.б.

Тажриба йўли билан топилган гелий ядроининг массаси 4,0026 у.б. teng, яъни тахминан юқоридаги қийматдан 0,03 у.б. га камдир. Демак, ядро массаси уни ташкил этувчи ҳамма заррачаларнинг массаси йигиндисидан кичик бўлиб чиқади. Бу ходиса масса дефекти деб ном олган.


Гелий атоми ядроининг ҳосил бўлишидаги масса дефекти 0,03 у.б. ни ташкил этади, 1 мол гелий атомлари ҳосил бўлишидаги масса дефекти 0,03 г =  $3 \times 10^{-5}$  кг ни ташкил этади.

Эйнштейн тенгламаси ( $E=mc^2$ ) га мувофиқ масса билан энергия ўртасида маълум боғланиш бўлиб, масса ўзгаришига мутаносиб равишда энергия ўзгаради. Агар атомлар ядроининг ҳосил бўлишида масса сезиларли камайса, бир вақтнинг ўзида қўп миқдорда энергия ажralиб чиқади.

Ядронинг протон ва нейтронлардан ҳосил бўлишида ажralиб чиқадиган энергия қиймати ядронинг боғланиш энергияси деб аталади ва ядронинг барқарорлигини характерлайди, яъни ажralиб чиқадиган энергия миқдори қанча қўп бўлса, ядро шунчалик барқарор бўлади.



\*



Изотоплар. Ҳар бир элементнинг ҳамма атомлари ядролари бир хил зарядга эга бўлади, яъни ядро тенг сондаги протонларни сақлайди. Лекин бу атомлар ядроларидағи нейтронлар сони ҳар хил бўлиши мумкин.

Бир хил ядро зарядига эга бўлган, лекин ҳар хил сондаги нейтронларни тутувчи атомлар изотоплар (грекча «изос»-бир хил «топос»-жой) деб аталади. Масалан, табиий хлор масса сонлари 35 ва 37 га тенг бўлган изотоплардан иборат, магнийнинг масса сонлари 24; 25 ва 26 га тенг бўлган табиий изотоплари бор.

Изотоплар деярли ҳамма элементларда учрайди. Айни элементнинг барча изотоплари ўзларининг кимёвий хоссалари жиҳатидан бир-бирига жуда яқин бўлгани учун ўша элемент изотопларини бир-биридан ажратиш жуда қийин, изотоплар бир-биридан кимёвий усуллар ёрдамида ажратиласди.

## Bu bobda diqqatniqaratish kerak bo'lgan asosiy tamoyillar

- Modda aniq tarkibga ega bo'lgan materiya. Moddalarning ikki tipi bor: oddiy moddalar va murakkab moddalar. Oddiy modda bir xil tipdagi atomlardan tashkil topadi, ular alohida yoki molekula holida uchrashi mumkin, Murakkab moddalar molekula (yoki formulali birlik) lardan iborat, ikki yoki undan ortiq turli xil element atomlarining o'zaro bog'lanishlaridan hosil bo'ladi. Aralashma ikki yoki undan ortiq moddadan tashkil topgan o'zgaruvchan tarkibli fizikaviy aralash materiya. Murakkab moddaning xossalari uning komponentlari xossalardan ajralib turadi, aralashmada unaqa emas. (2.1 bo'lim)
- Uch ta massa qonunlarini atomar tuzilish nazariyasiga bog'lasak: kamyoviy o'zgarish vaqtida massa saqlanib qoladi, xohlagan birikma namunasi uning komponentlari proporsional nisbatda bo'ladi, birikma tarkibidagi atomlar o'zaro kichik son nisbatlarida bo'ladi. (2.2 bo'lim)
- Daltonning atom nazariyasiga ko'ra, har bir element atomi aloha massa va boshqa xossalarga ega bo'ladi. Kamyoviy reaksiya vaqtida massa saqlanadi, chunki bu vaqtida atomlar molekulalardagi o'rmini almashadi. (2.3 bo'lim)



- XX asrda boshlangan tajribalar ko'rsatishicha, atom musbat zaryadlangan yadro (u atomning deyarli barcha massasini tashkil qiladi, ammo juda kichik hajmini egallaydi) va yadro atrofida



## Qismlar ichida qismlar ichida qismlar

Buni quyidagicha ifodalash mumkin: granit bo'lagi kichik bo'laklardan tashkil topgan, bo'laklar o'z navbatida yanada kichikroq zarralardan tashkil topgan. Ushbu bobda siz materiya komponentlarini o'rganasiz va ularning qanday bog'langanligini ko'rasiz.

### Tafsilotlar

#### 2.1 Oddiy moddalar, murakkab moddalar va aralashmalar. Elementlar tahlili

##### 2.2 Materiyaning atomar ko'rinishi

- Massa saqlanishi
- Tarkibni aniqlash
- Karrali nisbatlar

##### 2.3 Daltonning atom nazriyasi

- Teoriyapostulotlari
- Massa qonnunlarini tushuntirish

#### 2.4 Atomning yadro modeli yaratilishini o'rganish

- Elektronning kashf qilinishi
- Yadroning kashf qilinishi

#### 2.5 Hozirgi zamon atom nazriyasi

- Atom tuzilishi
- Atomning tarti braqami, massasi va uning kamyoviy belgisi
- Izotoplar
- Atom massalar, mass-spektrometriya

#### 2.6 Elementlar: davriy jadvalga dastlabki nazar

#### 2.7 Kamyoviy birikmalar: bog'lanish bilan tanishuv

- Ion bog' tuzilishi
- Kovalent bog' tuzilishi

#### 2.8 Formulalar, nomlar va birikmalarning

<p>aylanuvchi manfiy zaryadli elektronidan tashkil topgan. <b>(2.4 bo'lim)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Atom 3 xildagi elementar qismlardan tashkil topgan: musbat zaryadli proton va zaryadsiz neytron atom yadrosini tashkil qiladi va yadro atrofida aylanuvchi manfiy elektron. Atom neytral bo'ladi, undagi protonlar soni elektronlar soniniga teng. Bir elementning barcha atomlarida protonlar soni (atom soni- Z) teng bo'ladi, shuningdek kimyoviy xossalari ham bir xil bo'ladi. Izotoplar bir elementning turli massadagi atomlaridir, chunki ularda neytronlar miqdori turlicha bo'ladi. Elementning atom massasi uning tabiatda uchraydigan izotoplarining o'rtacha massasi hisoblanadi. <b>(2.5 bo'lim)</b></li> <li>Davriy jadvalda atomlar gorizontal davrlar va vertical guruhlarga atom zaryadi ortib boorish tartibida joylashgan. Metallar jadvalda chap pastki uchta chorakda joylashgan. Metallmaslar o'ng yuqori burchakda joylashgan, metalloidlar ularning orasida joylashgan. Guruhlardagi elementlarning xossalari o'xshash bo'ladi. <b>(2.6 bo'lim)</b></li> <li>Kimyoviy birikma hosil bo'lishida elektronlar ishtirok etadi. Ionli birikmalar hosil bo'lishida metal atomi metalmas atomiga elektron beradi, natijada zaryadlangan qismlar (ionlar) bir-birini kuchli tortadi. Kovalent bog'lanishda metallmas atomlarining elektronlari o'rtada taqsimlanadi va odatda alohida molekula hosil qiladi. Har bir birikmaning elementar tarkibi asosidagi nomi, formulasi va massasi bo'ladi. <b>(2.7-2.8 bo'limlar)</b></li> <li>Kimyoviy birikmalardan farqli ravishda aralashmalarini fizikaviy usullar bilan komponentlarga ajratish mumkin. Geterogen aralashmalar bir jinsli bo'lмаган sistemalardir, ularda komponentlar orasida ko'rindigan chegara mavjud. Bir jinsli aralashmalarda butun sistema bir xil tarkibli bo'ladi, bunda komponentlar alohida atomlar, ionlar yoki molekulalar holida bo'ladi. <b>(2.9 bo'lim)</b></li> </ul>	<p><b>massalari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ikki atomli ion birikmalar</li> <li>Ko'p atomli ion birikmalar</li> <li>Anionlar asosida kislota nomlari</li> <li>Ikki atomli kovalent birikmalar</li> <li>To'g'ri zanjirli alkanlar</li> <li>Molekulyar massalar</li> <li>Formula va modellar</li> </ul> <p><b>2.9 Aralashmalar klassifikasiyasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Materiya komponentlarining tahlili</li> </ul>
--	---

Elementlarning atom massasini aniqlashga birinchi bo'lib Dalton urindi. O'sha davrda fan va texnika darajasi past bo'lganligidan, atomlarning mutlaq massasini aniqlash mumkin emas

edi. Shuning uchun Dalton eng yengil H atomining massasini shartli ravishda «1» deb oldi. Shunga asoslanib boshqa elementlarning nisbiy atom massasini topdi.

Avogadro qonuni kashf etilgandan so'ng elementlarning absolyut atom massalarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'linsada, nisbiy atom massalari o'z ahamiyatini saqlab qoldi, chunki absolyut atom massalari juda kichik miqdor bo'lgani uchun ularni hisoblash qiyin.

Vodorodning atom massasi 1 deb qabul qilinsa, O<sub>2</sub> ning atom massasi 15,88 bo'ladi, ya'ni kasr son. Ko'p elementlarning atom massasi ham shunday. Bu noqulaylikni bartaraf qilish uchun kislorodning atom massasini 16 deb qabul qilishdi, bu son kislorod birligi deyiladi va qisqacha k.b deb yoziladi.

Elementlarning atom massalarini aniqlash uchun qabul qilingan vodorod va kislorod izotoplari juda barqaror bo'limganliklari uchun 1969 yilda D.I.Mendeleyevning elementlar davriy qonuni va davriy jadvalining 100 yilligiga bag'ishlangan syezdda elementlar nisbiy atom massasini uglerodning atom massasi 12 ga teng bo'lgan izotopiga nisbatan aniqlash qabul qilindi va u uglerod birligi deyiladi, ya'ni elementning nisbiy atom massasi deb uglerod atom massasining 1/12 qismidan necha marta kattaligini ko'rsatadigan massa (son) ga aytildi.

<p>Hayotimizda ko'p uchraydigan hohlagan materiya namunasi: tosh bo'lagi, daraxt shoxi, kapalak qanotiga diqqat qaratsak ko'ramizki, ular ko'pgina mayda qismlardan tashkil topgan. Mikroskop yordamida ular yanada kichikroq qismlardan iborat ekanligini ko'ramiz. Agarda biz millard marta kattalashtiradigan bo'lsak, barcha moddalar atomalardan tashkil topganini ko'ramiz. Moddalarni tuzilishini zamonaviy olimlar birinchilardan bo'lib o'rghanishmagan. Qadimgi yunon faylasuflari hamma narsalar bir yoki bir nechta asosdan kelib chiqadi deb ishonishgan. Ammo atomizm otasi Demokrit boshqa yo'ldan ketdi. Uning fikriga ko'ra, deylik alyuminiy bo'lakchasini olib uni mayda bo'laklarga bir necha marta bo'laversak, juda mayda alyuminiy zarrachalarini olamiz. Bu jarayon bo'linmas zarrachalar hosil bo'lgunga qadar davom etadi. U bu bo'linmas zarrachalarni atomlar (atomos – bo'linmas) deb nomladi. Ammo buyuk g'arb faylasuflaridan biri Aristotel bu mulohazalarga qarshi chiqdi, natijada atomistik nazariya 2000 yil ortga surildi. Nihoyat 17-asrda ingliz olimi R. Boylning fikricha moddalar “oddiy tanadan, alohida organlardan emas.</p> <p>So'ngi ikki asrda kimyoda jadal rivojlanishlar ro'y berdi va atomning “bilyard shari” ko'rinishi yaratildi. XX asrda kimyo shiddat bilan rivojlanib, biz bilgan murakkab ichki tuzilishli atom modeli yaratildi. Ushbu bobda biz moddaning makroskopik va atom darajasida tarkibi va xossalarni ko'rib chiqamiz.</p>	<p><b>Bu bobni oqishdan oldin etibor beriladigan tushunchalar.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Fizikaviy va kimyoviy o'zgarish (1.1 bo'lim)</li> <li>Modda holati (1.1 bo'lim)</li> <li>Zaryadlangan zarrachalar o'rtasidagi o'zaro tortishish va itarilish (1.1 bo'lim)</li> <li>Ilmiy modelning ma'nosi (1.2 bo'lim)</li> <li>SI birliklari va qayta hisoblash faktori (1.3 bo'lim)</li> <li>Hisoblashlardagi muhim sonlar (1.5 bo'lim)</li> </ul>
<p>Moddalarni tuzilishiga qarab uchta tipga bo'lishimiz mumkin: oddiy moddalar, birikmalar va aralashmalar. Oddiy moddalar va birikmalar moddaning ikki xil ko'rinishi: doimiy tarkibli materiyahisoblanadi. Aralashmalar modda</p>	


hisoblanmaydi, ular o'zgaruvchan tarkiblidir.

**1.Oddiy moddalar.** Alovida fizikaviy va kimyoviy xossaga ega bo'lgan, materianing eng sodda tipidir. U bir xil turdag'i atomlardan iborat va quyida ko'rildigan fizikaviy va kimyoviy usullar yordamida materianing yanada soddaroq tipiga parchalash mumkin emas. Har bir moddaning o'z nomi bor, masalan, kremniy, kislorod yoki mis. Kremniy namunasi faqat kremniy atomlaridan iborat. Kremniy bo'lakchasing makroskopik xossalari: rangi, zichligi va yonuvchanligi mis bo'lakchasidan tubdan farq qiladi, chunki mis atomining submikroskopik xossalari mis atomidan farq qiladi, yani, har bir oddiy modda o'ziga xos, chunki uning atomlarining xossalari ham o'ziga xosdir.

Tabiatda ko'pgina oddiy moddalar birligida uchraydi, bundan tashqari alovida yoki boshqa atomlar bilan bog'langan holda bo'ladi, bu fizik bo'g'lanishdir. 2.1 A rasmida gaz holatdagi bir atomli oddiy modda tasvirlangan. Bir qancha oddiy moddalar molekula holatida uchraydi, molekula ikki yoki undan ortiq bo'lgan atomlarning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'lgan mustaqil tuzilmadir (2.1 B rasm). Masalan, havodagi kislorod ikki atomli molekula shaklida bo'ladi.

### 2.1 rasm. Atom darajasidagi oddiy moddalar, birikmalar va aralashmalar.

Ushbu rasmlarda gazlar tasvirlangan, ammo materianing uchta tipining suyuq va gaz holatlari ham mavjud.



A Oddiy modda atomi

B Oddiy modda moekulasi

C Birikma moekulasi

D Ikki oddiy modda va birikma aralashmasi

### Elektronlarning kvant sonlari

Atomning elektron qavatini tuzilishida atom elektronlarining energetik holatini kompleks xarakterlovchi parametrlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtida elektronning harakati to'rtta kvant soni: bosh, orbital, magnit va spin kvant sonlari bilan ifodalanadi.

**1. Bosh kvant soni ( $n$ )** atom yadrosining elektromagnit maydonidagi energetik pog'onalarini xarakterlaydi. Bosh kvant soni elektron energiyasining kattaligini ko'rsatadi. Bosh kvant sonlari o'zaro teng bo'lgan bir necha elektron atomda elektron qavatlarni yoki ma'lum energetik pog'onani hosil qiladi. Bu energetik pog'onalar butun sonlar, shuningdek harflar bilan ifodalanadi:

## Elektron energiyasi oshadi

Bosh kvant soni qiymatlari - 1 2 3 4 5 6

Harf belgisi - K L M N O P Q

Atomdagi elektron qavatlarning soni D. I. Mendeleyevning kimyoviy element-lar davriy sistemasidagi davr nomeriga to'g'ri keladi. Masalan, mishyak atomida 33 ta elektron bo'lib, bu elektronlar atomdagi 4 ta energetik qavatlar (K, L, M va N) da joylashgan. Binobarin mishyak atomida 4 ta elektron qavat bor, mishyak elementi D.I.Mendeleyev jadvalidagi to'rtinchidagi davrda joylashgan.

Har bir qavatda joylashishi mumkin bo'lgan eng ko'p elektronlar soni tubandagi formuladan hisoblab topiladi:

$$N = 2n^2$$

bu erda,  $N$  – maksimum elektronlar soni;  $n$  - bosh kvant soni.

Masalan, 1 – qavatda (K qavatda) =  $2 \cdot 1^2 = 2$  elektron

2 – qavatda (L qavatda) =  $2 \cdot 2^2 = 8$  elektron

3 – qavatda (M qavatda) =  $2 \cdot 3^2 = 18$  elektron va hokazo bo'ladi.

**2. Orbital kvant soni** ( $l$ ) energetik pog'onachalarni xarakterlaydi. Ayni qavat elektronlari bir-biridan o'zlarining energiyalari bilan farq qilib, bir yoki bir necha orbital yoki pog'onachalarni hosil qilishi mumkin, bu orbitallar o'z shakllari bilan bir-biridan farq qiladi. Energetik pog'onachalar ham harflar bilan belgilanadi.

Energetik pog'onachaning belgisi  $s \ p \ d \ f$

Orbital kvant soni elektron orbitasining shaklini ko'rsatadi. Orbital kvant soni 0 dan  $n - 1$  gacha bo'lgan butun sonlar bilan ifodalanadigan qiymatlarga ega bo'ladi. Masalan,  $n = 1$  bo'lsa, orbital kvant soni qiymati nol ( $l = 0$ ) bo'ladi;  $n = 2$  bo'lsa,  $l = 0; 1$  ga teng,  $n = 3$  bo'lsa,  $l$  ning qiymati 0, 1 va 2 ga teng bo'ladi. Ayni qavatdagi elektronning orbital kvant soni qanchalik katta bo'lsa, uning energiyasi shunchalik katta qiymatga ega bo'ladi.

**3. Magnit kvant soni** ( $m_e$ ) elektron orbitallarining fazodagi holatini, ya'ni ma'lum magnit maydoniga nisbatan qanday burchak bilan joylashganini ko'rsatadi. Magnit kvant sonning qiymatlari  $-l$  dan  $+l$  gacha bo'la oladi. Shunday qilib  $l$  ning turli qiymatlaridan  $n_e$  ning mumkin bo'lgan turlicha qiymatlari kelib chiqadi. Chunonchi  $s$  - elektronlar ( $l = 0$ ) uchun  $m_e$  ning qiymati 1 ta ( $m_e = 0$ );  $p$ - elektronlar ( $l = 1$ ) uchun  $m_e$  ning 3 xil qiymati bo'ladi (-1, 0, +1);  $d$ -elektronlar  $l = 2$  uchun  $m_e$  5 xil qiymatlarga ega bo'ladi (-2, -1, 0, +1, +2) va hokazo. Agar  $n$  va  $l$  o'zgarmasa, turli  $m_e$  ga ega bo'lgan orbitallar bir xil energiya qiymati bilan xarakterlanadi; masalan uchinchi pog'onanining 5 ta  $d$  orbitallari bir-biridan energetik jihatdan emas, faqat fazoda joylanishi bilan farqlanadi (1-rasmida elektronlarning orbitallari tasvirlangan).

**4. Spin kvant soni** ( $m_s$ ). Ilgari vaqtarda uni elektronning o'z o'qi atrofida aylanishini xarakterlovchi kvant soni deb hisoblanar edi, endilikda  $m_s$  ni maxsus kvant mexanik miqdor deb karaladi. Elektron o'z o'qi atrofida ikki tomonga aylanishi mumkin. Shuning uchun

elektronning kvant soni faqat 2 qiymatga ega:  $+\frac{1}{2}$  va  $-\frac{1}{2}$ . Bu grafik shaklda bir-biriga nisbatan qarama - qarshi tomonga yo'nalghan strelkalar bilan ko'rsatiladi:  $\uparrow$  yoki  $\downarrow$ . Bir xil yo'nalishdagi spinga ( $\uparrow\uparrow$ ) ega bo'lgan elektronlar parallel, qarama-qarshi yo'nalishdagi spinga ( $\uparrow\downarrow$ ) ega bo'lganlari antiparallel elektronlar deb hisoblanadi.

### **Pauli prinsipi**

quyidagicha ta'riflanadi: *bir atomda turtala kvant sonlari bir-biriga teng bo'lган иккি elektron bo'la olmaydi*. Bu qoidadan shunday xulosa chiqadi: ma'lum qiymatli  $n$ ,  $l$ ,  $m_e$  bilan xarakterlanuvchi har bir atom orbitalida spinlari qarama-qarshi yo'nalishdagi 2 ta elektronidan boshqa elektronlar joylasha olmaydi.

Elektron qavatlarining ketma-ket elektronlar bilan to'lib borishi tartibi, ya'ni ularning orbitalarda qanday joylashishi masalasi muhimdir. Atomda elektronlar Hund qoidasiga binoan joylashadi.

### **Hund qoidasiga**

*Qo'zg'almagan atomdagi elektronlarning spinlari yig'indisining absolyut qiymati maksimal bo'ladi.*

### **Klechkovskiy qoidalari**

Qo'zg'almagan atom orbitallarning elektronlar bilan to'lish tartibi quyidagicha: avval eng kam energiyali orbital, so'ng energiyasi ko'proq bo'lgan orbital to'ladi. Atom elektron orbitallarning to'lish tartibining bosh va orbital kvant sonlari qiymatlariga bog'liqligini V.M Klechkovskiy o'rgangan. Klechkovskiy bu ikkala kvant soni qiymatining yig'indisi ( $n+l$ ) oshishi bilan elektron energiyasi ham oshishini aniqladi va quyidagi birinchi qoidani kashf etdi:

*Atom yadrosining zaryadi oshib borganda elektronlar oldin bosh va orbital kvant sonlari yig'indisi ( $n+l$ ) ning qiymati kichik bo'lган orbitalni to'ldiradi, so'ngra bu qiymat katta bo'lган orbitalni to'ldiradi.* Masalan, kaliy va kalsiy atomlarning elektron tuzilishi bu qoidaga to'g'ri keladi: 3 d-orbital ( $n=3, l=2$ ) uchun  $n+l$  ning yig'indisi 5 ga, 4 s-orbital ( $n=4, l=0$ ) uchun esa  $n+l$  ning yig'indisi 4 ga teng. Binobarin, 4 s-pog'onacha 3 d-pog'onachaga nisbatdan oldin elektronlar bilan to'lishi kerak, haqiqatda shunday bo'ladi.

Agar ikki orbital uchun  $n+l$  yig'indi bir xil qiymatga ega bo'lsa, Klechkovskiyning ikkinchi qoidasi kuchga kiradi:  *$n+l$  yig'indi bir xil bo'lganda orbitallarning to'lib borishi bosh kvant soni  $n$  ning qiymatini oshib borishi tartibida bo'ladi*. Masalan, skandiy atomida  $n+l$  yig'indining qiymati bir xil bo'lgan 3 ta orbitallardan qaysi oldin elektronlar bilan to'lishi kerak? 3 d-orbital ( $n=3, l=2$ ) uchun  $n+l$  qiymat 5 ga, 4 p-orbital uchun ham ( $n=4, l=1$ ) 5 s-orbital ( $n=5, l=0$ ) uchun ham 5 ga teng. Klechkovskiyning ikkinchi qoidasiga muvofiq avval 3 d-pog'onacha ( $n=3$ ) so'ng 4 p-pog'onacha ( $n=4$ ) va oxirida 5 s-pog'onacha ( $n=5$ ) elektronlar bilan to'lishi kerak. Natijada skandiy atomining elektron tuzilishi quyidagi formulaga to'g'ri keladi:

Qo'zg'almagan atomlarda elektronlarning to'lib boorish tartibi quyidagicha bo'ladi

$1s < 2s < 2p < 3s < 3p < 4s < 3d < 4p < 5s < 4d < 5p < 6s < 4f < 5d < 6p < 7s < 5f$

## **D.I.Mendeleyevning davriy qonuni.**

XVIII - asr oxirida 25 ta element ma'lum bo'lib, XIX - asrning birinchi choragida yana 19 ta element kashf qilindi. Elementlar kashf qilinishi bilan ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari o'rganib borildi. Bu tekshirishlar natijasida ba'zi elementlarning xossalari bir-biriga o'xhash ekanliklari aniqlanadi. Elementlar va ularning birikmalari haqida ma'lumotlar kimyogarlar oldiga, barcha elementlarni guruhlarga ajratish, klassifikatsiya qilish vazifasini qo'ydi. Debereyner (1817), Dyuma (1815), Meyer (1868), Lazuzye (1789) va boshqa olimlar elementlarni sinflarga ajratishga urinib ko'rdilar. Ammo ular elementlarning xossalari uchun ichki bog'lanishni bilmaganliklaridan bu masalani hal qila olmadilar.

D.I.Mendeleyevdan avval olib borilgan ishlarning hech birida kimyoviy elementlar o'rtasida o'zaro uzviy bog'lanish borligi topilmadi, hech kim elementlar orasidagi o'xhashlik va ayrimlar asosida kimyoning muhim qonunlaridan biri turganligini Mendeleyevgacha kashf etolmadi. Chuqur ilmiy bashorat va taqqoslashlar o'rtasida D.I.Mendeleyev 1869 yili tabiatning muxim qonuni – kimyoviy elementlarning davriy qonunini ta'rifladi. D.I.Mendeleyev ta'riflagan davriy qonuni va uning grafik ifodasi davriy sistema hozirgi zamon kimyo fanining fundamenti bo'lib goldi.

Mendeleyev kimyoviy elementlarning ko'pchilik xossalari shu elementlarning atom og'irligiga bog'liq ekanligini topdi. Mendeleyev o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha elementlarni ularning atom og'irliklari ortib borishi tartibida bir qatorga quyida elementlarning xossalari 7ta, 17ta, 31ta elementdan keyin keladigan elementlarda qaytarilishini, ya'ni davriylik borligini ko'rdi. Masalan: litiydan fforga o'tganda atom og'irlilik ortib borishi bilan, elementlar va ular birikmalarining kimyoviy xossalari ma'lum qonuniyat bilan o'zgarib boradi. Litiy – tipik metall; undan keyin keladigan element berilliyyda metallik xossalari ancha kuchsiz ifodalangan. Berilliyydan keyingi element bor metallmaslik xossalari namoyon qiladi. Ugleroddan fforga o'tganda metallmaslik xossalari kuchayadi, ffor eng tiniq metallmas sifatida topilgan elementdir. Neondan keyingi element natriy o'z xossalari bilan litiyga o'xshaydi. Uning oksidi  $\text{Na}_2\text{O}$  o'z shakli bilan  $\text{Zi}_2\text{O}$  ga o'xshaydi.

D.I.Mendeleyev o'zi kashf etgan davriy qonuni quyidagicha ta'riflaniadi: "Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari elementlar atom og'irliklarining ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liq bo'ladi".

Mendeleyev davriy qonunidan foydalanib, ba'zi elementlarning (kobalt, tellur, argon) joylashish tartibini o'zgartirish lozimligini, 11ta elementning (fransiya, radiy, aktiniy, skandiy, galliy, germaniy, protaktiniy, poloniy, texnisiy, reney, astat) kashf qilinishi kerakligini oldindan aytib berdi. Ulardan uchta element (eka-bor, eka-alyuminiy va eka-sillisiy) ning barcha kimyoviy va fizikaviy xossalari batafsil bayon qildi. 15 yil ichida bu uch element kashf qilinib, Medeleyevning bashorati tasdiqlandi. Bular galliy, skandiy va germaniy.

### **Nazorat topshiriqlari**

#### **Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir**

Debereyning triadasi mohiyati nimadan iborat?

- A) Uchta – uchta elementdan iborat o'xhash kimyoviy xossaga ega bo'lgan elementlarning guruhlari triadalar deb atalgan. Har qaysi triadada o'rtadagi elementning atom massasi ikki chetdagi elementlarning atom massalari yig'indisining yarmiga teng.
  - B) Uchta metall va uchta metallmasdan iborat o'xhash xossaga ega bo'lgan elementlarning guruhlari triadalar deb atalgan. Har bir triadadagi chetki elementlar atom massalari yig'indisining yarmi triadadagi uchunchi elementning atom massasiga teng bo'lgan.
  - C) 1829 yilda Debereyner shu vaqtida mavjud 30 ta elementlarni ularning o'xhash xossalari qarab 3 ta guruhga bo'lgan va triadalar deb atalgan.
  - E) 1829 yilda Debereyner shu vaqtdagi mavjud 30 ta elementning odatdagи sharoitdagi agregat holatiga qarab 3 ta guruhga bo'lgan va triada deb atagan (Qattiq, suyuq, gaz).
- D.I.Mendeleyevning davriy qonuni qanday ta'riflaniadi?
- A) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek murakkab moddalarning tuzilishi ularning atom og'irligining ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liq bo'ladi.

- B) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari, ularning atom og'irliliklarini ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.
- D) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek murakkab moddalarning tuzilishi ularning molekulyar og'irligi ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.
- E) Oddiy moddalarning xossalari shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari ularning qaynash haroratining ortishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.

### **Reproduktiv o'zlashtirishga doir**

- D.I.Mendeleyev davriy qonunining hozirgi zamon ta'rifi qanday ?
- A) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek murakkab moddalarning tuzilishi ularning musbat zaryadlarining ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.
  - B) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek murakkab moddalarning shakl va xossalari ularning yadro zaryadlari ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.
  - D) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari ularning yadro zaryadlarining ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.
  - E) Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari ularning neytronlar soni ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir.

### **2 – asosiy savol**

Davriy sistema va uning tuzilishi hamda ahamiyati.

**O'qituvchi maqsadi:** Talabalarga davriy sistemaning tuzilishi haqida undagi turli yo'nalishdagi o'xshashliklar hamda hozirgi vaqtidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.

**Talabalar uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Davriy jadvalda guruh bo'ylab o'xshashlikni tushuntirish.

Davriy jadvaldagi davr bo'ylab o'xshashlikni ko'rsatib o'tish.

Davriy jadvalda diagonal yo'nalishdagi o'xshashlikni izohlash.

Davriy jadvallardan foydalanib, ba'zi elementlarning atom og'irligini hisoblashni va xossalarini ko'rsatib o'tish.

### **Asosiy savolning bayoni**

#### **Davriy jadval va uning tuzilishi**

Davriy jadvalning birinchi variantini 1869 yilda Mendeleyev tuzdi. Davriy sistemaning ikkinchi varianti 1871 yilda e'lon qilindi. Bu variatnda o'zaro o'xshash elementlar vertikal qatorlarga joylashgan. Mendeleyev bitta vertikal qatorga joylashgan o'xshash elementlarni guruh deb ishqoriy metalldan boshlanib, inert gazlar bilan tugallanuvchi qatorini "Davr" deb atadi. Sistema 7 ta davr va 8 ta guruhdan iborat: I, II, III davrlar kichik davrlar IV, V, VI va VII davrlar katta davrlar deyiladi.

Birinchi davrdan boshqa hamma davrlarda ishqoriy metall bilan boshlanib, inert gaz bilan tugaydi. Har bir guruh ichida atom og'irlilik ortishi bilan elementlarning metallik xossalari kuchayib boradi, fransiy va seziy elementlari eng aktiv metall, fтор esa eng aktiv metallmasdir. Har qaysi element davriy sistemada o'z o'rniga ega va bu o'rinni o'z navbatida ma'lum xossalari majmuasini ifodalaydi va tartib raqami bilan xarakterlanadi. Shu sababli biror elementning davriy jadvaldagi topgan o'rni ma'lum bo'lsa, uning xossalari haqida to'la fikr yuritib, ularni to'g'ri aytib berish mumkin. Mendeleyev jadvalida biror elementning atom og'irligini topish uchun uni o'rab turgan 4 qushni elementlarning atom og'irliliklarini bir - biriga qo'shib, to'rtga bo'lish kerak.

Davriy jadvalda elementlar o'rtasidagi o'xshashlik uch yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Gorizontal yo'nalish – bu o'xshashlik katta davr elementlarida, lantanoidlar va aktinoidlar turkumiga kirgan elementlarda uchraydi.

Vertikal yo'nalishda – davriy sistemaning vertikal ravishda joylashgan elementlari o'zaro bir - biriga o'xshaydi.

Diagonal yo'nalishda. Davriy sistemada o'zaro diagonal joylashgan ba'zi elementlar o'zaro o'xshashlik namoyon qiladi. Masalan: Li bilan Mg; Be bilan Al; B bilan Si; Ti bilan Ne lar bir birlariga kimyoviy xossalari jihatidan o'xshaydi.

Atom tuzilishi nazariyasidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, elementning tartib raqami shunchaki raqam bo'lmasdan, balki shu element atom yadrosining musbat zaryadiga tengdir.

Shundan keyin davriy qonunga kuyidagicha ta'rif berildi: "Oddiy moddalarning xossalari, shuningdek elementlar birikmalarining shakl va xossalari elementlarning yadro zaryadi ortib borishi bilan davriy ravishda bog'liqdir".

"Mendeleyev atom og'irliliklariga qarab joylashtirilgan o'xshash elementlar qatorida turli ochik joylar borligini va bu joyga albatta yangi ochilgan elementlar joylashtirilishini isbot qilgan. U noma'lum elementlardan birini eka-alyuminiy deb atadi, chunki u alyuminiy boshlangan qatorda bo'lib, to'g'ridan to'g'ri alyuminiydan keyin kelar edi. Mendeleyev bu elementning umumiy kimyoviy xossasini uning solishtirma og'irligini, atom og'irligini hamda uning atom xossasini oldindan ta'riflab berdi.

Bir necha yildan so'ng Buabodron bu elementni kashf etdi. Mendeleyevning taxmini ham haqiqatan ham to'g'ri chiqdi, eka-alyuminiy Galiy deb yuritila boshlandi. Mendeleyev Gegelning miqdor o'zgarishlarga o'tish qonunini ongsiz ravishda qo'llab fanda yangilik yaratdi. Uning bu kashfiyotini Leveryening noma'lum planeta Neptunning orbitasini hisoblab chiqishdek kashfiyot bilan bemalol yonma yon qo'ysa bo'ladi".

Shunisi ajoyibki, Buabodron bu elementlar bilan tajribalar o'tkazib, uning fizik va kimyoviy xossalari aniqlaganda, Mendeleyev bu xossalardan ba'zilarini xato topganini ko'rsatdi. Masalan: Buabodronning dastlabki tajribasiga ko'ra elementining solishtirma og'irligi 4,7 chiqdi. Mendeleyevning hisobiga ko'ra bu elementning solishtirma og'irligi 5,9 – 6 bo'lish kerak edi. Lekak – de – Buabodron qayta tajribalar o'tkazib, Galiyning solishtirma og'irligi 5,66 ga teng ekanligini aniqladi.

1879 yilda shved olimi Nilson 21 raqamli elementni kashf etdi va uni skandiy deb atadi. Mendeleyevning bu element haqida aytganlari ham to'la tasdiqlandi.

1886 yilda nemis olimi Vinkler 32 raqamli elementni kashf etdi va uni o'z vatani sharafiga germaniy deb atadi. Vinkler bir qator tajribalar o'tkazib, Germaniy hamda germaniy birikmalarining kimyoviy hamda fizikaviy xossalari aniqladi va Mendeleyevga qoyil qoldi.

### **Nazorat topshiriqlari**

#### **Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir.**

Guruh deb nimaga aytildi va davriy jadvalda nechta guruh bor?

- A) Davriy jadvalda vertikal joylashgan qatorlar guruhlar deyiladi va ular 8 ta guruhdan iborat.
- B) Davriy jadvalda gorizontal joylashgan qatorlar guruhlar deyiladi va ular 7 ta guruhdan iborat.
- D) Davriy jadvalda kichik va katta davr elementlarini o'z ichiga olgan qatorlar guruhlar deyiladi va ular 8 tadan iborat.
- E) Davriy jadvalda faqat katta davr elementlarini o'z ichiga olgan qatorlar guruhlar deyiladi va ular 8 tadan iborat.

Davr deb nimaga aytildi va davriy jadvalda nechta davr bor?

- A) Vertikal joylashgan qatorlar davrlar deyiladi va ular 9 ta davrdan iborat.
- B) Miqdoriy ishqoriy er metallari bilan boshlanib inert gazlar bilan tugallanuvchi qatorlar davr deyiladi va ular 7 ta davrdan iborat.
- D) Miqdoriy yer metallari bilan boshlanib inert gazlar bilan tugallanuvchi qatorlar davrlar deyiladi va ular 8 ta davrdan iborat.

#### **Reproduktiv o'zlashtirishga doir.**

D.I.Mendeleyev xossalari oldindan aytgan 3 ta elementning belgisini ko'rsating.

1 – Sub 2 – Eshb 3 – Isb 4 – Yakb 5 – Otb 6 – Pdb 7 – Edb 8 Pfyu

A) 1,3,8; B) 3,6,8; V) 2,4,5; G) 3,7,8; D) 2,3,4; E) 1,8,4;

Agar biror elementni o'rab turgan 4 ta elementlarning atom og'irliliklari tegishlichcha 23, 9, 27 va 40 tengligi ma'lum bo'lsa, shu elementning atom og'irligini hisoblang.

A) – 21 ; B) – 22 ; D) – 23 ; E) – 24 ; F) – 25.

## Vizual materiallar

1-ilova.

**D.I. Mendeleevning davriy qonuni** – oddiy moddalarning xossalari, shuningdek, elementlar birikmalarini shakli va xossalari shu elementlar atom yadroli zaryadlariga davriy ravishda bog`liqdir. Qonun 1869 yilda kashf qilingan.

**Elementlar davriy sistemasi** – Elementlar davriy sistemasi D.I. Mendeleev davriy qonunining grafik tasviridir. Bu sistema davr va gruppalarga bo`linadi.

**Davr** - Davriy sistemada ishqoriy metallardan boshlanib, galogenlar bilan tugaydigan elementlar qatoridir, ya`ni davriy sistemada VII gorizonttal joylashgandavrni tashkil etadi.

**Gruppa** davriy sistemaning vertikal joylashgan 8 ta gruppalarga bo`linadi. Gruppachalarda esa yuqoridan pastga tamon elementlarning metallik xossalari kuchayib metalmaslik xossalari susaya boradi.

**Asosiy gruppachalar** – kichik davr elementlari tipik elementlar deyiladi va bu elementlarni (boshqa elementlar bilan bir qatorda) o`z ichiga oladigan gruppachalar asosiy gruppachalar deyiladi.

**O`tuvchan elementlar** – Davrlardagi elementlar kichik davrdagi elementlarda xossalaring asta-sekin o`zgarib borish tartibini buzadi va tipik metallardan metalloidlarga o`tadi. Bu elementlar o`tuvchan elementlar deyiladi.

**Qo`shimcha gruppachalar** – O`tuvchanelementlar joylashgan gruppachalar «Qo`shimcha» gruppachalar deyiladi.

**Lantanoidlar gruppachasi** – Davriy sistemani VI davrida tartib nomeri (57) katakka lantan joylashgan va lantan xossalariiga o`xshash 14 ta element (N:N 58-71) keladi, ular lantanoidlar deyiladi. Lantan joylashgan katakka esa davriy jadvalda ularni o`rnini ko`rsatadigan yulduzcha qo`yilgan.

**Aktinoidlar gruppachasi** – Davriy sistemani VII davrida tartib nomeri (80) bo`lgan katakda aktiniy joylashgan. 90-103 – elementlar aktiniyga o`xshash xossalariiga ega bo`lganligi uchun aktinoidlar deyiladi va ularga 2 ta yulduzcha qo`yilgan.

1. asosiy gruppacha
  - 3) qo`shimcha gruppacha
  - 4) ikkinchi qo`shimcha gruppacha (lantanoid - aktinoid) gruppachasiga ajratilgan. Shuni bilmoq lozimki, ba`zi asosiy gruppacha elementlari atom tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Shunga ko`ra, davriy sistemaning xamma gruppachalarini 4 ta kategoriya bo`lish mumkin.
- I.** I va II gruppating asosiy gruppachasi (litiy va berilliyl gruppachasi)
- II.** 3,4,5,6,7 gruppalarining 6 ta asosiy gruppachasi (bor, uglerod, azot, kislorod, ftor va NEON)
- III.** 10 ta qo`shimcha gruppacha (1-7 gruppalarda bittadan va 8 grupper uchta)
- IV.** 14 ta lantanoid - aktinoid gruppachasi.

**Adabiyotlar:** M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 220-245 betlar.

## **6. KIMYOVİY BOĞ'LANİSH VA UNİNG TÜRLARI. MOLEKULALAR TUZİLİŞİ.**

**Reja:**

1. Kimyoviy bog'lar haqida umumiy tushunchalar.
2. Kimyoviy bog'lar.
3. Yadro modeli.
4. Bor postulatlari.
5. Vodorod atomining tuzilishi.

**Tayanch so'zlar:** atom, proton, neytron, electron, davr, guruqlar, radiaktivlik, energetic qavatlar, energetic yachevkalar, electron konfiguratsiya, atom orbital, izitoplar, tartib raqam, massa soni, yadro zaryadi.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** atom tuzilishi to'risidagi tasavvurlarni rivojlantirish, atomlarning electron konfiguratsiyalarini tuzishni o'gatish, atom tuzilishini grafik tuzilishini o'rGANISH.

### **Kimyoviy bog'lanish va uning turlari.**

**O'qituvchi maqsadi:** talabalarga murakkab moddalar molekulalari hosil bo'lishida turli xil kimyoviy bog'lar vujudga kelishi haqida, elektromanfiylik, elektronga moyillik haqida tushuncha berish.

**Talabalar uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Kimyoviy bog'lanish vujudga kelishida elementlarning elektronga moyilligi va elektromanfiyligining vazifasi haqida tushuncha berish.

Murakkab modda molekulasi hosil bo'lishida ion bog'lanishning vujudga kelishi haqida ma'lumot berish.

Murakkab modda molekulasi hosil bo'lishida kovalent bog'lanishning vujudga kelishi haqida tushuncha berish.



Vodorod bog'lanish, donor-akseptor bog'lanishlarning vujudga kelishi haqida tushuncha berish. Metall kristall panjarasi hosil bo'lishida vujudga keladigan metall bog'lanish haqida ma'lumot berish.

### **Kimyoviy bog'lanish**

Kimyoviy bog'lanish deganda, biz atomlar aro ta'sir etuvchi va ularni birgalikda ushlab turuvchi kuchlarni tushunmog'imiz kerak.

Kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limot hozirgi zamon kimyosining asosiy masalasidir. Kimyoviy bog'lanishning kelib chikish sababi shundaki, atom yoki ionlar o'zaro birikkanda energiya zaxurasi, ular ayrim holda bo'lganlaridagiga nisbatan kichik qiymatga ega bo'ladi va sistema barqaror holatni egallaydi. Agar biror sistema bir holatdan ikkinchi holatga o'tganda uning energiya, zaxirasi kamaysa, bu hodisa sistema energetik manfaatga ega bo'ladi degan ibora bilan tavsirlanadi. Atomning tashqi energetik pog'onasida bittadan 8tagacha elektron bo'lishi mumkin. Agar atomning tashqi pog'onasidagi elektronlar soni shu pog'ona sig'imigaoladigan eng ko'p elektronlar soniga teng bo'lsa u holda bunday pog'ona tugallangan pog'ona deyiladi. Tugallanganpog'onalar juda mustahkamligibilan farqqiladi.

Kimyoviy bog'lanish energiyasi, bog'lanish uzunligi ham valentliklararo burchak nomli uch kattalik bilan xarakterlanadi. Atomlar o'zaro 3 xil zarrachalar (molekulalar, ionlar va erkin radikallar) hosil qila oladi. Molekulalar bir – biridan o'z tarkibidagi atomlarning soni bilan, molekula tarkibidagi atomlarning markazlararo masofalari, bog'lanish energiyalari bilan farq qiladi. Molekulani tashkil qilgan atomlar valentliklari orasida burchak turlichcha bo'ladi. Masalan:  $H_2O$  molekulasida burchak tashkil qiladi.



Kimyoviy bog'ni uzish uchun zarur bo'lган energiya miqdori bog'lanish energiyasi deb ataladi. Har bir bog' uchun to'g'ri keladigan bog'lanish energiyasi qiymati 200-1000 kj/mol ga yaqin bo'ladi. M:  $CH_3F$  da C-F bog'lanish energiyasi 487 kj/mol ga teng. Atom yoki molekulalarning elektron berishi yoki elektron qabul qilib olishi natijasida hosil bo'ladi zarrachalar ionlar deb ataladi. Ionlar musbat va manfiy zaryadli bo'ladi. To'yinmagan valentlikka ega bo'lган zarrachalar erkin radikallar deb ataladi. Masalan: - SH, -OH, -CH<sub>3</sub>, -NH<sub>2</sub> lar erkin radikallar. Erkin radikallar uzoq vaqt mavjud bo'la olmaydi, lekin kimyoviy jarayon borishi uchun erkin radikallar muhim rol o'ynaydi. Yana shuni aytish kerakki, kimyoviy bog'lanish o'zaro birikuvchi zarrachalar o'rasisida albatta ikkik uch ta'sir etadi. Ular dan biri zarrachalarning o'zaro tortish kuchi bo'lsa, ikkinchisi ularning o'zaro itarilish kuchidir.

**Elektromanfiylik.** Elementning ionlash potensiali qanchalik kuchli bo'lsa, u element shunchalik kuchli metall xossalariiga ega bo'ladi. Masalan: Li ionlash potensiali 5,39 eV, F ionlanish potensiali 17,42 eVga teng.


Ma'lumki Mendeleyev davriy sistemasi har qaysi davrichida chapdan unga o'tgan sayin atomning o'ziga elektron biriktirib olish xossasi ortib bo'radi. Atom o'ziga elektron biriktirib olib o'sha elementning manfiy ioniga aylanadi. Element atomi bir elektron biriktirib olganda ajralib chiqadigan energiya miqdori ayni elementning elektronga moyilligi deb ataladi.

Elementlarning metallmaslik xossalariini yaqqol namoyon qilish uchun elektromanfiylik (EM) tushunchasi kiritiladi. Ayni elementning elektromanfiyligi uning ionlanish energiyasi bilan

elektronga moyilligi yig'indisiga yoki uning yarmiga teng.  $EM = E + 1$  yoki  $(E+1)/2$   $E+1$  qiymati bilan katta bo'lgan elektron atomi molekula tarkibidagi elektronni o'ziga qo'shib oladi va osonlik bilan manfiy ion holatiga o'tadi. Kimyoviy bog'lanishda, asosan, valent elektronlar ishtirok etadi. S va P elementlarda valent elektron vazifasini eng sirtqi qavatdagi elektronlar, d elementlarda esa sitrqi qavatning S elektronlari va sirtqidan oldingi qavatning qisman f elektronlari bajaradi.

### Ion bog'lanish


Ion bog'lanish elektrostatik nazariya asosida tushuntiriladi. Bu nazariyaga muvofiq atomning elektron berishi yoki elektron biriktirib olishi natijasida hosil bo'ladigan qarama qarshi zaryadli ionlar elektrostatik kuchlar vositasida o'zaro tortishib, tashqi qavat sakkizta (oktet) yoki ikkita (dublet) elektroni bo'lgan barqaror sistemani hosil qiladi.



**Figure 2.10** The formation of an ionic compound. **A**, The two elements as seen in the laboratory. **B**, The elements on the atomic scale. **C**, The electron transfer from Na atom to Cl atom to form  $Na^+$  and  $Cl^-$  ions. **D**, Countless  $Na^+$  and  $Cl^-$  ions attract each other and form a regular three-dimensional array. **E**, Crystalline NaCl occurs naturally as the mineral halite.

Ion bog'lanish molekulalarda juda kam uchraydi. Ionli bog'lanishli moddalar kristall holatda uchraydi. Masalan:






**Figure 2.11** Factors that influence the strength of ionic bonding.


Bog'lanish energiyasi deb molekuladagi ayni bog'lanishni batamom uzib tashlab, hosil bo'lgan tarkibiy qismlarni bir - biriga hech ta'sir etmaydigan holatga keltirish uchun zarur bo'lgan energiya miqdorigaaytiladi. Bog'lanish energiyasi EV yoki kj/mollar bilan ifodalanadi. Bog'lanish energiyasining son qiymati o'zaro birikuvchi atomlarning elektron bulutlari shakliga, molekuladagi yadrolararo masofaga va boshqa faktorlarga bog'liq.

### Donor-akseptor bog'lanish


Kovalent bog'lanishni hosil qiluvchi elektronlarning biri dastlab bir atomda, ikkinchisi ikkinchi atomda bo'lishi shart emas, bu gibrildi bog'lanish hosil bo'lishidan avval o'zaro birikuvchi atomlarning faqat birida bo'lib, ikkinchi atomda bush orbitallar bo'lsa, kovalent snin bog'lanishda ishtirok etmaydigan, tashqi pog'onasida juft elektroni bo'lgan va ikkinchi atomda bo'sh energetic orbitali bo'lgan element atomlari orasida donor akseptor bog' birinchi atom juft elektronini ikkinchi atomda bog' hosil qilishga berishi natijasida hosil bo'ladi. Kovalent bog'lanishning bir turi koordinatsion yoki donor akseptor bog'lanish hosil bo'ladi. Bog'lanish hosil bo'lishi uchun o'zining elektron juftini beradigan atom yoki ion donor, bu elektron juftini o'zining bo'sh orbitaliga qabul qiladigan atom yoki ion akseptor deb ataladi. Ammoniy xlorid hosil bo'lishi donor akseptor bog'lanish uchun misol bo'laoladi.



Biz bu reaksiyani ionli ko'rinishda yozaylik.



Bu ko'rinishdagi N : H bog'lanishlar bir xil quvvatga ega va bir biridan hech farq qilmaydi. Donor akseptor bog'lanish 2 xil molekulalar orasida ham yuzaga chiqishi mumkin. Masalan: ammiak bilan borftorid orasida donor akseptor bog'lashni quyidagi tenglama bilan ifoda qilish mumkin.



Bu yerda NH<sub>3</sub> elektron juft donor BF<sub>3</sub> elektron juft uchun akseptordir.

### Vodorod bog'lanish

Atom va molekulalar orasidagi yana bir bog'lanish vodorod bog'lanish, hamda molekulalararo tortishish kuchlari (Van-der-Vaals kuchlari) ham ma'lum. Orientatsion va dispersion, polyarizatsion kuchlar ham shular jumlasiga kiradi. D.Mendeleyev davriy jadvaldagagi V, VI va VII guruh metallmaslarning vodorodli birikma (gidrid) larini qaynash haroratlarini o'rganish natijasida nazariya bilan tajriba orasida qarama qarshilik topildi. Chunonchi HF, H<sub>2</sub>O, NH<sub>3</sub> ning qaynash haroratlari kuzatilganidan yuqoriyoq bo'lib chiqdi. N<sub>2</sub>O ning qaynash harorati H<sub>2</sub>S ning qaynash harorati pastroq bo'lishi kerak edi. HF, HCl, NH<sub>3</sub>, PH<sub>3</sub> dan past bo'lishi kutilgan edi. Lekin tajriba teskarisini ko'rsatdi. Bu qarama qarshilikni vodorod bog'lanish bilan izohlash mumkin bo'ldi, chunki vodorod bog'lanish borligi tufayli HF, H<sub>2</sub>O, N H<sub>3</sub> moddalarning molekulalari o'zaro birikib, aslida yiriklashgan assosiylangan, ya`ni (HF)<sub>n</sub>, (H<sub>2</sub>O)<sub>n</sub> (NH<sub>3</sub>)<sub>n</sub> holatda bo'ladi. Shunga ko'ra HF, NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>O kutilganidan yuqori qaynash haroratiga ega.



Vodorod bog'lanishning asosiy mohiyati shundan iboratki, biror modda molekulalarda  $F_2$ ,  $O_2$ ,  $N_2$  kabi elektromanfiy elementlarning atomlari bilan birikkan bir valentli vodorod atomi va yana boshqa vodorod atomi  $F_2$ ,  $O_2$ ,  $N_2$  atomlari bilan kuchsiz bog'lanish xususiyatiga ega, buni quyidagi misollardan oson tushunish mumkin. Bu bog'lanish vodorod atom orqali HF,  $H_2O$ ,  $NH_3$  molekulalar orasida hosil bo'ladi. Chunki bu molekulalarda umumiylar electron jufti elektro manfiy elementga siljigan bo'ladi. Natijada vodorod atomi musbat zaryadlanadi, yarmi protonga aylanadi va boshqa malekulani manfiy zaryadlangan orbitasiga kirish xususiyatiga ega. M: HF da vodorod atomi elektroni fтор atomiga yaqin joylashganligi tufayli shartli ravishda vodorod bilan musbat zaryadga ega bo'lib qoladi, ya`ni  $H^+$  ioni hosil bo'ladi, deyish mumkin. Boshqa  $F_2$  yoki  $O_2$  atomining juft elektronlari vodorod ionini o'ziga tortadi. Natijada H atomi ikki tomonidan bog'lanib qoladi.  $H - F \dots H - F$  umuman ( $HF$ )  $n = 2, 3, 4, 5, 6$  bo'lishi mumkin. Shunday qilib, elektron manfiyligi katta bo'lgan element atomi bilan vodorod atomi orasida vujudga keladigan ikkinchi darajali kimyoviy bog'lanish vodorod bog'lanish deb yuritiladi. Lekin bu bog'lanish unchalik katta emas. Kimyoviy bog'lanish energiyasining mustahkamligi  $84 - 1042$  kJ/molni tashkil qiladi. H bog'lanishda kimyoviy bog'lanishning mustahkamligi  $21 - 42$  kJ/molni tashkil qiladi. Molekulalararo tortish kuchlarining mustahkamligi esa  $0,1 - 8,4$  kJ/mol atrofida bo'ladi. H bog'lanish oqsillar. Nukleinlar va boshqa biologik muhim birikmalarda bo'ladi.

### **Nazorat topshiriqlari**

#### **Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir**

Bog'lanish energiyasi deb nimagaaytiladi?

- A) Murakkab modda molekulasi hosil bo'lishidagi zarur bo'ladigan minimum energiya miqdori bog'lanish energiyasi deyiladi.
- B) Kimyoviy bog'ni uzish uchun zarur bo'lgan energiya miqdori bog'lanish energiyasi deyiladi.
- C) Modda molekulasi hosil bo'lishidagi ajralib chiqaradigan issiqlik miqdori bog'lanish energiyasi deyiladi.
- D) Kimyoviy reaksiya natijasida ajralib chiqadigan energiya bog'lanish energiyasi deyiladi.

Elektronga moyillik qanday ta`riflanadi?

- A) Elementning ionlanish potensiali shu elementning elektronga moyilligi deyiladi.
- B) Elementning ionlanish energiyasi shu elementning elektronga moyilligi deyiladi.
- C) Element atomi bir elektron biriktirib olinganda ajralib chiqadigan energiya miqdori ayni elementning elektronga moyilligi deyiladi.
- D) Element atomi bir elektron bergandagi ajralib chiqadigan energiya miqdori ayni elementning elektronga moyilligi deyiladi.

#### **Reproduktiv o'zlashtirishga doir**

Ion bog'lanish qanday ta`riflanadi?

- A) O'zaro elektrostatik kuch natijasida vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish ion bog'lanish deyiladi.
- B) O'zaro elektron jufti hisobiga vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish ion bog'lanish deyiladi.
- C) Elektron berishi bilan hosil bo'ladigan kimyoviy bog'lanish ion bog'lanish deyiladi.
- D) Elektron qabul qilishi bilan hosil bo'ladigan kimyoviy bog'lanish ion bog'lanish deyiladi.

Kovalent bog'lanish qanday ta`riflanadi?

- A) Elektron berishi bilan hosil bo'ladigan kimyoviy bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi.
- B) O'zaro elektrostatik kuch natijasida vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi.

- D) Elektron qabul qilishi bilan hosil bo'ladigan kimyoviy bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi.  
E) O'zaro elektron jufti hisobiga vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi.

## 2 – asosiy savol

Elektron orbitallarining gibriddlanishi.

**O'qituvchi maqsadi:** Talabalarga kimyoviy bog' vujudga kelishida  $Sp$ ,  $Sp^2$  va  $Sp^3$  gibriddlanishlar vujudga kelishini va ular haqida ma'lumot berish.

### Talabalar uchun o'quv maqsadlari

(identiv maqsad va vazifalar)

Kimyoviy bog' vujudga kelishida  $Sp$  gibriddlanish haqida ma'lumot berish.

Kimyoviy bog' vujudga kelishida  $Sp^2$  gibriddlanish haqida ma'lumot berish.

Kimyoviy bog' vujudga kelishida boshqa turdag'i  $Sp^3$  gibriddlanishlar haqida tushuncha berish.

Kimyoviy bog' vujudga kelishida boshqa turdag'i gibriddlanishlar haqida tushuncha berish.

Molekular orbitallar metodi haqida tushuncha berish.

## 2 – asosiy savolning bayoni

### Molekulyar orbitallar metodi

Valent bog'lanishlar metodi elektron orbitallarning gibratlanishi haqidagi g'oyalar bilan qo'shib, turli - tuman moddalarning tuzilishini, molekulalarda valentliklarning yo'naliшини va ko'pgina moddalarning molekulyar geometriyasini izohlab berdi, lekin ba'zi moddalarning tuzilishini nazariya asosida izohlash katta qiyinchiliklarga duch kelindi. Ba'zi moddalarda elektron juftlar yordamisiz bog'lanishlarning yuzaga chiqishi aniqlandi. Chunonchi XIX - asrning oxirida Tomson vodorodni elektronlar bilan bombardimon qilish natijasida hosil qilgan molekulyar vodorod ioni  $H_2^+$  tarkibida faqat birgina elektron bordir. Bu zarrachalarda yadrolararo masofa 1,06 a, ul bog'lanish energiyasi 256 kJ/mol'. Lekin  $H_2^+$ ancha barkaror zarrachadir. Shuni aytish kerakki, tarkibida toq elektronlar bo'lgan molekulalargina magnitga tortiladi. Molekula hosil bo'lishida tok elektronlar rolini ko'rsatadigan nazariya 1932 - yilda (Gund va Malliken) tomonidan yaratilib u molekulyar orbita nazariyasini oldi. Molekular orbitallarning elektronlar bilan to'lib borishi ham xuddi atom orbitallaridagi kabi Pauli prinsipiga va Gund qoidasiga bo'yusunadi. Bog'lovchi orbitallardagi elektronlar sonidan bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar sonini ayirib tashlab, ikkiga bo'lsak bog'lanish tartibi kelib chiqadi.

### Elektron orbitallarning gibriddlanishi

Uglerod atomi normal sharoitda  $1s^2$   $2s^2$   $2p^2$  tuzilishiga ega. Uning 2 - energetik pog'onasining P pogonachasida 2 ta juftlashgan va r pog'onachasida 2 ta juftlashmagan elektroni bor. Lekin uglerod hech qachon ikki valentli bo'lmaydi. Uglerod atomi ko'zlangan holatda to'rtta yakka elektronga ega, shu sababli to'rt valentli.



Biz C atomi valentli holatga kelishi uchun uning 2S – orbitalidagi juftlangan elektronlardan birini 2P – orbitalga o'tkazish kerak. Hosil bo'lgan ana shu 4ta bir elektronli orbitallarga 4ta vodorod atomi keltirib, 4ta bog'lanishni yuzaga chiqargan bo'laylik. Agar orbitallar bir - biriga ta'sir ko'rsatmasa, R – orbitallar ishtiroti bilan hosil bo'lgan 3ta bog'lanish fazoda o'zaro perpendikular ravishda joylanib,  $4^-$ , yani s orbital ishtirotida hosil bo'lgan bog'lanish hech qanday yo'naliшha ega bo'lmasligi kerak edi. Lekin tajriba buni tasdiqlamaydi. Metan




Molekulasida uglerod atomi tetraedrning markaziga joylangan bo'lib, tetraedr uchlarida H atomlari turadi. 4 tala valentlik o'zaro  $109^{\circ}28'$  burchaklar hosil qiladi, sistema tamomila


simmetrik shaklga ega. Qarama qarshilikni bartaraf qilish uchun elektron orbitallarning gibrildlanishi deb o'ylash mumkin. Bu tasavvurga muvofiq turli orbitallarga mansub elektronlar ishtirokida kimyoviy bog'lanish yuzaga chiqishida, bu elektronlarning bulutlari bir biriga ta'sir ko'rsatib o'z shakllarini o'zgartiradi, natijada turli orbitallarning o'zaro qo'shilish mahsuloti gibridlangan orbitallar hosil bo'ladi. sp – gibrild orbitalda elektron bulutning zichligi yadroning bir tomonida kattaroq bo'lib, ikkinchi tomonida kichikroq. Shu sababli, gibridlangan orbitallar ishtirokida hosil bo'lgan bog'lanishlar barqaror bo'ladi.

	1A (1)	2A (2)	Figure 2.15 Some common monatomic ions of the elements. Most main-group elements form one monatomic ion. Most transition elements form two monatomic ions. $\text{Hg}_2^{2+}$ is a diatomic ion but is included for comparison with $\text{Hg}^{2+}$ .										7A (17)	8A (18)		
Period	1	Li <sup>+</sup>											H <sup>-</sup>			
2	Na <sup>+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	3B (3)	4B (4)	5B (5)	6B (6)	7B (7)	(8)	(9)	(10)	1B (11)	2B (12)	Al <sup>3+</sup>	N <sup>3-</sup>	O <sup>2-</sup>	F <sup>-</sup>
3	K <sup>+</sup>	Ca <sup>2+</sup>				Cr <sup>2+</sup> Cr <sup>3+</sup>	Mn <sup>2+</sup>	Fe <sup>2+</sup> Fe <sup>3+</sup>	Co <sup>2+</sup> Co <sup>3+</sup>		Cu <sup>+</sup> Cu <sup>2+</sup>	Zn <sup>2+</sup>			S <sup>2-</sup>	Cl <sup>-</sup>
4	Rb <sup>+</sup>	Sr <sup>2+</sup>									Ag <sup>+</sup>	Cd <sup>2+</sup>		Sn <sup>2+</sup> Sn <sup>4+</sup>		Br <sup>-</sup>
5	Cs <sup>+</sup>	Ba <sup>2+</sup>										Hg <sub>2</sub> <sup>2+</sup> Hg <sup>2+</sup>	Pb <sup>2+</sup> Pb <sup>4+</sup>			I <sup>-</sup>
6																
7																

Agar bitta P orbital bilan ikkinchi R orbital gibridlansa, o'zaro  $120^0$  bo'ylab joylashgan 3<sup>-</sup> gibrild orbital hosil bo'ladi. ( $\text{sp}^2$  gibrildlanish).



O'zaro birikuvchi atomlar orasida birgina valent chizik bilan tasvirlanadigan yakka bog'lanish hosil bo'lganida elektron bulutlar o'shaatomlarning yadro markazlararo eng yaqin to'g'ri chiziq bo'ylab bir - birini qoplash bunday bog'lanish sigma deb ataladi. Masalan: metanda 4ta sigma bog'lanish bor. Bu bog'lanish biri - biriga nisbatan  $109^0$  28 burchaklar hosil qiladi, sigma bog'lanishlar hosil qilishda uglerodning 4ta gibrild orbitallar va har qaysi vodorod atomining 1 tadan s elektronli orbitallarni ishtirok etadi.



Har qaysi C bittadan juftlangan elektron qoladi. Ular o'zaro bog'lanish hosil qilaolmaydi chunki bu Pauli pirinsipi zid keladi. M.U. elektronlar bog'lanish teskisligiga perpendikulyar tekislikda o'zaro elektron bulutlarini qoplaydi. Bunday bog'lanish P – bog'lanish deb aytildi.

### Nazorat topshiriqlar

#### Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir

Be  $\text{Cl}_2$  molekulasi xosil bo'lishida qanday gibrildlanish vujudga keladi va ular orsidagi burchak qanday?

- A) sp; B)  $\text{sp}^2$ ; D)  $\text{sp}^3$ ; E)  $\text{sp}^3\text{d}$ ; F)  $\text{sp}^3\text{d}^2$ ;  
 $180^0$        $120^0$        $109^0$        $104^0$        $102^0$

$\text{BF}_3$  molekulasi vujudga kelishida qanday gibrildlanish vujudga keladi va ular orsidagi burchak nimaga teng?

- A)  $\text{sp} - 180^0$ ; B)  $\text{sp}^2 - 120^0$ ; D)  $\text{sp}^3 - 109^0$ ; E)  $\text{sp}^3\text{d} - 104^0$ ; F)  $\text{sp}^3\text{d}^2 - 102^0$ .

### **Reproduktiv o'zlashtirishga doir**

CH<sub>4</sub> molekulasi hosil bo'lishida qanday gibriddanish vujudga keladi va ular orsidagi burchak nimaga teng?

- A) sp –180<sup>0</sup>; B) sp<sup>2</sup> – 120<sup>0</sup>; D) sp<sup>3</sup> – 109<sup>0</sup>; E) sp<sup>3</sup> d – 104<sup>0</sup>; F) sp<sup>3</sup> d<sup>2</sup> – 102<sup>0</sup>.

### **Produktiv o'zlashtirishga doir**

Quyidagi molekulalar SO<sub>2</sub>; HNO<sub>3</sub>; OBF<sub>3</sub> qanday gibriddanishga ega?

- A) sp<sup>2</sup>; sp<sup>3</sup>; sp; B) sp; sp<sup>2</sup>; sp<sup>3</sup>; D) sp; sp<sup>3</sup>; sp<sup>2</sup>; E) sp<sup>3</sup>; sp; sp<sup>2</sup>;

Quyidagi molekulalar C<sub>2</sub>H<sub>4</sub>, CH<sub>4</sub>, C<sub>2</sub>H<sub>2</sub> qanday gibriddanishga ega?

- A) sp<sup>3</sup>; sp; sp<sup>2</sup>; B) sp; sp<sup>2</sup>; sp<sup>3</sup>; D) sp; sp<sup>3</sup>; sp<sup>2</sup>; E) sp<sup>2</sup>; sp<sup>3</sup>; sp;

## **Vizual materiallar**

### **1- ilova.**

**Kimyoviy bog`lanish** – Kimyoviy birikmalar molekulasi hosil bo`lishida atomlararo ta`sir etuvchi va ularni birgalikda ushlab turuvchi kuchga kimyoviy bog`lanish deyiladi.

**Ion bog`lanish** – Ionlar orasidagi kimyoviy bog`lanish ion bog`lanish deyiladi.

**Koordinasion bog`lanish** – Kimyoviy bog`lanish vujudga kelishi uchun o`zining elektron juftini beradigan atom yoki ion donor, bu elektron juftini o`zining bo`sh orbitalarini to`ldirishi uchun foydalaniladigan atom yoki ion akseptor deyiladi. Shuning uchun kovalent bog`lanishning bunday turi donor-akseptor yoki koordinasion kimyoviy bog`lanish deyiladi.

**Vodorod bog`lanish** – musbat zaryadlangan vodorod ionida elektron qavat yo`q, shuning uchun u boshqa atom va ionlarning elektron qavatidan itarilmay balki ularga tortiladi va bog`lanish vujudga keladi. Bunday kimyoviy bog`lanish vodorod bog`lanish deyiladi.

**Qutblanish** – Atom, ion va molekulalarda tashqi elektr maydoni ta`sirida yuzaga keladigan o`zgarish – qutblanish deyiladi.

**Qutbli bog`lanish** – manfiy va musbat zaryadlar markazi siljigan molekulalar qutbli molekulalar deyiladi. Qutbli molekulalar orasida sodir bo`ladigan kimyoviy bog`lanish qutbli bog`lanish deyiladi.

**Dipol` sistema** – Kattaligi jihatdan bir-biriga teng, ammo qarama-qarshi ishorani va bir-biridan ma`lum masofada joylashgan ikkita elektr zaryadli sistema dipol` deb ataladi.

**Dipol momenti** – Dipol uzunligi /ning (molekulada qutiblar orasidagi masofaning) elektron zaryadi ega ko`paytmasi dipol` momenti deyiladi va yubilan belgilanadi  $\mu = I \cdot e$

**Molekulalararo kuchlar** – Molekulalararo ta`sir qiladigan uch xil kuch: orientasion, induksion va dispersion kuchlaridan. Molekulalararo kuchlarining hammasini umumiyl qilib vanderval`s kuchlari deyiladi.

### **mashg`ulot bo`yicha xulosa**

1. Atomlarni yadro va elektronlarning ta`siri natijasida juft elektron, yadrolar orasidagi zichligi katta bo`lgan umumiyl elektron buliti hosil bo`ladi.

- Atom har xil energetik holati turgan elektronlar hisobiga bog'lanish hosil qiladi. Bunday xolatlarda dastlabki elektron bulutlar shakllari o'zaro o'zgarib, yangi xil shakldagi elektron buluti xosil bo'ladi, bu hodisaga gibridlanish deyiladi.
- Bog'lanish uchun xosil bo'lishi uchun o'zining elektron juftini boradigan atom donor, bu elektron juftini o'zining bo'sh orbitaliga qabul qiladigan atom akseptor deyiladi. Bunday bog'lanish donor – akseptor yoki koordinativ bog'lanish deyiladi.
- Yangi elektron juftsiz xosil bo'ladigan yuqori tartibli birikmaga kompleks birikma deyiladi.

### **Adabiyotlar:**

M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 276-301 betlar.

## **7. TERMOKIMYO**

### **Reja:**

1. Kimyoviy termodinamika.
2. Termodynamik parametrlar.
3. Entalpiya, entropiya, Gibbs energiyasi.

**Tayanch so'zlar:** moddaning hosil bo'lish issiqligi, entalpiya , entropiya, Gibbs energiyasi, L.Laplas qonuni.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** Talabalarga kimyoviy termodinamika haqida ma'lumot berish uning qonunlarini ochib berish, ichki energiya va termodynamik parametrlarni tushintirish.

Kimyoviy reaksiyalar natijasida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori ko`rsatib yoziladigan kimyoviy tenglamalarga termokimyoviy tenglamalar deyiladi. Termokimyoviy tenglamalar massa va energiyaning saqlanish qonunlariga riox qilib tuziladi. Reaksiya natizhasida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori joul yoki kjlarda ifodalanadi, ( $1 \text{ kkal} = 4,18 \text{ kJ}$ ). Kimyoviy reaksiya vaqtida ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori reaksiyaning issiqlik effekti deyiladi va  $\Delta H_p$  bilan belgilanadi.

Oddiy moddalar (elementlar)dan 1mol murakkab modda hosil bo`lishida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori moddalarning hosil bo`lish issiqligi deyiladi. Hosil bo`lish issiqligi  $\Delta H_{\text{h.b.}}^{\theta}$  bilan belgilanadi. Hosil bo`lish issikligi har doim normal sharoitda ( $273^{\circ}\text{K}$  da va  $101,325 \text{ kP}$  bosimda) 1 mol modda uchun hisoblanadi, shuning uchun termokimyoviy tenglamalarda kasr ko`effisientlar ham qo`yiladi, masalan:



Moddalarning hosil bo`lish issiqliklari qiymati, ularning agRejat holatiga ham bog`liq bo`ladi. Shunga ko`ra, termokimyoviy tenglamalarda moddalarning agRejat holatlari ham ko`rsatib yoziladi. Hozirgi kunda standart sharoitda 8000 dan ortiq murakkab moddalarning hosil bo`lish issiqliklari tajriba yo`li bilan aniqlangan. Masalan, suvning bug` ( $\Delta H_{298\text{H}_2\text{O}_{\text{bug`}}}^{\theta} = -241,84 \text{ kJ}$ ) hosil bo`lish issiqligi suyuq holatdagi suvning hosil bo`lish issiqligi esa  $\Delta H_{298(\text{H}_2\text{O}_{\text{s}})}^{\theta} = -285,4 \text{ kJ}$  ga teng. Shunga ko`ra, hosil bo`lish issiqliqlari qiymati ko`rsatilganda  $\Delta H_{298\text{ h.b.}}^{\theta}$  bilan birga moddalarning agRejat holatlarini ko`rsatuvchi quyidagi belgilar ham yoziladi. Gaz holidagi modda -  $g$  bilan, suyuq holdagi modda -  $s$  bilan, qattiq holdagi modda -  $q$  bilan ifodalanadi.

Termodynamika qonuniga muvofiq reaksiya vaqtida issiqlik ajralib chiqsa, sistemaning issiqlik tutimi kamayganligi sababli, reaksiyaning issiqlik `effekti manfij (-) ishora bilan, issiqlik yutilsa musbat (+) ishora bilan ko`rsatiladi. Demak, reaksiyaning termodynamik issiqlik `effekti  $\Delta H_{\text{termokimyoviy issiqlik}}^{\theta}$  `effekti  $Q_p$ ning teskari ishora bilan olingan qiymatiga tengdir:

$$-\Delta H = Q_p \text{ ёки } \Delta U = -Q_p$$


Kimyoning termokimyo bo`limi reaksiyaning issiqlik effektlari va ularning turli faktorlar bilan qanday bog`langanligini o`rganadi. Termokimyo ikkita asosiy qonun va ulardan kelib chiqadigan natijalardan iborat. Bu bo`limning asosiy qonunlaridan biri Gess qonuni hisoblanadi. Energiyaning saqlanish qonuni, ya`ni termodynamikaning birinchi qonuni rus olimi G.I. Gess tajribalari asosida 1840 yilda ta`riflangan: "Kimyoviy reaksiyalarning o`zgarmas hajmi va o`zgarmas bosimdagи issiqlik effekti sistemaning boshlang`ich va ohirgi agRejat holatiga bog`liq bo`lib, jarayonning borish yo`liga, qanday oraliq bosqichlar orqali o`tganligiga bog`liq `emas. Termokimyoning amalda ko`p tatbiq qilinadigan bu muhim qonuni yana quyidagicha talqin qilinishi ham mumkin: "Reaksiyaning issiqlik effekti jarayonning qanday usulda olib borilishiga bog`liq `emas, balki faqat reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning dastlabki va ohirgi holatiga bog`liq" Keltirilgan ta`riflarning isboti misolida  $\text{CO}_2$  gazi C va  $\text{O}_2$  dan ikki hil yo`l bilan bevosita, uglerod va kislorodning birikishi hamda CO hosil bo`lishi orqali olinishi mumkin. Bu erda Gess qonuniga muvofiq  $\text{CO}_2$  hosil bo`lish issiklik effekti  $\Delta H_1$  barcha bosqichlarda kuzatiladigan issiqlik effektlarining yig`indisiga teng bo`ladi, ya`ni:

$$\Delta H_1 = \Delta H_2 + \Delta H_3$$



Darhaqiqat,  $\text{CO}_2$



Reaksiyasi yordamida bir bosqichda yoki



reaksiyalarini orqali ikki bosqichda hosil qilinishi mumkin. (b) va (c) tenglamalar qo`shilsa, (a) tenglama kelib chiqadi. Demak,  $\Delta H_1 = \Delta H_2 + \Delta H_3$  bo`ladi. Tajribada  $\Delta H^{\circ}_1 = -393,3 \text{ kJ/mol}$ ,  $\Delta H^{\circ}_2 = -111,3 \text{ kJ/mol}$  va  $\Delta H^{\circ}_3 = -282,8 \text{ kJ/mol}$  ekanligi aniqlangan. Shular asosida  $\text{CO}_2$  ning hosil bo`lishi issiqligi  $\Delta H_1 = -\Delta H_2 + \Delta H_3 = 111,3 + (-282,8) = -394,1 \text{ kJ/mol}$  gatengligini topamiz. Yana bir misol: Gess qonuninitatbiq etib  $\text{SO}_3$  va  $\text{H}_2\text{O}$  dan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  hosil bo`lish reaksiyasining issiqlik effektini hisoblaymiz:



Bunda:  $\Delta H_1, \Delta H_2, \Delta H_3$  -  $\text{SO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  larning hosil bo`lish issiqliklari. Agar (d) tenglamadan (b-c) ni olib tashlasak, (a) tenglama chiqadi, demak:  $\Delta H = \Delta H_3 - \Delta H_1 + \Delta H_2$ , ya`ni  $\Delta H = +\sum \Delta H_{h.b.}$ . Yuqorida keltirilganlardan kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti mahsulotlar hosil bo`lish issiqliklari yig`indisidan dastlabki moddalarning hosil bo`lish issiqliklari yig`indisini ayirib tashlanganiga teng degan hulosa kelib chiqadi, ya`ni:

$$\Delta H = \sum n H_{\text{Mah.}} - \sum p H_{\text{dast. modda}}$$

bunda:  $n, p$  - mahsulot va dastlabki moddalarning stehiometrik koeffisientlari.

## 6.2 bo`lim bo`yicha xulosalar.

- Entalpiya holat funksiyasi va entalpiyaning o`zgarishi sistemaning boshlang`ich holatdan oxirgi holatga o`tish yo`liga bog`liq emas.  $P = \text{const}$  da  $\Delta H = \Delta E + P\Delta V$ , ya`ni sistemaning hajmi o`zgarmas bosimda o`zgaradi.
- Entalpiya o`zgarishi  $\Delta H = q_p$ , ya`ni entalpiya o`zgarishi o`zgarmas bosimda borayotgan kimyoviy va fizikaviy jarayonlardagi chiqayotgan yoki yutilayotgan issiqlikka teng.

- Agar jarayon borishida issiqlik chiqsa ( $\Delta H < 0$ ), u ekzotermik; agar issiqlik yutilsa ( $\Delta H > 0$ ) jarayon endotermik bo'ladi.

### 3.3. Kalorimetriya. Kimyoviy va fizikaviy jarayonlarning issiqlik effektlarini o'chash

**Nisbiy issiqlik sig'imi.** Kimyoviy va fizikaviy jarayonlar davomida energiyaning o'zgarishini aniqlash uchun chiqayotgan yoki yutilayotgan issiqliknинг miqdorini va temperatura o'zgarishini bilish kerak. Ma'lumki, ob'ekt qanchalik ko'p isitilsa, uning temperaturasi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, ya'ni ob'ekt tomonidan yutilgan va chiqarilgan issiqliknинг miqdori temperaturaning o'zgarishiga proporsional bo'ladi. Har bir ob'ekt o'zining issiqlik sig'imiaga ega, ya'ni uning temperaturasini 1 K ga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori: issiqlik sig'imi =  $q / \Delta T$  (J/K birligida).

#### Solishtirma issiqlik sig'imi.

1g ob'ektning temperurasini 1K ga ko'tarish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori:

$$\text{Solishtirma issiqlik sig'imi} = q / \text{massa} \cdot \Delta T \text{ (J/g} \cdot \text{K)}$$

Bundan har qanday jarayonning davomida yutilayotgan yoki chiqarilayotgan issiqlik quyidagi tenglamadan xisoblanishi mumkin:

$$q = C \cdot \text{massa} \cdot \Delta T \text{ (6.7)}$$

Ayrim element va uning birikmalarining issiqlik hosil bo'lische (J/g K)		Ob'ekt issiqroq, ya'ni $\Delta T$ musbat bo'lganda $q > 0$ (ob'ekt issiqlikni yutmoqda) va aksincha, ob'ekt sovuqroq bo'lsa, $\Delta T$ manfiy va $q < 0$ . 6.2 jadvalda ayrim elementlar, birikmalar va materiallarning solishtirma issiqlik sig'imi keltirilgan. Metallarning issiqlik sig'imi nisbatan kichik, suv esa juda katta issiqlik sig'imiaga ega. Molyar issiqlik sig'imi juda muxim kattalikdir:
<b>Elementlar</b>		$S = q / \text{massa} \cdot \Delta T \text{ (J/mol} \cdot \text{K)}$
Al	0.900	Suv uchun molyar issiqlik sig'imi topish uchun solishtirma issiqlik sig'imi suvning molyar massasiga ko'paytirish kerak:
C	0.711	$C_{\text{H}_2\text{O(s)}} = 4,184 \text{ J/g} \cdot \text{K} \times 18,02 \text{ g/mol} = 75,40 \text{ J/mol}$
Fe	0.450	<b>Muammo:</b> Misning qavati 125 g massaga ega. Ushbu qavatning temperurasini 25°C dan 320°C gacha ko'tarish uchun qancha issiqlik talab qilinadi?
Cu	0.387	Misniing solishtirma issiqlik sig'imi 0,387 J/g·K.
Au	0.129	<b>Echish:</b> $\Delta T$ va $q$ ning qiymatlari xisoblanadi:
		$\Delta T = T_{\text{oxirgi}} - T_{\text{boshl.}} = 300 - 25 = 275^\circ\text{C}$
		$q = C \cdot \text{massa(g)} \times \Delta T = 0,387 \text{ J/g} \cdot \text{K} \cdot 125 \text{ g.}$



**6.7 rasm.** Kalotimetr. Bu qurilma doimiy bosimda issiqlik effektini o'lchaydi.

### Kalorimetrlarning ikkita umumiy turlari

**Kalorimetr** kimyoiy yoki fizikaviy jarayonlar davomida chiqayotgan yoki yutilayotgan issiqlikni o'lhash uchun mo'ljallangan. Ikki tur kalorimetri ko'rib chiqamiz – bittasi o'zgarmas bosimdag'i issiqlikni, ikkinchisi esa o'zgarmas hajmdagi issiqlikni o'lhashga asoslangan.

**O'zgarmas bosimdag'i kalorimetriya.** O'zgarmas bosimda boradigan jarayonlar uchun issiqlik o'tishi ( $q_p$ ) sxemasi 6.7 rasmida keltirilgan oddiy kalorimetrda o'lchanishi mumkin. Ushbu qurilma suvda eruvchan yoki u bilan ta'sirlashmaydigan qattiq jism larning solishtirma issiqlik sig'imini aniqlashda ishlataladi. Qattiq jism tortiladi, ma'lum temperaturagacha qizdiriladi va massa hamda temperaturasi aniq bo'lgan suvga tushiriladi. Aralashtirilgandan keyin suv va qattiq jismning temperaturalari o'zgaradi:  $-q_{\text{qattiq jism}} = q_{\text{H}_2\text{O}}$ . 6.7 tenglamani hisobga olsak:

$$-(c_{q,j} \cdot x \cdot m_{q,j}) = c_{\text{H}_2\text{O}} \cdot m_{\text{H}_2\text{O}} \cdot x \cdot \Delta T_{\text{H}_2\text{O}}$$

va bunda  $c_{q,j}$  dan tashqari barcha keltirilgan kattaliklarning qiymatlari ma'lum bo'lsa,  $c_{q,j}$  ning qiymatini xisoblasa bo'ladi:

$$c_{q,j} = -c_{\text{H}_2\text{O}} \cdot m_{\text{H}_2\text{O}} \cdot x \cdot \Delta T_{\text{H}_2\text{O}} / m_{q,j} \cdot x \cdot \Delta T_{q,j}$$

**6.4 muammo.** 22,05g qattiq jismni 100,00°C gacha qizdiring, kalorimetrga soling va 50,00g suv qo'shing. Bunda suvning temperaturasi 25,10°C dan 28,49°C gacha ko'tarildi. Qattiq jismning solishtirma issiqlik sig'imini aniqlang.

**Echish:** Qattiq jismning  $\Delta T_{q,j}$  va suvning  $\Delta T_{\text{H}_2\text{O}}$  larini aniqlaymiz:

$$\Delta T_{\text{H}_2\text{O}} = 28,49^\circ\text{C} - 25,10^\circ\text{C} = 3,39^\circ\text{C} = 3,39\text{K}$$

$$\Delta T_{q,j} = 28,49^\circ\text{C} - 100,00^\circ\text{C} = 71,51^\circ\text{C} = -71,51\text{K}$$

Qattiq jismning solishtirma issiqlik sig'imini xisoblanadi:

$$c_{q,j} = c_{\text{H}_2\text{O}} \cdot m_{\text{H}_2\text{O}} \cdot x \cdot \Delta T_{\text{H}_2\text{O}} / m_{q,j} \cdot x \cdot \Delta T_{q,j} = 4,184\text{J/g K} \times 50,00\text{g} \times 3,39\text{K} / 22,05\text{g} \times (-71,51\text{K}) = 0,450\text{J/g K}$$

Keyingi 6.5 masalada suv muxitida boruvchi kislota-asos reaksiyasi davomida xosil bo'ladigan issiqlik kalorimetrda o'rganiladi. Reaksiya doimiy bosimda borganligi tufayli reaksiya issiqligi entalpiyaga teng bo'ladi.

**6.5 muammo.** 25°C da kalorimetrga 50,0ml 0,50M NaOH solamiz va 25,0ml 0,50M HCl qo'shamiz. Aralashtirgandan keyin temperatura 27,21°C ni tashkil qildi. Hosil bo'lgan eritmaning zichligi 1,00g/ml, suvning solishtirma issiqlik sig'imini 4,184 J/g K:

**a) q ni xisoblang**

**b) reaksiyaning  $\Delta H$  ini xisoblang**


**Echish:** a) eritmaning massasi va  $\Delta T_{er}$  topiladi.

Eritmaning umumiy massasi = (25,0ml + 75,0ml) x 1,00g/ml = 75,0g;

$$\Delta T = 27,21^\circ\text{C} - 25,0^\circ\text{C} = 2,21^\circ\text{C} = 2,21\text{K}$$

q xisoblanadi:  $q = c_{ar} \times m_{ar.} \times \Delta T_{ar.} = (4,184 \text{ J/g}\cdot\text{K}) (75,0 \text{ g}) (2,21 \text{ K}) = 693 \text{ J}$ .

**b)** reaksiya tenglamasi yoziladi:



reagentlarning mollari topiladi:

HCl ning mollar soni =  $0,50 \text{ mol HCl/l} \times 0,0250 \text{ l} = 0,0125 \text{ mol}$ ;

NaOH ning mollar soni =  $0,50 \text{ mol NaOH/l} \times 0,050 \text{ l} = 0,0250 \text{ mol}$ .

**ΔH aniqlanadi:**  $\Delta H = q/\text{H}_2\text{O}$  ning mollar soni  $\times 1 \text{ kJ}/1000 \text{ J} =$

$-693 \text{ J}/0,0125 \text{ mol H}_2\text{O} \times 1 \text{ kJ}/1000 \text{ J} = -55,4 \text{ kJ/mol H}_2\text{O}$ .

**O'zgarmas hajmdagi kalorimetriya.** Bunday o'lchashlarni ko'pincha kalorimetrik reaktorda o'tkaziladi. Bunday qurilma ko'p hollarda yonish reaksiyasining issiqligini o'lchash uchun qo'llaniladi (yonilg'ilar va oziq-ovqatlarni). Kalorimetrdan barcha issiqlik suvga yutiladi deb qabul qilinadi, aslida uning bir qismi aralashtirgich, termometr va boshqalar tomonidan yutiladi. 6.8 rasmda kalorimetrik reaktorning tuzilishi ko'rsatilgan.

**6.8 rasm.** Kalorimetrik reaktor. Ushbu qurilma o'zgarmas hajmda o'tkaziladigan yonish reaksiyasi natijasida chiqayotgan issiqliknini o'lchash uchun mo'ljallangan.



**6.6 muammo.** Ishlab chiqaruvchining ta'kidlashi bo'yicha yangi dietik desert 10 kaloriyaga ega. Buni tekshirish uchun kalorimetrik bombaga 1 bo'lak desert joylashtirildi va kislrorodda yondirildi. Boshlang'ich temperatura  $21,862^\circ\text{C}$  edi, tajriba davomida u  $26,799^\circ\text{C}$  gacha ko'tarildi; kalorimetrnning issiqlik sig'imi  $8,151 \text{ J/K}$ . Ishlab chiqaruvchining ta'kidlashi to'g'rimi?

**Echish:**  $\Delta T$  aniqlanadi:  $\Delta T = 26,799^\circ\text{C} - 21,862^\circ\text{C} = 4,937^\circ\text{C} = 4,937 \text{ K}$ .

Kalorimetr yutgan issiqlik xisoblanadi:

$$q = \text{issiqlik sig'imi} \times \Delta T = 8,151 \text{ kJ/K} \times 4,937 \text{ K} = 40,24 \text{ kJ.}$$

1kkal =  $4,184 \text{ kJ}$ ; 10kal =  $41,84 \text{ kJ}$ , demak ishlab chiqaruvchi haq.

### 6.3 bo'lim bo'yicha xulosalar.



O'zgarmas bosimda issiqlik ko'rinishida uzatiladigan ( $q_p$ ) energiyani o'lchab jarayonning  $\Delta H$  i hisoblanadi. Buning uchun  $\Delta T$  aniqlanadi va uning qiymati moddaning massasiga hamda solishtirma issiqlik sig'imiga ko'paytiriladi;

Kalorimetrlar jarayonning o'zgarmas bosimda ( $q_p = \Delta H$ ) va o'zgarmas hajmda ( $q_v = \Delta E$ ) borishida chiqarayotgan va yutayotgan issiqliknini o'lchash uchun qo'llaniladi.

### 6.4. Termodinamik tenglamalarning stexiometriysi


**Termokimyoiy tenglama** issiqlik effekti ko'rsatilgan balanslangan tenglamadir. Tenglamada qatnashayotgan moddlarning mollar soni va ularning fazaviy (agRejat) holati ko'rsatiladi. Har qanday jarayondr  $\Delta H$  ikki xususiyatga ega: uning ishorasi reaksiyaning ekzotermik (-) yoki

endotermik (+) ekanligiga bog'liq. Qaytar reaksiyalarda to'g'ri reaksiya entalpiyasining ishorasiga teskari reaksiya ishorasining aksi bo'ladi:



Termokimyoviy tenglamalar turli xisoblashlarda qo'llaniladi.

**1.7 (1) muammo:**  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ni termokimyoviy parchalash hisobiga alyuminiyning asosiy miqdori olinadi:



$\text{Al}_2\text{O}_3$  ni parchalayotganda  $1,0 \cdot 10^{31}$  kJ issiqlik ajralib chiqqan bo'lsa, necha gramm Al olish mumkin ?

**Echish:** Tenglamaga binoan 1676 kJ issiqlik 54g Al xosil bo'lganda ajralib chiqadi. Proporsiya tuziladi:

$$\begin{array}{rcl} 1676 & - & 54 \text{ g} \\ 1000 \text{ kJ} & - & x \\ x = 32,2 \text{ g Al.} \end{array}$$

**6.7 (2) muammo.** Etilenni  $\text{C}_2\text{H}_4$  vodorod bilan gidratlayotganda quyidagi reaksiya ketadi:  $\text{C}_2\text{H}_4 + \text{H}_2 \rightarrow \text{C}_2\text{H}_6 \quad \Delta H = 137 \text{ kJ}$

15,0 kg etilenni gidratlaganda qancha issiqlik ajraladi ?

**Echish:** Tenglamaga binoan 1 mol etilen gidratlanganda 137 kJ issiqlik ajraladi. 15,0 kg da qancha mol borligini xisoblaymiz:

$$n = 15000/28 = 535,7 \text{ mol}$$

Etilennenning 535,7 molini gidratlaganda 73390,9 kJ issiqlik ajralib chiqar ekan.

#### 6.4 bo'lim bo'yicha xulosalar:

Termokimyoviy tenglama reaksiya bilan uning issiqlik effekti orasidagi balansni ko'rsatadi. Qaytar reaksiyalarda to'g'ri reaksiya entalpiyasining ishorasiga teskari reaksiya ishorasining aksi bo'ladi.

#### 6.5. Gess qonuni: har qanday reaksiya uchun $\Delta H$ ni topish

Qator hollarda reaksiyani o'tkazish qiyin yoki umuman o'tkazib ekstremal sharoitlarda borishi mumkin. Reaksiyani laboratoriyyada amalga oshirish mumkin bo'lsa ham uning issiqlik effektini xisoblash mumkin.


Gess qonuni bo'yicha jarayonning umumiyligi issiqlik effekti uni alohida bosqichlari effektlarining summasiga teng:

$$\Delta H_{\text{um}} = \Delta H_1 + \Delta H_2 + \dots + \Delta H_n \quad (6.8)$$


Ushbu qonun har qanday jarayon uchun  $\Delta H$  moddalarning faqat boshlang'ich va oxirgi holatlariga bog'liq bo'lib, jarayonning borayotgan yo'liga bog'liq emasligidan kelib chiqadi. Alohida bosqichlarning termokimyoviy tenglamalarini qo'shish, ayirish yoki o'girish mumkin (oxirgi holda bosqichlar  $\Delta H$  larining ishorasi o'zgaradi). Gess qonunini oltingugurtni olingugurt uch oksidigacha oksidlash jarayoniga qo'llash mumkin. Oltingugurtni kislorodning ortiqcha miqdori ishtirokida yondirganiizda  $\text{SO}_2$  xosil bo'ladi:




Keyinchalik katalizator ishtirokida va temperaturani o'zgartirib,  $\text{SO}_2$  ni  $\text{SO}_3$  gacha oksidlanadi:




Amalda deyarli bormaydigan quyidagi reaksiyaning issiqlik effektini qanday hisoblash masalasi paydo bo'ladi:



Gess qonuni bo'yicha (1) va (2) tenglamalarnii qo'shamiz va tenglamaning ikki tarafida bor bo'lgan moddalarning formulalarini qisqartiramiz:




**6.8 (1) muammo.** Benzin yonganda atrof muxitni ifloslantiruvchi ikkita modda xosil bo'ladi: CO va NO Ularni




reaksiya bo'yicha zarari kamroq bo'lgan moddalarga aylantirish mumkin. Quyida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib ushbu reaksiyaning issiqlik effektini aniqlang:





**Echish:** (2) tenglamani teskari yozamiz va 0,5 ga ko'paytiramiz, bunda issiqlik effektining qiymati va ishorasi ham o'zgaradi



Xosil bo'lgan tenglamani (1) tenglamaga qo'shamiz:



**6.8 (2) muammo** (mustaqil echish uchun).  $2NO_2(g) + 0,5 O_2(g) = N_2O_5(g)$  reaksiyaning issiqlik effektini quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida xisoblang:



## 6.5 bo'lim bo'yicha xulosalar.

$\Delta H$  holat funksiyasi bo'lganligi sababli Gess qonunini xoxlagan reaksiyaning issiqlik effektini xisoblashga qo'llash mumkin.



6.6. Reaksiyalarning standart entalpiyalari	6.3 jadval 25°C 298 K da tanlangan standart entalpiya
Formulalar	$\Delta H_f^\circ \text{ (kJ/mol)}$
Reaksiya sharoitlari o'zgarishi bilan termodinamik kattaliklar, ularning qatorida issiqlik effekti ham, o'z qiymatlarini o'zgartiradilar. Shu sababli reaksiyalarni o'rganish va solishtirish uchun kimyogarlar standart holatlardan deb ataluvchi maxsus sharoitlarni qabul qilishgan:	Calcium
• gaz uchun standart holat 1 atm.;	Ca (q) 0
• moddaning suvli eritmasi uchun standart holat moddaning 1M konsentratsiyali eritma;	CaO (q) -635,1
• toza modda uchun (element yoki birikma) standart holat 1 atm va 25°C (298 K) dagi uning eng barqaror formasi.	CaCO <sub>3</sub> (q) -1206,9
Reaksiyaning issiqlik effekti, uning barcha qatnashchilari (reagentlar va mahsulotlar) standart holatlarda bo'lgan holda aniqlangan bo'lsa, unda $\Delta H$ standart entalpiya $\Delta H_{\text{reaksiya}}^\circ$ kabi belgilanadi.	Carbon
<b>Xosil bo'lish tenglamalari va <math>\Delta H</math></b>	C (grafit) 0
Xosil bo'lish tenglamasi – elementlardan 1 mol	CO (g) -110,5
	CO <sub>2</sub> (g) -393,5
	CH <sub>4</sub> (g) -74,9
	CH <sub>3</sub> OH (s) -238,6
	HCN (g) 135
	CS <sub>2</sub> (s) 87,9
	Cholirine
	Cl (g) 121
	Cl <sub>2</sub> (g) 0
	HCl (g) -92,3
	Hydrogen
	H (g) 218
	H <sub>2</sub> (g) 0
	Nitrogen

moddaning xosil bo‘lishi. Standart xosil bo‘lish entalpiyasi ( $\Delta H_f^0$ ) – reaksiyaning hamma komponentlari standart holatda bo‘lganda aniqlangan xosil bo‘lish entalpiyalari:	N <sub>2</sub> (g)	0
C (grafit) + 2H <sub>2</sub> (g) = CH <sub>4</sub> (g) $\Delta H_f^0 = -74,9 \text{ kJ}$	NH <sub>3</sub> (g)	-45,9
Na(q) + 0,5 Cl <sub>2</sub> (g) = NaCl (q) $\Delta H_f^0 = -451,1 \text{ kJ}$	NO (g)	90,3
2C (grafit) + 3H <sub>2</sub> (g) + 0,5 O <sub>2</sub> (g) = C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH $\Delta H_f^0 = -227,6 \text{ kJ}$	Oxygen	
Standart xosil bo‘lish entalpiyalari ko‘p moddalar uchun jadvallarga tushirilgan (masalan, 6.3 jadval kabi). Ushbu jadvaldan ayrim xulosalar qilish mumkin	O <sub>2</sub> (g)	0
	O <sub>3</sub> (g)	143
	H <sub>2</sub> O (g)	-241,8
	H <sub>2</sub> O (s)	-285,8
	Silver	
	Ag (q)	0
	AgCl (q)	-127
	Sodium	
	Na (q)	0
	Na (g)	107,8
	NaCl (q)	-411,1
	Sulfur	
	S <sub>8</sub> (rombik)	0
	S <sub>8</sub> (monoklinik)	0,3
	SO <sub>2</sub> (g)	-296,8
	SO <sub>3</sub> (g)	-396

- metallsimon natriy uchun standart holat  $\Delta H_f^0 = 0$ ; lekin uni gaz holatga o‘tkazish uchun  $\Delta H_f^0_{\text{Na(g)}} = 107,8 \text{ kJ}$  issiqlik sarflash kerak.
- molekulalar xolidagi elementlar uchun standart holatda  $\Delta H_f^0 = 0$  ; masalan,  $\Delta H_f^0_{\text{Cl}_2} = 0$  , atom holidagi xlor uchun  $\Delta H_f^0_{\text{Cl}} = 121,0 \text{ kJ}$ .
- ayrim elemetlar bir necha allotropik shaklda bo‘ladi, lekin ularning bittasigina standart holat deb olinadi. Uglerodning standart holati grafit  $\Delta H_f^0 = 0$ ; kislороднинг standart holati azon O<sub>3</sub> emas, balki O<sub>2</sub>  $\Delta H_f^0 = 0$ . Oltingugurtning standart holati monoklinik oltingugurt emas, balki S<sub>8</sub>, ya’ni rombik oltingugurt  $\Delta H_f^0 = 0$ .

Ko‘pchilik birikmalar uchun  $\Delta H_f^0$  ning qiymatlari manfiy, ya’ni ko‘p moddalar ekzotermik reaksiyalar **6.9 muammo**. Quyida keltirilgan moddalarning xosil bo‘lish tenglamalarini yozing va ularning  $\Delta H_f^0$  larini ko‘rsating:


a) AgCl<sub>2</sub>(q); b) CaCO<sub>3</sub>(q); c) HCN




### **Boshlang‘ich moddalar va mahsulotlarning $\Delta H_f^0$ lari bo‘yicha reaksiyaning $\Delta H_f^0$ reaksiya ning qiymatlarini topish.**

$\Delta H_f^0$  qiymatlaridan turli reaksiyalarning issiqlik effektlarini  $\Delta H_f^0$  reaksiya xisoblashda foydalanish mumkin. Quyidagi

**6.10 rasm.** Boshlang‘ich moddalar va mahsulotlarning  $\Delta H_f^o$  lari bo‘yicha reaksiyaning  $\Delta H_f^o$  reaksiya ning qiymatlarini topishning ikki xil yo’li



$$\Delta H_{rxn}^o = \sum m \Delta H_f^o (\text{mehsulot}) - \sum n \Delta H_f^o (\text{reaksiya})$$




reaksiya uchun  $\Delta H_f^o$  reaksiya issiqlik effektini xisoblash kerak.

Gess qonuni va standart holat tushunchasi bo‘yicha  $\Delta H_f^o$  reaksiya mehsulotlar va boshlang‘ich moddalar xosil bo‘lish issiqliklari summalari  $\sum \Delta H_f^o$  orasidagi farqga teng va reaksiyaning yo‘liga bog‘liq emas. Shularga muvofiq

$$\Delta H_{f \text{ reaksiya}}^o = [\Delta H_f^o \text{ TiO}_2(\text{q}) + 4\Delta H_f^o \text{ HCl(g)}] - [\Delta H_f^o \text{ TiCl}_4(\text{s}) + 2\Delta H_f^o \text{ H}_2\text{O(g)}]$$

Umumiyl xolda:  $\Delta H_{f \text{ reaksiya}}^o = \sum m \Delta H_f^o (\text{mehsulotlar}) - \sum n \Delta H_f^o (\text{reagentlar})$ ; bu erda “m” va “n” to‘liq kimyoviy reaksiyaning tenglamasiga mos keluvchi mehsulotlar va reagentlarning mollar soni.

**6.10 (1) muammo.** Nitrat kislotasini ishlab chiqishning birinchi bosqichi ammiakni azot (2) oksidigacha oksidlashdan iborat, ya’ni



$\Delta H_f^o$  qiymatlari bo‘yicha  $\Delta H_{f \text{ reaksiya}}^o$  ni xisoblang.

**Echish:**


$$\begin{aligned} \sum \Delta H_{f \text{ r-ya}}^o &= [4\Delta H_f^o \text{ NO(g)} + 6\Delta H_f^o \text{ H}_2\text{O(g)}] - [4\Delta H_f^o \text{ NH}_3(\text{g}) + 5\Delta H_f^o \text{ O}_2(\text{g})] = \\ &[4 \cdot 90,3 + 6 \cdot (-241,8)] - [4 \cdot (-45,9) + 5 \cdot 0] = -906 \text{ kJ} \end{aligned}$$

mahsulotlar                    reagentlar

**Ilova:** Reaksiyaning mehsulotlari va reagentlarining  $\Delta N_f^o$  qiymatlari 6.3 jadvaldan olingan.

**6.10 (2) muammo:** (mustaqil ishslash uchun).

Quyida keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha  $\text{SN}_3\text{ON}(\text{s})$  uchun  $\Delta N_f^o$  ni aniqlang:



$$\Delta H_f^o \text{ CO}_2(\text{g}) = -393,5 \text{ kJ/mol}; \Delta H_f^o \text{ H}_2\text{O}(\text{g}) = -241,8 \text{ kJ/mol}$$

## 6.6 bo‘lim bo‘yicha xulosalar.

- Standart holatlar – ko‘p moddalar uchun termodinamik kattaliklarni aniqlash uchun foydalilanidigan maxsus sharoitlar;
- Reaksiyaning barcha komponentlari standart holatlarda olinganda 1 mol modda uning elementlaridan xosil bo‘lsa, entalpiyaning o‘zgarishi standart xosil bo‘lish entalpiyasi  $\Delta N_f^o$  kabi belgilanadi;
- $\Delta H_f^o$  ning jadvallardagi qiymatlari reaksiyaning  $\Delta H_{f \text{ r-ya}}^o$  qiymatini aniqlashda qo‘llaniladi:

## Asosiy atamalar

<b>6.1 bo'lim</b> issiqlik (190), ish (190), energiyaning saqlanish qonuni (termodynamikaning birinchi qonuni (193), Joul (193), kaloriya (193), holat funksiyasi (194).	<b>6.2 bo'lim.</b> PV – ish (195), entalpiya (195), entalpiyaning o'zgarishi (195), ekzotermik jarayon (196), entalpiya diagrammasi (196), endotermik jarayon (196).	<b>6.3 bo'lim.</b> Issiqlik o'tkazuvchanlik solishtirma issiqlik o'tkazuvchanlik molyar issiqlik o'tkazuvchanlik kalorimetriya (198). <b>6.4 bo'lim.</b> Termokimyoviy tenglama (201).	<b>6.5 bo'lim.</b> Gess qonuni (203). <b>6.6 bo'lim.</b> Standart holat reaksiyaning standart entalpiyasi (205), xosil bo'lish tenglamasi (205), standart xosil bo'lish entalpiyasi (205), yonilg'ilar (207).
--	--	--	---

### Asosiy tenglamalar va munosabatlar

**6.1.** Ichki energiyaning o'zgarishini aniqlash (190):

$$\Delta E = E_{ox.} - E_{boshl.} = E_{mahs.} - E_{reag.}$$

**6.2.** Ichki energiya o'zgarishini issiqlik va ish orqali ifodasi (190):

$$\Delta E = q + w$$

**6.3.** Termodinamika birinchi qonunining (energiyaning saqlanish qonuni) ifodasi (193):

$$\Delta E_{olam} = \Delta E_{sistema} + \Delta E_{atrof\ muxit} = 0$$

**6.4.** O'zgarmas bosimda hajm o'zgarishi xisobiga bajarilgan ishni aniqlash (195):

$$w = -P\Delta V$$

**6.5.** O'zgarmas bosimda entalpiya o'zgarishi bilan ichki energiya o'zgarishi orasidagi munosabat (195):  $\Delta H = \Delta E + P\Delta V$

**6.6.** O'zgarmas bosimda yutilgan yoki chiqarilgan issiqlik orqali entalpiya o'zgarishini aniqlash (196):

$$q_p = \Delta E + P\Delta V = \Delta H$$

**6.7.** Kimyoviy reaksiya borishida yutilgan va chiqarilgan issiqlikn xisoblash (197):

$$q = C \times \text{massa} \times \Delta T$$

**6.8.** Reaksiyaning umumiy entalpiyasi o'zgarishini xisoblash (203):

$$\Delta H_{umumiy} = \Delta H_1 + \Delta H_2 + \dots + \Delta H_n$$


**6.9.** Reaksiyaning standart entalpiyasini xisoblash (207):

$$\Delta H^{\circ}_{reaksiya} = \sum m \Delta H^{\circ}_f(\text{mahsulotlar}) - \sum n \Delta H^{\circ}_f(\text{reagentlar})$$

### 3.2. amaliy mashqulot

**1-masala.** 14g.temir kislород bilan birikib,  $Fe_2O_3$  hosil qi'lishda 102,09kj.issiqlik ajralib chiqqan. Temir (III)-oksidning hosil bo'lish issiqligi Hni toping.

**Yechish:** Reaksiyaning termokimyoviy tenglamasi:



Reaksiya tenglamasiga muvofiq 2 mol (2mol Fe – 112g.) temirdan 1 mol  $Fe_2O_3$  hosil bo'lgani uchun bu reaksiya vaqtida ajralib chiqqan issiqlik miqdori ( $\Delta H_{xb}$ ),  $Fe_2O_3$ ning hosil bo'lish issiqligiga teng bo`ladi. Shunga asosan :

$$14g. \dots \dots \dots 102,09 \text{ kj.}$$

$$112g. \dots \dots \dots \Delta H_{xb}, \text{ kj, bundan}$$

$$\Delta H_{xb} = \frac{112 \cdot 102,09}{14} = 816,72 \text{ kj}$$

Demak,  $Fe_2O_3$  ning hosil bo'lish issiqligi 816,72 kj teng,  $\Delta H_{xb} = 816,72 \text{ kj}$

**2-masala.** Quyidagi kimyoviy tenglama bilan ifodalangan neytrallanish reaksiyasining issiqlik effektini xisoblang  $HNO_3 + NaOH = NaNO_3 + H_2O$

**Yechish:** Gess qonunidan kelib chiqadigan xulosaga asosan, reaksiyasining issiqliq effektini topish uchun reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lish issiqliklari yigindisidan reaksiya uchun olingan moddalarning hosil bo'lish issiqliqlari yigindisi ayiriladi.

$$\Delta H_{kr} = (\Delta H_{x b NaNO_3} + \Delta H_{x b H_2O(s)}) - (\Delta H_{x b HNO_3} + \Delta H_{x b NaOH})$$

Bu tenglikka jadvaldan  $HNO_3$ ,  $NaOH$ ,  $NaNO_3$ ,  $H_2O(s)$  larning hosil bo'lish issiqliklari qiymatlarini topamiz.

$$\Delta H_{kr} = [(-467,35) + (285,77)] - [(-173,21) + (426,77)] = -153,14 \text{ kJ.}$$

Demak, reaksiyasining issiqlik effekti  $-153,14 \text{ kJ}$ ga teng.

### 3.3. Laboratoriya ishi.

#### Tuzning erish issiqlik effektini aniqlash.

**Ishning maqsadi:** soddalashtirilgan kalorimetrik yordamida erish yoki neytrallanish issiqliklarini aniqlash. Olingan natijalar asosida termodinamik konstantalar jadvali va tegishli formulalardan foydalanib, hisoblash ishlarini bajarish.

Laboratoriya ishini bajarish uchun quyidagi tushunchalarni (qonunlarni) o'zlashtirish, bilish va hisobot ishlarini qila bilish zarur:


- a) termakimyoiy reaksiyalar, issiqlik effekti  $\Delta H$  endotermik va ekzotermik jarayonlar, ichki energiya, standart sharoit, moddaning hosil bo'lish, parchalanish, erish va yonish issiqliklari;
- b) Laviuze-Laplas qonuni, Gess qonuni va undan kelib chiqadigan natija.
- c) Standart sharoitda Gibbs energiyasi qiymatidan foydalanib, reaksiyaning borish yo'naliishini aniqlash.

Soddalashtirilgan kalorimetri tuzilishi: kalorimetrik ikkita tashqi va ichki stakanlardan tuzilgan. Tashqi muhitda izolator vazifasini stakanlar orasidagi havoqatlami vaasbobning qopqog'i bajaradi. Aralashtirgich va termometr yordamida eritma haroratining o'zgarishi (ko'tarilishi yoki pasayishi) aniqlanadi.

Ishni bajarish tartibi:

O'qituvchidan vazifaoling va quyidagilarni bajaring:

1) Berilgan tuzning molar massasini hisoblang.  
 2) Shu tuzning 0,04 mol miqdorga teng bo'lgan massasini (naveska) hisoblang.



#### 4.1-Rasm. Soddalashtirilgan kalorimetri tuzilishi

Hisoblangan qiymatlarni hisobot varag'ining kuzatish natijalari qismiga yozing.

Kalorimetrdagi ichki stakanga 0,6 ml suv quying ( $P(H_2O)=1 \text{ g/mol}$  bo'lgani sababli  $W_{(H_2O)} = 30 \text{ g}$  bo'ladi.), qopqoqni yopib, suvga termometr va aralashtirgich tushiring. Asbob qismlari kalorimetrdagi suv harorati tenglashgandan so'ng ichki stakandagi suv haroratini o'lchab hisobot varag'iga yozing. Hisoblangan tuz naveskasini kalorimetrdagi suvga soling

vaaralashtirgich bilan tez-tez aralashtirib, termometr yordamida haroratning o'zgarib borishini kuzatib boring. Harorat o'zgarishi to'xtagandan so'ng hosil bo'lgan eritma haroratini aniqlang va belgilab hisobot varag'iga yozing. Qolgan hisobotlarni quyidagi ko'rsatmalar asosida laboratoriya jurnalida bajaring:

1) Tuz erish issiqligining nazariy qiymati  $H_{naz}$  jadvaldan olinadi.  
Bunda  $Q_{naz} = -\Delta H_{naz}$  tengligini nazarda tutish kerak.

- 2) Eritma massasi;
- 3) Haroratlar farqi;
- 4) Tuz naveskasining erishdagi kuzatilgan issiqlik effekti;

$$Q_{erish} = c_e m_e (\Delta t (kal))$$

$C_e$  – eritmaning issiqliksig'imi  $C=1$  kal/g.grad. yoki  $C=47,2$  J/g.grad.

5)  $\Delta H_{erish} = 1$  mol tuzning erish issiqligi kal/mol;

$\Delta H_{erish} = m_{tuz}$  proporsiyasidan

$$\Delta H_{erish} = \frac{Q_{erish} \cdot M_{tuz}}{m_{tuz}} \text{ kal/mol bo'ladi.}$$

6) 1 kkal = 1000 kal bo'lgani uchun

$$\Delta H_{erish} = \frac{\Delta H_{erish}}{1000} \text{ kkal bo'ladi.}$$

7) Mutloq  $\Delta H$  va nisbiy xato  $\delta H$  - larni hisoblang:

$$\Delta H = -\Delta H_{naz} - \Delta H_{erish} \quad \delta H = \frac{\Delta H_{erish}}{\Delta H_{naz}} \cdot 100$$

Integral erish issiqligi

$\Delta H_m$  – 1 mol modda shuncha miqdorda erituvchida eriganda hosil bo'lgan issiqlik effektidir:

$$\Delta H = \frac{C_k \cdot \Delta t \cdot M}{m_{tuz}}$$

$C_k$ -1 mol modda uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori kalorimetrik sistemasining issiqlik sig'imi deyiladi. Bu kattalikni hisoblash uchun kalorimetrdagi suyuqlik, u bilan almashuvda ishtirok etuvchi aralashtirgich, termometr va boshqalarning issiqlik sig'imi yig'indisiga teng. Kalorimetrdagi har bir qismning yig'indisiga teng.

$$C_k = \sum c_i m_i = c_{CT} \cdot m_{CT} + c_{mesh} \cdot m_{mesh} + c_{H_2O} \cdot m_{H_2O} + 0.46 \cdot V_{tp} V_{tp}$$

Termometrning hajmi kalorimetrdagi suyuqlikka botirilgan hajmi bilan aniqlanadi. Termometrning issiqlik sig'imi aniqlanganda simob va shishanining solishtirma issiqlik sig'imi tahminan bir xil deb qabul qilinadi.

Mutloq  $\Delta H$  va nisbiy xato  $\delta H$  larni hisoblang:

$$\Delta H = -\Delta H_{naz} - \Delta H_{erish} \quad \delta H = \frac{\Delta H_{erish}}{\Delta H_{naz}} \cdot 100$$

Ish bo'yicha hisobot: quyidagi tushunchalarga ta`rif bering:

1. Reaksiyaning issiqlik effekti;
2. Endotermik jarayon,  $\Delta H$  qiymati;
3. Ekzotermik jarayon,  $\Delta H$  qiymati;
4. Standart sharoit;
5. Murakkab moddaning standart sharoitdagi;
  - a) hosil bo'lish entalpiyasi  $\Delta H$ ;
  - b) erish entalpiyasi  $\Delta H$ ;
6. Neytrallanish reaksiyasining entalpiyasi;
7. Lavaazye-Laplas qonuni;

8. Gess qonuni va uning matematik ifodasi;
9. Gess qonunidan kelib chiqadigan xulosa va uning matematik ifodasi;

### 3.1-Jadval

#### Moddaning solishtirma issiqlik sig'imi

Moddalar	Solishtirma issiqlik sig'imi, kal/g.grad.
Latun	0,0930
Mis	0,0911
Shisha	0,0890
Suv	1,0
Probka	0,485
Rezina	0,5
Simob va shisha	0,46

### 3.2-Jadval

#### Tajriba natijalari bo'yicha hisoblash.

	Hisoblash formulasi	Natija	Eslatma
$\Delta t^{\circ}\text{C}$ -haroratlar farqi	$\Delta t = t_2 - t_1$		
$m_{\text{eritma}} - \text{eritmaning massasi g.}$	$m_{\text{eritma}} = m_{H_2O} + m_{\text{tuz}}$		
$Q_e - \text{tuz naveskasining erish issiqlik effekti kJ.}$	$Q_{\text{er}} = C_e \cdot m_{\text{eritma}} \cdot \Delta t$		$C = \text{kJ/g.grad.}$
$\Delta H_{\text{er}} - \text{tuzning erish entalpiyasi kJ/mol}$	$\Delta H_{\text{erish}} = \frac{Q_{\text{erish}} M_{\text{tuz}}}{m_{\text{tuz}}}$		
<b>XATO:</b> $\Delta H_{\text{abs}} - \text{mutloqxato.}$ $b - \text{nisbiyxato.}$	$\Delta H_{\text{abs}} = \Delta H_{\text{naz}} - \Delta H_{\text{erish}}$ $b_{\text{nis}} = \frac{\Delta H_{\text{erish}}}{\Delta H_{\text{naz}}} \cdot 100\%$		

### 3.3-Jadval

#### KUZATISHLAR NATIJASI.

Tuzning formulasi	M tuzning molar massasi g/mol	$m_{H_2O}$	$m_{\text{tuz}}$	Harorat		$\Delta N_{\text{naz}}$ kJ/mol. tuz erish issiqligining qiymati
				$t_1$	$t_1$	

### 3.4-Jadval


#### Bazi moddalarning $20^{\circ}\text{C}$ erish issiqligi (kkal; kj/mol)

Moddalar	Erishissiqligi		Moddalar	Erishissiqligi	
	kkal	kj		kkal	kj
$\text{KNO}_3$	-8,54	-35,75	$\text{ZnSO}_4 \cdot 7 \text{H}_2\text{O}$	-4,28	-17,9

$NaNO_3$	-5,04	-21,03	$ZnSO_4$	18,54	77,59
$NH_4NO_3$	-6,42	-26,9	$CuSO_4 \cdot 5 H_2O$	-2,8	-11,7
$NH_4Cl$	-3,89	-16,3	$CuSO_4$	15,9	-66,54
$K_2SO_4$	-6,42	-26,88	$Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$	-13,76	-78,51
$Na_2CO_3$	5,63	23,6	$H_2SO_4$	13,09	75,7
NaOH	10,1	42,24	KOH	12,7	53,13
$HNO_3$	7,45	31,16	$Na_2CO_3 \cdot 10 H_2O$	-15,91	-66,53

### 3.4. Tarqatma material


- Formaldegid yonish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:  
 $HCOOH + O_2 = CO_2 + 5_{(bu\ g)} + 561\text{ kJ}$ . Formaldegidning hosil bo'lish issiqligini xisoblang.
- Moddalarning hosil bo'lish issiqliklari qiymatlaridan foydalanib, quyidagi termokimyoviy tenglama bilan ifodalangan reaksiyalarning issiqlik effektini xisoblang .
  - $CO_2 + C = 2CO + Q_{kr}$
  - $MgO + CO_2 = Mg CO_3 + Q_{kr}$
  - $CaCO_3 = CaO + CO_2 + Q_{kr}$
  - $Fe_2O_3 + 3CO = 2Fe + 3CO_2 + Q_{kr}$
- $KNO_3$  ning erish issiqligi 35,8kj/molga teng, 7,5g.  $KNO_3$  150g. suvda eritilganda harorat necha gradusga pasaishini xisoblang ? (javob: 15,71°C).
- 49g. sulfat kislota 400g. suvda eritilganda harorat 22,4 gradusga kutarildi. Eritmaning solishtirma issiqlik sigini 3,77kj/g teng. Sulfat kislotaning erish issiqligini xisoblang. (javob: 67,56kj/mol).
- 10g.suv siz Cu SO<sub>4</sub> 200g. suvda eritilganda eritmaning harorati 4,74 °C ga ortadi.  
 $CuSO_4 \cdot 5 H_2O$  erish issiqligi 11,92kj/mol. Mis sulfat gidratlanish issiqligini toping (javob: 78,37 kj/mol).
- Suv siz Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> 200g. suvda eritilganda eritmaning harorati 20 °C dan 30 °C gacha kutariladi.  $Na_2CO_3 \cdot 10 H_2O$  ning erish issiqligi 57,52kj/mol. Natriy karbonatning gidratlanish issiqligini xisoblang.
- Bir mol etil spirti yondirilganda sodir bo`ladigan reaksiyaning issiqlik effektini toping . Etil spirti, kislorod, uglerod(IV)-oksid va suv bo`gning hosil bo'lish entalpiyalari quyidagi qiymatlarga teng:




- Uglerod(II)-oksidning yonish reaksiyasi tenglamasi quyidagicha:  
 $CO + (1/2) O_2 = CO_2 \quad \Delta H_{x b CO_2} = -284,7 \text{ kJ/mol}$ .  
 4,187kj. issiqlik ajralib chiqishi uchun (n.sh)da necha litr uglerod(II)-oksidni yondirish kerak? (javob: 1001 CO).
- Quyidagi reaksiyaning  $\Delta G$  qiymatini aniqlab, standart sharoitda borish yo`nalishini toping  $NiO(k) + Pb(k) = Ni(k) + PbO(k)$   
 $\Delta G_{NiO} = -211,6 \text{ kJ/mol}; \quad \Delta G_{PbO} = -189,1 \text{ kJ/mol}$
- Quyidagi reaksiyaning  $\Delta G$  qiymatini aniqlab, standart sharoitda borish yo`nalishini toping  $Pb(k) + CuO(k) = Cu(k) + PbO(k)$   
 $\Delta G_{CuO} = -129,9 \text{ kJ/mol}; \quad \Delta G_{PbO} = -189,1 \text{ kJ/mol}$

### 3.5- Test sinov variant savollari

- Quyidagi reaksiyaning  $\Delta S$  qiymatini aniqlang?



2. Quyidagi reaksiyaning  $\Delta G$  qiymatini aniqlang?



- A. 3285 kJ    B. -3285 kJ    C. -1542 kJ    D. 1542 kJ    E. 4827 kJ

3. Quyidagi reaksiyada 2 mol  $\text{H}_2\text{O}$  hosil bo'lishida sarflangan issiqlik miqdorini aniqlang  $\text{HgO} + \text{H}_2 = \text{Hg} + \text{H}_2\text{O}$

- A. 151,13 kJ    B. -151,13 kJ    C. 302,26 kJ    D. -302,26 kJ    E. 453,39 kJ

4. Quyidagi reaksiyada 1 litr asetilenning yonishida 58,2 kJ issiqlik ajralsa, reaksiyaning H aniqlang

- A. -1303,7 kJ    B. 1303,7 kJ    C. -226 kJ    D. 226 kJ    E. 452 kJ

5. Mis oklsidning ko'mir bilan qaytarilganda  $\text{CuO}(\text{k}) + \text{C}(\text{grafit}) = \text{Cu}(\text{k}) + \text{CO}(\text{gaz})$   
 $\Delta H = 51,52 \text{ kJ}$  issiqlik yutildi. Misning qanday massasida 1,16 kJ issiqliq yutiladi?

- A. 15 g.    B. 8 g.    C. 4 g.    D. 2 g.    E. 13 g.

6. 0,1 kg. metanol ( $\text{CH}_3\text{OH}$ ) yonishi natijasida qancha miqdor (kJ) issiqliq chiqadi?

- A. 579,47    B. 745,8    C. 2123,0    D. 2271    E. 2371

7.  $1,8 \cdot 10^2$  kg. Al kislorod bilan birikkanda 558,33 kJ issiqliq ajraladi.  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ning hosil bo'lish issiqligini xisoblang.

- A. 1574    B. 2332    C. 4664    D. 9328    E. 11992


8. Quyidagi keltirilgan reaksiya uchun issiqlik effekti qanday xisoblanadi

- $\text{CO}_{(\text{gaz})} + \text{H}_2\text{O}_{(\text{bu'})} = \text{CO}_{2(\text{gaz})} + \text{H}_{2(\text{gaz})}$
- A.  $\Delta H_{\text{kr}} = [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO}_2)} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2)}] - [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO})} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2\text{o})}]$
- B.  $\Delta H_{\text{kr}} = [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO})} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2\text{o})}] - [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO}_2)} + \Delta H_{\text{xb}(\text{NaOH})}]$
- C.  $\Delta H_{\text{kr}} = [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO}_2)} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2)}] - [\Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2\text{o})} + \Delta H_{\text{xb}(\text{CO}_2)}]$
- D.  $\Delta H_{\text{kr}} = [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO}_2)} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2)}] - [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO})} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2\text{o})}]$
- E.  $\Delta H_{\text{kr}} = [\Delta H_{\text{xb}(\text{CO})} + \Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2\text{o})}] - [\Delta H_{\text{xb}(\text{H}_2)} + \Delta H_{\text{xb}(\text{CO}_2)}]$

9. Quyidagi jarayon uchun  $\Delta G_{298} \text{ kJ}$  ni aniqlang  $3\text{SiO}_2 + 4\text{B} = 3\text{Si} + 2\text{B}_2\text{O}_3$ , standart sharoitda bu reaksiya boradimi yoki yo'kmisi?

- A. 45,7 yok    B. -45,7 ha    C. 98,74 ha    D. -98,74 yok    E. 144,11 ha

10. 1 mol metan ( $\text{CH}_4$ ) yonganda ajralgan issiqlik miqdorini aniqlang



- A. 890,31    B. -891,31    C. 74,88    D. -74,88    E. 144,76

**Adabiyotlar:** M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 188-215 betlar.

## 8. KIMYOVIY KINETIKA. REAKSIYA TEZLIGI. KIMYOVIY MUVOZANAT.

**Reja:**

1. Kimyoviy kinetika.
2. Gomogen sistemalarda kimyoviy reaksiya tezligi.
3. Geterogen sistemalarda kimyoviy reaksiya tezligi.
4. Kataliz haqida tushuncha. Gomogen va geterogen kataliz. Katalizatorlar va ingibitorlar.

- Kinyoviy muvozanat. Qaytar va qaytmas reaksiyalar. Kimyoviy muvozanat konstantasi, Le-Shatelé printspi.

**Tayanch so'zlar:** sistema, gomogen sistemalarda kimyoviy reaksiya tezligi, Geterogen sistemalarda kimyoviy reaksiya tezligi. Katalizatorlar va ingibitorlar. Muvazanat.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** Kimyoviy raeksiyalar tezligiga unga ta'sir etuvchi faktorlar haqida tushunchalarni shakllantirish. Kimyoviy muvozanat haqida tushunchalarni o'rgatish.

### Kimiyoviy reaksiyalarning tezligi. Kimyoviy reaksiyalar tezligiga turli xil faktorlarning ta'siri.

**O'qituvchi maqsadi:** talabalarga kimyoviy kinetika haqida, kimyoviy reaksiyalar tezligiga harorat, bosim, katalizatorlar va boshqa omillarning ta'siri haqida tushuncha berish.

**Talabalar uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Kimiyoviy reaksiyalar tezligi haqida tushuncha berish.

Kimiyoviy reaksiyalar tezligiga haroratning ta'siri. Vant-Goff formulasini izohlash.

Kimiyoviy reaksiyalar tezligiga katalizator ta'sirini tushuntirish.

Massalar ta'siri qonuni va uni keltirib chiqarish.

#### 1 – asosiy savolning bayoni

Reaksiyaning tezligi bu regent konsentriyasinining mahsulot tomonga, vaqt birligi ichida o'zgarishiga aytildi. Reaksiyalaring tezliklari keng diapazonga ega, ammo har bir reaksiya berilgan sharoitlar ostida maxsus tezlikka ega bo'ladi. Reagentlar reaksiyaga butunlay kirishishi uchun tezlik konsentratsiya va reagentlarning fizik holatiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, tezlik temperaturaga bog'liq bo'ladi, chunki moddalar etarli kinetik energiya bilan reaksiyaga kirishishi kerak.

Reaksiya agar boshida tez boshlansa, reagentning konsentratsiyasi maksimal bo'lsa va oxirida minimal bo'lsa tezlik o'zgaradi. Konsentratsiyaning umumiy vaqt bo'ylab o'zgarishiga o'rtacha tezlik deb ataladi, oniy tezlik esa xar qanday vaqtdagi o'zgarishidir.



Moddalar almashinuvni tezligi jarayoni sovuq mijozli hayvonlarda, cho'ldagi toshbaqada kunning yarmigacha haroratning ko'tarilishini ta'sirini olishimiz mumkin. . Bu bobda reaksiya tezligiga harorat va boshqa ayrim faktorlarni ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Reaksiya tezligi tezlik qonuni (yoki tezlik tenglamasiga) bo'ysunadi. Ushbu tenglamaga temperaturaga bog'liq bo'lgan tezlik konstantasi va eksponensial o'zgaruvchan, bir yoki undan ko'p konsentratsiya kiradi (boshqacha aytganda *reaksiya tartibi* deyiladi va u reagentnin konsentratsiyasi qanday qilib tezlikka ta'sir qilishini ko'rsatib beradi). Tezlik qonunini faqat tajribadan topish mumkin va bunda xech qanday nazariy xisoblashlar yordam bermaydi.

Umumiy tezlik qonunida o'zgaruvchanlar sifatida faqat konsentratsiya va vaqt mavjud. SHuningdek, reaksiya tartibini topish uchun reagentlarning yarim emirilishi ishlataladi (yarim emirilish – reagentning yarmi ishlatib bo'linishi uchun ketgan vaqt). Birinchi tartibli reaksiyaning yarim emirilishi reagentning konsentratsiyaga bog'liq emas.

To'qnashuvlar nazariyasi ta'kidlashicha, molekulalar reaksiyaga kirishishi uchun minimum energiya, faollanish energiyasi ( $E_A$ ), bilan to'qnashishi kerak. Temperatura bilan tezlikning o'sishi va  $E_A$  bilan kamayishini Arrenius tenglamasi ko'rsatadi. Yuqori temperaturalarda

to‘qnashuvlar soni ortada va, eng muhim, to‘qnashuvlar energiyasi  $E_a$  dan yuqori bo‘ladi. To‘qnashuvlar effektiv bo‘lishi uchun to‘qnashayotgan molekulalardagi atomlar bir-biri bilan to‘g‘ri yo‘nalishda joylashishlari kerak.

O‘tish holati nazariyasi ta’kidlashicha, bir onda hosil bo‘luvchi molekulalarning (asosan parchalangan bog‘li zarrachalar tutishadi) paydo bo‘lishi uchun  $E_a$  kerak bo‘ladi. Reaksiyaning har bir bosqichi o‘tish xolatiga (faollashgan kompleks) ega bo‘ladi.

Kimyogarlarning fikriga ko‘ra, butun reaksiya uchun reaksiya tezligini ifodalash uchun uning har bir elementar bosqichlarini bilish kerak va ularning har biri o‘z tezligiga ega, elementar bosqichlar summasi balansli umumiyligi reaksiya tenglamasini berishi kerak. Bunda eng sekin reaksiya bosqichining tezligi (tezlikni aniqlovchi bosqich) bo‘yicha umumiyligi reaksiya tezligi aniqlanadi.

Katalizator bu reaksiyon aralashmadagi modda bo‘lib, reaksiya tezligi oshiradi va o‘zi sarflanmaydi. Katalizator eng sekin bosqichning  $E_a$  sini kamaytirib beradi. Katalizator reagentlar va mahsulotlar bilan bir xil (gomogen) yoki turli (geterogen) agRejat holatlarda bo‘lishi mumkin. Ular barcha sanoat reaksiyalari, hamda biologik reaksiyalarning asosiy mahsulotlari hisoblanishadi.


Kimyoviy reaksiyalar tezligi to‘g‘risidagi ta‘limot kimyoviy kinetika deb ataladi. Ma`lumki ba`zi reaksiyalar juda tez sodir bo‘ladi, masalan: moddalarning portlashi bir onda tamom bo‘ladi, ba`zi reaksiyalar esa soatlar, oyalar va hatto yillar bo‘yi davom etadi.

Kimyoviy reaksiyalar tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatiga, haroratiga, dastlabki modda konsentratsiyalariga, bosimga, katalizatorning ishtirok etish-etmasligi, erituvchi tabiatiga (agar ular eritmada ketsa) yorug‘lik ta’siriga va boshqa ko‘pgina faktorlarga bog‘liq.

Umuman olganda «kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kiruvchi moddalar konsentratsiyalarining vaqt birligi ichra o‘zgarishi bilan o‘lchanadi». Agar reaksiyaning tezligi 0,3 mol/l bo‘lsa, bir minutda har bir moddadan 0,3 mol reaksiyaga kirishgan bo‘ladi.


Reaksiya tezligiga haroratining ta’siri.

Kimyoviy reaksiyada reagentlar mahsulotlarga aylanadi. Ushbu o‘zgarish qanday tez bo‘lganini o‘rganuvchi, **kimyoviy kinetika** reaksiya tezligiga (reagentlar konsentratsiyasi o‘zgarishining vaqtga nisbatan funksiyasi) urg‘u beradi. Turli reaksiyalar turli tezliklarga ega bo‘lishadi: *tezroq reaksiyalarda (kattaroq tezlik) reaksiya konsentratsiyasi tez kamaysa, sekinrok reaksiyada (kichikroq tezlik) u sekinklik bilan kamayadi* (16.1 rasm).




16.1 rasm. Tezroq reaksiya (yuqorida) va sekinrok reaksiya (quyida). Reaksiya mobaynida reagentning konsentratsiyasi kamayadi va mahsulotniki ortali.

Har qanday berilgan sharoitlarda moddaning tabiatini tezlikni aniqlaydi. Masalan, xona temperaturasida vodorod ftor bilan juda tez, ammo azot juda sekin reaksiyaga kirishadi:



(judatuz)



(judasekin)

Demak, har qanday reaksiya turli sharoitlarda turli tezliklarga ega.

Kimyoviy jarayonlar juda keng tezliklar diapazonlariga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, neytralizatsiya, portlashga bir necha sekund ketishi mumkin. Mevalarning chirishiga o‘xshash, bir necha bosqichga ega reaksiyalarning ketishi uchun kunlar va oylar ketishi mumkin.

Albatta xech kim o‘lgan o‘simpliklardan million yil mobaynida ko‘mir bo‘lishini kutishni xoqlamaydi. Reaksiya tezligini bilish xayot va o‘lim orasidagi farqni, sanoatda mahsulot hosil bo‘lishi uchun ketgan vaqt orasidagi farqni bilishga yordam beradi.

Biz tezlikka ta’sir qiluvchi 4 faktorni nazorat qila olamiz: reagentlar konsentratsiyasi, fizik holat, reaksiya temperaturasi va katalizator. Biz bu bo‘limda birinchi uchtasini ko‘rib chiqamiz va oxirgi to‘rtinchisini ko‘rib chiqamiz.


1. *Konsentratsiya, molekulalar reaksiyaga kirishishi uchun bir-biri bilan to‘qnashishi kerak.* Reaksiya tezligiga ta’sir qiluvchi asosiy faktor bu reagentlarning konsentratsiyasidir, chunki reaksiya faqat molekulalar to‘qnashganida amalga oshadi. Qanchalik ko‘p molekulalar bo‘lsa, ularning to‘qnashish ehtimoli shunchalik ortadi va reaksiya amalga oshadi. SHu sababdan, reaksiya tezligi reagentlar konsentratsiyasiga proporsionaldir

2. *Fizik holat,* molekulalar to‘qnashishi uchun aralashishi kerak. SHuningdek, reagentlar qanchalik oson aralashishini aniqlaydigan to‘qnashuvlar chastotasi fizik holatga bog‘liq bo‘ladi. Reagentlar bir xil fazada bo‘lishsa, masalan suvli eritmada, xar qanday termik siljish molekulalarning to‘qnashuviga olib keladi. Agar reagentlar turli fazalarda bo‘lishsa, reaksiya faqat fazalar yuzasida sodir bo‘ladi, shuning uchun ular yuzasini maydalash bilan ko‘paytirish kerak. SHu sababdan, qattiq yoki suyuq fazalar qancha ko‘p yuzalarga bo‘lingan bo‘lsa ularning tezligi shuncha tez bo‘ladi. Masalan, qalin po‘lat bo‘lagi kislород оқимидан ўнмайди, ammo xuddi shu sharoitlarda yupqa po‘lat bo‘lagi osonlik bilan alangalanadi.

3. *Temperatura: molekulalar yetarli energiya bilan to‘qnashishlari kerak.* Odatda temperatura reaksiya tezligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ikkita oshxonha jixozi bu ta’sirni ko‘rsatib beradi: muzlatgich ovqatdagi kimyoviy jarayonlarni sekinlashtirib beradi va gaz pechi kimyoviy jarayonlarni tezlatib beradi. CHastota va to‘qnashuvlar energiyasini ko‘paytirgan holda temperatura reaksiya tezligiga ta’sir ko‘rsatadi.

- To‘qnashuvlar chastotasi. Gaz na’munasidagi molekulalar turli tezliklarga ega bo‘ladi, turli temperatura futsnksiyalariga ega bo‘lib. SHu sababdan, yuqori temperaturalarda to‘qnashuvlar chastotasi ortadi va ko‘p molekular reaksiyaga kirishadi.

- To‘qnashuvlar energiyasi. Temperatura asosan reaksiyadagi molekulalarning energiyasiga va to‘qnashuvlar energiyasiga ta’sir qiladi. Ko‘p to‘qnashuvlarda molekulalar bir-biri bilan urilishi uchun etarli darajada energiyaga ega bo‘lishadi. Ammo, ba’zi to‘qnashuvlarda molekulalar energiyasi etarli bo‘lmaydi., Azot monooksid (NO) va ozon ( $O_3$ ) orasidagi to‘qnashuvlar natijasini 16.2 rasm ko‘rsatadi. Yuqori temperaturalarda etarli energiyali molekulalar to‘qnashadi va ko‘proq molekulalar reaksiyaga kirishadi:



16.2 rasm. Reaksiya amalga oshishi uchun yetarli to‘qnashuv energiyasi kerak bo‘ladi.

Kimyoviy kinetika reaksiya tezligini, vaqt mobaynida konsentratsiyaning o‘zgarishini o‘rganadi.

Berilgan sharoitlarda har bir reaksiya o‘zining tezligiga ega.

Reagent molekulalari orasidagi to‘qnashuv chastotasini orqali konsentratsiya reaksiya tezligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Reagentlar qanday aralasha olishini aniqlash orqali fizik holat tezlikka ta’sir ko‘rsatadi.

Reagent molekulalari orasidagi to‘qnashuv chastotasini va energiyasiga ta’sir qilish orqali temperatura tezlikka ta’sir qiladi.

Vant-Goff o'zining tajribalari asosida harorat har  $10^0\text{C}$  ga oshganda reaksiyaning tezligi 2-4 marta ortishi aniqlandi. Faraz qilaylik, biror reaksiyaning tezligi har  $10^0\text{C}$  da 2 marta yoki 100% ortsin. Agar  $10^0\text{C}$  da reaksiya tezligiga 1 ga teng bo'lsa,  $10^0\text{C}$  da 2 ga,  $20^0\text{C}$  da 4 ga,  $30^0\text{C}$  da 8ga,  $40^0\text{C}$  da 16 ga,  $50^0\text{C}$  da 32 ga,  $60^0\text{C}$  da 64 ga,  $70^0\text{C}$  da 128 ga,  $80^0\text{C}$  da 256 ga,  $90^0\text{C}$  da 512 ga,  $100^0\text{C}$  da 1024 ga teng bo'ladi. Demak, harorat arifmetik progressiya bilan ortandi. Harorat  $100^0\text{C}$  ortganda reaksiya tezligi 124 marta ortadi. Agar reaksiyaning  $0^0$  dagi tezligini  $V_0$  bo'lsa, t dagi tezligini  $V_t$  bilan belgilasak reaksiya, tezligini harorat bilan o'zgarishini quyidagi formula bilan aniqladi.

$$V_t = V_0 \cdot \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

Bu yerda  $\gamma$  – reaksiyaning harorat koeffitsienti deb yuritiladi va harorat  $10^0\text{C}$  ko'tarilganda reaksiya tezligining necha marta oshishini ko'rsatuvchi son.

### **Reaksiya tezligiga konsentratsiyaning ta'siri.**

Reaksiya tezligiga konsentratsiyaning ta'sir etishi sababi shundaki, moddalar bir - biri bilan reaksiyaga kirishishi uchun shu moddalarning zarrachalari bir - biri bilan to'qnashadi. Lekin birga to'qnashishlarning o'z qismigina reaksiyaga olib keladi. Vaqt birligi ichida yuz beradigan to'qnashishlarning soni o'zaro to'qnashayotgan zarrachalarning konsentratsiyalariga proporsional bo'ladi. Demak, to'qnashish ham ko'p bo'ladi. Reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasi bilan reaksiya tezligi orasidagi qonuniyatni 1865 yilda rus olimi N.Beketov kashf etdi. 1867- yilda esa Norvegiyalik (matematik) ikki olim Gulberg hamda Vaaage bu qonuniyatning matematik ifodasini chiqardilar. Bu qonun massalar ta'sir qonuni deb ataladi va quyidagicha ta'riflanadi.

### **«Kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari ko'paytmasiga proporsionaldir».**

Faraz qilaylik, A va B moddalar reaksiyaga kirishib, S moddani hosil qilsin.

$A + B = C$  u holda massalar ta'siri qonunga binoan  $V = K [A] [B]$  : ga teng bo'ladi. [A] va [B] reaksiyaga kirishayotgan moddalarning molyar konsentratsiyasi (mol/l). K – esa konstantasi. Agar  $A = V = 1$  bo'lsa,  $V = k$  bo'ladi. Demak, K reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalari 1 mol/l ga teng bo'lgandagi reaksiyasining tezligidir.

Agar  $A + 2B = C$  bo'lsa  $V = k [A] \cdot [B]^2$  ga teng bo'ladi. Umumiy holda molekula m A bilan n molekula B reaksiyaga kirishsa,  $mA + nB = C$ ,  $V = k [A]^m \cdot [B]^n$  teng bo'ladi.


### **Reagent va mahsulot konsentratsiyalari orqali tezlikning ifodalanishi**

Yuqori biz siz bilan  $C_2H_4$  va  $O_3$  orasidagi reaksiyani ko'rib chiqqan edik, unda tezlik  $[O_3]$  orqali ifoda etilganida tezlik kamaygan edi. Reaksiya tenglamasidan ko'rinish turibdiki,  $C_2H_4O$  va  $O_2$  ning har bir molekulasi hosil bo'lishiga  $C_2H_4$  va  $O_3$  har bir molekulalari sarf bo'ladi. Biz tezlikni to'rttal modda konsentratsiyasi orqali ifoda qilishimiz mumkin:

$$\text{tezlik} = -\frac{\Delta[C_2H_4]}{\Delta t} = -\frac{\Delta[O_3]}{\Delta t} = \frac{\Delta[C_2H_4O]}{\Delta t} = \frac{\Delta[O_2]}{\Delta t}$$

(E'tibor bering, reagentlar ifodasi uchun manfiy ishora qo'yilgan) Bir reagent ( $C_2H_4$ ) va bir mahsulot ( $O_2$ ) konsentratsiyalarining bir vaqtida o'zgarish grafigi 16.4 rasmida keltirilgan. Bu ikki egrini shaklga, ammo inversion joylashuvga ega, chunki mahsulot hosil bo'lishni boshlashi bilan reagent sarf bo'lishni boshlaydi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ko'p reaksiyalar uchun reagentning sarf bo'lish va mahsulotning paydo bo'lish reaksiyalari bir hil tezlikka ega emas. Misol qilib vodorod va yoddan vodorod yodid hosil bo'lishini olish mumkin:




Bunda tezlikni ifodasi quyidagi ko'rinishga keladi (koeffitsientlarni hisobga olgan holda):

$$\text{tezlik} = \frac{\frac{1}{2} \frac{\Delta[HI]}{\Delta t}}{\frac{\Delta[I_2]}{\Delta t}} = -\frac{\Delta[I_2]}{\Delta t} = -\frac{\Delta[H_2]}{\Delta t}$$

agar biz  $[I_2]$  va  $[H_2]$  lardagi o'zgarishlarni  $[HI]$  dagi o'zgarishga ilova qilsak, quyidagini olishimiz mumkin:

$$tezlik = \frac{\Delta[H_1]}{\Delta t} = -2 \frac{\Delta[H_2]}{\Delta t} = -2 \frac{\Delta[H_2]}{\Delta t}$$

Qayd qilish joizki, ushbu ifoda oldingisiga qaraganda ikki marta katta tezlikni beradi. Biz olingan hamma natijalarni yig'ib, barcha reaksiyalar uchun quyidagini yozamiz:




bu erda a, b, c, d lar balanslanlangan reaksiya tenglamasi koeffitsientlari:

$$tezlik = \frac{1 \Delta[A]}{a \Delta t} = \frac{1 \Delta[B]}{b \Delta t} = \frac{1 \Delta[C]}{c \Delta t} = \frac{1 \Delta[D]}{d \Delta t}$$

### Tezlik qonuni va uning komponentlari

Reaksiyaning har qanday kinetik o'rganilishining asosiy markaziy qismida tezlik qonuniyotadi, bunda tezlikni konsentratsiyalar va temperatura funksiyasi sifatida ko'rildi. Tezlik tajribaga asoslangani uchun molekulyar darajada ketuvchi reaksiyalarning har qanday gipotezasi bunga mos kelishi kerak.

Ushbu bo'limdagi muhokamada tezlik qonunida mahsulotlar konsentratsiyalari uchramaydi, demak, tezlik qonuni faqat reagentlar konsentratsiyasi va temperaturaga bog'liq bo'ladi. Berilgan temperaturada umumiy ko'rnishda ushbu reaksiyani ko'rib chiqamiz:



Tezlik qonuni esa:

$$Tezlik = k[A]^m[B]^n$$

Bu yerda k proporsionallik koeffitsienti bo'lib, tezlik konstantasi deb ataladi, u berilgan temperatura va reaksiya uchun mos bo'lib, reaksiya davom etayotganida o'zgarmaydi (shuningdek, 16.5 bo'limda k temperatura o'zgarishi bilan o'zgaradi). Darajada turgan m va n lar reaksiya tartibiborilib, ularni qanday qilib aniqlashni ko'rib chiqamiz. Bunda esda saqlash uchun ikkita asosiy kalit bular:

Reaksiyadagi tenglashtiruvchi a va b koeffitsientlarning m va n reaksiya tartiblariga umuman aloqasi yo'q.


- Tezlik qonuni komponentlari – tezlik, reaksiya tartibi va tezlik konstantasi – tajriba bilan birlashtirilishi kerak.

Ushbu bo'limga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich tezlikni aniqlash uchun konsentratsiyalarni hisoblab, reaksiya tartibini hisoblash uchun boshlang'ich tezlikni ishlatib va tezlik konstantasini hisoblash uchun ushbu qiymatlarni ishlatib tezlik qonuni komponentlarini topamiz. Reaksiyaning tezlik qonunini bilgan holda biz har qanday boshlang'ich konsentratsiyani oldindan aytishimiz mumkin.

### Boshlang'ich tezlikni aniqlashdagi ba'zi laboratoriya usullari


Biz boshlang'ich tezlikni konsentratsiya/vaqt grafigidan topamiz, shuning uchun bizga konsentratsiya o'lhash uchun tez, aniq usul kerak. Keling qisqacha uch asosiy usullarni ko'rib chiqamiz.

- *Rangdagi o'zgarish.* Rangli moddalar ishtirok etadigan reaksiyalarda, konsentratsiyani o'lhash uchun spektroskopik usullar qo'llanilishi mumkin. Masalan, azot monooksidi oksidlanishida faqat mahsulot, azot dioksid rangli:



Vaqt o'tgani sari reaksiyon aralashmaning jigarrang rangi to'qlashib boradi.

- *Bosimdag'i o'zgarish.* Gaz mollari o'zgaradigan reaksiyalarni bosim o'zgarishini o'lchab monitor qilish mumkin. Misol uchun, rux va sirkal kislota o'rtasidagi reaksiyani olaylik:



Tezlik H<sub>2</sub> gazining bosimi oshishiga to‘g‘ri proporsionaldir.

- O‘tkazuvchanlikning o‘zgarishi. Organik galid (2-brom-2-metilpropan) va suv o‘rtasidagi reaksiyada



Hosil bo‘luvchi HBr kuchli kislota va butunlay ionlarga parchalanadi; shu sababdan, vaqt o‘tgani sari reaksiyon aralashmaning o‘tkazuvchanligi ortadi.

Agar qo‘limizda boshlang‘ich tezlik bo‘lsa, biz reaksiya tartibini aniqlashimiz mumkin. Keling birinchi bo‘lib reaksiya tartibi o‘zi nima va keyin qanday qilib ularni aniqlashni muxokama qilsak.


### Zanjir reaksiyalar

Ma‘lumki Plankning kvantlar nazariyasiga asosan Nur energiyasini molekulalar muayyan kichik porsiyalar bilan yutadi va chiqaradi. Nurning bu eng kichik porsiyasi kvantlar deb ataladi.


Bir kvant t,v ga teng : E= h, v .

$$(h = 6,62 \cdot 10^{-27} \text{ erg/sek})$$


tajribalar shuni ko‘rsatadiki, oddiy jarayonda xlor va vodorod molekulalari o‘zaro reaksiyaga kirisha oladi, lekin nur ta’sirida bu reaksiya juda intensiv ravishda davom etadi. Bunga sabab nur energiyasi t,v xlor molekulasiga yutiladi. Buning natijasida xlor molekulasi atomlar xlorga dissotsiatsiyalanadi.



Bu reaksiya natijasida hosil bo‘lgan atomlar xlor vodorod molekulalariga ta’sir etib, 1 mol HCl hosil qiladi va yana biriga atomlar vodorod hosil bo‘ladi.




Bunda hosil bo‘lgan atomlar vodorod xlorini boshqa molekulasiga ta’sir etadi va xlor atomini biriktirib oladi. Bu reaksiya N.N.Semyonovning zanjir reaksiyasi deyiladi.



Shunday qilib, reaksiya xuddi zanjir kabi ketma-ket ularib ketadi. Shuning uchun bu reaksiyalar zanjir reaksiyalar deyiladi. Buni birinchi marta akademik N.N.Semyonov kashf etdi va Nobel mukofotini oldi. Tajribalar shuni kursatdiki, dastlab bir Cl<sub>2</sub>ning aktivlanish jarayoni tufayli o‘rtacha olgan 100000 molekula HCl hosil bo‘ladi.

Aktiv zarrachalar biri bilan biri uringanda yoki idish devoriga uringanda zanjir uziladi.



### Katalizatorlar ta’siri (kataliz)

Katalizatorlar ta’sirini o‘rganishdan avval sistemalar haqida qisqacha to’xtalib o’tamiz. Moddalar aralashmasi yoki bir moddaning ikki yoki undan ortiq agregat holati aralashmasi sistema deb ataladi. Sistemalar ikki xil bo‘ladi.

Gomogen sistemalar. Bularga gazlar aralashmasi, suyuqliklar aralashmasi yoki eritmalar kiradi.

Geterogen sistemalar. Kimyoviy tarkibi yoki fizik xossalari bilan bir-biridan farq qiluvchi va sirlari bilan ajralib turgan yoki bir necha sohalari bo‘lgan sistema geterogen sistema deyiladi.

Gomogen sistemalar bir fazali bo‘ladi, geterogen sistemalar ko‘p fazali bo‘ladi.

Sistemanı hosil qilgan moddalar komponentlar deb ataladi. Masalan: muz, suv, gaz bir komponent uch fazali sistema deyiladi.

«Katalizatorlar reaksiya tezligini o‘zgartiruvchi, ammo o‘zi kimyoviy va miqdoriy jihatdan o‘zgarmaydigan moddalardir».

«Reaksiya tezligining katalizator ta’sirida o‘zgarishi «kataliz» deb ataladi». Manfiy va musbat katalizatorlar mavjud.

Ko‘p katalitik reaksiyalarda katalizatorlar oraliq mahsulot sifatida ishtirok etadi. Masalan: NH<sub>3</sub> bilan HCl o‘zaro ta’sir etib, ammoniy xlorid hosil qiladi. Bu reaksiyada suv bug’i yaxshi katalizator vazifasini o’taydi. Bunda suv oraliq modda tarkibiga kiradi, so’ngra ajralib chiqadi. NH<sub>3</sub>+H<sub>2</sub>O=NH<sub>4</sub>OH ; NH<sub>4</sub>OH+HCl=NH<sub>4</sub>Cl+H<sub>2</sub>O. Bunday tipdagи reaksiyalarni umumiyl holda quyidagicha ko‘rsatish mumkin. A+V=AV ; K- katalizator



Barcha katalitik jarayonlar gomogen va geterogen katalizga bo‘linadi.

1. Gomogen katalizda reaksiyaga kirishayotgan moddalar ham, katalizator ham bir xil fazada bo'ladi.

Geterogen katalizda reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator boshqa fazada bo'ladi.

Azot va vodoroddan ammiak sintez qilishda temir katalizator vazifasini o'taydi. Sulfid angidrid R katalizatori ishtirokida sulfat angidridga aylanadi. Bular geterogen katalizga kiradi. Katalizatorning reaksiyalarni tezlatishiga sabab asosan quyidagilardir. Reaksiyaga kiruvchi gaz yoki moddalar qattiq katalizator yuzasiga adsorbillanadi. Buning natijasida ular orasidagi bog' zaiflashadi, defortatsiyaga uchraydi. (xatto butunlay uziladi). Har qanday kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi moddalardagi boglar uzilib, yangi boglar hosil bo'lganligidan bu jarayonda ma'lum energiya sarf bo'ladi. (Molekulalarni energiyasi qisman uzishga sarf qiladi).

Katalizator ta'sirida ichki boglar zaiflashuvi sababli aktivlanish energiyasi kamayadi va natijada reaksiya tezlanadi.

Katalizatorlar kimyo sanoatida g'oyat katta ahamiyatga ega. Nihoyatda sekin boradigan va foydalanish aslo mumkin bo'lмаган reaksiyalar katalitik usullar bilan olib boriladi. Sulfat kislota, ammiak, spirt, kauchuk kabi muhim mahsulotlar sanoatda katalitik usullar bilan ishlab chiqariladi.

O'simlik va hayvon organizmlarida, jumladan inson organizmlarida boradigan barcha fiziologik jarayonlarning hammasi katalizatorlar yordami bilan boradi.

Organizmdagi katalizatorlar fermentlar yoki ekzimlar deb ataladi.

### **Nazorat topshiriqlari**

#### **Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir**

Kimyoviy reaksiya tezligi qanday ta'riflanadi?

A) Reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasining vaqt birligi ichidagi o'zgarishiga kimyoviy reaksiya tezligi deyiladi.

B) Reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalar konsentratsiyasining reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasiga nisbati kimyoviy reaksiya tezligi deyiladi.

D) Kimyoviy reaksiya tezligi reaksiya nitijasida hosil bo'lgan moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsionaldir.

E) Kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsionaldir.

Massalar ta'siri qonuni qanday ta'riflanadi?

A) Kimyoviy reaksiyaning tezligi deb reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasiga teng.

Suyuk eritmalar keng tarkalgan va muxim axamiyatga ega .Suv keng tarkalgan erituvchidir ammol shuningdek juda qutblidan qutbsizgacha bulgan boshqa kupgina erituvchilar ham mavjud. ‘Uxshash moddalar uxshashlarida eriydi “ qoidasining qullanilishi.Bu koidaning mazmuni shundan iboratki agar eritilgan modda va erituvchining molekulalararo uzaro ta'sir kuchlari bir xil tabiatga ega bulsa u xolda ularni aralashtirilganda eritma hosil buladi.

Masalan :

- Tuz suvda eriydi chunki tuzning eritmadiagi ionlari bilan suvning dipol xarakterdagи molekulalari orasidagi ion – dipol uzaro ta'sir kuchlari va suv molekulalaridagi vodorod boglari kuchlariga ekvivalent miqdor almashinadi.

- Tuzlar geksanda ( $C_6H_{14}$ ) erimaydi chunki ion – induksiyalangan dipol tipidagi ionlar va geksan molekulalari orasidagi kuchsiz uzaro ta’sir kuchlari tuzning uzidagi kuchli ionlararo uzaro ta’sir kuchlari va geksanning uzidagi dispersion uzaro ta’sirning urnini bosa olmaydi.
- Yog suvda rimaydi chunki eritmadi kuchsiz dipol – induksiyalangan dipol tipidagi kuchsiz molekulalararo uzaro ta’sir kuchlari suv molekulalari orasida xosil buladigan kuchli vodorod boglanish va geksanda xosil buladigan dispersion uchlar urnini bosa olmaydi.
- Yog geksanda eriydi chunki eritmadi dispersion kuchlar yogdagi va geksandagi dispersion kuchlarga uxshash buladi.


### **Qo’shaloq qutblilik va uning eruvchanlikka ta’siri.**

Spirtlarning suvdagi va geksandagi eruvchanligini solishtirish zarur ya’ni erituvchilarda keskin farq qiladigan uzaro ta’sir kuchlarini. Spirtlar – bu organik moddalar uz tarkibida qutbsiz uglevodorod radikali R – ga bog’langan qutbi gidroksil gurux (- OH) tutgan (spirtlar formulasi R – OH).

- - OH guruh kuchli vodorod boglanish orqali suv molekulalari va kuchsiz dipol – induksiyalangan dipol tipidagi kuchsiz kuchlar orkali suv molekulalari bilan boglanadi. Spirtlarning umumiy formulasini OH; quyida  $n=0$  dan 5 gacha bulgan spirtlar kurib utilgan.

1.  $n=0$  – 2 gacha bulgan spirtlar uchun ularning suvda eruvchanligi yuqori bunda – OH gurux bunday spirtlarda nisbatan katta xajmni egallaydi. Bunday spirtlarning molekulalari bir – biri bilan vodorod boglar orkali ta’sirlashadi. Jarayon suv molekulalari bilan xam boradi. Erigan moddadagi va erituvchi orasidagi vodorod boglari erigan modda va erituvchi orasidagi vodorod boglariga almashinadi. (13.3 – rasm). Buning natijasida bunday spirtlar suvda chegaralanmagan darajada eriydi.

2.  $n>2$  bulgan spirtlar uchun suvda kam eruvchanlik xarakterli spirtdagi uglerod atomlari soni  $n>6$  bulganlari suvda umuman erimaydi. Bunday spirtlarda qutbsiz zanjirlar (R ) suv molekulalari orasida xarakatlanishi kerak molekulalar orasidagi kuchsiz uzaro ta’sirlarni spirtlar molekulasi va suv orasidagi kuchli vodorod boglanishga almashinishi kerak buladi. Biroq – OH gurux bunday spirtlar molekulasida kichkina qismni egallaydi shuning uchun spirtning – OH guruhi – suv molekulasi toza suvdagi barcha vodorod boglarini uza olmaydi va tegishlicha spirtdagi uglevodorod radikali ortib borishi xisobiga erigan moddaning suvda eruvchanligi keskin kamaya boradi.



1. **Rasm 13.3 Uxshash moddalar uxshashlarida eriydi: metanolning suvda eruvchanligi.**
2. Suvdagisi va metanoldagi vodorod boglari o’xshash va bu moddalarni aralashtirganda ular tegishlicha bir – birini urnini bosa oladi ya’ni eritma hosil buladi
3. Spirtlarning kichkina molekulalari ( $CH_3OH$ )ning geksandagi eruvchanligi kam. Ulardagi dispersion kuchlardan tashqari  $CH_3OH$  dagi –OH guruh va geksan orasida dipol-induksiyalangan dipol kuchsiz molekulalararo o’zaro ta’sir kuchlari ham mavjud,  $CH_3OH$  molekulalari orasidagi kuchli vodorod bog’lanishning o’rnini bosa olmaydi va tegishlicha uning geksandagi kuchsiz eruvchanligi kuzatiladi.
4. Uzun zanjirli spirtlarning geksandagi eruvchanligi yuqori. Spirtda  $CH_3(CH_2)_nOH$   $n>0$  bo’lganda, spirtlarning uglevodorod radikallari va geksan orasidagi dispersion kuchlar, geksan molekulalari orasidagi dispersion kuchlarning o’rnini oladi, ya’ni radikalida 2ta

uglerod atomi tutgan etanol uchun halqa hosil bo‘ladi. Radikalning uzayishi bilan uning va geksan orasidagi dispersion kuchlar ham sezilarli ortadi.

Ko‘pgina organik molekulalar o‘zida qutbli va qutbsiz qismlar tutadi va ularning eruvchanligini belgilaydi. Masalan, karbon kislotalari va aminlar o‘zini spirtlar kabi tutadi: metan kislota ( $\text{HCOOH}$ , chumoli kislota) va metilamin ( $\text{CH}_3\text{NH}_2$ ) suv bilan yaxshi aralashadi, geksanda esa kam eriydi, ammo geksan kislota ( $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4\text{COOH}$ ) va geksanamin ( $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_5\text{NH}_2$ ) suvda deyarli erimaydi, geksanda esa juda yaxshi eriydi.

### Jadval 13.2.

Ayrim spirlarning suvdagi va geksandagi eruvchanligi

Spirt	Molekula modeli	Suvda eruvchanligi	Geksanda eruvchanligi
$\text{CH}_3\text{OH}$ (metanol)		$\infty$	1,2
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$ (etanol)		$\infty$	$\infty$
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_2\text{OH}$ (n-propanol)		$\infty$	$\infty$
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3\text{OH}$ (n-butanol)		1,1	$\infty$
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4\text{OH}$ (n-pentanol)		0,30	$\infty$
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_5\text{OH}$ (n-geksanol)		0,058	$\infty$

### Muammo 13.1. Nisbiy eruvchanligi bashorat qilish.

Muammo 13.1 (1). Aytinchi, erigan moddalar qaysi erituvchilarda yaxshi eriydi:

- a)  $\text{NaCl}$  metanolda ( $\text{CH}_3\text{OH}$ ) yoki propanolda  $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_2\text{OH}$ ;
- b) etilenglikol ( $\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ ) geksanda ( $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4\text{CH}_3$  yoki suvda;
- v) dietilefiri ( $\text{C}_2\text{H}_5\text{OC}_2\text{H}_5$ ) suvda yoki etanolda ( $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$ ).

#### Echimi:

a) Javob-metanol.  $\text{NaCl}$  ion bog‘lanishli birikma, ya’ni u ion-dipol molekulararo kuchlar hisobiga eriydi. Ikkala spirt ham  $-\text{OH}$  guruhlarga ega, ammo ularning molekulalaridagi uglerod radikali ionlar bilan juda kuchsiz ta’sirlashadi, metanol radikali kichik bo‘lgani uchun  $\text{NaCl}$  aynan metanolda eriydi.

b) Javob-suv. Etilenglikol molekulasi 2ta  $-\text{OH}$  guruhga ega va tegishlicha uning molekulalari o‘zaro molekulararo vodorod bog‘ini hosil qiladi. Etilenglikol molekulalari va suv molekulalari orasidagi vodorod bog‘ining hosil bo‘lishi asosan etilenglikol molekulalari hosil qilgan vodorod bog‘lari o‘rnini oladi va tegishlicha geksan bilandagi dipol–induksiyalangan dipol o‘zaro ta’sirga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

v) Javob-etanol. Dietil efiri molekulalari dipol- dipol va dispersion kuchlar o‘zaro kuchlari orqali ta’sirlashadi. Ular suv molekulalari bilan ham, etanol molekulalari bilan ham vodorod bog‘lari hosil qiladi. Ammo etanol efir bilan dispersion kuchlar orqali effektiv o‘zaro ta’sirlashadi, uning tarkibidagi uglevodorod radikali borligi hisobiga.

**Muammo 13.1 (2).** Qaysi erigan modda erituvchida yaxshi eriydi: a) n-butanol  $\text{C}_4\text{H}_9\text{OH}$  yoki 1,4-butandiol  $\text{HO}-(\text{CH}_2)_4-\text{OH}$  suvda; b) xloroform ( $\text{CHCl}_3$ ) yoki uglerod (IV)-xlorid ( $\text{CCl}_4$ ) suvda?

**Gaz-suyuqlik eritmalar.** Juda kuchsiz molekulalararo o‘zaro ta’sirga ega bo‘lgan moddalar past qaynash temperaturasiga ega va bu oddiy sharoitdagi gazlarga ham taalluqli. Tegishlicha ular suvda juda kuchsiz eriydi, chunki eritilgan modda va erituvchi

orasida molekulararo kuchlar juda kuchsiz. Qutbsiz va kuchsiz qutbli gazlarning suvli eritmalari bilan ularning suvdagi eruvchanligi korrelyasiyalanadi (13.3. Jadval).

### Jadval 13.3. Gazning suvdagi eritmasi qaynash temperaturasi va uning suvda eruvchanligi orasidagi korrelyasiyasi.

Gaz	Ervchanligi ( $M^*$ )	Qaynash temperaturasi (K)
Ne	$4,2 \cdot 10^{-4}$	4,2
Ne	$6,6 \cdot 10^{-4}$	27,1
N <sub>2</sub>	$10,4 \cdot 10^{-4}$	77,4
CO	$15,6 \cdot 10^{-4}$	81,6
O <sub>2</sub>	$21,8 \cdot 10^{-4}$	90,2
NO	$32,7 \cdot 10^{-4}$	121,4

\*- Temperatura 273<sup>0</sup>K va bosim 1atm.

Qutbsiz gazning oz miqdori haqiqatdan ham eriydi va hayot uchun muhim bo‘lishi mumkin. 25<sup>0</sup>S va 1 atmosfera bosimida O<sub>2</sub> ning suvda eruvchanligi 3,2 ml/100 ml, ammo bu suv hayvonlarining suvdagi hayoti uchun etarli bo‘ladi. Ayrim hollarda qutbsiz gazning eruvchanligi yuqoriday tuyuladi, bu uning erituvchi bilan o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Kislorod suvga nisbatan qonda yuqori darajada eriydi, chunki u gemoglobin bilan qizil qon tanachalariga bog‘lanadi. SO<sub>2</sub> suvda juda eriydigan ko‘rinadi (81ml SO<sub>2</sub>/100ml H<sub>2</sub>O da 25<sup>0</sup>C va 1 atmosfera bosimda), ammo bu uning H<sub>2</sub>O bilan o‘zaro ta’sir reaksiyasi hisobiga amalga oshadi:  $\text{SO}_{2(g)} + \text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{H}^+_{(\text{suvli})} + \text{HSO}_3^-_{(\text{suvli})}$

#### Gaz-qattiq eritmalar.

Gazli va qattiq eritmalar ham muhim ahamiyatga va keng qo‘llanilish sohasiga ega.

**Gaz-gaz eritmalar.** Barcha gazlar bir-biri bilan aralashadi. Havo gazli eritmaning klassik misoli bo‘lib, u o‘z tarkibida turli proporsiyadagi 18 komponent tutadi. Davolashda va xirurgik operatsiyalarda qo‘llaniladigan anesteziya uchun gaz, gazli eritmalarga yana bir misoldir.

**Eriydigan gaz-qattiq modda.** Gaz qattiq moddada eriganda, u qattiq zarrachalar orasidagi bo‘shliqni egallaydi. Vodorod begona aralashmalar yuqidan tozalanishi mumkin, agarda uni palladiy orasidan o‘tkazilsa. Faqat vodorod molekulalari sezilarli kichik bo‘lganligi uchun palladiy atomlari orasiga joylashadi va Pd-H bog‘larini hosil qiladi. Vodorod atomlari Pd ning bir atomidan boshqasiga harakatlanib boradi va oxir-oqibat Pd dan ajralib N<sub>2</sub> molekulalari holida ajraladi.

**Qattiq modda- qattiq modda eritmasi.** Qattiq moddalar diffuziyaga juda kam darajada uchraydi, shuning uchun odatda geterogen bo‘ladi. Ayrim qattiq eritmalarni qattiq moddalarini suyuqlantirib olish mumkin, ularni aralashtiriladi vasovutiladi. Ko‘pgina qotishmalar qattiq eritmalardir. Latun qattiq eritmaga misol bo‘la oladi, u Zn va Cu ning aralashmasidan iborat. Mumlar qattiq amorf eritmalardir. Tabiiy mum biologik qattiq eritmadir. U suvda erimaydi, ammo ayrim erituvchilarda eriydi.

#### 13.1 bo‘lim bo‘yicha umumlashtirish.

- Eritma— molekulalararo o‘zaro ta’sir kuchlari hisobiga erituvchida eritilgan erigan moddadan iborat gomogen sistema.
- Eritmalarda ion-dipol, ion-induksiyalangan dipol va dipol- induksiyalangan dipol o‘zaro ta’sirlar amalga oshadi.
- agar eritilgan moddada va erituvchida o‘xshash molekulalararo kuchlar hosil qilsa, u holda ularni almashtirganda eritma hosil bo‘ladi, bunda bu o‘zaro ta’sir kuchlari eritilgan modda molekulalari va erituvchi molekulalari orasida sodir bo‘ladi.
- ionli birikmalari suvda eritilganda ularning ionlari vodorod bog‘lari hisobiga gidrat qobiqchalari bilan o‘ralgan bo‘ladi.
- Turli erituvchilarda organik birikmalarning eruvchanligi ularning qutbli va qutbsiz tashkil etuvchilarining nisbiy o‘chamlariga bog‘liq bo‘ladi.

- Qutbsiz gazlarning suvda eruvchanligi komponentlar orasidagi kuchsiz molekulalararo o‘zaro ta’sir kuchlari hisobiga juda kichik bo‘ladi. Gazlar aralashadi (bir-birida eriydi) va ular zich joylashtirilgan zarrachalar orasidagi bo‘shliqni to‘ldirgan holda qattiq moddalarda eriydi.
- Qattiq eritmalarga qotishmalar va mumlar kiradi.

### **13.2 Nima uchun moddalar eriydi: erish jarayonini tushunish.**

“O‘xhash moddalar o‘xhashlarida eriydi” qoidasi erigan modda va erituvchi orasidagi molekulalararo o‘zaro ta’sirga asoslangan. Bundan keyin bosqichma-bosqich erish jarayoni ko‘rib chiqiladi— eritmalarga miqdoriy tasavvurlar qo‘llaniladi.

Eritmalarning molyar konsentratsiyasi 11 eritmada erigan moddaning G-molekulalari soni bilan ifodalanadi yoki molyar konsentratsiya bu erigan modda miqdorining eritmaning hajmiga nisbatiga teng kattalik va quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$C_m = \frac{a \cdot 1000}{M \cdot V}$$

C<sub>m</sub> – eritmaning molyar konsentratsiyasi

a – eritmada erigan moddaning gramm hisobidagi miqdori.

M – erigan moddaning molekulyar massasi.

V – tayyorlanish kerak bo‘lgan (moddaning) eritmaning hajmi ml larda.

Agar 11 eritmada 1 mol modda erigan bo‘lsa, bunday eritma 1 molyar eritma deyiladi.

Agar 11 eritmada 0,1 mol modda bo‘lsa, bu eritma destimolyar: 0,01 mol bo‘lsa, santimolyar: 0,001 mol bo‘lsa, millimolyar eritma deyiladi.

Eritmaning molyarligi odatda M harfi bilan belgilanadi. Masalan: 1 M NaOH natriy gidroksidning molyar eritmasi, bunday eritmaning 11 da 1mol modda yoki 1 mol, 40 g/mol=40 g NaOH bo‘ladi. 0,01m NaOH santimolyar eritma uning 11 da 0,01 mol ya’ni 0,01 · 10 g = 0,4 g NaOH bo‘ladi va hokazo. Masalan: NaOH ning detsimolar eritmasini tayyorlash uchun undan tarozida 4 g tortib olish, 1 litrga teng aniq hajmi belgilab qo‘ylgan litrli o‘lchov kolbasiga solish, modda batamom eriguncha distillagan suv quyish va so’ngra yeritma hajmini belgigacha etkazish lozim (miskning pastki qismi belgiga tegib turishi kerak).

### **Nazorat topshiriqlari**

#### **Bilish darajasidagi o’zlashtirishga doir**

Eritmalarning molyar konsentratsiyasi qanday ta’riflanadi?

- Agar 100 g erituvchida 1 mol modda erigan bo‘lsa, bunday eritma molyar eritma deyiladi.
- Agar 1000 g erituvchida 1 mol modda erigan bo‘lsa, bunday eritma molyar eritma deyiladi.
- Agar 100 g eritmada 1 mol modda erigan bo‘lsa, bunday eritma molyar eritma deyiladi.
- 1000 g eritmada erigan moddaning molyar soni molyar konsentratsiya deyiladi.

#### **Produktiv o’zlashtirishga doir**

Solishtirma ogirligi 1,31 ga teng bo‘lgan 50 % li HNO<sub>3</sub> ning molyarligini hisoblang.

- 10,5 M;
- 10,0 M;
- 10,8 M;
- 11,5 M;
- 12,5 M;

#### **Izlanuvchan ijodiy o’zlashtirishga doir**

Zichligi 1,5 bo‘lgan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning 200 g eritmasida 120 gH<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> erigan bo‘lsa, shu eritmaning molyar, foiz, normal konsentratsiyalarini hisoblang.

- = 40;
- 60;
- 18,4;
- 9,2;
- 4,6;

#### **3 – asosiy savol**

Eritmalarning normal konsentratsiyasi.

**O’qituvchi maqsadi:**talabalarga normal konsentratsiya haqida ma`lumot berish. Talabalarni normal konsentratsiyali eritmalar tayyorlashga o’rgatish. Talabalarni eritmalarini normal konsentratsiyalar bo‘yicha masalalar yechishga o’rgatish.

#### **Talabalar uchun o’quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Eritmalarning normal konsentratsiyasi haqida tushuncha berish.

Eritmalar normal konsentratsiyasining boshqa konsentratsiyadan farqini izohlang.  
Normal konsentratsiyalar bo'yicha masalalar yechish.

### 3- asosiy savol

#### Eritmalarning normal konsentratsiyasi

Bir litr eritmada erigan moddaning G ekvivalentlar soni bilan ifodalanadi va quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$C_N = \frac{Q \cdot 1000}{E \cdot V}$$

$C_N$  – eritmaning normal konsentratsiyasi.

Q – erigan moddaning gramm hisobidagi miqdori.

E – erigan moddaning ekvivalenti.

V – eritmaning hajmi ml larda.

Agar 1l eritmada 1 g ekvivalent modda erigan bo'lsa, bir normal, agar 0,1 g-ekvivalent modda erigan bo'lsa, detsimolyar eritma deyiladi.

O'zaro reaksiyaga kirishayotgan moddalarning normal konsentratsiyalari o'zaro teng bo'lsa, bu eritmalar o'zaro qoldiksiz reaksiyaga kirishadi.

Normal konsentratsiyalari bir - biriga teng bo'lmasligi eritmalarning qoldiqsiz reaksiyaga kirishadigan hajmlari ularning normalliklariga teskari proporsional bo'ladi.  $V_1N_1 = V_2N_2$ ,

Bu yerda  $N_1$  – o'zaro reaksiyaga kirishayotgan eritmalaridan birining normalligi,  $N_2$  – ikkinchisining normalligi,  $V_1$  – birinchi eritmaning hajmi,  $V_2$  – ikkinchi eritmaning hajmi. Yuqorida keltirilgan tenglama titrlash tenglamasıdır. Bu formula analitik kimyoda keng qo'llaniladi.

#### Erish issiqligi va erish bosqichlari.

Zarrachalar erishgacha (ya'ni eritmaning hosil bo'lishi) erigan moddada ham, erituvchida ham o'zaro bog'liq bo'ladi. Erishning uchta bosqichini ko'rib o'tamiz, uning har bir bosqichi entalpiyalarning o'zgarishi bilan boradi:

- 1- bosqich. Erigan moddaning zarrachalari bir-biridan ajraladi. Bu bosqich ular orasidagi o'zaro ta'sirning davomini o'z ichiga oladi, ya'ni endotermik hisoblanadi;  
Erigan modda (agRejatlanish) + issiqlik  $\rightarrow$  erigan modda (ajralgan zarrachalar)  $\Delta H_1 > 0$
- 2- bosqich. Erituvchi zarrachalari bir-biridan ajraladi. Bu bosqich o'zaro ta'sir kuchlarining davomini o'z ichiga oladi, ya'ni bu ham endotermik hisoblanadi;  
Erituvchi (agRejatlangan) + issiqlik  $\rightarrow$  erituvchining alohida zarrachalari  $\Delta H_2 > 0$
- 3-bosqich. Erigan modda va erituvchi zarrachalarini bir-biri bilan aralashtirish hisobiga eritma hosil qiladi. Bu bosqich ekzotermik hisoblanadi:  
Erigan modda(ajralgan zarrachalar) + erituvchi(ajralgan zarrachalar)  $\rightarrow$  eritma+ issiqlik  $\Delta H_3 < 0$

Yig'indi jarayon:

$$\Delta H = \Delta H_1 + \Delta H_2 + \Delta H_3 \quad (13.1)$$


Umuman erish jarayoni endotermik yoki ekzotermik bo'lishi mumkin va  $\Delta H_1$ ,  $\Delta H_2$  va  $\Delta H_3$  kattaliklarining ishoralariga bog'liq ravishda tegishlicha  $\Delta H > 0$  va  $\Delta H < 0$  bo'lishi mumkin.

- Erish jarayoni – ekzotermik jarayon  $\Delta H < 0$ ; agar  $\Delta H_1 + \Delta H_2$  yig'indisi  $\Delta H_3$  ga kichik bo'lsa jarayon ekzotermik bo'ladi va  $\Delta H < 0$ .

- Erish jarayoni – endotermik jarayon  $\Delta H > 0$

#### Gidratatsiya issiqligi: ionli birikmalarning suvda erishi.


Individual  $\Delta H_1$ ,  $\Delta H_2$  va  $\Delta H_3$  kattaliklarni o'chash qiyin. Bu kattaliklarning birgalikdagi yig'indisi  $\Delta H$  erish jarayonini beradi, uni solvatatsiya deyiladi, ya'ni bu erigan modda zarrachalarini erituvchi zarrachalari tomonidan o'rabi olish jarayonidir. Erituvchi sifatida suvdan foydalanilgandagi solvatatsiyani gidratatsiya deyiladi.



### Rasm 13.4. Eritma hosil bo'lishining entalpiyasi.

A) Erishning ekzotermik jarayoni,  $\Delta H_3$  katta  $\sum \Delta H_1 + \Delta H_2$  B) Erishning endotermik jarayoni,  $\Delta H_3$  kichik  $\sum \Delta H_1 + \Delta H_2$

Ionli birikmalarini eritishda gidratatsiya issiqligi asosiy kattalik hisoblanadi. Vodorod bog'lariga parchalanishi asosan kuchli ion-dipolli kuchli o'zaro ta'sir kuchlari hosil bo'lishi hisobiga kompensatsiyalanadi, ya'ni ionlar gidratatsiyasi doimo ekzotermik jarayon hisoblanadi. Ionning  $\Delta H$  gidratatsiyasi gazgimon ionlar 1 molining  $\Delta H$  gidratatsiyasi sifatida aniqlanadi:



**Zaryad zichligining ahamiyati.** Gidratatsiya issiqligi undagi zaryad zichligiga bog'liq, ya'ni uning zaryadining hajmiga nisbatiga bog'liq. Umumiy holda zaryad zichligi qanchalik katta bo'lsa  $\Delta H$  gidratatsiya qiymati shunchalik manfiy bo'ladi. Ion zaryadi qanchalik katta bo'lsa va uning radiusi qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik suvning dipol molekulasiya yaqin keladi (rasm 2.11) va unga shunchalik kuchli tortiladi. SHunday qilib:


- $A^{2+}$  ion o'lchami bir xil bo'lganda,  $A^+$  ionga qaraganda suv molekulalari bilan etarli darajada ko'p o'zaro ta'sirlashadi.
- O'lchami kichik bo'lgan  $A^+$  ion, o'lchami katta bo'lgan  $A^+$  ionga qaraganda suv molekulalarini ko'proq yaqinlashtiradi.

Shuningdek, ta'kidlash mumkin:

- Guruhda yuqorida pastga qarab element zaryadi bir xil bo'ladi, ammo uning o'lchami ortadi, ya'ni zaryad zichligi kamayadi, ya'ni  $\Delta N_{\text{gids}}$  qiymati kamayishiga olib keladi.
- Davr bo'ylab, masalan 1A(1) guruhdan 2A(2) guruhga o'tganda  $A^{2+}$  ion kichik radius va katta zaryadga ega, ya'ni zaryad zichligi va tegishlichka  $\Delta N_{\text{gids}}$  ortadi.

### Ionli birikmalarini suvda eritilganda issiqlik effekti komponentlari.

Eritilgan MX moddaning anionlarini gazsimon holatga o'tkazish uchun  $\Delta H_{\text{eritilgan modda}}$ ning etarlicha katta energiyasi zarur.



SHunday qilib, ionli birikmalarning erish issiqligi  $\Delta H_{\text{erit.moddaning ionlarga ayl.}}$  Va  $\Delta H_{\text{gidrat.}}$  Larning yig'indisini ko'rsatadi.

$$\Delta H_{\text{erish}} = \Delta H_{\text{erit.moddaning ionlarga ayl.}} + \Delta H_{\text{gidrat.}}$$

Rasm 13.5 da uchta ionli birikmalarning suvda erish jarayonining entalpiyasi diagrammalari keltirilgan.

NaCl  $\Delta H_{\text{erish}}$ ning kichkina musbat qiymatiga (3,9kJ/mol) ega, chunki uning kristall panjarasi energiyasi uning gidratatsiya energiyasidan birmuncha katta.

### Nazorat topshiriqlari

#### Reproduktiv o'zlashtirishiga doir

Normal konsentratsiya qanday ta'riflanadi?

- A) 1000 g eritmada erigan moddaning gramm ekvivalentlar soni normal konsentratsiya deyiladi.
- B) 1000 g eritmada 1 g ekvivalent modda erigan bo'lsa, bunday eritma normal konsentratsiya deyiladi.
- C) 1000 g erituvchida erigan moddaning gramm ekvivalentlar soni normal konsentratsiya deyiladi.
- D) 1000 g erituvchida erigan moddaning gramm ekvivalentlar soni normal konsentratsiya deyiladi.

E) 1000 g eritmada erigan moddaning gr ekvivalentlar soni normal konsentratsiya deyiladi.

### Produktiv o'zlashtirishga doir

Kaliy nitratning 2N, 21 eritmasini tayyorlash uchun qancha tuz eritish kerak?

- A) 125 g; B) 400 g; D) 182 g; E) 202 g; F) 222 g;

### Izlanuvchan ijodiy o'zlashtirishga doir

Zichligi 1,087 ga teng bo'lgan 2N o'yuvchi NaOH eritmasining foiz, molyar konsentratsiyasini hisoblang.

- A) 2; 7; 36; 2.      B) 2; 2; 7; 36.      D) 7,36; 2; 2.

## «Eritmalar» mavzusi bo'yicha vizual materiallar

### 1-ilova.

**Eritma** – ikki yoki undan ortiq moddadan tashkil topgan termodinamik turg'un sistema.

**Emul'siya** – dispers fazasi qattiq moddadan, dispers muhiti suyuq moddadan iborat bo'lgan sistema.

**Kolloid eritma** – zarrachalarining o'lchami  $1 \div 100$  nanometrgacha bo'lgan dispers fazo. Ular qog'oz fil'trdan o'tib ketadi.

**Molekulyar yoki chin eritmalar** – Erigan modda o'lchami 1 nanometrdan kichik bo'lgan ikki yoki bir necha moddadan tashkil topgan bir fazadan iborat bo'lgan eritma.

**Kristallogidrat** – tarkibida kristallizasiya suvi bo'lgan kimyoviy birikma.

**Gidratlanish energiyasi** – suv molekulalarining erigan modda molekulasi bilan ta'sirlanganda ajralib chiqadigan energiya.

**Erish issiqligi** – bir molekula moddaning erishida ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori.

**Erurvchanlik** – o'zgarmas temperaturada 100g erituvchida to'yingan eritma hosil qilib, erigan moddaning miqdori.

**Gazlarning suyuqliklarda erurvchanligi** – normal sharoitda 1 xajm erituvchida erigan gaz xajmining miqdorini bildiradi.

**Taqsimlanish qonunini** – Ma'lum temperaturada ikki bir-biriga aralashmaydigan erituvchilarda taqsimlangan moddaning konsentrasiyalar nisbati o'zgarmas miqdorda va u xar bir moddaning miqdoriga bog'liq emas:  $\frac{C_1}{C_2} K$

$C_1$  – birinchi moddaning konsentrasiyasi

## 8.2- Amaliy mashqulot

**1-masala.** 800 g 5 % li eritma tayyorlash uchun eruvchi moddadan necha gram olish kerak?

Yechish. I usul:

$$5\% = 100\% \cdot \frac{m_1}{800g}; \quad m_1 = \frac{5\% \cdot 800g}{100\%} = 40g$$

II usul.  $5\% = 0,05$ . Demak erigan modda massasi eritma massasining 0,05 qismini (ulushini) tashkil qiladi. Butun bo'yicha qismini topish usuliga ko'ra:

$$m = 800 \text{ g} \cdot 0,05 = 40 \text{ g erigan}$$

**2-masala.** 100 ml 4 n. HCl eritmasi ta'sirlashganda parchalay oladigan  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  massasini aniqlang.


Yechish. 100 ml 4n. eritmadiagi HCl massasini hisoblaymiz:

$$1000 \text{ ml } 4\text{n. eritma tarkibida} — 36,46 \cdot 4 \text{ g HCl saqlaydi}$$

$$100 \text{ ml } 4 \text{ n. eritma tarkibida} — x \text{ g HCl saqlaydi}$$

$$x = 36,46 \cdot 4 \cdot 100 / 1000 = 14,58 \text{ g}$$

Parchalangan soda massasini aniqlaymiz.



$$36,46 \cdot 2 \text{ g HCl} — 106 \text{ g Na}_2\text{CO}_3 \text{ parchalay oladi}$$

$$14,58 \text{ g HCl} — y \text{ g Na}_2\text{CO}_3 \text{ parchalay oladi}$$

$$y = 14,58 \cdot 106 / 36,46 \cdot 2 = 21,2 \text{ g Na}_2\text{CO}_3$$

**3-masala.** Molyalligi 0,3 mol/kg eritma olish uchun 3,04 g anilinni ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2$ ) qancha massadagi efirda eritish kerak?

Yechish. Eritma titrini topish formulasidan erituvchi massasini topamiz:

$$C_M = \frac{m_1}{M_1 \cdot m_2 (\text{kg})} \quad (\text{mol} / \text{kg}) \text{ dan } m_2 = \frac{m_1}{M_1 \cdot C_M} = \frac{3,04 \text{ g}}{93,13 \text{ g} / \text{mol} \cdot 0,3 \text{ mol} / \text{kg}} = 0,109 \text{ kg}.$$

**4-masala.**  $\text{Li}_2\text{SO}_4$  ning to'yingan ( $15^\circ\text{C}$  da) 120 g eritmasiga 6,4 g suvsiz litiy sulfat qo'shilganda cho'kmaga tushgan kristallogidrat tarkibida 7,364 g suvsiz tuz borligi aniqlandi. Suvsiz  $\text{Li}_2\text{SO}_4$  tuzining  $15^\circ\text{C}$  dagi eruvchanligi 20 ga teng bo'lsa, kristallogidratdagi 1 mol tuzga necha mol suv tog'ri kelishini aniqlang.

1) ( $15^\circ\text{C}$ ) dagi eritma massasi:  100g + 20g=120g 120g eritma ----- 100% 20g $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ----- x%    x=16,7% $\text{Li}_2\text{SO}_4$ 2) 120g eritma ----- 20g tuz bor	6) 19,034g tuz ----- 16,7%  x ----- 100%    x=114g eritma 7) $m(\text{Li}_2\text{SO}_4 \cdot n\text{H}_2\text{O}) = 126,4 - 114 = 12,4 \text{ g}$ 8) $m(n\text{H}_2\text{O}) = 12,4 - 7,364 = 5,036 \text{ g}$
--	--

120g eritmada ----- x    x = 20g Li <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	7,364	5,036
3) m(umumiyl tuz) = 20+6,4 = 26,4g Li <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	9) Li <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> · nH <sub>2</sub> O = Li <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> + nH <sub>2</sub> O	
4) 120g + 6,4g = 126,4 g to'yingan eritma		110        18n
5) m(qolgan tuz) = 26,4 - 7,364 = 19,034g	18n = 74	n = 4        Li <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> · 4H <sub>2</sub> O

**5-masala** 65 gr  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,4\text{SO}_3$  tarkibli oleumga kislород va vodorod atomlari teng bo'lguncha suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentrasiyasini aniqlang?

1) $\text{Mr}(\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,4\text{SO}_3) = 130 \text{ g/mol}$	4) $m(\text{eritma}) = m(\text{oleum}) + n(\text{H}_2\text{O}) =$
$n(\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,4\text{SO}_3) = 65/130 = 0,5 \text{ mol}$	$65\text{g} + 28,8\text{g} = 93,8\text{g eritma}$
$0,5 \text{ H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,4\text{SO}_3 + x \text{ H}_2\text{O}$	5) $65\text{g} \quad x = 69,67\text{g}$
$H = 0,5 \cdot 2(H_2SO_4 \cdot 0,4SO_3) + x \cdot 2(H_2O)$	$\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,4\text{SO}_3 + 0,4\text{H}_2\text{O} = 1,4\text{H}_2\text{SO}_4$
$O = 0,5 \cdot 2,6(H_2SO_4 \cdot 0,4SO_3) + x \cdot 1(H_2O)$	$130\text{g/mol} \quad 137,2\text{g/mol}$
2) $(H) 1 + 2x = (O) 2,6 + 1x$	6) $93,8\text{g eritma} ----- 100\%$
$2,6 - 1 = 2x - 1x \quad 1,6 = 1x \quad x = 1,6 \text{ mol}$	$68,6\text{g H}_2\text{SO}_4 ----- x = 73,1\% \text{ H}_2\text{SO}_4$
3) $m = \text{Mr} \cdot n = 18 \cdot 1,6 = 28,8\text{g H}_2\text{O}$	

## **8.2 Laboratoriya ishi. Eritmalar konsentratsiyalari. Eritmani tayvorlash.**

**Ishning maqsadi.** Eritma hajmini o'lchash, zichligini areometr yordamida o'lchash, erigan moddananing foiz ko'rsatkichini eritma zichliklari jadvali asosida aniqlash. Berilgan konsentrasiyali eritmalarни tayyorlash, eritma konsentrasiyalarining turlari; foiz (%), molyar (M), molyal, normal.

Suvning zichligi  $dH_2O = 1 \text{ g/ml}$ , shuning uchun  $mH_2O = VH_2O$  deb hisoblab, suv hajmini silindrda o'lchab ( $VH_2O = 152,4 \text{ ml}$ ), dastlabki eritmaning o'lchangan hajmi  $V_1$  ga qo'shiladi.

Suv hajmi  $VH_2O$  ni hisoblashda  $V$  va  $V_1$  hajmlar ayirmasidan aniq hisoblab bo'lmaydi chunki,  $V_1 + VH_2O = V_1$  teng emas. Eritmalar aralashganda siqilish yoki kengayish hodisalari yuzaga keladi.

## Ishning bajarilish tartibi.

Berilgan vazifani bajarish uchun tegishli hisoblarni bajarib, o'qituvchiga ko'rsatiladi. Eritmani tayyorlash uchun 2- qo'llanmadan foydaniladi va bajarilgan ish uchun hisobot (forma bo'yicha) yoziladi.

**Quruq tuz va suvdan berilgan foiz konsentratsiyali eritma tayyorlash.**

Masalan, 200 g 15 % li ammoniy sulfat  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  eritmasini tayyorlash kerak.

### **1- eritmani tavyorlash.**

Quruq tuz og'irligi ( $M_{tuz}$ ) va suv og'irligi ( $M_{suv}$ ) ni hisoblab topiladi. Tarozining 2 ta pallasi tahminan barobar qilib qirqilgan toza qog'oz qo'yilib, muvozanatga keltiriladi. Tarozining chap pallasidagi toza qog'ozga hovonchada maydalangan tegishli tuzdan solib, 0,01 g aniqlikkacha tortib olinadi va tuzni toza va quritilgan stakan yoki kolbaga solinadi.

Suv og'irligi uning hajmiga teng  $mH_2O = VH_2O$  deb hisoblab kerakli suv miqdorini toza o'lchov silindrida o'lchanadi va tuz solingan stakanga quyiladi.

Stakandagi tuz va suvning uchiga rezinka qoplangan shisha tayoqcha bilan tuz erib bo'lguncha aralashtiriladi.

Eritma haroratini o'lchab, agar zarur bo'lsa isitib yoki sovitib,  $20^{\circ}\text{C}$  ga keltiriladi.

Eritmani quruq o'lchov silindriga qo'yib, hajmi ( $V_{\text{eritma}}$ ) o'lchanadi.

### Bajarilgan ishning nazorati.

Silindriddagi eritmaning nisbiy zichligi (eritma)ni areometr bilan o'lchanadi.

Aniqlangan zichlikka foizli konsentratsiya ( $C_{\text{faktik}}$ ) jadvaldan topiladi. Agar zarur bo'lsa, foiz konsentratsiya interpolyatsiya yo'li bilan hisoblab topiladi.

Berilgan va jadvaldan topilgan konsentratsiya farqi quyidagicha hisoblanadi.

$$C = C_{\text{berilgan}} - C_{\text{faktik}}$$

Tayyorlangan eritma 2 vazifani bajarish uchun saqlab qo'yiladi.

Aniqlangan qiymatlar ( $M_{\text{tuz}}$   $M_{H_2O}$  va  $V_{\text{eritma}}$ ) dan foydalanib, eritmani molar va normal konsentratsiyasi ( $N$ ) hisoblanib topiladi. Ish oxirida hisobot formasi yoziladi.

### Tayyorlangan foiz konsentratsiyali eritmadan normal konsentratsiyali eritma tayyorlash.

Masalan, 250 ml 0,5 n ammoniy sulfat  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  eritmasini tayyorlash kerak. 2-vazifani bajarish uchun 1 yoki 3 vazifa eritmalarini qo'llash kerak.

#### 2- eritmani tayyorlash.

1- yoki 3- eritmalarining normal konsentratsiyasini bilgan holda 2-eritmani tayyorlash uchun shu eritmalarining zarur bo'lgan hajmi  $V_1$  ni ekvivalentlar qonunidan eritmaning normal konsentratsiyasi uchun foydalanib, quyidagi formula yordamida topiladi.

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{H_1}{H_2}$$

$V_2$  va  $H_2$  2- eritmaning hajmi va normalligi.

Hisoblangan hajmi  $V_1$  ni (1- yoki 3- eritmalarida) quruq o'lchov silindrida o'lchab olinib, toza o'lchov kolbasiga qo'yiladi.

Silindlarga bir oz distillangan suv qo'yib, chayqab, suvni kolbadagi eritmaga qo'shiladi.

Kolbadagi eritma hajmini pipetka yordamida distillangan suvdan qo'yib, kolba bo'ynidagi chiziqqa yetkaziladi (quyi menisk chizig'idan hisoblanadi). Kolba og'zini tiqin bilan berkitib, eritma aralashtiriladi va laborantga topshiriladi.

1- yoki 3- eritmaning qolgan qismini ham laborantga topshiriladi.

### Yuqori konsentratsiyali eritmadan quyi foiz konsentratsiyali eritma tayyorlash.

Masalan, 250 ml 10 foizli osh tuzi NaCl eritmasini tayyorlash kerak.

#### 3- eritmani tayyorlash.

Toza o'lchov silindriga laboratoriyyada berilgan konsentrangan tuz eritmasidan quyiladi va areometr bilan eritmaning nisbiy zichligi ( $d_{\text{dastlabki}}$ ) aniqlanadi. Aniqlangan zichlik uchun jadvaldan tegishli foizli konsentratsiyasi ( $C_{\text{dastlabki}}$ ) topiladi.

Agar zarur bo'lsa, interpolyatsiya yo'li bilan hisoblab topiladi.

Tayyorlanish kerak bo'lgan eritmaning foizli konsentratsiyasi ( $C$ ) uchun jadvaldan tegishli nisbiy zichlik ( $d$ ) topiladi. Shu eritmaning og'irligi ( $m_{\text{eritma}}$ ) va undan erigan tuzning og'irligi ( $m_{\text{tuz}}$ ) hisoblab topiladi.

Berilgan konsentrangan eritmaning tuz og'irligi ( $m_{\text{tuz}}$ )ga to'g'ri keladigan miqdori ( $m_{\text{dastlab eritma}}$ ) hisoblab topiladi.

Konsentrangan eritmani suyultirish uchun zarur bo'lgan suv og'irligi ( $mH_2O$ ) hisoblab topiladi.

Quruq silindr bilan konsentrangan eritmaning kerakli hajmi ( $V_{\text{dastlabki eritma}}$ )ni o'lchab toza stakan yoki kolbaga quyiladi.

Suv og'irligi uning hajmiga teng  $m_{H_2O} = V_{H_2O}$  deb hisoblab, kerakli suv miqdori  $mH_2O$  ni silindrda o'lchab, stakandagi eritmaga quyiladi va shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi.

Eritmaning haroratini o'lchab, agar zarur bo'lsa isitib yoki sovitib, 20 °C ga keltiriladi. Tayyorlangan eritmani quruq o'lchov silindriga qo'yib, uning hajmi ( $V_{\text{eritma}}$ ) o'lchanadi.

### B a j a r i l g a n i s h n i n g n a z o r a t i

Berilgan jadvaldan topilgan konsentratsiyalar farqi topiladi.

$$C = C_{\text{berilgan}} - C_{\text{faktik}}$$

Tayyor eritmani 2- vazifa uchun saqlab qo'yiladi. Aniqlangan qiymatlar ( $m_{\text{tuz}}$ ,  $m_{\text{eritma}}$  va  $V_{\text{eritma}}$ ) dan foydalanib, eritmaning molar (M), mol (m), normal (N) konsentratsiyalari hisoblab topiladi. Ish oxirida hisobot (formula) bo'yicha yoziladi.

### 9.1-Jadval

#### Tuz eritmasining zichligi (20 °C) d (g/ml).

% li kon-sen-tratsiya	Eritma NaCl	Eritma $(NH_4)_2SO_4$	Eritma $NH_4NO_3$	Eritma $BaCl_2$	Eritma $NaNO_3$	Eritma $NH_4Cl$
1	1.005	1.014	1.002		1.005	1.001
2	1.012	1.010	1.006	1.016	1.012	1.004
3	1.027	1.022	1.015	1.034	1.025	1.011
6	1.041	1.034	1.023	1.058	1.039	1.017
8	1.056	1.046	1.031	1.072	1.053	1.023
10	1.071	1.057	1.040	1.092	1.069	1.029
12	1.086	1.069	1.049	1.113	1.082	1.034
14	1.101	1.081	1.057	1.134	1.097	1.040
16	1.116	1.097	1.065	1.156	1.112	1.046
18	1.132	1.104	1.074	1.179	1.127	1.051
20	1.148	1.115	1.083	1.203	1.143	1.057
24	1.180	1.138	1.100	1.253	1.175	
28		1.161	1.119		1.209	
35		1.200	1.151		1.270	

### 9.4- Tarqatma material

1. Eritmaning konsentrasiysi deb nimaga aytiladi va qanday usullar bilan ifodalanadi?
2. Eritmaning zichligii deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
3. 125g. 5%-li o'yuvchi natriy eritmasi taylorlash uchun necha gramm NaOH va necha gramm  $H_2O$  kerak? (javob: 6,25g. ).
4. Eritma tarkibida 5 g.  $AgNO_3$  va 120g. suv bor. Shu eritmaning foiz konsentrasiyasini xisoblang. (javob: 4% ).
5. 500ml. 0,2M eritma taylorlash uchun necha gramm  $Na_2CO_3$  olish kerak? (javob: 42,4g. ).
6. Zichligi  $1,525\text{g/sm}^3$ ga teng bo`lgan yoki 98% li  $H_2SO_4$  eritmasining normalligini va molyarligini xisoblang. (javob: 33,80;  $15,93\text{m}^3$  ).
7. 25,25g. suvda osh tuzi eritilib, 300ml. eritma zichligi taylorlandi. Eritmaning molyar konsentrasiyasini toping.(javob: 0,7M. ).
8. 10ml.0,2N kislota eritmasini taylorlash uchun 8ml. Eritmasining normalligini toping (javob: 0,25 N. )

9. Ishqorning 0,1N eritmasidan 30ml-ni neytrallash uchun kislota eritmasidan 12 ml. sarflandi. Shu kislotaning normalligi qanday (javob: 0,25N.).

### 9.5- Test sinov variant savollari.

1. 1,5l. suvda 50g. modda eritilan. Eritmaning foiz konsentrasiyasini aniqlang.  
A. 1,55%    B. 3,33%    C. 5,01%    D. 6,3%    E. 8,5%
2. Zichligi  $d=1,046$  g/ml ga teng bo`lgan 4% li o`yuvchi natriy eritmasining molyar konsentrasiyasini aniqlang  
A. 1,046M    B. 0,75M    C. 0,50M    D. 2,50M    E. 3,0M
3. Zichligi  $d=1,105$  g/ml ga teng bo`lgan 25% li natriy nitrat eritmasining normal konsentrasiyasini aniqlang  
A. 2,04N    B. 3,0N    C. 3,25N    D. 2,48N    E. 3,70N
4. 0,1M eritma hosil qilish uchun 0,3M 800ml. eritmaga qancha suv qushish kerak  
A. 1100ml.    B. 1200ml.    C. 1400ml    D. 1500 ml.    E. 1600ml.
5. Zichligi 1,08g/ml ga teng bo`lgan 12 % li 5 l.  $H_2SO_4$  eritmasini taylorlash uchun shu kislotaning zichligi 1,5g/ml 60 % li eritmasidan necha ml. olish kerak  
A. 500ml.    B. 520ml.    C. 600ml.    D. 700ml.    E. 720ml.
6. Konsentrasiysi 8% li 5 l. eritma zichligi taylorlashda, necha g.  $Na_2SO_3$  kerak bo`ladi  
A. 430g.    B. 590g.    C. 880g.    D. 1000g.    E. 1430g.
7. Konsentrasiysi 25% 300g. eritmaga, konsentrasiysi 40% 400g. eritma qo`shildi. Hosil bo`lgan eritmaning foiz konsentrasiyasini aniqlang.  
A. 25,5%    B. 33,6%    C. 52,2%    D. 62,2%    E. 82,2%
8. Konsentrasiysi 0,2M bo`lgan 300ml. eritmani taylorlash uchun  $NaNO_3$  tuzidan qancha olish kerak?  
A. 2,5g.    B. 4,2g.    C. 5,1g.    D. 8,2g.    E. 12,5g.
9. 8g.  $CuSO_4$  tuzi konsentrasiysi 0,1 normal eritmada eritilan. Shu eritmaning hajmini aniqlang.  
A. 1 l.    B. 0,5 l.    C. 8 l.    D. 10 l.    E. 11 l.
10. 30ml. 0,1N ishqor eritmasini neytralash uchun, konsentrasiysi 0,2 N kislota eritmasidan sarflangan hajmini aniqlang.  
A. 10ml.    B. 15ml.    C. 20ml.    D. 30ml.    E. 40ml.

**Adabiyotlar:** M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 224-244 betlar.

## 10. SUYULTIRILGAN ERITMALARNING XOSSASI. OSMOTIK BOSIM.

### Reja:

1. Suyultirilgan eritmalar.
2. Osmos, osmotik bosim.
3. Raulni I-qonuni.
4. Qaynash harorati. Muzlash harorati.
5. Raulni II-qonuni.

**Tayanch so'zlar:** moddalarning eruvchanligi, eruvchanlik koeffisienti, suyultirilgan eritmalar, to'yinuvchanlik, konsentratsiya, Osmos, to'yigan par, diffuziya.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** Eritmalar, suyultirilgan eritmalar, to'yinuvchanlik, konsentratsiya, Osmos, to'yigan par, diffuziyahaqida tushunchalarni o'rgatish. Talabalarga gaz moddalarning suvdagi eruvchanligi, qattiq va suyuq moddalarning suvdagi eruvchanligi, Genri va Genri Dalton qonunlari haqida ma'lumot berish.

**Talabalar uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Moddalarning eruvchanligi haqida tushuncha berish.

Gazlarning suyuqliklarda eruvchanligi, Genri qonuni haqida ma'lumot berish.

Qattiq moddalarning eruvchanligi haqida tushuncha berish.

## **1 – asosiy savolning bayoni. Eruvchanlik**

Moddalarning eruvchanligi eruvchi moddaning va erituvchining tabiatiga, shuningdek harorat bilan bosimga bog'liq bo'ladi. «Ayni moddaning ma'lum haroratda 100g erituvchida erib to'yingan eritma hosil qiladigan massasi shu moddaning eruvchanligi deb ataladi».

Ba'zi moddalarning eriganda issiqlik yutiladi yoki issiqlik ajraladi. «Bir mol modda eriganda yutiladigan yoki ajralib chiqadigan issiqlik miqdori shu moddaning erish issiqligi deb ataladi».

Suyuqlikning suyuqliklarda erishi ham turlicha bo'ladi, ba'zi suyuqliklar bir - birida cheksiz eriydi. Masalan: suv bilan spirit, suv bilan glitserin. Ba'zi suyuqliklar ma'lum chegaraga qadar eriydi.

Shunday suyuqliklar borki, bir - biri bilan amalda erimaydi. Masalan: suv, xloroform, suv bilan benzol.

Gazlarning eruvchanligi haroratiga bosimga, gazning tabiatiga va erituvchilarga bog'liq bo'ladi. Gazlarning suyuqliklarda eruvchanligi Genri qonuni bilan ifodalanadi.

«O'zgarmas haroratda ma'lum hajm suyuqlikda erigan gazning miqdori shu gazning bosimiga to'g'ri proporsional bo'ladi». Masalan: 1 atm bosimda  $0^{\circ}\text{C}$  da 11 suvda 0,0654 g  $\text{O}_2$  erisa, o'sha haroratda 2 atm bosimda 0,1308 g  $\text{O}_2$  eriydi.

Endi gazlar aralashmasi eritilganda har qaysi gaz mustaqil ravishda eriydi, ya'ni bu gazning erishiga aralashmadagi boshqa gazlar hech qachon halal bermaydi. Erish gazning parsial bosimigagina bog'liq bo'ladi.

Genri Dalton qonuni.

Masalan: suv ustida havo bo'lsa, bu havo suvda eriydi, lekin havo tarkibadagi  $\text{O}_2$  va  $\text{N}_2$  ning eruvchanliklari havoning umumiyy bosimiga emas, balki o'zlarining parsial bosimlariga bog'liq.

Gazlarning suyuqliklarda erishi harorat ortishi bilan kamayadi, chunki gazlarning suyuqliklarda erishi ko'pincha issiqlik chiqishi bilan boradi. Masalan, kislород va oltingugurt (IV) oksidini 100 gr suvda harorat o'zgarishi bilan eruvchanligi o'zgaradi.

Gazlarning eruvchanligi ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi, masalan: ba'zi bir gazlar ( $\text{CO}_2$ ,  $\text{NH}_3$ ) suvda juda yaxshi erisa, ba'zi bir gazlar ( $\text{O}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{CO}$ ) suvda yomon eriydi.

Gaz	$0^{\circ}\text{C}$	$20^{\circ}\text{C}$	$40^{\circ}\text{C}$	$60^{\circ}\text{C}$
$\text{O}_2$	0,0489	0,0155	0,0118	0,0102
$\text{SO}_2$	79,8	39,4	18,8	10,6

Suyuqliklarning suvda eruvchanligi birinchi navbatda ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Ba'zi suyuqliklar suvda juda yaxshi cheksiz eriydi, o'z navbatida bu suyuqliklarda suv ham juda yaxshi eriydi. Bunday suyuqliklarga o'zaro cheksiz eriydigan suyuqliklar deyiladi. Masalan: etil spirit va suv sistemasida spirit suvda va suv spiritda o'zaro har qanday nisbatda eriydi.

Ba'zi suyuqliklar past haroratda ma'lum miqdorda erisa, yuqori haroratda o'zaro cheksiz eriydigan suyuqlikka o'tadi. Masalan: fenol – suv sistemasida harorat  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $66^{\circ}\text{C}$  gacha fenol suvda va suv fenolda ma'lum miqdorda erib, geterogen sistemani tashkil qilsa, harorat  $66^{\circ}\text{C}$  dan oshganda ular o'zaro cheksiz eriydigan suyuqlikka o'tadi, ya'ni fenol suvda va o'z navbatida suv fenolda cheksiz har qanday nisbatda eriydi.

Ba'zi bir suyuqliklarning suvda eruvchanligi harorat ko'tarilishi bilan kamaysa, suvning bu suyuqliklarda erishi ortadi. Bunga efir – suv sistemasi misol bo'la oladi. Harorat ortishi bilan efirning suvda eruvchanligi kamaysa, suvning efirda eruvchanligi ortadi.

Qattiq moddalarning suvda eruvchanligi o'zgarmas bosimda ularning tabiatiga va haroratga bog'liq bo'ladi. Erish jarayoni ekzotermik bo'lsa, harorat ortganda moddaeruvchanligi kamayadi va aksincha. Erish jarayoni endotermik bo'lsa, modda eruvchanligi ortadi. Qattiq moddalarning eruvchanligi kristall panjara (bog'lanish) energiyasiga ham bog'liq bo'ladi.

Moddal	Kristall panjara energiyasi Kj	Eruvchanligi $20^{\circ}\text{C}$ da 100ml suyuqlik gr hisob.
KCl	690	34

KB <sub>r</sub>	690	65,5
KJ	665,2	144

Eritmalardagi erituvchining konsentratsiyasi toza erituvchiga qaraganda kichik bo'lgani uchun barobar haroratda erituvchi bilan eritmaning bug' bosimlari orasida farq bo'ladi. Masalan: 15°C da toza suvning bug' bosimi 12,79 ml simob ustuni bosimiga teng, ammo 15°C da H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning 50% eritmasi ustidagi bug' bosimi 4,5 ml simob ustuni bosimiga teng.

### Nazorat topshiriqlari

#### Bilish darajasida o'zlashtirishga doir

Moddalarning eruvchanligi qanday ta`riflanadi?

A) «Ayni moddaning ma'lum haroratda 100g erituvchida erib to'yingan eritma hosil qiladigan miqdori, shu moddaning eruvchanligi deb ataladi».

B) «Ayni moddaning 0°C temperturada 100g erituvchida erib to'yingan eritma hosil qiladigan miqdori, shu moddaning eruvchanligi deb ataladi».

D) «Ayni moddaning 1 molini ma'lum haroratda 100g erituvchida erib to'yingan eritma hosil qiladigan miqdori, shu moddaning eruvchanligi deb ataladi ».

E) «Ayni moddaning 1molini 0°C haroratda 100g erituvchida erib to'yingan eritma hosil qiladigan miqdori, shu moddaning eruvchanligi deb ataladi».

#### Reproduktiv o'zlashtirishga doir

Genri qonuni qanday ta`riflanadi?

A) «O'zgarmas haroratda 100g suyuqlikda erigan gazning massasi shu gazning bosimiga to'g'ri proporsional bo'ladi».

B) «O'zgarmas haroratda ma'lum hajm suyuqlikda erigan gazning massasi shu gazning bosimiga to'g'ri proporsional bo'ladi».

D) «O'zgarmas haroratda ma'lum hajm suyuqlikda 1 mol gazning erishi shu gaz bosimiga to'g'ri proporsional bo'ladi».

#### 2- asosiy savol. Eritmalarning xossalari.

**O'qituvchi maqsadi:** talabalarga eritmadi osmos hodisalari, eritmalarning bug', bosim, eritmalarning muzlash va qaynash harorati haqida, Raulning birinchi va ikkinchi qonunlari haqida tushuncha berish.

**Talabalar uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Eritmadagi osmos hamda diffuziya hodisasi haqida ma'lumot berish.

Eritma bug' bosimining nisbiy pasayishi haqida tushuncha berish.

Raulning birinchi qonuni haqida ma'lumot berish.

Eritmalar muzlash haroratining pasayishi va qaynash haroratining ko'tarilishi haqida ma'lumot berish.


Raulning ikkinchi qonuni haqida ma'lumot berish va uni keltirib chiqarish.

#### 2 – asosiy savolning bayoni

Eritmalarning xossalariiga eritmadi diffuziya, osmos hodisalari, eritma bug' bosimi muzlash va qaynash harorati kiradi.

I. Bir modda zarrachalarining ikkinchi modda ichida taqsimlanishiga diffuziya deb ataladi. Agar yuqori konsentratsiyali eritmaolib, uning ustiga suv quysak, erigan modda zarrachalari suvgaga o'ta boshlaydi va ma'lum vaqtidan keyin eritma bir xil konsentratsiyaga erishadi. Eritmalarda diffuziya tufayli og'irlilik kuchi ham yangilanadi. Har qanday og'ir tuz eritmasi


ustiga suv sollsak, ogir zarrachalar yuqoriga



ko'tariladi

II. Agar erituvchi bilan eritma o'rtasiga yarim o'tkazgich pardal qo'ysak, bu pardal qalal erituvchi zarrachalari eritmaga o'tib uni suyultira boshlaydi. Erituvchi zarrachalarining yarim o'tkazgich pardal kalli o'tishi jarayoni osmos hodisasi deyiladi.

Osmos hodisasi natijasida eritmadaosmotik bosim vujudga keladi. Bu bosim osmos hodisasini to'xtatish uchun ya`ni erituvchi molekulalarini pardadan o'tmasligi uchun eritmaga berish kerak bo'lган tashqi bosimga teng bo'ladi.



Tubi va devorlari yarimo'tkazgich qilib tayyorlangan maxsus idishga qand eritmasidan quyib, uni suv to'ldirilgan idishga botiramiz.

 <b>Rasm. Osmatik bosimi aniqlash qurilmasi</b>	<p>Bundaosmos hodisasi boshlanadi. Qand zarrachalari yarim o'tkazgich pardal qalal o'taolmaydi. Suv zarrachalari esa pardal qalal eritmaga o'tishi natijasida eritmani suyultiradi. Buning natijasida eritmaning hajmi oshib, nay bo'yiga ko'tarilib boradi. Eritmaning bunday ko'tarilishidan hosil bo'lган nayda gidrostatik bosimi suvning sirdan ichkariga kirayotgan molekulalariga qarshilik qila boshlaydi. Nayda eritmaning ko'tarilishi to'xtaydi, ya`ni ustunning bosimi eritmaning osmotik bosimiga tenglashadi va osmos hodisasi to'xtaydi.</p>
--	---

$$P = CRT$$

1.50<sup>0</sup> t da eritma bug bosimi 200g C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH da 23 g modda erigan. (VR= 219,8 – 207,2= 12,6) 207,2 ml toza spirting bug bosimi shu t<sup>0</sup> da 219,8 ml M = ?

$$VR = \frac{R \cdot n}{N}$$


$$\begin{aligned} BP &= 219,8 - 207,2 = 12,6 \\ N &= 200 : 46 = 4,35 \text{ mol} \end{aligned}$$

### III. Eritmalarning bug' bosimi

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, barobar haroratda erituvchi bilan eritmaning bug' bosimlari bir - biridan farq qiladi. Eritmaning bug' bosimi hajmi vaqt toza erituvchining bug' bosimidan kichik bo'ladi. Buning sababi shundaki erituvchi va eruvchi modda molekulalari bir - biriga ta'sir etishi tufayli erituvchining bug'lanishi qiyinlashadi. Shuning uchun eritma sirtidan vaqt birlamchi ichidaajralib chiqadigan suv molekulalari soni toza suv sirtidan chiqadigan molekulalari soniga qaraganda oz bo'ladi. Shuning uchun  $P + P^0$  - eritmaning  $P^0$  toza erituvchining bug' bosimlari. Bular o'rta sidagi farq eritmada erituvchi bug'i bosimining pasayishi deyiladi.

$$P_0 - P = \Delta P$$

Erituvchidagi erigan moddaning konsentratsiyasi qancha katta bo'lsa, bug' bosimining pasayishi ( $\Delta P$ ) shunga katta bo'ladi.




Rasm. To'yingan bug' bosimining xaroratga bog'liqligi

Eritma bug' bosimi pasayishining toza erituvchining bug' bosimiga nisbati ( $P_0 - P$ ) eritmada erituvchi bug' bosimining

$$\frac{\Delta P}{P_0}$$

nisbiy pasayishi deb ataladi.

1887 - yilda fransuz olimi Raul juda ko'p tajribalar o'tkazib, quyidagi qonuniyatni aniqladi.



Rasm. Suv va suvli eritma ustidagi bug' bisimi

Eritmada erituvchi bug' bosimining nisbiy pasayishi o'zgarmas haroratda ma'lum miqdordagi erituvchida erigan moddaning massasiga to'g'ri proporsional bo'lib, erigan modda tabiatiga bog'liq bo'ladi, emas, ya'ni,  $\frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{n}{n_0 + n}$  (1) bu yerda  $n$ -erigan moddaning mol soni

$n_0$  - erituvchining mol soni.

$$\frac{n}{n_0 + n} = N - erigan moddaning molyar qismi.$$

Bulardan foydalanim, (1) formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = N \quad (2)$$

Erituvchi bug'i bosimning nisbiy pasayishi erigan moddaning molyar qismiga teng bo'ladi. Suyultirilgan eritmalariga erigan moddaning mol soni n erituvchining mol soniga nisbatan kichik bo'lganligi sababli, Raulning birinchi qonuni suyultirilgan eritmalar uchun quyidagicha yoziladi.  $P_0 - P = \Delta P$ ,  $n = m_1/M_1$ ,  $n_0 = m_0/M_0$

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{n}{n_0} \quad (3) \text{ Demak, elektrolitmaslarning suyultirilgan eritmalarida bug'}$$

$$\Delta P/P = m_1 \cdot M_1 / m_2 \cdot M_2$$

bosimining pasayishi erigan modda mollar sonining erituvchi modda mollar sonigabo'lgan nisbatiga tengdir.

#### **IV. Eritmalarining qaynash va muzlash haroratlari. Raulning ikkinchi (ebulioskopik va krioskopik) qonuni.**

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, eritmalarining qaynash va muzlash harorati toza erituvchinikiga qaraganda farq qiladi. «Eritmaning qaynash harorati bilan toza erituvchining qaynash harorati orasidagi farq eritma qaynash haroratining ko'tarilishi deb ataladi». Eritma konsentratsiyasi katta bo'lsa, u shuncha yuqori haroratda qaynaydi. Toza erituvchining bug' bosimi  $T_1^0$  da 760mm ga yetadi va shuning uchun u  $T_1^0$  da qaynaydi. Eritmaning bug' bosimi toza erituvchidan past bo'lganligidan, uning bugi bosimini 760mm ga yetkazish uchun uni  $T_2^0$  gacha qizdirish kerak. Demak eritma  $T_2^0$  da qaynaydi.  $VT = T_2^0 - T_1^0$  ni aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar Raulning ikkinchi qonuni shaklida yakunlandi. Bu qonunga muvofiq «Eritmaning qaynash harorating ko'tarilishi shu eritmada erigan moddaning molyal konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir»  $VT = E S$ , bu yerda  $S$  – molyal konsentratsiyasi,  $E$  – erituvchining ebulioskopik kostantasi bo'lib, u 1000g erituvchida 1 mol modda erganda hosil bo'lgan eritmaning qaynash harorati, erituvchining qaynash haroratiga qaraganda necha gradus ortiq ekanligini ko'rsatadi. Uning qiymati faqat erituvchiga bog'liq bo'lib erigan moddaga bog'liq emas. Har qaysi erituvchi uziga xos ebulioskopik konstantaga ega. Masalan: suv uchun  $E = 0,576^0$  ga teng, benzol uchun  $E = 2,57^0$ , etil efir uchun  $E = 2,12^0$  va hokazo.

Table 13.3 Molal Boiling-Point-Elevation and Freezing-Point-Depression Constants

Solvent	Normal Boiling Point (°C)	$K_b$ (°C/m)	Normal Freezing Point (°C)	$K_f$ (°C/m)
Water, $H_2O$	100.0	0.51	0.0	1.86
Benzene, $C_6H_6$	80.1	2.53	5.5	5.12
Ethanol, $C_2H_5OH$	78.4	1.22	-114.6	1.99
Carbon tetrachloride, $CCl_4$	76.8	5.02	-22.3	29.8
Chloroform, $CHCl_3$	61.2	3.63	-63.5	4.68

Umumiyl holdaagar «B» gramm erituvchida «a» gramm modda erigan bo'lsa, hosil bo'lgan eritmaning qaynash harorati ko'tarilishini topish uchun quyidagi proporsiyadan foydalananadi.

Agar moddaning molyal konsentratsiyasi  $Sm$  bo'lganida ( $M$ ) 1000

qaynash haroratining ko'tarilishi  $E$  bo'lsa, konsentratsiya  $\frac{a}{B}$  bo'lganida, hosil bo'lgan eritmaning qaynash haroratining kotarilishi  $\Delta T$  bo'ladi, ya`ni

$$\frac{M}{1000} - E \Delta T = \frac{\frac{a}{B \cdot E}}{\frac{M}{B \cdot M}} = \frac{a \cdot E \cdot 1000}{B \cdot M} \quad \frac{a}{B} - \Delta T \quad (1)$$

bu yerda  $M$ -erigan moddaning molekulyar massasi,  $a$ -erigan moddaning gramm hisobidagi miqdori,  $v$ -erituvchining gramm hisobidagi miqdori,  $E$ -ebulioskopik kontantasi,  $\Delta T$ -eritma qaynash haroratining ko'tarilishi.

Xuddi shuningdek toza, erituvchi  $T_0^0$ da muzlaydi. Eritma esa  $T^0$ da muzlaydi. Demak, eritmaning muzlash harorati toza erituvchinikiga nisbatan past bo'ladi.  $\Delta T = T^0 - T_0^0$  «Eritma muzlash haroratining pasayishi deb ataladi».

Raulning ikkinchi qonunigaasosan  $\Delta T = K \cdot Sm$ : bu yerda  $Sm$  – molyal konsentratsiya,  $K$ -erituvchining krioskopik konstantasi yoki muzlash haroratining pasayishi deb ataladi va u 1000g erituvchida 1 mol modda erganda hosil bo'lgan eritmaning muzlash haroratining pasayishini ko'rsatadi.

Umumiy holda  $\frac{a}{B}$  konsentratsiyali eritma uchun ham muzlash haroratining pasayishini topishimiz mumkin.  $\frac{M}{1000} - K \Delta T = \frac{\frac{a}{B \cdot K}}{\frac{M}{B \cdot M}} = \frac{a \cdot K \cdot 1000}{B \cdot M} ; \quad \frac{a}{B} - \Delta T$

$K$  ning qiymati har xil erituvchilar uchun ma'lum qiymatiga ega bo'lib, erigan modda tabiatiga bog'liq emas. Masalan: suv uchun  $K=-1,86$ , benzol uchun  $K=-5,14$ , xloroform uchun  $K=-4,9$ , etil efir uchun  $K=1,67$  ga teng.

(1) va (2) formulasidan foydalanib, erigan moddaning molekulyar og'irligini topish mumkin. Buning uchun eritma tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Bi usullarning birinchi usuli ebulioskopik usul, ikkinchi usul esa krioskopik usul deb yuritiladi.

### Nazorat topshiriqlari

#### Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir

- Eritmadagi osmos hodisasi qanday ta`riflanadi?
- Erituvchi molekulalarining yarim o'tkazgich pardavorkali o'tish hodisasi osmos hodisasi deyiladi.
  - Erigan modda molekulalarining yarim o'tkazgich pardavorkali o'tish hodisasi osmos hodisasi deyiladi.
  - Eritmada erigan kislordining yarim o'tkazgich pardavorkali o'tish hodisasi osmos hodisasi deyiladi.
  - Eritmada erigan havoazotning yarim o'tkazgich pardavorkali o'tish hodisasi osmos hodisasi deyiladi.

Raulning birinchi qonuni qanday ta`riflanadi?

- Eritmada erigan modda bug'ining nisbiy pasayishi shu eritmada erigan moddaning molyar qismiga teng.
- Eritmada erituvchi bug'i bosimining nisbiy pasayishi shu eritmada erigan moddaning molyar qismiga teng.
- Eritmada erigan modda bug'i bosimining nisbiy pasayishi shu eritmada erigan moddaning molekulyar massasiga teng.
- Eritmada erituvchi bug'i bosimining nisbiy pasayishi shu eritmada erigan moddaning molekulyar massasiga teng.

### Reproduktiv o'zlashtirishga doir

#### Osmotik bosim qanday ta`riflanadi?

- Eritmaning osmotik bosimi shu eritmada erigan moddaning mollar soniga teng.
- Eritmaning osmotik bosimi shu eritmada erituvchining molyar soniga teng.

D) Eritmaning osmotik bosimi shu eritmada erigan moddaning molyar konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

E) Eritmaning osmotik bosimi shu eritmada erigan moddaning molyar qismiga teng.

#### **Eritmaning muzlash haroratining pasayishi qanday ta`riflanadi?**

A) Eritmaning muzlash haroratining pasayishi shu eritmada erigan moddaning molyar konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

B) Eritmaning muzlash haroratining pasayishi shu eritmada erigan moddaning molyal konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

G) Eritmaning muzlash haroratining pasayishi shu eritmada erigan moddaning protsent konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

#### **Eritmaning qaynash haroratining ko'tarilishi qanday ta`riflanadi?**

A) Eritmaning qaynash haroratining ko'tarilishi shu eritmada erigan moddaning protsent konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

B) Eritmaning qaynash haroratining ko'tarilishi shu eritmada erigan moddaning molyal konsentrasiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

D) Eritmaning qaynash haroratining ko'tarilishi shu eritmada erigan moddaning molyar konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

E) Eritmaning qaynash haroratining ko'tarilishi shu eritmada erigan moddaning osmotik bosimiga to'g'ri proporsionaldir.

#### **Produktiv o'zlashtirishga doir**

Agar 3 g shakar 250 ml eritmaning  $12^{\circ}\text{C}$  harorati osmotik bosimi 0,82 atmosferaga teng bo'lsa, shakarning molekular o'g'riligini hisoblang.

A) 342; B) 312; V) 352; G) 314; D) 324;

50g suvda 6g mochevina eritma  $-3,72^{\circ}\text{C}$  da muzlaydi. Mochevinaning molekulyar o'g'riligini hisoblang.

A) 30; B) 40; D) 50; E) 60; F) 70;

400g efirda 15g xloroform eriganda hosil bo'lgan eritmaning qaynash haroratining ko'tarilishi  $0,665^{\circ}\text{ga}$  teng. Xloroformning molekulyar o'g'riligini aniqlang.

A) 109,5; B) 119,5; D) 129,5; E) 139,5; F) 149,5;

## **10.2. Amaliy mashqulot**

**1-masala.** Muzlash harorati  $20^{\circ}\text{C}$  atrofida bu`ladigan radiator syuqligi taylorlash uchun 30 litr suvga qancha etilenglikol qushish kerak?

**Yechish:** Xisobni 1kg. uchun olib boramiz. 30litr suv 30 kg. bo`ladi, uni  $K_{k.r.}=1,85$ ,  $t_{muzl.}=20^{\circ}\text{C}$ ,  $\text{C}_2\text{H}_4(\text{OH})_2$  ning molekulyar massasi  $M=62$ ligini bilgan holda formulaga qo'yib hisoblaymiz

$$m = \frac{t_{muz} \cdot M \cdot B}{1000 \cdot K_{k.r.}} = \frac{20 \cdot 62 \cdot 30}{1000 \cdot 1,86} = 20 \text{kg.}$$

**2-masala.** Massasi 22,64g. bo`lgan chinni kosachaga kaliy nitratning  $15^{\circ}\text{C}$ dagi to`yingan eritmasidan quyilgan. Kosachaning eritma bilan birlgilidagi massasi 105,4g. Eritma buglatilgandan keyin esa massasi 30,54g. bo`lgan. Eruvchanlikni erituvchi miqdoriga nisbattan ifodalab, kaliy nitratning  $15^{\circ}\text{C}$ dagi eruvchanlikni toning.

**Yechish:**  $m_{erituvchi} = 105,40\text{g.} - 30,54\text{g.} = 75,86\text{g.}$

$m_{KNO_3} = 30,54\text{g.} - 11,54\text{g.} = 18,9\text{g.}$

$$C_{eruvchanlik} = \frac{18,9}{75,86} \cdot 100 = 24,92\%$$

Demak: 100g. suvda 24,92g. kaliy nitrat eriydi.

### 7.3- Tarqatma material.

1. 84g.  $\text{SrCl}_2 \cdot 6 \text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristalgidratni  $15^\circ\text{C}$ da eritish uchun 100g. suv kerak bo`lgan eruvchanlikni erituvchi miqdoriga nisbattan foizlar bilan ifodalab, stronsiy xlordining (suvsiz tuzning)  $15^\circ\text{C}$ dagi eruvchanligini xisoblab toning.(javob: 37%).
2.  $0^\circ\text{C}$ da 1 litr suvda karbonat angidridning eruvchanligi 1,7 litrga teng.  $0^\circ\text{C}$ da va 5 atm. bosimda 10 litr suvda erigan karbonat angidrid massasini xisoblang. (javob: 157g.).
3. Kislородning 1 litr suvda eruvchanligi  $20^\circ\text{C}$ da 31 ml. Shu sharoitda azotning eruvchanligi esa 15,4ml ga teng. Havoda kislород va azotning hajmlari orasidagi nisbat taqriban  $V_{O_2} : V_{N_2} = 1:4$ ga teng ekanligini va suv ustidagi bosim 1atm. bo`lganligini nazarda tutib, suvda erigan kislород va azot tarkibini aniqlang. (javob: 33,5%  $O_2$  : 66,5%  $N_2$ )/
4. 500ml. suvda 1,8g. glykoza  $C_6H_{12}O_6$  eritilgan. Eritmaning  $27^\circ\text{C}$  dagi osmotik bosimini xisoblang. (javob: 0,45atm. ).
5. Shakar ( $C_{12}H_{22}O_{11}$ ) ning 5%li eritmasi necha gradusda qaynaydi. (javob:  $100,08^\circ\text{C}$  ).
6. 1500g. suvda 200g. shakar ( $C_{12}H_{22}O_{11}$ ) eritilgan. Hosil bo`lgan eritma necha gradusda qaynaydi. (javob:  $100,2^\circ\text{C}$  ).
7. Gliserin  $C_3H_8O_3$  ni suvda eritib 10%li eritma taylorlangan. Uning kristallanish (muzlash) haroratini xisoblang. (javob:  $-2,25^\circ\text{C}$  ).
8. Agar 50g. benzolda 2g. naftalin  $C_8H_8$  eritilsa, hosil bo`lgan eritma necha daraja haroratda muzlaydi.  $K_{k.r} C_6H_6 = 5,12$ ;  $\Delta t_{muzl.} = 5,4^\circ\text{C}$  (javob:  $3,8^\circ\text{C}$  ).
9. Konsentrasiyasi 0,5M.(molyar) glykoza  $C_6H_{12}O_6$  eritmasining  $25^\circ\text{C}$ dagi osmotik bosimini aniqlang. (javob: 1,24mPa. ).
10. Harorat  $20^\circ\text{C}$  eritmaning osmotik bosimi 243,4mPa teng. Shu eritmaning molyar konsentrasiyasini aniqlang. (javob: 0,1mol/litr. ).

### 10.4. Test sinov variant savollari.

1. Natriy sulfat  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ning  $18^\circ\text{C}$ dagi 200 ml. eritmasida 32,55g. erigan modda bor. Natriy sulfatning  $18^\circ\text{C}$ dagi molyar eruvchanligini aniqlang
  - A. 1,0 mol/litr. B. 1,15 mol/litr. C. 2,3 mol/litr. D. 0,75 mol/litr. E. 2,75 mol/litr.
2. Glykoza  $C_6H_{12}O_6$  ning 2% suvli eritmasining kristallanish va qaynash haroratni aniqlang
  - A.  $0,21^\circ\text{C}$  va  $100,05^\circ\text{C}$  B.  $-0,41^\circ\text{C}$  va  $101,12^\circ\text{C}$  C.  $-0,31^\circ\text{C}$  va  $102,12^\circ\text{C}$
  - D.  $0,21^\circ\text{C}$  va  $102,12^\circ\text{C}$  E.  $-0,11^\circ\text{C}$  va  $100,05^\circ\text{C}$
3. Shakar ( $C_{12}H_{22}O_{11}$ ) ning suvli eritmasini foiz konsentrasiyasini xisoblang.Bu eritmaning kristallanish harorati  $-0,93^\circ\text{C}$  ;  $K_{k.r.}=1,86$ 
  - A. 7,3% B. 14,6% C. 29,2% D. 21,6% E. 18,5%
- 4.Tarkibida 3,04 kamfora ( $C_{10}H_{16}O$ ) bo`lgan 100g. benzol eritmasi  $80,714^\circ\text{C}$ da qaynaydi. Benzolning qaynash harorati  $80,2^\circ\text{C}$ . Benzolning ebuliskopik konsnantasini aniqlang
  - A. $1,75^\circ$  B.  $0,85^\circ$  C.  $2,21^\circ$  D.  $21,27^\circ$  E.  $2,57^\circ$
5. 250g. suvda 2,25 g. noelektrolit modda erigan. Eritmaning kristallanish harorati  $-0,279^\circ\text{C}$  ;  $K_{k.r.}=1,86$ . Ushbu noelektrolitning mol massasini aniqlang
  - A. 30 g/mol B. 90 g/mol C. 120 g/mol D. 60 g/mol E. 96 g/mol
6. 9g. Glykoza  $C_6H_{12}O_6$  100g. suvda eritilgan. Suvning qaynash harorati necha gradusga oshadi
  - A.  $0,26^\circ\text{C}$  B.  $0,56^\circ\text{C}$  C.  $0,72^\circ\text{C}$  D.  $1,2^\circ\text{C}$  E.  $0,13^\circ\text{C}$
7. Konsentrasiyasi 50% li saharoza ( $C_{12}H_{22}O_{11}$ ) necha gradusda qaynaydi.  $K_{qayn}=0,52$ .
  - A.  $50^\circ\text{C}$  B.  $101^\circ\text{C}$  C.  $151^\circ\text{C}$  D.  $200^\circ\text{C}$  E.  $202^\circ\text{C}$
8. 250g. suvda 54g. Glykoza  $C_6H_{12}O_6$  erigan. Erigan eritmaning kristallanish haroratni topining  $K_{qayn}=1,86$ .
  - A.  $1,5^\circ\text{C}$  B.  $2,23^\circ\text{C}$  C.  $5,46^\circ\text{C}$  D.  $6,96^\circ\text{C}$  E.  $4,46^\circ\text{C}$

### Adabiyotlar:

M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 391-424 betlar.

## 11. ELEKTROLIT ERITMALAR. DISSOSIYALANISH DARAJASI KONSTANTASI

**Reja:**

1. Elektrolit eritmalar.
2. Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasi.
3. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.
4. Dissotsiyalanish darajasi va konstantasi.
5. Ostvald qonuni.

**Tayanch so'zlar:** Dissotsiyalanish darajasi va konstantasi, ionlar, izotonik koeffisient.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasini, kuchli va kuchsiz elektrolitlar, dissotsiyalanish darajasi va konstantasi haqida malaka ko'nikmalarini o'rnatish. Ostvald qonunini tushintirish.

Elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi va undan kelib chiqadigan hulosalar.

**O'qituvchi maqsadi:** Talabalarga elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi yaratilishi tarixi haqida, Faradey va Arrenius ishlari, elektrolitlar va elektrolitmaslar haqida tushuncha berish.

**Talabalarga uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar).

Faradeyning moddalarni elektrolitlar va elektrolitmaslarga ajratishi haqida ma'lumot berish.

S.Arreniusning elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi va undan kelib chiqadigan xulosalar haqida tushuncha berish.

Kuchli va kuchsiz elektrolitlar haqida dissotsiatsiyalanish darajasi va kuchsiz elektrolitlarning dissotsiatsiyalanish konstantasi haqida ma'lumot berish.

Ostvaldning suyultirish qonunini keltirib chiqarish.

### **1-asosiy savolning bayoni**

Murakkab moddalarning suvdagi eritmasini tekshirib ko'rish shuni ko'rsatadiki, ulardan ba'zilari suvdagi eritmalarida ionlarga dissotsiatsiyalanadi, ba'zilari esa molekulyar holda eriydi. Masalan: shakarning eritmasi, tuzlarning eritmasi. Suvdagagi eritmalarida ionlarga parchalanadigan moddalar elektrolitlar deyiladi. Kislotalar, asos va tuzlar elektrolitlardir. Suvdagagi eritmalarida ionlarga ajralmaydigan moddalar esa elektrolitmaslar deyiladi. Elektrolitlarning suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazadi. Suvsiz kislotalar Qattiq toza holatdagi tuzlar va asoslar elektr tokini o'tkazmaydi. Toza suv ham elektr tokini o'tkazmaydi.

Elektrolit eritmalarining elektr tokini o'tkazgish xossasini Klauzis, Grotgus va Faradeylar tekshirib, ularning fikricha, faqat eritmada elektr toki o'tgan vaqtdagina ionlar hosil bo'lishi kerak. Elektr toki o'tishi to'xtagach ionlar yana bir - biri bilan birikishi lozim.

1887 - yilda shved olimi S.Arrenius elektrolit molekulalarining suvdagi eritmalarida musbat va manfiy zaryadli ionlarga ajraladi, degan gipotezani maydonga tashladi va keyinchalik bu gipoteza elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi deb tan olindi. Arrenius eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini o'lchash asosida molekulalarning ionlarga ajralish jarayoni uchun elektr tokining hech qanday ahamiyati yo'q, elektrolitlar suvda erigan ionlarga ajraladi. Darhaqiqat, KCl suvda eriganda musbat zaryadli  $K^+$  hamda manfiy zaryadli  $Cl^-$  anioni dissotsiatsiyalanadi.



Ajralishi elektrolitik molekulalarning eritmada ionlarga dissotsiatsiya deyiladi.

Arrenius nazariyasi kimyo fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi:

1) Arrenius nazariyasi elektrolitlarning suvdagi eritmalarini orqali elektr toki o'tishi sababini izohlab berdi. Bu nazariyaga ko'ra elektrolitmas moddalarning suvdagi eritmalarida ionlar bo'lmaydi, elektrolitlar eritmalaridagina ionlar bo'ladi. Shuning uchun ham elektrolitlar orqali tok o'tadi, chunki elektrni ionlar tashiydi. Arrenius nazariyasi elektroliz vaqtida musbat ionlarning katodga, manfiy ionlarning anodga borishi sababini ham aniqlab berdi.

2) Arrenius nazariyasi elektrolitlarning eritmalarini elektrolitmaslarning xuddi o'shanday konsentratsiyadagi eritmalariga qaraganda pastrok haroratda muzlash va yuqori haroratda qaynash sababini ham qoniqarli ravishda tushuntirib berdi.

Chunonchi, 1000g suvda 1 mol (342g) qand, 1000g suvda 1 mol (92,1g) glitserin eritilsa, bu eritmalar muzlash haroratning pasayishi, Raul qonuniga Muvofiq  $1,86^{\circ}\text{C}$  bo'ladi. Agar 1000g suvda 1mol (74,5g) KCl, 1000g suvda 1 mol (208g) BaCl<sub>2</sub> eritilsa, KCl eritmasida muzlash haroratining pasayishi  $1,86^{\circ}\text{C}$  emas, undan (taxminan) 2 marta ortiq  $3,6^{\circ}\text{C}$  bo'ladi. BaCl<sub>2</sub> eritmasida esa  $1,86^{\circ}\text{C}$  o'miga undan taxminan 3 marta ortiq bo'ladi. Buning sababi, KCl eritmasida KCl molekulalari K<sup>+</sup> va Cl<sup>-</sup> ionlariga BaCl<sub>2</sub> eritmasida esa BaCl<sub>2</sub> molekulalari Ba<sup>+</sup> va 2Cl<sup>-</sup> ionlariga ajraladi. Shu sababli eritmada zarrachalar soni KCl da ikki marta, BaCl<sub>2</sub> esa qariyb 3 marta oshadi. Shuning uchun bu eritmalar muzlash haroratining pasayishi qand va glitserin eritmasidan 2 va 3 marta ortiq bo'ladi.

3) Arrenius nazariyasi tarkibida bir xil ionlar bo'ladigan moddalarning eritmalarini, reaksiyaga bir xilda kirishishini ham izohlab berdi. Masalan: KCl, BaCl, BaCl<sub>2</sub> kabi tuzlarning eritmalarini AgNO<sub>3</sub> eritmasiga qo'shilganda oq cho'kma - AgCl<sub>2</sub> tuzi hosil bo'ladi. Buning sababi shundaki, KCl, NaCl va BaCl<sub>2</sub> eritmalarida Cl<sup>-</sup> ioni bo'ladi va ular Ag<sup>+</sup> ionlari bilan birikib, AgCl chukmasini hosil qiladi. Arrenius nazariyasi KClO<sub>3</sub>, NaClO<sub>3</sub> CHCl<sub>3</sub> kabi moddalarda Cl bo'lsada, ularning eritmalarini AgNO<sub>3</sub> eritmasiga qo'shilganda oq cho'kma hosil qilmasligini ham to'g'ri izoh qildi. Buning sababi shundaki, masalan: KClO<sub>3</sub> eritilganda xlor ioniga ajralmaydi, balki K<sup>+</sup> va ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> ionlariga dissotsiatsiyalanadi. ClO<sub>3</sub><sup>-</sup> ioni Ag<sup>+</sup> ioni bilan cho'kma bermaydi.


4) Arrenius o'z nazariyasiga asoslanib kislota va asoslarni ta'rifladi.

Yaxshi dissotsiatsiyalanuvchi elektrolitlar kuchli elektrolitlar deb, yomon dissotsiatsiyalanuvchi elektrolitlar esa kuchsiz elektrolitlar deb ataladi.

Elektrolitlarning ko'p yoki oz dissotsiatsiyalanishi dissotsiatsiyalanish darajasi ko'rsatadi.

«Ionlarga dissotsiatsiyalangan molekulalar sonining eritilgan moddaning barcha molekulalari soniga bo'lган nisbati elektrolitning dissotsiatsiyalanish darajasi deyiladi». Demak, dissotsiatsiyalanganligini ko'rsatadi va « $\alpha$ » bilan belgilanadi.

Masalan: KCl suvda eritilganda uning har 100 molekulasidan 85 tasi dissotsiatsiyalansa  $\alpha = 85 = 0,85$  buni 100 ga ko'paytirsa 85% bo'ladi. Eritmalar yoki suyuqliklari elektr tokini o'tkazadigan moddalarga elektrolitlar deyiladi. Elektrolitlarga hamma kislota, asos va tuzlar suvli eritmalarini misol bo'la oladi. Bu moddalarning eritmalarini yoki suyuqlanmalari ionlarga parchalanadi. Masalan:



Musbat zaryadli ionlar kationlar, manfiy zaryadli ionlar esa anionlar deyiladi. Hozirgi zamon elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasiga ko'ra elektrolitlarning dissotsiatsiyalishiga asosiy sabab, shu moddalarning molekulalari erituvchi ta'sirida solvatlanib, ionlarga ajralishidir. Natijada gidratlangan kationlar (+) va anionlar (-) hosil bo'ladi. Elektrolitlarning ionlarga ajralishi erituvchining qutbli molekulalari ion ishtirokida bo'ladi. Buni biz NaClning suvdagi eritmasi misolida tushuntirib o'tamiz. Osh tuzi bir-biriga tortilib turuvchi Na<sup>+</sup> va Cl<sup>-</sup> ionlaridan tarkib topgan. Lekin, har qaysi ion o'z holicha harakat qilmaydi. Shu sababli osh tuzi kristali elektr tokini o'tkazmaydi. Osh tuzi suvda eritilganda suv molekulalari Na<sup>+</sup> va Cl<sup>-</sup> ionlarini musbat va manfiy qutblari bilan qurshab oladi. Natijada suv dipollari bilan Na<sup>+</sup> va Cl<sup>-</sup> ionlari orasida

tortishuv vujudga keladi. Bu bog'lanish ta'sirida osh tuzi ionlari orasidagi tortishuv kuchsizlanadi va ular orasidagi bog'lanish uzilib, gidratlangan suv molekulalari bilan birikkan holda  $\text{Na}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlari bir-biridan ajraladi. Shunday qilib, molekulada tayyor ionlar bo'lsa, ular erituvchi ta'sirida bir-biridan ajralib ketadi.

Gidratlangan va gidratlanmagan ionlarning xossalari turlicha bo'ladi. Masalan, gidratlanmagan  $\text{Cu}^{2+}$  ioni ( $\text{CuSO}_4$  da) oq tusli, gidratlangan  $\text{Cu}^{2+}$  (mis kuporosi  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  da) esa ko'k tuslidir.

Dissotsiatlanish jarayoni suvdan boshqa erituvchilarda ham sodir bo'ladi. Erituvchilarning dissotsiatlanish xususiyati ularning qutbliyliga, dielektrik konstantasiga hamda vadorod bog'lanish hosil qila olishiga bog'liq.

1887- yilda shved olimi Svante Arrhenius (1859-1927) eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini o'lhash asosida elektrolitik Dissotsialanish nazariyasini taklif qildi. Bu nazariyaga muvofiq kislota, asos va tuzlar suvda erigan vaqtida qarama-qarshi zaryadli ionlarga ajraladi. Arrheniusdan ilgari Klauzius, Grotgus, Faradey va boshqa olimlarning fikricha faqat eritmadan elektr toki o'tgan vaqtidagina ionlar hosil bo'lishi kerak, elektr toki o'tishi to'xtagandan so'ng ionlar yana bir – biri bilan birikishi lozim. Arrheniusning fikricha, molekulalarning ionlarga ajralish jarayoni uchun elektr tokining hech qanday ahamiyati yo'q, elektrolitlar suvda erigandayoq ionlarga ajraladi.

Arrhenius nazariyasi elektrolitlarning suvdagi eritmalarini orqali elektr toki o'tishi sababini qoniqarli ravishda izohlab berdi. Bu nazariyaga ko'ra, elektrolitmas moddalarning suvdagi eritmalaridagina ionlar bo'ladi. Shuning uchun ham elektrolitlar orqali tok o'tadi, chunki elektrni ionlar tashiydi. Arrhenius nazariyasi elektroliz vaqtida musbat ionlarning katodga borishi, manfiy ionlarning anodga borish sababini ham to'la izohlab beradi.

Arrhenius o'z nazariyasi assoslanib, kislota va asoslarni ta'rifladi. Arrhenius nazariyasi muvofiq suvda eriganda musbat ionlardan faqat vodorod ionlariga ajraladigan elektrolitlar kislotalar deb ataladi. Eritmada vodorod ionlarining konsentratsiyasi qanchalik katta bo'lsa, kislota shunchalik kuchli bo'ladi.

Suvda manfiy ion faqat gidroksid ionlariga ajraladigan elektrolitlar asoslar deb ataladi.

Kislotalar vodorod ioni bilan kislota qoldig'i ioniga dissotsiatsiyalanadi:




Asoslar metall va gidroksid ionlariga dissotsiatsiyalanadi:



Kislotalarning kislota xossalari  $\text{H}^+$  ionlari mavjudligi tufayli, asoslarning asos xossalari  $\text{OH}^-$  ionlari tufayli kelib chiqadi.

Tuzlar metall va kislota qoldig'iga dissotsiatsiyalanadi.



### Dissotsiatsiyalanish darajasi

Barcha elektrolitlar dissotsiatsiyalanish xususiyati jihatidan ikki guruhga – kuchli va kuchsiz elektrolitlarga bo'linadi. Har qanday konsentratsiyada 30 % dan ko'p to'la dissotsiatsiyalanuvchi elektrolitlar kuchli elektrolitlar deyiladi. Bunday elektrolitlarga masalan, xlorid, nitrat va sulfat kislotalar, natriy, bariy va kalsiy gidroksidlar, shuningdek ko'pchilik tuzlar kiradi. Eritmada qisman dissotsiatsiyalanuvchi (30%) elektrolitlar kuchsiz elektrolitlar deb ataladi. Sirka kislota, karbonat kislota, ko'pchilik organik kislotalar, ammoniy gidroksid, yomon eriydigan asoslar kuchsiz elektrolitlar jumlasiga kiradi. Arrhenius fikricha, to'la dissotsiatsiyalanish bo'lmasligining sababi shundaki, eritmada molekulalar ionlarga ajralishi bilan bir vaqtida, hosil bo'lgan ionlar o'zaro birikib, yana molekulalarga aylanadi.

Molekulalar hosil bo'lgan sari dissotsiatsiyalanish tezligi kamayadi, lekin ionlarning o'zaro birikish tezligi ortadi.

Nihoyat ikki jarayon tezligi baravarlashadi, shu vaqtidan boshlab, eritmada molekulalar va ionlar orasida muvozanat qaror topadi. Shundan so'ng eritmada ion va molekulalar soni

o'zgarmay qoladi. Bu holatni xarakterlash uchun dissotsiatsiyalanish darajasi tushunchasi kiritilgan.

Ionlarga dissotsiatyalyangan molekular sonining eritilgan moddaning barcha molekulalari soniga bo'lган nisbati elektrolitning dissotsiatsiyalanish darajasi deb ataladi.

Dissotsiatsiyalanish darajasi  $\alpha$  harfi bilan belgilanib, % hisobida ifodalanadi. Dissotsiatsiyalanish darajasi elektrolit tabiatiga, haroratga va konsentratsiyaga bog'liq.

*Ionlarga dissotsiatyalyangan molekular soni*


$$\alpha = \frac{\text{eritilgan modda molekulalari soni}}{\text{eritilgan modda molekulalari soni}} \cdot 100\%$$

Masalan, ammoniy gidrooksid  $\text{NH}_4\text{OH}$  ning 0,1M eritmasida uning atigi 0,00134 molekulasi dissotsiatsiyalanadi, demak;

$$\alpha = \frac{0.00134}{0.1} \cdot 100\% = 1.34\%$$

$\alpha$  ning qiymatini eritmalar muzlash haroratinining pasayishi, qaynash haroratinig ko'tarilishi, osmotik bosimning ortishi, to'yingan bug' bosimining pasayishi, eritmalarining elektr o'tkazuvchanligi kabi xossalardan foydalaniib aniqlash mumkin.

Elektrolitik dissotsiatsiyalanish jarayoni qaytar jarayon bo'lganligidan, u massalar ta'siri qonuniga bo'ysunadi. Bunda dissotsiatyalyanmagan molekulalar bilan ionlar orasida muvozanat qaror topadi. Masalan:



Muvozanat konstantasi  $K_d$  bunday hollarda Dissotsiatsiyalanish konstantasi deb ataladi va elektrolitning ionlarga ajralish darajasini xarakterlaydi. Yuqoridagi tenglamadan ko'rinish turibdiki,  $K_d$  qancha katta bo'lsa, muvozanat vaqtida ionlar konsentratsiyasi shuncha yuqori bo'ladi.

Dissotsiatsiyalanish konstantasi bilan Dissotsiatsiyalanish darajasi orasida aniq bog'lanish bor. Agar ikkita ionga dissotsiatyalyanadigan elektrolitning molar konsentratsiyasi  $C$  bilan, uning ayni eritmadiagi Dissotsiatsiyalanish darajasini  $\alpha$  bilan belgilasak, u vaqtida, ionlardan har birining konsentratsiyasi  $C\alpha$ , dissotsiatyalyanmagan molekulalar konsentratsiyasi esa  $C(1-\alpha)$  bo'ladi. Bunday sharoitda  $K_d$  quyidagicha yoziladi:

$$C\alpha^2 = K_d \quad \text{yoki} \quad K_d = \alpha^2 \cdot C$$

Bu tenglama Ostvaltning suyultirish qonunini ifodalaydi va  $K_d$  ma'lum bo'lgan elektrolitning har xil konsentratsiyadagi Dissotsiatsiyalanish darajasini topishga imkon beradi. Biror konsentratsiyadagi  $\alpha$  aniqlangandan keyin  $K_d$  ni hisoblab chiqish qiyin emas.  $K_d$  eritma konsentratsiyasining o'zgarishi bilan o'zgarmaydi, faqat harorat o'zgargandagina o'zgaradi.

Agar elektrolitning Dissotsiatsiyalanish darajasi kichik bo'lsa, suyultirish qonuni tenglamasining maxrajidagi  $\alpha$  ni hisobga olmasa ham bo'ladi. U holda yuqoridagi formula qisqaradi:


$$K_d = \alpha^2 C \quad \text{yoki} \quad K_d = \frac{\alpha^2}{V} \quad \text{bundan}$$

$$\alpha = \sqrt{K_d V} \quad \text{yoki} \quad \alpha = \sqrt{\frac{K_d}{C}}$$

kelib chiqadi, ya'ni elektrolitning dissotsiatsiya darajasi suyultirishning kvadrat ildiziga to'g'ri proporsionaldir.


Kislotalar suvdagi eritmalar vodorod va kislota qoldiqlariga ajraladi. Kislotaning bir molekulasi parchalanganda hosil bo'ladian vodorod ionlar soni kislotaning negizligini ko'rsatadi. Ko'p negizli kislotalar ketma-ket vodorod ionlar ajratib chiqarib bosqichlar bilan

dissasiatsiyalanadi. Masalan, ortofosfat kislota uch bosqich bilan dissotsiatyalyanadi, har qaysi bosqichning 25 grad. Dissotsiatsiyalanish konstantasi quyidagi qiymatlarga ega:




Shunga o'xshash jarayon boshqa ko'p negizli kislotalarda ham ro'y beradi. Har doim birinchi vodorod ioni osonlik bilan ajralib chiqadi ( $\alpha=0.26$ ), ikkinchi ( $\alpha=0.0011$ ) va uchunchi ( $\alpha=1 \times 10^{-5}$ ) vodorod ionlari qiyinchilik bilan ajraladi, chunki vodorod ionlar chiqib ketgan sayin kislota qoldig'inining manfiy zaryadi ortib boradi.

Ko'p zaryadli kationlarning asoslari ham bosqichlar bilan dissotsiatyalyanadi.



Nordon va gidroksid tuzlar bosqichli Dissotsiatsiyalanishida metall ioni, kislota yoki asos qoldiq hosil bo'ladi. Masalan:




### Dissotsiatsiyalanish konstantasi

Elektrolitlarning dissotsiatsiyalanish jarayoni qaytar bo'lgani uchun bu jarayon albatta muvozanatga keladi:  $\text{AB} \rightleftharpoons \text{A}^+ + \text{B}^-$  massalar ta'siri qonuni.

$$\text{Muvofigki } k = [\text{A}^+][\text{B}^-] / [\text{AB}];$$

Demak, muvozanat yuz berganda ionlar konsentratsiyasi ko'paytmasining dissotsiatsiyalanmagan molekulalar konsentratsiyasiga nisbati o'zgarmaydi. Bu konstanta dissotsiatsiyalanish konstantasi deb ataladi.

Masalan :  $\text{NH}_4\text{OH}$  ko'yidagicha dissotsiatsiyalanadi:



bu yerda  $[\text{NH}_4^+]$  – ammoniy konsentratsiyasi  $[\text{OH}^-]$ -gidroksil konsentratsiyasi elektrolitning mol/litr hisobidagi konsentratsiyasini C bilan belgilasak,  $\alpha$  moli dissotsiatsiyalansa anion va kationlarning hamda dissotsiatsiyalanmagan molekulalarning muvozanat vaqtidagi konsentratsiyalari qo'yidagicha yoziladi: u holda dissotsiatsiyalangan molekulalarning muvozanat konsentratsiyasi  $c\alpha$  bo'ladi, dissotsiatsiyalanmagan molekulalar konsentratsiyasi  $c - c\alpha$  bilan ya'ni  $c - c\alpha = c(1-\alpha)$  bo'ladi. Har bir molekuladan (bir anion bir kation) hosil bo'lgani uchun anionlarning ham kionlarning ham konsentratsiyasi  $c\alpha$  bo'ladi, ya'ni  $[\text{NH}_4^+] = c\alpha$ ;  $[\text{OH}^-] = c\alpha$ ;

$$[\text{NH}_4\text{OH}] = c(1-\alpha) \quad K = \frac{c\alpha \cdot \alpha}{c(1-\alpha)}; \quad K = \frac{c\alpha^2}{1-\alpha}; \quad \text{kelib chiqadi.}$$

Bu qonunni Ostvald topgan bo'lib, u suyultirish qonuni deb ataladi. Bu tenglama yordami bilan (agar K ma'lum bo'lsa), turli konsentratsiyalar uchun dissotsiatsiyalanish darajasini hisoblab chiqarish mumkin.

Kuchsiz elektrolitlarning dissotsialanish darajasi juda kichik bo'lsa, bunday eritmalar uchun  $1-\alpha$  ni 1 deb qabul qilish mumkin.

Kuchsiz elektrolitlarning dissotsialanish darajasi juda kichik bo'lsa bunday eritmalar uchun  $1-\alpha$  ni 1 deb qabul qilish mumkin, u holda  $K = c\alpha^2$ .

## Nazorat topshiriqlari

### Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir

Elektrolitlar deb qanday moddalarga aytildi?

- A) Suvdagisi eritmalar elektr tokini o'tkazmaydigan moddalar elektrolitlar deyiladi.
- B) Suvdagisi eritmalarida elektr toki ta'sirida qarama - qarshi zaryadlarga dissotsiatsiyalanadigan moddalar elektrolitlar deyiladi.
- C) Suvdagisi eritmalar elektr tokini o'tkazadigan moddalar elektrolitlar deyiladi.
- D) Suvdagisi eritmalar qarama - qarshi zaryadli ionlarga dissotsiatsiyalanmaydigan moddalar elektrolitlar deyiladi.

Elektrolitmaslar deb qanday moddalarga aytildi?

- A) Eritmalar elektr tokini o'tkazadigan moddalar elektrolitmaslar deyiladi.
- B) Eritmalar elektr qarama - qarshi zaryadli ionlarga dissotsiatsiyalanadigan moddalar elektrolitmaslar deyiladi.
- C) Suvdagisi eritmalar elektr tokini o'tkazadigan moddalar elektrolitmaslar deyiladi.
- D) Suvdagisi eritmalar elektr toki ta'sirida qarama - qarshi zaryadli ionlarga dissotsiatsiyalanadigan moddalar elektrolitmaslar deyiladi.

### Reproduktiv o'zlashtirishga doir

Elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi qanday ta'riflanadi?

- A) Moddalarning suvdagisi eritmalar elektr tokini o'tkazishi to'g'risidagi ta'limot elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi deyiladi.
- B) Moddalarning suvdagisi eritmalarida qarama - qarshi zaryadli ionlarga dissotsiatsiyalanishi elektr tokini o'tkazishi to'g'risidagi ta'limot elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi deyiladi.
- C) Moddalarning suvdagisi eritmalarida elektr toki ta'sirida qarama - qarshi zaryadli ionlarga dissotsiatsiyalanishi to'g'risidagi ta'limot elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasi deyiladi.
- D) Kuchli elektrolitlarning suvdagisi eritmalarida qarama - qarshi zaryadli ionlarga dissotsiatsiyalanish nazariyasi deyiladi.

Ostvaldning suyultirish qonuni qanday formula bilan ifodalanadi?

$$\begin{array}{ll} A) K = \frac{c^2 \alpha^2}{1-\alpha}; & B) K = \frac{c\alpha^2}{1-\alpha}; \\ D) K = \frac{c\alpha^2}{(1-\alpha)^2}; & E) K = \frac{c^2 \alpha^2}{(1-\alpha)^2}; \end{array}$$

### 11.2. Amaliy mashqulot

**1-masala.** 0,3M chumoli kislota HCOOH eritmasining dissosialanish konstantasi

$2,1 \cdot 10^{-4}$ ga teng Uning dissosialanish darajasini hisoblang

$$\alpha = \sqrt{\frac{K}{C}} \text{ bo`lganligi uchun}$$

**Yechish:** Ostvaldning suyultirish qonuniga asosan

$$\alpha = \sqrt{\frac{2,1 \cdot 10^{-4}}{0,3}} = 2,04 \cdot 10^{-4}$$

ga teng bo`ladi.

**2-masala.** 0,005M moy kislota C<sub>3</sub>H<sub>7</sub>COOH eritmasining shartli dissosiasiyanish darjasasi 5,5% teng Uning dissosiasiyanish konstantasini hisoblang

**Yechish:** Masala shartiga qo`ra:  $\alpha = 5,5\%$  yoki  $0,055$     C=0,005M bo`lganligi uchun

**3-masala.** Eritmadagi vodorod ionlarining konsentrasiyasi  $0,0001 \text{ mol/l}$  ga teng Eritmaning vodorod kursatgichini ( $\text{pH}-\text{ni}$ ) hisoblang

**Yechish:** Masala shartiga qo`ra:  $[\text{H}^+] = 0,0001 \text{ mol/l}$ . bo`lgani uchun  $\text{pH} =$

$\lg] = 4$  ekanligini hisoblab topamiz.

### 11.3-Laboratoriya ishi. Elektrolit eritmalar.

#### Ishdan maqsad.

Elektrolitik dissotsiatya, dissotsiatya darajasi, kuchli va kuchsiz elektrolitlarni o'rganish almashinish reaksiyalari molekular va ionli tenglamalarni yozishni bilish. Suvning ion ko'paytmasi, vodorod ko'rsatkich, kation va anion gidrolizni bilish. Gidroliz darajasi, gidrolizda muvozanatning siljishini o'rganish. Gidrolizdagi reaksiyalarning molekular va ionli tenglamalar yozishni bilish.

#### Ishning bajarilishi

##### 1- Tajriba.Kuchli va kuchsiz elektrolitlarning kimyoviy aktivligini taqqoslash.

Ikki probirka olib, biriga 2-3 ml 0,1 n.  $\text{HCl}$  eritmasidan quying, ikkinchisiga shuncha 0,1 n. sirka kislotasi  $/\text{CH}_3\text{COOH}/$  eritmasidan quying. Ikkala probirkaga bir xil kattalikdagi ruh bolakchasini tashlang. Qanday gaz ajraladi?

Kuzatilgan reaksiyalar tenglamasini yozing. Qaysi kislotada jarayon shiddatliroq ketadi? Shu kuzatilgan hodisani xlorid va sirka kislotalarining 0,1n. eritmalar uchun dissotsiatsiya darajasi asosida tushuntiring.

##### 2- Tajriba.Indikatorlar rangining neytral kislotali va ishqoriy muhitlarda o'zgarishi.

Uchta probirkaga 2-3 ml distillangan suv quying va har biriga 2-3 ml biror indikatordan qo'shing: lakmus, metiloranj va fenolftalein. Ularning suvli muhitdagi rangiga e'tibor bering.

Keyin har bir probirkaga 5-6 tomchidan 0,1n.  $\text{HCl}$  xlorid kislota eritmasidan qo'shing va chayqating. Rang o'zgarishini kuzating va jadvalga yozing.

Xuddi shu tajribani 0,1n o'yuvchi  $\text{NaOH}$  eritmasidan 5-6 tomchi olib takrorlang, aralashtiring va indikatorlarning rangi o'zgarishini jadvalga yozing.

#### 9.1-JADVAL

##### KUZATISHLAR NATIJASI

T/R	Muhit	pH qiymati	Indikatorlarning rangi		
			Lakmus	Metiloranj	Fenolftalein

1.	Neytral+H <sub>2</sub> O	pH=7	jigar rang	Pushti	Rangsiz
2.	Kislotali+HCl	pH<7	qizil	Qizil	Rangsiz
3.	Ishqoriy+NaOH	pH>7	ko'k	Sariq	Pushti, sariq

### 3- tajriba. Elektrolit eritmalaridagi reaksiyalarda kam dissotsiyalyovchi moddalarning hosil bo'lishi

Probirkaga 2-3 ml 2n. ammoniy xlorid eritmasidan va 2 ml 2n. o'yuvchi natriy NaOH eritmasidan quying. Probirkani chayqating va hidlab, qanday gaz ajralayotganini aniqlang, reaksiya tenglamasini molekular va ionli holda yozing.

### 4- tajriba.Kuchsiz elektrolit dissotsiatsiyalanganda muvozanatning siljishi. Kuchsiz elektrolitlarning Dissotsiatsiyalanish darajasiga bir xil ionning ta'siri

Probirkaga 2-3 ml 0,1n sirkal kislotosasi CH<sub>3</sub>COOH eritmasidan quying va bir ikki tomchi metiloranjdan quying. Eritmaning rangiga e'tibor bering. Shu probirkaga, taxminan 1g kristallik natriy atsetat CH<sub>3</sub>COONa qo'shing va chayqating. Kuchli elektrolit-natriy asetat qo'shilganda kuchsiz elektrolit-sirkal kislotosasining dissotsiatsiyalanish muvozanati siljishini eritmaning rangi o'zgarishi asosida tushuntiring. Qaysi ion bir xil ion deyiladi?

#### 11.4. Tarqatma material

- Quyidagi moddalar suvda eritliganda qanday ionlarga dissosiasiyanishini yozing: Ca(OH)<sub>2</sub>; H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>; AlCl<sub>3</sub>; Cr<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>; Ba(H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>; AlOH SO<sub>4</sub>; ZnOHC<sub>l</sub>
- Quyidagi asos va kislotalarning bosqichli dissosiasiyanish teglamalarni yozing Ba(OH)<sub>2</sub>; Al(OH)<sub>3</sub>; H<sub>3</sub>AsO<sub>4</sub>; H<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>
- 500g suvda 5,35g KJO<sub>3</sub> eritlishidan hosil bo`lgan eritmaning osmotik bosimi 17,5°C da 2,18at.ga teng Eritmadagi KJO<sub>3</sub> izotonik koeffisientini va shartli dissosiasiyanish darajasini hisoblab toping (javob: i=1,63; ).
- 200g suvda 0,01 mol Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritlishidan hosil bo`lgan eritmaning shartli dissosiasiyanish darjasasi 0,70ga teng Eritmaning muzlash haroratini aniqlang (javob: 0,22°C).
- Kumush yodidning 1 l toyingan eritmasida 0,044g AgJO<sub>3</sub> bor. AgJO<sub>3</sub> ning eruvchanlik qupaytmasini hisoblang (javob: 2,4·10<sup>-2</sup> ).
- Kumush bromidning eruvchanlik qupaytmasini 3,6·10<sup>-4</sup>ga teng Shu tuzning toyingan eritmasi 1 litrida necha gramm kumush tuzi bor.(javob: 0,5·10<sup>-1</sup>g ).
- Har xil konsentrasiyali a) 0,0001M; b) 0,001M; c) 0,01M Co(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> eritmasining dissosiasiyanish darjasasi a) 0,85; b) 0,70; c) 0,47 ga teng Har qaysi hol uchun Co(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> ning dissosiasiyanish konstantasini hisoblang
- Eritmadagi gidroksid ionlarining kosentrasiysi 10<sup>-4</sup>ga teng Eritmaning pH va pOH ni hisoblab toping (javob: pH=5; pOH=5 ).
- HNO<sub>3</sub> eritmasining dissosiasiyanish konstantasi 5·10<sup>-4</sup>ga, dissosiasiyanish darjasasi esa 0,07 ga teng HNO<sub>3</sub> eritmasining molyar konsentrasiyasini hisoblang (javob: 0,1M ).
- Eritmadagi vodorod ionlarining kosentrasiysi 10<sup>-5</sup>ga teng Eritmaning pH va pOH ni hisoblang (javob: pH=3; pOH=11 ).

#### 11.5-Test sinov variant savollari.

- Kislota kabi dissosiasiyanadigan gidroksidni aniqlang
  - Cr(OH)<sub>3</sub>
  - Mg(OH)<sub>2</sub>
  - Ba(OH)<sub>2</sub>
  - LiOH
  - Fe(OH)<sub>3</sub>
- Dissosiasiyanish darjasasi  $\alpha=0,001$  bo`lgan 0,1M konsentrasiyali eritmaning pOHni aniqlang
  - 12
  - 11
  - 10
  - 9
  - 8
- Gidroksid ionlarning konsentrasiysi 10<sup>-11</sup> mol/l bo`gan eritmaning pHni aniqlang
  - 2
  - 3
  - 5
  - 8
  - 11
- Kumush iodidning eruvchanlik ko'paytmasini 8,3·10<sup>-7</sup>ga teng. AgJning mol/l da ifodalangan eruvchanligini xisoblang.
  - 9,1·10<sup>-3</sup>
  - 9,1·10<sup>-5</sup>
  - 0,91·10<sup>-6</sup>
  - 10,9·10<sup>-5</sup>
  - 9,1·10<sup>-2</sup>

5. Kuchsiz elektrolitni aniqlang.  
 A. NaOH    B. Ba(OH)<sub>2</sub>    C. Fe(OH)<sub>3</sub>    D. KOH    E. LiOH
6. Vodorod ionlarning konsentrasiyasi  $10^{-2}$ ga teng eritmaning pHni toping  
 A. 2    B. 5.    C. 12    D. 14    E. 7
7. Gidroksid ionlarning konsentrasiyasi  $10^{-11}$  mol/l bo`gan eritmaning pOHni toping  
 A. 2    B. 8    C. 11    D. 14    E. 12
8. Kuchli elektrolitni kursating.  
 A. H<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>    B. BaCl<sub>2</sub>    C. H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>    D. CH<sub>3</sub>COOH    E. Cr(OH)<sub>3</sub>
9. Elektrolit eritmansi kursating.  
 A. C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>OH    B. C<sub>6</sub>H<sub>6</sub>    C. C<sub>2</sub>H<sub>6</sub>    D. CH<sub>3</sub>COOH    E. C<sub>2</sub>H<sub>2</sub>
10. Kam dissosiasiyalanadigan gidroksidni aniqlang  
 A. Al(OH)<sub>3</sub>    B. LiOH    C. Ba(OH)<sub>2</sub>    D. NaOH    E. Ca(OH)<sub>2</sub>

#### **Adabiyotlar:**

M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 391-424betlar.

## **12. IONLI REAKSIYALAR. KISLOTA, ASOS VA TUZLARNI DISSOSIASIYASI**

### **Reja:**

1. Kislotasi, asosi va tuzlarning suvli eritmakari dissotsiyanishi.
2. Elektrolit eritmalaridagi reaksiyalar.
3. Suvning ion ko`rsatkichi, Vodorod ko`rsatkich.

**Tayanch so`zlar:** ionlar, ion almashinish reaksiyalar. Tuzlar gidrolizi, gidrolizlanish darajasi va konstantasi.

**O`quv mashgúlotining maqsadi:** Kislotasi, asosi va tuzlarning suvli eritmakari dissotsiyanishini, ion almashinish reaksiyalarini hqamda tuzlar gidrolizi, gidrolizlanish darajasi va konstantasini o`rganish. Suvning ion ko`paytmasini keltirib chiqarish. Eritma muhiti haqida tushuncha berish. Vodorod ko`rsatkich haqida tushuncha berish. Gidroksid ko`rsatkich haqida tushuncha berish. Elektrolit eritmalarida boradigan besh xil reaksiyalarni tushuntirib berish. Uch xil tipdagi tuzlar gidroliziga misollar keltirib, eritma muhiti qanday bo`lishini tushuntirib berish.

Toza suv elektr tokini juda yomon o`tkazadi. Bu suvning elektr o`tkazuvchan bo`lishiga sabab, u nihoyatda kuchsiz elektrolitdir, juda oz bo`lsada H<sup>+</sup> va OH<sup>-</sup> ionlariga dissotsiatsiyanadi.  $\text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{H}^+ + \text{OH}^-$  suvning elektr o`tkazuvchanligi o`lchanib, uning dissotsiatsiyanish darajasi hisoblab topilgan.

22°C suvda  $10^{-7}$  mol suv dissotsiatsiylanangan bo`ladi. Bir molekula suvda bitta H<sup>+</sup> va bitta OH<sup>-</sup> hosil bo`lsa, 1 l suvda  $10^{-7}$  mol H<sub>2</sub>O dissotsiatsiylananganda  $10^{-7}$  g-ion/l H<sup>+</sup> va  $10^{-7}$  g-ion/l OH<sup>-</sup> ionlari hosil bo`ladi.

$$[\text{H}^+] = [\text{OH}^-] = 10^{-7} \text{ g-ion/l}$$

$$K = \frac{[\text{H}^+][\text{OH}^-]}{[\text{H}_2\text{O}]}$$

$$K \cdot [\text{H}_2\text{O}] = [\text{H}^+][\text{OH}^-]$$

suvning dissotsiatsiyanish konstantasi tajriba yo`li bilan aniqlangan va u

$$K = 1,8 \cdot 10^{-16} \text{ ga teng.}$$

[H<sub>2</sub>O] ni o`zgarmas deb qarasak va 1 l suvda  $1000/18 = 55,5$  mol suv borligini hisobga olsak,

$$1,8 \cdot 10^{-16} [\text{H}_2\text{O}] = [\text{H}^+][\text{OH}^-] \quad 1,8 \cdot 10^{16} \cdot 55,5 = [\text{H}^+][\text{OH}^-] = 1$$

$$[\text{H}^+][\text{OH}^-] = 10^{-14} \text{ bundan } [\text{H}^+] = [\text{OH}^-] = \sqrt{10^{14}} = 10^{-7}$$

Shunday qilib toza suvda [H<sup>+</sup>] = [OH<sup>-</sup>] =  $10^{-7}$ , [H<sup>+</sup>] hamda [OH<sup>-</sup>] ionlari konsentratsiyalari o`zarlo teng shuning uchun suv netral moddadir. Suvlik eritmalarda [H<sup>+</sup>] hamda [OH<sup>-</sup>] ionlari konsentratsiyalari o`zgarishi mumkin, lekin ularning ko`paytmasi o`zgarmaydi. Agar biror

modda suvda eritganda  $[H^+]$  va  $[OH^-]$  konsentratsiyalari teng bo'lsa bu eritma neytral bo'ladi. Suvga biror kislota qo'shilsa, unda  $[H^+]$  konsentratsiyasi oshib ketadi. Bunda  $[H^+]$  ning konsentratsiyasi  $10^{-7}$  dan ortiq bo'ladi. Bunday eritmaning muhitini kislotali bo'ladi. Umuman  $[H^+]$  ionlari konsentratsiyasi  $10^{-7}$  dan ortiq har qanday eritmaning muhitini kislotali bo'ladi.

Agar suvga biror asos qo'shilsa unda  $[OH^-]$  ning konsentratsiyasi ortadi  $[H^+]$ ning konsentratsiyasi esa kamayadi. Ammo bularning ko'paytmasi  $10^{-14}$  ga tengligicha qoladi.  $[OH^-]$  ning konsentratsiyasi  $10^{-7}$  dan ortiq har qanday eritmaning muhitini asosli bo'ladi. Bu ko'pincha ishqoriy muhit deyiladi. Yuqorida aytilganlarga ko'ra:

$$\text{Neytral muhitda } [H^+] = [OH^-]$$

$$\text{Kislotali muhitda } [H^+] > [OH^-]$$

$$\text{Ishqoriy muhitda } [H^+] < [OH^-]$$

Har qanday eritmada  $[H^+] \cdot [OH^-] = 10^{-14}$  bo'lganligidan uning muhitini aniqlash uchun  $[H^+]$ ning yoki  $[OH^-]$  ning konsentratsiyasini bilish kifoya. Eritma muhitini odatda  $[H^+]$  ning konsentratsiyasi bilan ifodalash qabul qilingan:

$$[H^+] = 10^{-7} \text{ neytral muhit}$$

$$[H^+] > 10^{-7} \text{ kislotali muhit.}$$

$$[H^+] < 10^{-7} \text{ ishqoriy muhit.}$$

$10^{-7}$  g'oyat kichik bunday sonlarni ishlatalish noqulay bo'lganidan  $[H^+]$  ionlari konsentratsiyasining o'nlik logarifmining teskari manfiy qiymati ishlataladi.

"Eritmadagi vodorod ioni konsentratsiyasining o'nlik manfiy logarifmi vodorod ko'rsatkich yoki RN deyiladi".

$$PH = -\lg [H^+]$$

Demak,  $[H^+] = 10^{-7}$  neytral muhit uchun  $PH = 7$

$[H^+] > 10^{-7}$  kislotali muhit uchun  $PH < 7$

$[H^+] < 10^{-7}$  ishqoriy muhit uchun  $PH > 7$


P <sup>H</sup>	1,2,3	4,5,6	7	8,9,10	11,12,13,14.
muhit.	Kuchlikislo tali muhit.	kuchsiz kislo tali muhit.	neytral muhit.	kuchsiz ishqoriy muh	kuchli ishqoriy muhit.

Eritmaning vodorod ko'rsatkichi odatda indikatorlar yordamida aniqlanadi. Hozirgi kunlarda PH ni aniqlash uchun juda qulay sabablar PH - metrlar ishlataladi.

Elektrolitlarning eritmalarida sodir bo'ladigan reaksiyalarda ionlar ishtirok etadi. Ionlar orasida boradigan reaksiyalar tenglamasini yozishda kuchli elektrolitlarni ionlarga ajratilgan holda ko'rsatib yomon dissotsiatsiyalanadigan moddalarni, cho'kmalarni va gazlarni molekulalar shaklda ifodalananadi.

Elektrolit eritmalarini orasida boradigan reaksiyalarni 5 turga bo'lish mumkin.

1) Neytrallanish reaksiyasi





Demak, neytrallanish reaksiyasi mohiyati vodorod ionlari bilan gidroksil ionlari birikib, suv hosil bo'lishidan iborat.



2) Cho'kma hosil bo'ladigan reaksiyalar oxiriga qadar boradigan reaksiyalardir.



3) Gaz hosil bo'ladigan reaksiyalar. Bunday reaksiyalar sodir bo'lganida kimyoviy muvozanat reaksiya mahsulotlari hosil bo'ladigan tomoniga siljiydi.




4) Eritmalarda boradigan qaytar reaksiyalar.



Eritmadaamalda erigan ionlar bo'ladi, xolos. Agar bunday eritmadi barcha suvni asta - sekin bug'latib yuborilsa, to'rtala tuzdan iborat aralashma hosil bo'ladi.

Kompleks birikma hosil bo'ladigan reaksiyalar



Agar KJ dan ko'prok qo'shsak, qizil rangli cho'kma erib ketib, kompleks birikma hosil bo'ladi.  $\text{Hg J}_2 + 2 \text{ KJ} \rightarrow \text{K}_2[\text{Hg J}_4]$ .

Ko'pincha neytral tuzlarning suvdagi eritmalari kislotali yoki ishqoriy reaksiyalar namoyon qiladi. Masalan:  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ning suvdagi eritmasi kislotali,  $\text{NaCl}$  niki neytral va  $\text{KCH}_3\text{COO}$  eritmasi asosli reaksiya ko'rsatadi. Bunday hodisaning sababi tuzlarning gidrolizga uchrashidir.

"Tuz ionlari bilan suv molekulalari orasida bo'ladigan vaodatda kuchsiz elektrolit hosil bo'lishigaolib keladigan o'zaro ta'sir gidroliz deb ataladi".

Gidroliz tuzni hosil qilgan kislota vaasoslarning kuchiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Gidrolizning sababi shundaki, tuzning kation vaanionlari suvdagi  $\text{H}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlarini boglab kam dissotsiatsiyalanadigan moddalar hosil qilishi tufayli  $\text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{H}^+ + \text{OH}^-$  muvozanatni o'ng tomonga siljitali.

Masalan: kuchli kislota va kuchsiz asosdan tarkib topgan tuzlar eritmada gidrolizlanmaydi, chunki bu holda suvning ionlari boglanmaydi.

1. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda eritma ishqoriy reaksiya ko'rsatadi.



yoki ionli tenglamasi



Qisqartirilgan shaklda  $\text{CH}_3\text{COO}^- + \text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{CH}_3\text{COOH} + \text{OH}^-$  eritmada ortiqcha  $\text{OH}^-$  ionlari hosil bo'ladi, shunin guchun bu eritma ishqoriy muhitga ega.

2) Kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda eritma kislotali reaksiya ko'rsatadi.  $\text{NH}_4\text{Cl} + \text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{NH}_4\text{OH} + \text{HCl}$



3) Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda kuchsiz asos va kuchsiz kislota hosil bo'ladi.



yoki  $\text{CH}_3\text{COO}^- + \text{NH}_4^+ + \text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{NH}_4\text{OH} + \text{CH}_3\text{COOH}$  muhit neytral bo'ladi.

### Nazorat topshiriqlari

#### Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir

Suvning ion ko'paytmasi nimani bildiradi?

A) Suvdagagi vodorod ionlari konsentratsiyasi bilan gidroksid ionlari konsentratsiyasi o'zaro bir xil va  $10^{-7}$  g-ion/l ga teng bo'ladi.

B) Suvdagagi vodorod ionlari konsentratsiyasi bilan gidroksid ionlari konsentratsiyasi ko'paytmasi suvning ion ko'paytmasi deyiladi va  $10^{-14}$  ga teng bo'ladi.

D) Suvdagagi vodorod ionlari konsentratsiyasining gidroksid ionlari konsentratsiyasiga nisbati suvning ion ko'paytmasi deyiladi va 1ga teng bo'ladi.

E) Suvdagagi vodorod ionlari konsentratsiyasi bilan gidroksid ionlari konsentratsiyasi ko'paytmasi suvning ion ko'paytmasi deyiladi va  $\text{PH} + \text{POH} = 14$  ga teng bo'ladi.

Vodorod ko'rsatkich nimani bildiradi?

A) Suvdagagi gidroksid ionlari konsentratsiyasining manfiy o'nlik logarifmasi vodorod ko'rsatkich deyiladi.

B) Suvdagagi kuchsiz kislota dissotsiatsiyalanish konstantasining manfiy o'nlik logarifmasi vodorod ko'rsatkich deyiladi.

V) Suvdagagi vodorod ionlari konsentratsiyasining manfiy o'nlik logarifmasi vodorod ko'rsatkich deyiladi.

G) Suvdagagi kuchsiz asos dissotsiatsiyalanish konstantasi manfiy o'nlik logarifmasi vodorod ko'rsatkich deyiladi.

### Reproduktiv o'zlashtirishga doir

#### Gidroksid ko'rsatkich nimani bildiradi?

- A) Suvdagidagi hidroksid ionlari konsentratsiyasining manfiy o'nlik logrifmasi hidroksid ko'rsatkich deyiladi.
- B) Suvdagidagi vodorod ionlari konsentratsiyasining manfiy o'nlik logrifmasi hidroksid ko'rsatkich deyiladi.
- D) Suvdagidagi kuchsiz asos dissotsiatsiyalanish konstantasining manfiy o'nlik logrifmasi hidroksid ko'rsatkich deyiladi.
- E) Suvdagidagi kuchsiz kislota dissotsiatsiyalanish konstantasining manfiy o'nlik logrifmasi hidroksid ko'rsatkich deyiladi.

### Produktiv o'zlashtirishga doir

Suvdagidagi vodorod ionlari konsentratsiyasi  $10^{-4}$  g-ion/l ga teng bo'lsa, eritmaning POH ini hisoblang.

- A) 4;      B) 6;      D) 8;      E) 10;      F) 12;      G) 14.

Suvdagidagi hidroksid ionlari konsentratsiyasi  $10^{-8}$  g-ion/l ga teng bo'lsa, eritmaning PH ni hisoblang.

- A) 2;      B) 4;      D) 6;      E) 8;      F) 10;      G) 12.

Eritmaning PH i 3ga teng bo'lsa, shu eritmada  $[H^+]$  va  $[OH^-]$  larining konsentratsiyasini hisoblang.

- A)  $10^{-6}$  va  $10^{-8}$ ;      B)  $10^{-3}$  va  $10^{-11}$ ;      D)  $10^{-4}$  va  $10^{-10}$ ;      E)  $10^{-5}$  va  $10^{-9}$ ;

### Izlanuvchan ijodiy o'zlashtirishga doir

Agar suvli eritmada vodorod ionlari konsentratsiyasi  $10^{-3}$  g-ion/l ga teng bo'lsa, shu eritmada hidroksid ionining konsentratsiyasini, eritma PH ini va POH ini hisoblang.

- A)  $10^{-12}$ , 4, 10;      B)  $10^{-11}$ , 3, 11;      D)  $10^{-9}$ , 5, 9;      E)  $10^{-8}$ , 6, 8;      F)  $10^{-7}$ , 7, 7;

Agar suvli eritmada hidroksid ionlari konsentratsiyasi  $10^{-8}$  ga teng bo'lsa, shu eritmada vodorod ionlari konsentratsiyasini, PH ini va POH ini hisoblang.

- A)  $10^{-6}$ , 6, 8;      B)  $10^{-7}$ , 7, 7;      D)  $10^{-8}$ , 8, 6;      E)  $10^{-9}$ , 9, 5;      F)  $10^{-10}$ , 10, 4;

Agar suvli eritma PH i 4ga teng bo'lsa, shu eritmada hidroksid ionlari, vodorod ionlari va POH ini hisoblang.

- A)  $10^{-4}$ ,  $10^{-14}$ , 14;      B)  $10^{-4}$ ,  $10^{-14}$ , 12;      D)  $10^{-4}$ ,  $10^{-14}$ , 14;      E)  $10^{-14}$ ,  $10^{-6}$ , 8;      F)  $10^{-12}$ ,  $10^{-6}$ , 6;


## 12.2. Amaliy mashgulot

**1-masala.** Eritmadagi vodorod ionlarining konsentrasiyasi 0,0001 mol/l ga teng Eritmaning vodorod kursatgichini (pH-ni) hisoblang


**Yechish:** Masala shartiga qo`ra:  $[H^+] = 0,0001$  *yoki*  $10^{-4}$  mol/l. bo`lgani uchun pH=-  
 $\lg[H^+]$  formuladan pH=- $\lg[10^{-4}] = 4$  ekanligini hisoblab topamiz.

**2-masala.** BaCl<sub>2</sub> bilan K<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub> eritmalari orasida sodir bo`ladigan reaksiyaning molekular, to`la ionli va qisqartirilgan ionli teglamalarni tuzing


**Yechish:** a) reaksiyaning molekular teglamasini yozamiz:



b) Shakli teglamalarda cho`kmaga tushgan (shunundek gaz holida ajralgan yoki kam dissosiasiyalanadigan) moddalar ionlarga ajralmasdan molekular shaklda yozilishni bilgan holda reaksiyaning to`la ionli teglamasini tuzamiz:



BaCrO<sub>4</sub> chukmasi hosil bo`lishida  $2K^{1+}$  va  $2Cl^{1-}$  ionlari reaksiyada qatnashnaydi. Shuning uchun bu moddalarni reaksiya teglamasidan chiqarib (qisqartirib) reaksiyaning qisqartirilgan ionli teglamalarni yozamiz:




**3-masala.** Quyida berilgan qisqartirilgan ionli teglamalamaga mos keladigan molekular teglamani yozing:  $NO_2^- + H^+ \rightarrow HNO_2$

**Yechish:** Berilgan qisqartirilgan ionli teglamalamadan ionli teglamalamani eruvchanlik jadvaliga asosan keltirib chiqazamiz:



Ionli teglamalamaga asosan molekular teglamani yozamiz:




**4-masala.** a) CuCl<sub>2</sub> b) CH<sub>3</sub>COONa c) (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S tuzlari gidrolizning molekular va ionli teglamalarni tuzing

**Yechish:** a) CuCl<sub>2</sub> kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo`lgan tuz. Shuning uchun CuCl<sub>2</sub> ning gidrolizi kationlararo bo`radi :

- 1- Bosqich : CuCl<sub>2</sub> + H<sub>2</sub>O = Cu OHCl + HCl  
 $\text{Cu}^{+2} + 2\text{Cl}^- + \text{H}_2\text{O} = \text{Cu OH}^+ + \text{Cl}^- + \text{H}^+ + \text{Cl}^-$   
 $\text{Cu}^{+2} + \text{H}_2\text{O} = \text{Cu OH}^+ + \text{H}^+ \quad (\text{pH}<7)$
- 2- Bosqich : Cu OHCl + H<sub>2</sub>O = Cu(OH)<sub>2</sub> + HCl  
 $\text{Cu OH}^+ + \text{Cl}^- + \text{H}_2\text{O} = \text{Cu(OH)}_2 + \text{H}^+ + \text{Cl}^-$   
 $\text{Cu OH}^+ + \text{H}_2\text{O} = \text{Cu(OH)}_2 + \text{H}^+ \quad (\text{pH}<7)$

b) CH<sub>3</sub>COONa kuchsiz kislota va kuchli asosdan hosil bo`lgan tuz. Shu uchun CH<sub>3</sub>COONa ning gidrolizi anionlararo bo`radi :



c) (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bo`lgan tuz. Shuning uchun (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S ning gidrolizi ham kationlaro, ham anionlaro bo`ladi :



**5-masala.** 0,1M ammoniy xlorid tuzi eritmasining gidrolizlanish konstantalarini, gidrolizlanish darajalarini va pHni hisoblang:

**Yechish:** Gidrolizlanish konstantasini  $K_{\text{gidr}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{K_{\text{asos}}}$  teglamasidan aniqlaymiz

$$K_{\text{gidr}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{K_{\text{NH}_4\text{OH}}} \quad \text{jadvaldan } K_{\text{NH}_4\text{OH}} = 1,7 \cdot 10^{-5} \text{ ni topamiz.}$$

$$K_{\text{gidr}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{1,7 \cdot 10^{-5}} = 0,58 \cdot 10^{-7} \text{ NH}_4\text{Cl}$$

$h = \sqrt{\frac{K_{\text{gidr}}}{C_{\text{tuz}}}}$  tenglama orqali gidrolizlanish darajalarini hisoblaymiz

Masala shartiga qo`ra: C<sub>tuz</sub> = C<sub>NH<sub>4</sub> Cl</sub> = 0,1 = 10<sup>-1</sup>

$$h = \sqrt{\frac{0,58 \cdot 10^{-7}}{10^{-1}}} = \sqrt{58 \cdot 10^{-4}} = 7,8 \cdot 10^{-4} \text{ yoki } 7,8 \cdot 10^{-4}\%$$

Kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo`lgan tuzlarning eritmalarini kislotali muhitga ega bo`lganligi uchun bunday tuzlar eritmalaridagi vodorod ionlarning konsentrasiyasi suyltirish

qonuniga asosan [H<sup>+</sup>] =  $\sqrt{K_{\text{gidr}} \cdot C_{\text{tuz}}}$  tenglama bilan ifodalanadi.

Shunga qo`ra : [H<sup>+</sup>] =  $\sqrt{0,58 \cdot 10^{-7} \cdot 10^{-1}} = \sqrt{58 \cdot 10^{-12}} = 7,8 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$

$$\text{pH} = -\lg 7,8 \cdot 10^{-4} = -\lg 7,8 + 10^{-4} = 5,1$$

### 12.3- Laboratoriya ishi

#### 1-tajriba.Kuchsiz elektrolit eritmalarining hosil bo`lishi

Probirkaga 1-2 ml 0,5n natriy atsetat  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmasidan qo'yib, unga 1-2 tomchi fenolftalein qo'shing. Probirkadagilarni yaxshilab chayqatib aralashtiring va eritmaning rangiga e'tibor bering. Keyin eritmani qaynaguncha qizdiring. Rangi qanday o'zgaradi? Eritmani soviting va rangining o'zgarishiga e'tibor bering. Fenolftalein rangining o'zgarishiga asoslanib, eritmada ionlar konsentratsiyasi o'zgarishi to'g'risida qanday xulosa qilish mumkin? Harorat oshganda gidrolizlanish muvozanati qaysi tomonga siljidi?

### **2-Tajriba.Cho'kma hosil bo'lishiga eruvchanlik ko`paytmasining ta`siri**

a) Probirkalardan biriga 2 ml 0,1M mis(II) xlorid  $\text{CuCl}_2$ , ikkinchisiga 2 ml 0,1M bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan quying. Har ikkida probirkada 0,1M sul`fat kislota  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan chukma hosil bo`lguncha tomchilatib sanab quying.

Reaksiyalarning molekular va ionli teglamalarni tuzing. Tajriba asosida hosil bo`lgan moddalarning eruvchanlik ko`paytmasi qiymatlarini taqqoslab, bajarilgan tajribadan tegishli hulosa chikaring.

b) Stakanga 10 ml. dan 0,1M qurgoshin nitrat  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  va kaliy xlorid  $\text{KCl}$  eritmalaridan quyib, shisha tayoqcha bilan aralashtiring.

Reaksiyalarning molekular va ionli teglamalarni tuzing.

Stakanda hosil bo`lgan chukmani avval tindiring, so'ngra uni filtrlang. Filtratni ikkiga bo`ling, birinchi qismiga 1-2 ml 0,1M xlorid kislota  $\text{HCl}$  eritmasidan, ikkinchi qismiga esa 1-2 ml 0,1M kaliy iodid  $\text{KI}$  eritmasidan quying va filtratlardan birida chukma hosil bo`lishini kuzating.

Filtratlarda hosil bo`lish va bo`lmaslik sababini tuzlarningeruvchanlik ko`paytmasidan foydalanib izohlang.

### **3-Tajriba. Amfoter gidroksidlarga kislota va ishqor eritmalarining ta`siri**

Probirkaga 3-4 ml. rux sul`fat  $\text{ZnSO}_4$  eritmasidan quyib, ustiga to chukma hosil bo`lguncha ishqor eritmasidan tomchilab qushing.

Hosil bo`lgan chukmani ikki qismiga bo`lib, birinchi qismiga xlorid kislota  $\text{HCl}$ , ikkinchi qismiga ishqor eritmasidan qushing. Nima kuzatiladi?

Reaksiyalarning molekular va ionli teglamalarni tuzing.

### **4-tajriba.Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzning gidrolizi**

Uchta probirkaga 5-6 tomchidan lakkus eritmasidan qo'shing. Probirkalarning biriga, taxminan, 0,5g natriy karbonat, ikkinchisiga shuncha natriy gidrokarbonat tuzlaridan soling. Uchinchi probirkani esa solishtirish uchun qoldiring. Probirkalarni chayqatish bilan eritmalarini aralashtiring. Tuzlar eritmasi bor probirkalardagi lakkus rangi o'zgarishini uchinchi probirkadagi rang bilan solishtiring. Karbonat kislotaning I va II bosqichdagi dissotsiatya konstantasini bilgan holda quyidagi savollarga javob bering:

a) Natriy karbonat;

b) Natriy gidrokarbonat eritmasida muhit va nima uchun kerak?

Tuzlarning gidrolizlanish reaksiyasining ionli va molekular tenglamalarini yozing. Indikatorlar, metiloranj, fenolftalein, lakkusning rang o'zgarishini kuzating.

Karbonat kislotaning dissotsiatya konstantalari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

### **5- tajriba.Kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo`lgan tuzning gidrolizi**

Probirkaga 2-3 ml distillangan suv quying, unga taxminan 0,5g aluminiy sulfat  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  tuzidan qo'shing, so'ngra yaxshilab aralashtiring va muhitni lakkus qog'oz bilan ko'ring.

Gidroliz birinchi bosqich bo'yicha ketishini e'tiborgaolib, gidrolizlanish reaksiyasi tenglamasini molekular va ionli holda yozing. Muhitning xarakterini ko'rsating.

### **6- tajriba.Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzning to'liq gidrolizlanishi**

Probirkaga 1-2ml dan 0,5n aluminiy sulfat  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  va natriy karbonat  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmalaridan solib, aralashtiring va 1-2 tomchi lakkus eritmasidan quying. Bu jarayon ikki bosqichda ketishini nazarda tutib:

- a) aluminiy sulfat va natriy karbonat orasidagi;  
b) aluminiy karbonatning gidrolizlanish reaksiya tenglamalarini molekular va ionli holda yozing.  
1-2-3- tairibalar natijalarini quvidagi jadvalga yozing

12.1-Jadval

## Kuzatishlar natijasi

Transisiyah Rangsi					
Tajriba	Tuzning formulasi	Lakmusning rangi	Muhit	Eritmaning rangi	pH<7
1					
2					
3					

#### **12.4. Mustaqil ishlash uchun mashq-masalalar**

- a)  $\text{AgNO}_3$  bilan  $\text{CoCl}_2$ ; b)  $\text{Cr}(\text{OH})_2$  bilan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ; c)  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  bilan  $\text{NaOH}$  eritmaları orasıda boradıgan reaksiyalarning molekular va ionlı teglamalarnı yozing
  - Quyidagi ionlı teglamalar bilan ifodalangan reaksiyalarning molekular teglamalarnı yozing: a)  $\text{Pb}^{2+} + 2\text{J}^- = \downarrow \text{PbJ}_2$   
b)  $\text{Ca}^{2+} + \text{CO}_3^{2-} = \downarrow \text{CaCO}_3$
  - . Quyidagi ionlı teglamalar bilan ifodalangan reaksiyalarning molekular teglamalarnı yozing: a)  $\text{CuO} + 2\text{H}^+ = \text{Cu}^{+2} + \text{H}_2\text{O}$   
b)  $\text{Fe}^{3+} + 3\text{OH}^- = \text{Fe}(\text{OH})_3$
  - Quyidagi ionlı teglamalar bilan ifodalangan reaksiyalarning molekular teglamalarnı yozing: a)  $\text{NH}_4^+ + \text{OH}^- = \text{NH}_4\text{OH}$   
b)  $\text{H}_2\text{S} + \text{Cu}^{2+} = \text{CuS} + 2\text{H}^+$
  - Quyidagi reaksiyalarning molekular va ionlı teglamalarnı yozing  
a)  $\text{CuCl}_2 + \text{NaOH} \rightarrow$       b)  $\text{BiCl}_3 + \text{H}_2\text{S} \rightarrow$
  - Quyidagi reaksiyalarning davom ettirib mos keladigan molekular  
a. teglamalarnı yozing  
a)  $\text{Cd}(\text{OH})_2 + \text{HCl} \rightarrow$       b)  $\text{Cr}(\text{OH})_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow$
  - Quyidagi berilgan teglamalamalarga mos keladigan molekular teglamalarnı yozing: a)  $\text{Ba}^{2+} + \text{CO}_3^{2-} = \downarrow \text{BaCO}_3$   
b)  $\text{Fe}^{2+} + 2\text{OH}^- = \downarrow \text{Fe}(\text{OH})_2$
  - Quyidagi eritmaları orasıda boradıgan reaksiyalarning molekular, to`la ionlı va qisqartırılgan ionlı teglamalarnı yozing  
a) Bariy karbonat va sulfat kislötasi  
b) Vismut nitrit va xlorid kislötasi
  - Quyidagi eritmaları orasıda boradıgan reaksiyalarning molekular, to`la ionlı va qisqartırılgan ionlı teglamalarnı yozing  
a) Rux sulfid va xlorid kislötasi  
b) Qurgoshin nitrat va natriy sulfid
  - Quyidagi eritmaları orasıda boradıgan reaksiyalarning 124olecular, to`la ionlı va qisqartırılgan ionlı teglamalarnı yozing  
a) Kaliy hidrokarbonat va kaliy hidroksidi  
b) Alyminiy xlorid va Kumush sulfat
  - Quyidagi tuzlarning hidrolizning molekular va ionlı teglamalarnı tuzing:  $\text{Na}_2\text{S}$ ,  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{KCN}$ ,  $\text{ZnCl}_2$ ,  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{Al}_2\text{S}_3$ ,  $\text{Al}_2(\text{CO}_3)_3$
  - a)  $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$  bilan  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ; b)  $\text{FeCl}_3$  bilan  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  c)  $\text{CrCl}_3$  bilan  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  eritmaları o`zaro aralashtirilishida boradıgan birgalikda hidrolizlanish reaksiyalarning molekular va ionlı teglamalarnı yozing

13. a)2,4n  $\text{Na}_3\text{PO}_4$ ; b) 0,1n  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmalarining gidrolizlanish konstantalarni, gidrolizlanish darajalarini va pHni toping:  
 $2,4 \cdot 10^{-2}$ ; 0,1 ; 13,6.  $5,5 \cdot 10^{-10}$ ;  $7,4 \cdot 10^{-6}$  ; 8,9.
14. Berilgan tuzlarning qaysi birida gidrolizga uchraydi? Molekular va ionli teglamalarni yozing  $\text{K}_2\text{S}$  ;  $\text{NaCl}$  ;  $\text{Li}_2\text{SO}_4$
15. Quyidagi tuzlarning qaysi birida gidroliz kation bo`icha boradi? Molekular va ionli teglamalarni yozing  $\text{K}_2\text{S}$  ;  $\text{ZnSO}_3$  ;  $\text{FeCl}_2$
16. Quyidagi tuzlarning qaysi birida gidroliz anion bo`icha boradi? Molekular va ionli teglamalarni yozing  $\text{K}_2\text{S}$  ;  $\text{ZnSO}_3$  ;  $\text{FeCl}_2$
17. Quyidagi tuzlarning qaysi biri to`liq gidrolizga uchraydi? Molekular va ionli teglamalarni yozing  $\text{K}_2\text{S}$  ;  $\text{ZnSO}_3$  ;  $\text{FeCl}_2$
18. Quyidagi eritmalarining qaysi birida metil-oranj qizaradi?  $\text{MgCl}_2$  ;  $\text{K}_2\text{S}$  ;  $\text{NaNO}_3$ .
19. Quyidagi eritmalarining qaysi birida lakmus pushti rangga o`tadi?  $\text{KCl}$ ;  $\text{MgS}$  ;  $\text{ZnSO}_4$ .
20. Quyidagi tuzlarning qaysi biri to`liq gidrolizga uchraydi? Molekular va ionli teglamalarni yozing  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ;  $\text{Fe}(\text{NO}_2)_2$  ;  $\text{CaSO}_4$

### 12.5. Test sinov variant savollari

1. Bariy tuzlarning qaysi biri cho`qmaga tushadi.  
A.  $\text{BaCl}_2$       B.  $\text{BaSO}_4$       C.  $\text{BaBr}_2$       D.  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$       E.  $\text{BaJ}_2$
2. Kalsiy tuzlarning qaysi biri cho`qmaga tushadi.  
A.  $\text{CaCl}_2$       B.  $\text{CaSO}_4$       C.  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$       D.  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$       E.  $\text{CaJ}_2$
3. Quyida keltirilgan qaysi eritmalar aralashuvidan cho`qma hosil bo`ladi  
1.  $\text{NaCl}$  2.  $\text{BaCl}_2$  3.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  4.  $\text{KCl}$   
A.1 va 2      B. 2 va 3      C. 3 va 4      D. 1 va 4      E. 3 va 1
4. Quyida keltirilgan qaysi eritmalar aralashuvidan gaz ajraladi  
1.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  2.  $\text{HCl}$  3.  $\text{K}_2\text{SO}_4$  4.  $\text{LiCl}$   
A.1 va 2      B. 1 va 3      C. 2 va 3      D. 3 va 4      E. 4 va 1
5. Quyida keltirilgan qaysi eritmalar aralashuvidan cho`qma hosil bo`ladi  
1.  $\text{PbCl}_2$  2.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  3.  $\text{NaJ}$  4.  $\text{KCl}$   
A.1 va 2      B. 1 va 3      C. 2 va 3      D. 3 va 4      E. 2 va 4
6. Quyidagi ionli teglamani amalga oshirish uchun qaysi eritmalar aralashmasi olingan  
 $\text{Ba}^{2+} + \text{CO}_3^{2-} = \downarrow \text{BaCO}_3$   
A.  $\text{BaCl}_2$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$       B.  $\text{BaSO}_4$  va  $\text{H}_2\text{CO}_3$   
C.  $\text{BaCO}_3$  va  $\text{H}_2\text{CO}_3$       D.  $\text{BaSO}_4$  va  $\text{CO}_2$       E.  $\text{BaCl}_2$  va  $\text{HCl}$
7. Quyidagi ionli teglamani amalga oshirish uchun qaysi eritmalar aralashmasi olingan  
 $\text{Zn}^{2+} + 2\text{OH}^- = \downarrow \text{Zn}(\text{OH})_2$   
A.  $\text{ZnCO}_3$  va  $\text{Fe}(\text{OH})_2$       B.  $\text{ZnCl}_2$  va  $\text{NaOH}$   
C.  $\text{ZnS}$  va  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  D.  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  va  $\text{Mg}(\text{OH})_2$       E.  $\text{ZnCl}_2$  va  $\text{NaCl}$
8. Quyidagi qaysi eritmalar aralashuvidan gaz ajrab chiqadi  
1.  $\text{Na}_2\text{S}$       2.  $\text{HCl}$       3.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$       4.  $\text{K}_2\text{SO}_4$   
A.1 va 2      B. 2 va 3      C. 3 va 4      D. 2 va 4      E. 1 va 4
9. Quyidagi qaysi eritmalar aralashuvidan cho`qma hosil bo`ladi  
1.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$       2.  $\text{MgCl}_2$       3.  $\text{H}_2\text{SO}_3$       4.  $\text{HNO}_3$   
A.1 va 2      B. 2 va 3      C. 3 va 4      D. 1 va 4      E. 2 va 4
10. Alyminiy tuzlarning qaysi biri cho`qmaga tushadi.  
A.  $\text{AlCl}_3$       B.  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$       C.  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$       D.  $\text{AlPO}_4$       E.  $\text{AlBr}_3$
11. Quyida keltirilgan tuzlardan qaysi biri to`liq gidrolizga uchraydi?  
A.  $\text{FeSO}_4$       B.  $\text{MgBr}_2$  C.  $\text{Bi}_2(\text{SO}_4)_2$       D.  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$       E.  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$
12. Quyidagi tuzlarining eritmalarining qaysi birida lakmus qizaradi?  
A.  $\text{KCl}$       B.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$       C.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$       D.  $\text{K}_2\text{S}$       E.  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$
13. pH=8,9ga teng bo`lgan 0,1M konsentrasiyalı natriy asetat tuzining gidrolizlanish konstantasining qiymatini aniqlang

- A. $5,3 \cdot 10^{-2}$       B. $5,3 \cdot 10^{-10}$       C. $5,3 \cdot 10^{-12}$    D. $5,3 \cdot 10^{-14}$    E. $5,3 \cdot 10^{-16}$
14. Konsentrasiyasi 0,005M bo`lgan Ammoniy asetat tuzi eritmasining gidroliz darajasini aniqlang
- A. $2,0 \cdot 10^{-4}$       B. $5,5 \cdot 10^{-4}$       C. $5,5 \cdot 10^{-5}$    D. $5,5 \cdot 10^{-7}$    E. $5,5 \cdot 10^{-8}$
15. Quyida keltirilgan tuzlardan qaysi biri to`liq gidrolizga uchraydi?
- A.  $K_2SB$    B.  $FeCl_3$    C.  $ZnCO_3$    D.  $Na_2SO_4$    E.  $NaNO_3$
16. Quyidagi qaysi eritmada fenol-ftalein rangi qizaradi?
- A.  $NH_4ClO_4$    B.  $K_2CO_3$    C.  $BaCl_2$    D.  $Na_2SO_4$    E.  $Li_2SO_4$
17. Quyidagi tuzlarning qaysi biri kation bo`icha gidrolizlanadi?
- A.  $Na_2SO_3$    B.  $Na_2SO_4$    C.  $NiCl_2$    D.  $Fe_2S_3$    E.  $K_2CO_3$
18. Quyidagi tuzlarning qaysi biri anion bo`icha gidrolizlanadi?
- A.  $Na_2SO_3$    B.  $Na_2SO_4$    C.  $NiCl_2$    D.  $Fe_2S_3$    E.  $ZnCO_3$
19. Quyidagi tuzlarning qaysi biri kation bo`icha gidrolizlanadi?
- A.  $Na_2SO_3$    B.  $Na_2SO_4$    C.  $NiCl_2$    D.  $Fe_2S_3$    E.  $K_2CO_3$
20. Quyidagi tuzlarning qaysi biri anion bo`icha gidrolizlanadi?
- A.  $Na_2SO_3$    B.  $Na_2SO_4$    C.  $NiCl_2$    D.  $Fe_2S_3$    E.  $ZnCO_3$

#### **Adabiyotlar:**

M.S.Silberberg. Principles of general chemistry, 391-424 betlar.

## **13. OKSIDLANISH - QAYTARILISH REAKSIYALARI**

#### **Reja:**

1. Oksidlanish darjası.
2. Oksidlanish-qaytarilish jarayonları.
3. Oksidlovchi va qaytaruvchilar.
4. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini tuzish.
5. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga reaksiya muhitini ta'siri.
6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini turlari.



**Tayanch so'zlar:** Oksidlanish darjası, oksidlovchi va qaytaruvchilar, Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini turlari, molekulalararo, ichki molekulyar reaksiyalar.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** Oksidlanish-qaytarilish jarayonları, Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarını tenglamalarını tuzishni, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga reaksiya muhitini ta'sirini, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini turlarini batafsil tushuncha berish, ko'nikmalarni shakllantirish.

Reaksiyada ishtirok etayotgan elementlarning oksidlanish darajalari o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar deb ataladi. Masalan:




Elektron berish bilan boradigan jarayon oksidlanish deb, elektron qabul qilish bilan boradigan reaksiyalar qaytarilish jarayoni deb ataladi.




Oksidlanish-qaytarilish jarayonları bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Masalan:  $Na, Cl$

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları asosan 3 turga bo'linadi.

1. Molekulalararo reaksiyalar. Bunday reaksiyalarda oksidlovchi element bir modda tarkibida, qaytaruvch element ikkinchi moda bo'ladi. Masalan:



2. Molekulaning o'zida bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish jarayoni. Bunday tipdagi reaksiyalarda ayini molekula tarkibidagi bo'lgan boshqa-boshqa elementlarning oksid darajasi o'zgaradi. Masalan:




3. Oksidlovchi va qaytaruvchi vazifasini ayni bitta element ionlarining o'zlari bajarsa, bu reaksiyaya disproportsiyalish reaksiyalarini deyiladi.




Bu yerda oksidlovchi ham  $\text{Mn}^{+6}$  ioni, qaytaruvchi ham  $\text{Mn}^{+6}$  ionidir.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini muhitga qarab o'zgaradi. Kaliy permanganatning kaliy sulfit ( $\text{K}_2\text{SO}_3$ ) bilan qaytarilishi.


a) Kislotali sharoitda quyidagicha:



b) Ishqoriy muhitda reaksiya quyidagicha:



v) Neytral muhitda reaksiya quyidagicha boradi:



### Nazorat topshiriqlari

#### Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir

Elementlarning oksidlanish darajasi qanday ta`riflanadi?

A) Ayni birikma batamom ionli tuzilishga ega deb faraz qilinganida birikma tarkibidagi elemetlarning shartli zaryadi shu elementning oksidlanish darajasi deyiladi.

B) Ayni birikma batamom kovalent bog'lanishga ega, deb faraz qilinganida birikma tarkibidagi elemetlarning shartli zaryadi shu elementning oksidlanish darajasi deyiladi.

D) Ayni birikma batamom vodorod bog'lanishga ega, deb faraz qilinganida birikma tarkibidagi elemetlarning shartli zaryadi shu elementning oksidlanish darajasi deyiladi.

E) Ayni birikma batamom metall bog'lanishga ega, deb faraz qilinganida birikma tarkibidagi elemetlarning shartli zaryadi shu elementning oksidlanish darajasi deyiladi.

Oksidlanish darajasi deb umumiy elektron juftini elektro manfiyoq element atomiga siljiganda hosil bo'lgan energiyaga (zaryadga) aytildi.

Elementlarning valentligi qanday ta`riflanadi?

A) Biror element atomining boshqa element atomi bilan maksimal juft elektronlar hosil qilish soni, shu elementning valentligi deyiladi.

B) Biror element atomining boshqa element atomidan ma'lum bir qismini biriktirib olish xossasi elementning valentligi deyiladi.

D) Biror element atomining boshqa element atomi bilan donor-akseptor bog hosil qilish soni valentlik deyiladi.

E) Biror element atomining boshqa element atomidan nechtasini biriktirib olishi valentlik deyiladi.

### Reproduktiv o'zlashtirishga doir

Elementning valentligi nolga, kasr songa, manfiy songa teng bo'lishi mumkinmi? Oksidlanish darajasichi?

A) Elementning valentligi ham, oksidlanish darajasi ham nolga, kasr songa va manfiy songa teng bo'lishi mumkin.

B) Elementning valentligi ham, oksidlanish darajasi ham nolga, kasr songa va manfiy songa teng bo'lmaydi.

D) Elementning valentligi faqat musbat butun songa teng bo'lib oksidlanish darajasi nolga, kasr songa va manfiy songa teng bo'lishi mumkin.

E) Elementning oksidlanish darajasi faqat musbat butun songa teng bo'lib, valentligi esa nolga, kasr songa va manfiy songa teng bo'lishi mumkin.

Elementlarning oksidlanish darajasi guruh raqamidan katta bo'lishi mumkinmi? Valentlikchi?

A) Elementlarning oksidlanish darajasi ham valentligi ham guruh raqamidan katta bo'lishi mumkin.

B) Elementlarning oksidlanish darajasi maksimum guruh raqamiga teng bo'lib, valentligi guruh raqamidan katta bo'lishi mumkin.

D) Elementlarning valentligi maksimum guruh raqamiga teng bo'lib oksidlanish darajasi guruh nomeridan katta bo'lishi mumkin.

E) Elementlarni oksidlanish darajasi ham valentligi ham guruh raqamidan kichik bo'ladi.

## 2-asosiy savol

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirish usullari.

**O'qituvchi maqsadi:** talabalarga oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirishning elektron-balans usuli va elektron-ion usuli haqida ma'lumot berish.

**Talabalar uchun o'quv maqsadlari** (identiv maqsad va vazifalar)

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirishning elektron-balans usuli mohiyatini tushuntiring.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirishning elektron-balans usulining boshqa tur kimyoviy reaksiyalar tenglamalarini tenglashtirishdan farqini izohlang.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirishning elektron-ion usuli mohiyatini tushuntiring.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirishning elektron-ion usulining, elektron-balans usulidan farqini izohlash.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tenglashtirishning elektron-ion usulini boshqa tur kimyoviy reaksiyalar tenglamalarini tenglashtirishdan farqini izohlash.



## 2-asosiy savolning bayoni

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilishimiz kerak.

1) Qaytaruvchi elementdan berilgan umumiylar elektronlar soni oksidlovchi qabul qilgan elektronlar umumiy soniga tengdir.

2) Reaksiyada ishtiroy etgan har qaysi element atomlarining soni tenglamaning chap tomonida qancha bo'lsa, o'ng tomonida shuncha bo'ladi

3) Agar oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi natijasida  $O^{2-}$  ionlari hosil bo'lsa, ular kislotali muhitda vodorod ionlari bilan birikib, suv molekulalariga aylanadi: ishqoriy yoki neytral muhitda esa gidroksil ionlarni hosil qiladi.




Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalari ikki usulda tuziladi.




Birinchi usul qaytaruvchi yo'qotgan elektronlar sonini oksidlovchi qabul qilgan elektronlar soni bilan tenglashtirish metodi bo'lib, buni elektron balans usuli deyiladi.

Ikkinci usul elektron – ion usulidir. Bu usuldaavval oksidlanish-qaytarilish reaksiyasing har biri uchun alohida-alohida ionli tenglama tuziladi. So'ng bu tenglamalarni muvofiq koeffitsientlarga ko'paytiriladi.

1. a) Elektron bans usuli:




b) Agar bir modda molekulasida ikkita element qaytaruvchi xossasini namoyon qilsa, reaksiyani tenglashtirishda bu elementlar yo'qotgan elektronlar soni yigindisi olinadi.




2. Elektron – ion usuli.

Bu usuldan foydalanish uchun eng avval reaksiya tenglamasining sxemasini ionli shaklda yoziladi. Bunda oz dissotsiatsiyalanadigan yoki cho'kmaga tushadigan modda ionlar shaklida yozilmaydi. Masalan:





Bu reaksiyada  $J^-$  qaytaruvchi bo'lib u oksidlanadi.

$2J^- - 2e^- \rightarrow J_2^0$   $Cr_2O_7^{-2}$  ioni oksidlovchidir, u qaytarilib  $Cr^{+3}$  ionga aylanadi. Bixromat ioni tarkibidagi 7 ta kislorod 14 ta  $N^+$  ioni bilan birikib 7 mol  $N_2O$  hosil qiladi.



So'ngra har ikkala reaksiya yozib olinib, balans qilinadi.



Oksidlanish jarayoni qaytarilish

### Nazorat topshiriqlari

#### Bilish darajasidagi o'zlashtirishga doir

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari qanday ta`riflanadi?

- A) Elementlarning valentligi o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deyiladi.
- B) Elementlarning oksidlanish darajalarini o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deyiladi.
- C) Elektron berish bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deyiladi.
- D) Elektron qabul qilish bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deyiladi.

Elektron balans usuli bilan reaksiyalar tenglamalarini tenglashtirishda asosan nimaga e'tibor beriladi?

- 1) Reaksiya natijasida nechta elektron berilgan bo'lsa, reaksiya natijasida xuddi shuncha elektron qabul qilinadi.
  - 2) Molekulada nechta element atomi qaytaruvchi bo'lsa, shu elementlar bergen umumiyl elektronlar soni olinadi.
  - 3) Reaksiyada oksidlovching qabul qilgan elektronlar soni asos qilib olinadi.
  - 4) Reaksiyada qaytaruvchining bergen elektronlar soni asos qilib olinadi.
  - 5) Molekulada oksidlovchi yoki qaytaruvchi element atomlari nechta qatnashsa, shuncha element atomi bergen yoki qabul qilgan elektronlar hisoblanadi.
- A) (1,2,5); B) (1,4,5); D) (1,3,4); E) (1,3,5); F) (1,2,4);

### **Reproduktiv o'zlashtirishga doir**

Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamasini elektron balans usuli bilan tenglashtiring va tenglamani chap va ung tomonidagi koeffitsientlar yig'indisini aniqlang.



- A) (3,13);      B) (13,3);      D) (13,8);      E) (18,13);      F) (3,18);

Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamasini elektron-ion usuli bilan tenglashtiring va tenglamani chap va o'ng tomonidagi koeffitsientlar yig'indisini aniqlang.



- A) (32,24);    B) (32,28);    D) (32,32);    E) (32,36)    F) (28,32);

### **Vizual materiallar 1-ilova.**

#### **Bliz-so`rov**

Kimyoviy reaksiyada ishtirok etayotgan elementlarining oksidlanish darajasi elektron kimyoviy reaksiyalarni o'rinni almashtirish ayrim birikish va parchalanish reaksiyalar misol bo'ladi.

**Oksidlanish- qaytarilish reaksiyaları** - kimyoviy reaksiyada ishtirok etayotgan elementlarda elektronlarning bir atomdan 2 chi atomga o'tishi, yoki shunga tamon siljishi natijasida oksidlanish o'zgarishi bilan boradigan kimyoviy reaksiyadir.

**Qaytarilish** – elektronlarni biriktirib olish holati.

**Oksidlanish** – elektronlarni berish xolati.

**Oksidlanish darajasi** – elektron jufti qaysi atomga tamon siljigan bo`lsa, ya`ni elektromanfiyligi kuchli bo`lgan element tamonga siljiganda shu element atomining zaryadi tushuniladi.

**Elektroneytron-** oksidlanish darajasining ishorasi birikayotgan atomlar elektromanfiyliklarining qiymatiga bog`liq bo`ladi va uni aniqlash uchun kimyoviy birikmalarda molekula deb qaraladi.

**Doim qaytaruvchilik xossalari nomoyon qilish** – metall atomlari kimyoviy reaksiyalar vaqtida o`zlaridan faqat elektron beradi va musbat zaryadli ionlarga aylanishidandir.

**Molekula ichida boradigan oksidlanish qaytarilish reaksiyaları** – biror birikmaning tarkibiga kiruvchi xar xil elementlarning oksidlanish darajasining o'zgarishi Bilan reaksiya sodir bo'ladi.

### **2-ilova**

#### **«Oksidlanish – qaytarilish reaksiyaları» mavzusi bo`yicha «FSMU» texnologiyasidan foydalananish.(fikringizni bayon eting)**

**F** – Element atomi eng past oksidlanish darajasiga ega bo`lgan holda u elektron biriktirib olish qobiliyatiga ega.(**fikringiz bayoniga sabab ko`rsating**)

**S** – Shuning uchun u faqat qaytaruvchilik xossasini namoyon qiladi. Agar element atomi oraliq oksidlanish drajasiga ega bo`lsa, u xoldaoksidlovchilik, ham qaytaruvchilik xossasini namoyon qilishi mumkin.

#### **(ko`rsatgan bayoningizni asoslovchi dalil ko`rsating)**


**M** – Masalan, oltingugurt  $\text{H}_2\text{S}$  da esa faqat qaytaruvchilardir.  $\text{H}_2\text{SO}_3$  da esa u ham oksidlovchilik, ham qaytaruvchilik xossalari namoyon qiladi.


#### **(fikringizni umumlashtiring)**

**U** – Shunday qilib,  $\text{H}_2\text{S}$  daoltingugurt eng past oksidlanish darajasiga (-2) ega;  $\text{H}_2\text{SO}_4$  esa eng yuqori oksidlanish darajasiga (+6) ega;  $\text{H}_2\text{SO}_3$  da esa oraliq oksidlanish darajasiga ega (+4) ekan.

### **3-ilova**

**«Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari» mavzusi bo'yicha o'quv metodlarini ishlab chiqish.  
( B. Blum  
taksonomiya**





**«Oksidlanish – qaytarilish reaksiyaları» mavzusini o`tida munozara usulidan foydalanish**

## Oksidlanish – qaytarilishreaksiyalari

### S A V O L L A R

<p>1. Kaliy permanganatning kaliy sul'fit (<math>K_2SO_3</math>) bilan qaytarilishi kislotali sharoitda qanday kechadi?</p> $2KMnO_4 + 5K_2SO_3 + 3H_2SO_4 \rightarrow$ $2MnSO_4 + 6K_2SO_4 + 3H_2O$ $Mn^{+7} + 5\bar{e} \rightarrow Mn^{+2} \quad 2$ $S^{+4} - 2\bar{e} \rightarrow S^{+6} \quad 5$ <p>2.Ishqorlimuhitdachi?</p> $2KMnO_4 + K_2SO_3 + 2KOH \rightarrow$ $MnSO_4 + 6K_2SO_4 + 3H_2O$ $Mn^{+7} + \bar{e} \rightarrow Mn^{+6} \quad 2$ $S^{+4} - 2\bar{e} \rightarrow S^{+6} \quad 1$ <p>3. Neytralmuhitdaqanday bo`ladi?</p> $2KMnO_4 + 3K_2SO_3 + H_2O =$ $3K_2SO_4 + 2MnO_2 + 2KOH$	<p>1. Elektronlarni berish qabul qilish bilan boradigan reaksiyalarni ko`rsatib bering?</p> $2Na^0 - 2\bar{e} \rightarrow 2Na^+$ $Cl_2 + 2e \rightarrow 2Cl^-$ <p>2. Molekulalararoreaksiyanima? Bundayreaksiyalarda oksidlovchiele mentbirmoddatarkibida, qaytaruvchiele element 2-chimoddabo`ladi:</p> $FeO + CO \rightarrow Fe + CO$ <p>3.</p> <p>Molekulaningo`zidabo`ladiganoksid lanish-qaytarilishjarayoninima? Bundaytipdagireaksiyalarda aynimol ekulatarkibidagibo`lganboshqa-boshqa element</p>	<p>1. Disporsiyalanish reaksiyalari deb nimaga aytildi? Oksidlovchi va qaytaruvchi vazifasini ayni 1ta element ionlarining o`zлari bajarsa, bu reaksiya disporsiyalanish deylidi. Bu erda oksidlovchi ham <math>Mn^{+6}</math> ioni qaytaruvchi ham <math>Mn^{+6}</math> ionidir.</p> <p>2. Oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari tenglamalari necha xil usulda tuziladi?</p> <p>a) 1 usul-qaytaruvchi yoqotgan elektronlar sonini qabul qilgan elektronlar soni bilan tenglashtirish metodi bilan buni elektron balans usuli deylidi.</p> <p>b) 2 usul – ion electron usulidir. Bu usulda avval oksidlanish – qaytarilish reaksiyasining har biri uchun alohida alohida ionli tenglama tuziladi.</p>
--	--	---

### «B.B.» texnologiyasidan foydalangan xolda «oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari» mavzusiga xulosa qilish

BILAMAN	BILISHNI XOXLAYMAN	BILIB OLDIM
Talaba biror element atomining oksidlanishi deyilganda uning oksidlanish darajasi ortishi, qaytarilish deyilganda uning oksidlanish darajasi kamayishi	Talaba elementning oksidlovchi – qaytaruvchilik xossalari ni va ularning bu xossalari ni D.I. Mendeleevning davriy jadvali bo`yicha o`zgarib borishini	Talaba atomlarning o`ziga elektron biriktirib olib manfiy ionga aylanish xususiyati, ularning elektronga moyillik degan kattaligi orqali xarakterlanishini, elektronga


tushunilishini bilar edi.	bilishni xoxlaydi.	moyillik energiyasini atomning oksidlovchilik xollarini ifodalovchi kattalik xam deb qarash mumkinligini, hamda atomning elektronga moyillik xususiyati qancha katta bo`lsa, uning oksidlovchilik xossasi shuncha kuchli ifodalanishini, davrlarda element atomlaridagi s, p, d – elektronlari soni ortib borish bilan ularning elektronga moyilligi ham ortib borishi va shunday ekan, ularning oksidlovchilik xossalari ham ortishi, hamda 6 va 7 gruppalarining asosiy gruppachalarida joylashgan elementlar eng kuchli hisoblanishlarini bilib oldi.
---------------------------	--------------------	--

### 13.2. Amaliy mashgulot


**1-masala.** Nitrit kislota  $\text{HNO}_2$  ning disproporsiyalanish reaksiyasining teglamalamasini ion-elektron usulida tuzing

**Yechish:** Disproporsiyalanish reaksiyasining mohiyani shundan iboratki, bunda bir moddaning molekulasi o`zaro ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi bo`lib tasirlashadi. Bunga sabab bu moddalarning tarkibida oraliq oksidlanish darajasiga ega bo`lgan element atomlari bo`ladi.


$\text{HNO}_2$  ning disproporsiyalanish reaksiyasining molekular teglamalamasi quyidagi ko`rinishida yoziladi:




Reaksiyasining ion-elektron shemasi :



Reaksiyasining ion-elektron balans teglamasi:




Shundan qilib, uch mol nitrit kislota  $\text{HNO}_2$  ning ikkitasida azot(+3) oksidlanish darajasiga ega va u oksidlovchilik xususiyatni, bir molekulasi esa qaytaruvchilik xususiyatni namoyon qiladi. Reaksiyasining yaquniy teglamasi qidagi ko`rinishiga ega:




**2-masala.** Rux va kaliy nitrit tuzining ishqoriy muhitda sodir bo`ladigan oksidlanish- qaytarilish reaksiyasining teglamasini ion-elektron usulida tuzing



**Yechish:** Reaksiyasining molekular teglamalamasini tuzamiz:




Reaksiyasining ion-elektron shemasi :



Reaksiyasining ion-elektron balans teglamalamasi:




Reaksiyasining yakuniy teglamasi quyidagi ko`rinishiga ega:





**5-masala.** Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri disproporsiyalanish oksidlanish- qaytarilish reaksiysi hisoblanadi a)  $\text{NaOH} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O}$



**Yechish:** a) Reaksiyada ishtiroq etayotgan moddadagi har bir elementning oksidlanish darajasini aniqlaymiz



Reaksiyada elementning oksidlanish darjasini oldin va keyin o`zgarmaganligi uchun bu reaksiya oksidlanish- qaytarilish reaksiyasiga kirmaydi



Tanlangan koeffisientlarni moddaning oldiga qo`yamiz



Xlor ham oksidlovchi ham qaytaruvchi bo`lganligi uchun, bu reaksiya disproporsiyalanish oksidlanish- qaytarilish reaksiysi deb hisoblanadi

### 13.3- Labaratoriya ishi Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari



**Ishning maqsadi:** Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari bilan tanishish. To`liq reaksiya tenglamalarini yozishni o`rganish. Standart elektrod potensiali jadvalidan foydalanib oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarining borishini aniqlash.

Elementlarning oksidlanish darjasini oksidlovchi va qaytaruvchi oksidlanish va qaytarilishni o`rganish kerak. Eng muhim oksidlovchi va qaytaruvchilarni oksidlanish - qaytarilish jarayonlariga muhitning ta`sirini o`rganish elektron - balans yoki ion - elektron usuli bilan koeffisientlarni topishni bilish lozim. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaning turlari bilan tanishish. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaning to`liq reaksiya tenglamalarini tuzish; birikmadagi element atomlarining oksidlanish darjalarini aniqlash talab qilinadi. Oksidlanish va qaytarilish jarayonlarini, oksidlovchi va qaytaruvchilarni aniqlash.

#### Ishning bajarilishi.

##### 1- tajriba. Oksidlanish - qaytarilish jarayonlariga reaksiya muhitining ta`siri

Kaliy permanganat bilan natriy sulfiting o`zaro ta`siri. 3ta probirkaga 2–3ml 0,5n. kaliy permanganat ( $\text{KMnO}_4$ ) so`ngra uchala probirkaga teng miqdorda (2-3ml) birinchisiga -2n sulfat kislota ikkinchisiga - suv va uchinchisiga - natriy ishqoridan quying va 1-2ml 0,1 n natriy sulfit ( $\text{Na}_2\text{SO}_3$ ) eritmasidan oling. Har bir probirkadagi eritmalar rangi o`zgarishiga ahamiyat bering va har bir probirkadagi jarayon uchun reaksiya tenglamasini yozing:



Elektron - balans usulidan foydalanib koefitsient tanlang oksidlovchi - qaytaruvchini aniqlang. Qanday muhitda  $\text{KMnO}_4$  ning oksidlanish xossasi kuchli bo`ladi.

## **2 -tajriba. Ichki molekulalar oksidlanish va qaytarilish reaksiyalari**

Bir necha dona ammoniy bixromat kristalini asbestlangan turga qo'yib, to parchalanish reaksiyasi bo'lguncha qizdiring. Reaksiya natijasida qattiq modda ( $\text{Cr}_2\text{O}_3$ ) gaz ( $\text{N}_2$ ) va qanday rangli modda hosil bo'lishiga ahamiyat bering. Reaksiyaning elektron - balans tenglamasini tuzing oksidlovchi va qaytaruvchini aniqlang.  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7 = \text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{N}_2 + \dots$

## **3- tajriba. Oksidlanish-qaytarilish jarayonining ikkiyoqlamaligi**

Vodorod peroksidning kaliy permanganat va natriy xromit bilan o'zaro munosabati.

Probirkaga uch valentlik xrom tuzi eritmasidan 2–3ml quying va unga dastlab hosil bo'ladigan xrom gidrooksid cho'kmasi erib ketguncha tomchilatib o'yuvchi natriy eritmasidan qo'shing.


A) Xrom –gidrooksid hosil bo'lishi.

B) Natriy xromit  $\text{NaCrO}_2$  ning hosil bo'lish reaksiya tenglamalarini yozing.

## **4 - tajriba. Molekulalararo oksidlanish qaytarilish reaksiyasi**

2-3 ml  $\text{KMnO}_4$  eritmasiga ozgina sulfat kislota tomizing va rang o'zgarguncha 3 foizli  $\text{H}_2\text{O}_2$  eritmasidan qo'shing.


Gaz ajralib chiqishiga e'tibor bering.



Reaksiya tenglamasini davom ettiring va unga elektron - balans usulidan foydalanib, koefitsient tanlang hamda oksidlovchi bilan qaytaruvchini aniqlang.

## **5-tajriba. Oksidlanish-qaytarilish jarayonida reaksiya yo'naliши**

Probirkaga uch valentli xrom tuzi eritmasidan 2-3 ml quying va unga dastlab hosil bo'ladigan xrom(III) gidrooksid cho'kmasi erib ketguncha tomchilatib o'yuvchi natriy eritmasidan qo'shing. Eritma rangiga e'tibor bering. Hosil qilingan xronit eritmasiga tomchilatib vodorod peroksid  $\text{H}_2\text{O}_2$  eritmasidan qo'shing va biroz qizdiring. Eritmaning rangi qanday o'zgaradi, rang o'zgarishi eritmada  $\text{CrO}_4^{2-}$  ioni hosil bo'lganligini harakterlaydi.



Reaksiyaning tenglamasini davom ettirib, tenglamani elektron-balans va ion-elektron usuli bilan tenglashtiring. Oksidlovchi va qaytaruvchini aniqlang .

## **13.1-jadval**


### **13-laboratoriya ishi bo'yicha hisobot**

1	Reaksiya tenglamasining sxemasini yozish va oksidlanish darajasini aniqlash	
2	Oksidlanish, qaytarilish va oksidlovchi, qaytaruvchilarni aniqlash.	
3	Oksidlanish darajalari o'zgargan atom yoki ion uchun elektron-balans tenglama tuzish va koiffitsent tanlash.	
4	Tanlangan koiffitsentlarni reaksiya tenglamasiga qo'yish va reaksiya tenglamasini tenglashtirish.	


### **13.4. Tarqatma material**

- Quyidagi birikmalarda marganesning oksidlanish darajasini aniqlang:  
 $\text{Mn}$ ;  $\text{MnCl}_2$ ;  $\text{MnO}_2$ ;  $\text{MnO}$ ;  $\text{HMnO}_4$ ;  $\text{H}_2\text{MnO}_4$ .
- Quyidagi birikmalarda xromning oksidlanish darajasini aniqlang:  
 $\text{Cr}$ ;  $\text{Cr}_2\text{O}_3$ ;  $\text{Cr(OH)}_3$ ;  $\text{NaCrO}_2$ ;  $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ;  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ .
- Quyidagi ionlarning oksidlovchi va qaytaruvchi xossalarini aniqlang:  
 $\text{Cu}^{2+}$ ;  $\text{Sn}^{2+}$ ;  $\text{Cl}^-$ ;  $\text{NO}_3^-$ ;  $\text{S}^{2-}$ ;  $\text{VO}_3^-$ .
- Quyidagi moddalarning qaysi biri oksidlovchi yoki qaytaruvchi xossasini namoyon qiladi:  $\text{H}_2\text{S}$ ;  $\text{SO}_3$ ;  $\text{CO}$ ;  $\text{Zn}$ ;  $\text{Fe}$ ;  $\text{NaNO}_3$

#### 7. Quyidagi reaksiyani ion-elektron usulida tenglashtiring




#### 8. Quyidagi reaksiyani ion-elektron usulida tenglashtiring



#### 9. Quyidagi reaksiyani ion-elektron usulida tenglashtiring



#### 10. Oavidagi reaksiyani ion-elektron usulida tenglashtiring



11. Quyidagi moddalarning qaysi biri ham oksidlovchi ham qaytaruvchi hisoblanadi:  
 $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ;  $\text{H}_2\text{S}$ ;  $\text{SO}_3$ .

12. Quyidagi moddalarning qaysi biri ham oksidlovchi ham qaytaruvchi hisoblanadi:  
 $\text{Cr}$ :  $\text{Cr}_2\text{O}_3$ ;  $\text{CrCl}_2$ ;  $\text{K}_2\text{CrO}_4$ .

13. Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri disproporsiyalanish oksidlanish- qaytarilish reaksiyasi hisoblanadi



14. Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri disproportsiyalish oksidlanish- qaytarilish reaksiyasi hisoblanadi



15. Quyidagi molekulalararo oksidlanish- qaytarilish reaksiyasini tenglashtirib, jarayonlarni aniqlang  $\text{H}_2\text{O}_2 + \text{KMnO}_4 \rightarrow \text{MnO}_2 + \text{KOH} + \text{O}_2 + \text{H}_2\text{O}$

16. Quyidagi molekulalararo oksidlanish- qaytarilish reaksiyasini tenglashtirib, jarayonlarni aniqlang       $\text{FeCl}_2 + \text{KMnO}_4 + \text{HCl} \rightarrow \text{FeCl}_2 + \text{MnO}_2 + \text{KCl} + \text{H}_2\text{O}$

17. Quyidagi molekulalararo oksidlaniş-qaytarilish reaksiyasını tenglashtırıb, jarayonlarnı aniqlang  $K_2Cr_2O_7 + H_2S + H_2SO_4 \rightarrow Cr_2(SO_4)_3 + S + K_2SO_4 + H_2O$

18. Quyidagi ichqi molekulalararo oksidlanish- qaytarilish reaksiyasini tenglashtirib, jarayonlarni aniqlang  $Pb(NO_3)_2 \rightarrow PbO + NO_2 + O_2$

19. Quyidagi oksidlanish- qaytarilish reaksiyasini tenglashtirib, oksidlovchi oldidagi koefisientni aniqlang  $MnO_2 + KClO_3 + KOH \rightarrow KMnO_4 + KCl + H_2O$

20. Quyidagi oksidlanish- qaytarilish reaksiyasini tenglashtirib, qaytaruvchi oldidagi koefisientni aniqlang  $FeSO_4 + HNO_3 + H_2SO_4 \rightarrow Fe_2(SO_4)_3 + NO + H_2O$

## **14. METALLAR. ULARNING TABIATDA UCHRASHI, OLİSH USULLARI, KİMYOVİY XOSSALARI**

Reja:

1. Elementlar davriy sistemasida metallarning joylashishi.
  2. Metallarni olish usullari.
  3. Metallarning fizik va kimyoviy xossalari.

**Tayanch so'zlar:** Pirametallurgiya, elektrometallurgiya, gidrometallurgiya, ruda, issiqlik va elektr o'tkazuvchanlik, zichlik, gýovoklik.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** talabalarga metallarni tabiatda uchrashi, ularning xossalari va olinishi haqida ma'lumot berish. Metallarning ichki tuzilishi, metallarning fizik va kimyoviy xossalari, metallarning ollinishi, ekologik toza usul bilan metall olish haqida tushuncha berish.

Metallarning ichki tuzilishi. Kimyoviy elementlarning 80% ni metallar tashkil qiladi. Ko'pchilik metallar odatdagagi sharoitda tugunchalarida ionlagan va elektroneytral zarrachalar, metall kristallari orasida esa erkin zarracha-elektronlar joylashgan elektronlar doimiy harakatda bo'ladi. Ionlar esa bir qadar tebranma harakatda bo'ladi. Metallarning fizikaviy xossalari ularning ana shu ichki tuzilishidan kelib chiqadi.

### Metallarning fizik xossalari

Metallar birinchi tur o'tkazgichlardir. Ularda elektrni erkin elektronlar tashiydi. Tartibsiz harakatda bo'lgan erkin elektronlar batartib – bir tomoniga harakatlanishi uchun juda kichik elektr potensiali kifoya. Shu sababli, metallar elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Elektronlarning batartib - bir tomonlama harakatiga to'sqinlik qiluvchi faktorlar metallarning elektr o'tkazuvchanligini pasaytiradi.

Masalan: Haroratning ko'tarilishi bilan ionlarning tebranma harakati kuchayadi va ular ichida elektronlarning harakatlanishi qiyinlashadi. Shu sababli, Haroratning ko'tarilishi bilan metallarning elektr o'tkazuvchanligi pasayadi. Metallar absolyut nol haroratiga yaqin haroratida (ma'lum haroratdan so'ng) o'ta katta elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi, bu holda ularning elektr o'tishiga qarshiliklari deyarli yo'q darajada bo'ladi.

Metallardagi turli qo'shimchalar ham elektronlarning harakatiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, metallarda qo'shimcha ko'paygan sari, bu metallning elektr o'tkazuvchanligi pasayadi.

Metallar issiqlikni ham yaxshi o'tkazadi. Buning asosiy sababi quyidagilardir. Bir tomondan, qo'shni ionlar orasida ikkinchi tomondan esa ion bilan elektronlar orasida energiya almashinish jarayon sodir bo'lib turadi.

Metall tayoqchaning bir uchini qizdirish natijasida, tayoqchaning ana shu uchidagi ionlarning tebranishi kuchayadi, ionlar katta energiyaga ega bo'lib qoladi. Bu ionlar ortiqcha energiyani qo'shni ionlarga beradi va natijada, qo'shni ionlar ham kuchli tebrana boshlaydi. Bu jarayon tayoqchaning ikkinchi uchiga tez yetib keladi va nihoyat hamma ionlar bir xil tebrana boshlaydi.

Energiya almashinish jarayoni juda tez boradigan jarayon bo'lganligi uchun, tayoqchaning bir uchidagi issiqlik tezda ikkinchi uchiga yetib keladi. Ionlar orasidagi elektronlarda ham ana shunday hol yuz beradi. Eng yaxshi o'tkazuvchilar: kumush-59, mis-54, oltin-40, alyuminiy-27.

Metallar solishtirma og'irligiga ko'ra: engil, solishtirma og'irligi  $d=5 \text{ kg/m}^3$  dan kichik va og'ir, solishtirma og'irligi  $d=5 \text{ kg/m}^3$  dan katta, metallarga taqsimlanadi. Yengil metallarga litiy  $d=0,53 \text{ kg/m}^3$ , kaliy  $d=0,86 \text{ kg/m}^3$ , natriy  $d=0,97 \text{ kg/m}^3$ , magniy  $d=1,7 \text{ kg/m}^3$ , alyuminiy  $d=2,7 \text{ kg/m}^3$  va hokazo. og'ir metallarga osmiy  $d=22,5 \text{ kg/m}^3$ , platina  $d=21,5 \text{ kg/m}^3$ , oltin -  $d=19 \text{ kg/m}^3$ , temir -  $d=7,87 \text{ kg/m}^3$ , qo'rg'oshin-  $d=11,3 \text{ kg/m}^3$  va hokazo.

Metallar suyuqlanish haroratiga ( $t_c$ ) qarab yengil va qiyin suyuqlanuvchi metallarga taqsimlanadi. Yengil suyuqlanuvchi metallarga simob  $t_c=-39^\circ\text{S}$ , seziy  $t_c=+28,5^\circ\text{C}$ , litiy  $t_c=181^\circ\text{C}$ , kaliy  $t_c=63,6^\circ\text{C}$ , natriy  $t_c=98^\circ\text{C}$ , qalay  $t_c=232^\circ\text{C}$ , qo'rg'oshin  $t_c=328^\circ\text{C}$ , magniy  $t_c=651^\circ\text{C}$  va hokazo, ya'ni suyuqlanish harorati  $800^\circ\text{C}$  dan kichik bo'lgan metallar. Suyuqlanish harorati ( $t_c$ )  $800^\circ\text{C}$  dan katta bo'lgan metallar qiyin suyuqlanuvchi, ularga volfram  $t_c=3383^\circ\text{C}$ , osmiy  $t_c=2270^\circ\text{C}$ , platina  $t_c=1770^\circ\text{C}$ , xrom  $t_c=1875^\circ\text{C}$ , oltin  $t_c=1060^\circ\text{C}$ , temir  $t_c=1539^\circ\text{C}$  va boshqalar misol bo'la oladi.


Metallning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning bolg'alanuvchanligidir. Metallar elastik bo'ladi. Buning sababli ham ularning yuqorida aytib o'tilgan ichki tuzilishidir. Metallarning elastikligi ionlar qatlaming bosqqa ionlar qatlamiga nisbatan oson surilishi mumkinligidan kelib chiqadi.

Metallarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning yaltiroqligidir. Qora metallarga temir va uning qotishmali, rangdor metallarga esa qolgan hamma metallar kiradi.


**Metallarning kimyoviy xossalari.** Metallarning qaytarish xossalari kuchlidir. Metallar birikma hosil qilganda manfiy zaryadlanmaydi, chunki ular o'zları elektron beradi. Elektron berish

xususiyatiga ko`ra metallar aktivlik qatoriga joylashadi va u quyidagi ko`rinishga ega: Li, K, Ca, Na, Mg, Al, Mn, Zn, Fe, Cd, Co, Ni, Sn, Pb, H<sub>2</sub>, Cu, Ag, Hg, Pt, Au.

Vodorod elektron berish xususiyatiga ko`ra metallarni aktivlik qatoriga joylashgan. Bu qatorda vodoroddan oldinda joylashgan metallar uni birikmasidan siqib chiqaradilar. Masalan:





hamda bu qatorda chapda joylashgan metall o`ngda joylashgan metallni birikmasidan siqib chiqaradi



Metallarning kislород билан hosil qilган биримлари оксидлардир. Metallar vodorod bilan reaksiyaga kirishib, gidridlarni hosil qiladi. Masalan, NaH, TiH<sub>2</sub> gidridlarda vodorod manfiy zaryadlanadi.



Metallarning suvgaga ta`sir qilish xarakteri ularning ahamiyatli kimyoviy xossalardan biridir. Ko`pchilik metallar suvdan vodorodni siqib chiqaradi.




Ishqoriy va ishqoriy er metallari suv bilan shiddatli ravishda reaksiyaga kirishadi, boshqa metallar qizdirilgandagina suvgaga ta`sir etadi.

Qariyb hamma metallar kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi, bunda metallning o`zi oksidlanadi va kislota hamda metallning tabiatiga qarab quyidagi mahsulotlar hosil bo`ladi.




1. Kislорodsiz va suyultirilgan sulfat kislotalarning metallarga ta`siri: bu kislotalarda aktivlik qatorida vodorodgacha, qo`rg`oshindan tashqari, joylashgan barcha metallar erib, tuz va erkin vodorodni hosil qiladi. Masalan:



2. Konsentrangansulfatkislotada aktivlikqatorida kumushgacha joylashgan, quyidagi metallardan alyuminiy, temir, xrom, qo`rg`oshindantashqaribarcha metallarerib, sulfattuzlarini, sulfit angidridniva suvmolekulasi hiosilqiladi, bunda kislotadagi oksidlanishdarajasi +6 bo`lgan oltingugurt atomi oksidlovchivazifasinio`taydi. Masalan:





3. Suyultirilgannitratkislotada nodirmetallardantashqaribarcha metallarerib, nitrattuzlarhamda kislotaning konsentratsiyasiva metallning aktivligiga ko`ra quyidagi NH<sub>4</sub><sup>+</sup>, N<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>O, NObirikmalarniva suvmolekulasi hiosilqiladi. Bunda kislotadagi oksidlanishdarajasi +5 bo`lgan azot atomi oksidlovchivazifasinio`taydiva uningqaytarilishi metallning aktivligiga bog`liq, metallqancha aktivbo`lsa, azot atomishuncha kuchliqaytariladi. Masalan:




4. Konsentrangan nitrat kislotada platina, oltin, alyuminiy, temir, xromlardan tashqari barcha metallar erib, nitrat tuzlarini, azot (IV) oksidini va suv molekulasi hiosil qiladi.



5. Oltin va platina zar suvida eriydi. Zar suvi bu bir hajm konsentrangan nitrat kislota va uch hajm konsentrangan xlорid kislotadan yangi tayyorlangan aralashma eritmasi. Bu kislotalar aralashtirilganda xlор atom holidaajralib chiqadi va metallni oksidlaydi.



Ruh, alyuminiy, qalay singari amfoterlik xossalari bor metallar ishqor eritmalari bilan ham reaksiyaga kirishadi. Reaksiya natijasida tuz bilan vodorod hosil bo`ladi.



## METALLARNING OLINISHI

Aksari metallar tabiatdaoksid, sulfat, sulfid, karbonat va boshqa birikmalar holida uchraydi. Sanoatda metallar ana shu birikmalardan ajratib olinadi. Sanoatda metallar ajratib olish uchun ishlatiladigan tabiiy minerallar ruda deyiladi.

Sanoatda rudalardan metallarni ajratib olish bilan shug`ullanadigan soha metallurgiya deb ataladi. Rudadan metallar bir necha xil usul bilan ajratib olinadi.

Qaytarish usuli. Bundaoksid xolidagi ruda qaytariladi.

Qaytaruvchi sifatida ko`mir yoki CO dan foydalanadi va unga karbotermiy deyiladi.



Qaytaruvchi sifatidaajratib olinishi kerak bo`lgan metallga qaragandaaktivroq metall yoki metalloid ishlatilishi ham mumkin.

Mg, Al, Si

Bunday usul ayniqsa AL ishlatilsa, Alyuminotermiya – Metallotermiya deyiladi.




## SULFIDLARDAN METALL OLISH

Sulfidlardan metall ajratib olish 2 bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda metall sulfidi kuydiriladi va metall oksidi olinadi.

Ikkinci bosqichda oksid qaytariladi.




Rudani bekorchi jinslardan tozalash flotatsiya deb ataladi.

Flotatsiya chahlarda o`tkaziladi. Ruda chanlarga solinadi suv bilan to`ldiriladi, so`ngra suvli eritmaga ko`pik hosil qiladigan modda (flotreagent) qo`shiladi va aralashtiriladi. Bekorchi jinslar chan tagiga cho`kadi. Foydali qismi ko`piklarga yopishib, suyuqlik betida yog`iladi va u qismi alohida yig`ib olinadi.

Gidrometallurgiya usulidaasosan rуданing tarkibidagi kerakli metallni kislota yoki ishqor eritmasida eritib, tuz eritmasi holatiga o`tkaziladi va so`ngra bu eritmani elektroliz qilinadi, yoki aktiv metall yordamida eritmadi metall qaytariladi.

Elektroliz jarayonida metall katoddaajralib chiqadi. Masalan: Respublikamizdaoltin asosan qum bilan aralashma holida uchraydi. Oltinni olish uchun avval aralashma qumdan tozalanadi so`ng kaliy sianid tuzining suvli eritmasi vaatomlar kislород yordamida eritmaga kompleks birikma holida o`tkaziladi, so`ngra eritmaga ruh qo`shilib oltin qaytariladi. Bu jarayonning reaksiyasi quyidagicha:



## VIZUAL MATERIALLAR

**2-savol. Metallarning fizik xossalari.**

**1-ilova.**

**Metallar** – elektr tokini yaxshi o`tkazadi. Metallarni kristall panjaralarining fazasida elektronlar joylashadi va ular katta tezlik bilan harakat qiladi. Shuni hisobiga elektr tokini yaxshi o`tkazadi.

**Energiya almashinish jarayoni** – juda tez boradigan jarayon bo`lib, tayoqchaning birinchi uchidagi issiqlik tezda ikkinchi uchiga etib olishidir.

**Metallar issiqlikni yaxshi o`tkazadi** – bir tomonidan qo`shni ionlar orasida, ikkinchi tomonidan esa ion bilan elektronlar orasida energiya almashinish prosessini sodir bo`lishidan

**Qora metallarga nimalar kiradi** – temir va uning qotishmalari misol bo`la oladi.

**Rangdor metallarga nimalar kiradi** – ularning tarkibiga xamma metallar kiradi

**Metallarning elastikligi** – ionlar qatlaming boshqa ionlar qatlamiga nisbatan oson surilishi mumkinligidan kelib chiqishidir.

**Qiyin suyuklanuvchilar** – suyuqlanish temperaturasi  $800^{\circ}\text{S}$  dan katta bo`lgan metallardir. Ularga volfram, osmiy, platina, xrom, oltin, temir va boshqalar misol bo`la oladi.

## VIZUALMATERIALLAR

3-savol. Metallarning kimyoviy xossalari

2-ilova.

**Kislorodsiz va suyultirilgan sul`fat kislotalarni metallarga ta`siri qanday** – bu kislotalarda aktivlik qatorida vodorodgacha (qo`rg`oshindan tashqari) joylashgan barcha metallar erib tuz va erkin vodorodni hosil qiladi

**Zar suvi nima** – bu bir xajm konsentrangan nitrat kislota va uch xajm konsentrangan xlorid kislotadan yangi tayyorlangan aralashma eritmasi

**Qaysi metallar ishkor eritmalari bilan reaksiyaga kirishadi** – Rux, alyuminiy, kaliy singari amfoterlik xossalari bor metallar

**Konsentrangan nitrat kislotada қaysi metallar eriydi va ular nimani xosil qiladi** – platina, oltin, alyuminiy, temir, xromdan tashqari barcha metallar erib nitrat tuzlarini, azot (IV) oksidini va suv molekulasini hosil qiladi

## Vizual materiallar

### 4-savol Metallarning olinishi

3-ilova.

**Metallar tabiatda qanday holda uchraydi** – oksid, sul`fat, sul`fid, karbonat va boshqa birikmalar holda uchraydi

**Ruda** – sanoatda metallar ajratib olish uchun ishlataladigan tabiiy minerallardir

**Metallurgiya** – sanoatda rudalardan ajratib olish bilan shug`ullanadigan sohadir

**Karbtermiya** – qavtarish usuli bo`lib, bunda oksid holdagi ruda qavtariladi, qavtaruvchi sifatida

**Metallotermiya** – qaytaruvchi sifatida ajratib olinishi kerak bo`lgan metalga qaraganda aktivroq metall yoki metalloid ishlatalishi

**Flotasiya** – rudani bekorchi jinslardan tozalash

4-ilova

### 1-mashg`ulot bo`yicha xulosa


1. Metallarning fizikaviy xossalari – kimyoviy elementlarning 80%ni metallar tashkil qilib, ko'pchilik metallar odatdagи sharoitda tugunchalarida ionlangan va elektroneytral zarrachalar, metal kristallari orasida esa erkin zarracha – elektronlar joylashgan elektronlar doimiy xarakatda, ionlar esa bir kator tebramma xarakatda bo'ladigan ana shu ichki tuzilishidan kelib chiqadi.

2. Metallar issiqlikni yaxshi o'tkazish sababi – bir tomondan, qo'shimcha ionlar orasida, ikkinchi tomondan esa ion bilan elektronlar orasida energiya almashinish prosessining sodir bo'lib turishidan ekan.

3. Respublikamizda oltinni olish uchun avval aralashma qumdan tozalanadi so'ng kaliy sianid tuzining svqli eritmasi va atomar kislorod yordamida eritmaga kompleks birikma xolida o'tkazilib, so'ngra eritmaga tuz qo'shilib oltin qaytarilishi muhim o'rinni egallaydi.

## 5-ilova

### *«KLASTER» usulidan foydalangan xolda metallarning taqsimlanishi*



## RUDADAN METALLARNING BIR NECHA XIL USULLAR BILAN AJRATIB OLINISHI TAQDIMOTI

Aksariyat metallar tabiatda oksid, sul`fid, karbonat va boshqa birikmalar holida uchraydi. Sanoatda metallar anna shu birikmalardan ajratib olinadi. Sanoatda metallar ajratib olish uchun ishlatiladigan tabiiy minerallar ruda deyiladi.

Sanoatda rudalardan materiallarni ajratib olish Bilan shug`ullanadigan soha metallurgiya deb ataladi. Rudadan metallar bir necha xil usul bilan ajratib olinadi.

**Qaytarish usuli.** Bunda oksid holidagi ruda qaytariladi. Qaytaruvchi sifatida ko`mir yoki CO dan foydalaniladi va unga karbotermiya deyiladi.



Qaytaruvchi sifatida ajratib olinishi kerak bo`lgan metalga qaraganda aktivroq metall yoki metalloid ishlatilishi xam mumkin. Mg, Al, Si.

Bunday usul ayniksa Al ishlatilsa, alyuminotermiya-metallotermiya deyiladi



### Reproduktiv o'zlashtirishga doir

Metallar qanday kimyoviy xossalarga ega?

- A) Metallar o'rin olish reaksiyasiga kirish xossasiga ega.
- B) Metallar oksidlanish-qaytarilish xossasiga ega.
- C) Metallar birikish xossasiga ega.
- D) Metallarning qaytarish xossalari, metallar kislород bilan birikma hosil qiladi, ko'pincha metallar suvdan va kislotalardan vodorodni siqib chiqarish xossasiga ega.

Ruda deb nimagaaytiladi?

- A) Sanoatda metallar ajratib olish uchun ishlatiladigan tabiiy minerallar ruda deyiladi.
- B) Sanoatda metallarning birikmalardan ajratib olinadigan mahsuloti ruda deyiladi.
- C) Sanoatda metallar oksid, sulfat, sulfid, karbonat birikmalaridan ajratib olinish mahsuloti ruda deyiladi.
- E) Tabiatda sof holda uchraydigan metall ruda deyiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Metallar tabiatda qanday holatda uchraydi?
2. Metallarning olish usullarini aylib bering.
3. Metall sulfidlaridan qanday metall olinadi?
4. Metallarning kimyoviy xossalari?
5. Qaysi usul eng ekologik toza usul?
6. Metallarning fizik xossalari.
7. Metallarning aktivlik qatori.
8. Qanday metallar ishqor eritmali bilan reaksiyaga kirishadi?

### 14.2 Namunaviy masalalar yechish

**1-masala.** Qyidagi K, Pb, Ca, Ag metallarning suvgaga munosabatini aniqlang Reaksiya tenglamani yozing

**Yechish:** 1)  $2\text{K} + 2\text{H}_2\text{O} = 2\text{KOH} + \text{H}_2\uparrow$

Kaliy ishqoriy metal bo`lgani uchun oson ta`sirlashib, ishqor hosil qiladi.


2) Ca - ishqoriy-yer metal, temperatura ta`sirida reaksiyaga kirishadi



3) Pb va Ag suv bilan reaksiyaga kirishmaydi.

**2-masala.** Mis, Qalay, Rux, Temir metallarning qaysi biri ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya tenglamani tuzing

**Yechish:** Metallardan faqat rux qalay ishqor bilan reaksiyaga kirishadi, chunqi Zn – amfoter metalldir.



### 14.3.Tarqatma material

1. Fe, Cu, Ni, Al, Be metallarning qaysilari suv bilan reaksiyaga kirishadi. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing
2. Quyidagi oksidlanish- qaytarilish reaksiyalarini tugallang va tenglashtiring:  
a)  $\text{Ni} + \text{HNO}_3$ (suyl.)  $\rightarrow$       b)  $\text{Zn} + \text{H}_2\text{SO}_4$ (kons.)  $\rightarrow$
3. Tarkibida 4,6gr, Na va 3,3,gr. Ca bo`lgan qotishmani 8,5gr. suvgaga ta`sir ettirilganda qancha hajm vodorod ajralib chiqadi? (javob: 3,36 litr ).
4. 12gr. Magniy yondirilganda necha gramm magniy oksidi hosil bo`ladi?  
(javob: 20gr. ).
5. Misning  $\text{Cu}_2\text{O}$ dan va qalayning  $\text{SnO}_2$ dan a) ko`mir vositasida;  
b) uglerod (II)-oksid vositasida qaytarilish reaksiyalarining tenglamalarini yozing
6. Alymotermik usulida a)  $\text{MnO}_2$ dan va  $\text{Mn}_3\text{O}_4$ dan marganes;  
b)  $\text{Ti}_2\text{O}_3$ dan titan olish reaksiyalarning tenglamalarini yozing
7. Latun qotishmasi asosan 60% mis va 40% ruxdan iborat bo`ladi. Bu qotishmaning formulasini chiqaring
8. Mis kuporosi  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  eritmasini a) ruxlangan;  
b) qalaylangan idishlarda saqlab bo`ladimi? Nima uchun?
9. Mis buyumlar simob(II)xlorid eritmasiga botirilganda ular “kumushlanib” qoladi.  
Bu hodisani izohlab boring va reaksiyalarining tenglamasini yozing
10. Massasi 73gr. bo`lgan rux namunasi massasi 240gr. bo`lgan nikel(II)-sulfat eritmasiga botirildi. Bir o`z vaqtidan so`ng namuna massasi 71,8gr. ga teng bo`lib goldi. Reaksiyadan keyin eritmadiagi rux sulfatning massa ulushini aniqlang (javob: 13,3% ).

## 15. ELEKTRORIMYO. GALVANIK ELEMENTLAR NAZARIYASI.

### Reja:

1. Metallarning normal elektrod potensiali, normal vodorod potensial.
2. Galvanik elementlar nazariyasi.
3. Metallarning aktivlik qatori.
4. Nernst tenglamasi.

**Tayanch so’zlar:** Metallarning normal elektrod potensiali, normal vodorod potensial, Galvanik elementlar, Metallarning aktivlik qatori, anod, katod.

**O’quv mashgúlotining maqsadi:** metallarning normal elektrod potensiali, normal vodorod potensial, Galvanik elementlar, Metallarning aktivlik qatori, anod, katodlar haqida tushuncha berish.

## 15.1. ELEKTROD KUCHLANISH HAQIDA TUSHUNCHА

L.N.Pisarjevskiy ta'limotiga ko'ra metall suvgaga yoki shu metall ioni bo'lgan eritmaga tushirilsa, metall bilan suyuqlik chegarasida elektrod kuchlanishi hosil bo'ladi, chunki metall sirtidagi ionlar suvning qutblangan molekulalariga tortiladi va metalldan suyuqlikka o'tadi va muvozanat qaror topadi.



Buning natijasida metall manfiy zaryadlanadi, suyuqlik esa musbat zaryadlanadi. Metalldan eritmaga o'tib, gidratlangan ionlar metallga tortiladi va metall sirtiga yaqin joylashib, qo'sh elektr qavatini hosil qiladi, natijada metall bilan eritma orasida potensiallar ayirmasi vujudga keladi. Bu qiymat metallning elektrod kuchlanishi deb ataladi.

Turli metallar suvgaga botirilganda vujudga keladigan kuchlanishlarning qiymati turlicha bo'ladi. Metall qancha aktiv bo'lsa, uni qurshab turuvchi suv muhitiga shuncha ko'p ion o'tadi, natijada metall plastinkada paydo bo'ladi. Manfiy zaryadning qiymati yuqori bo'ladi. Bu esa ayrim metallarning kristall panjaralarida kationlarning bir xilda a gidratsionmasligi natijasidir.

Agar metall o'z tuzining eritmasiga tushirilsa, metall suyuqlik sirtidagi muvozanat siljiydi va yangi kuchlanishlar ayirmasi hosil bo'ladi.

<b>PROCESS</b> <b>OXIDATION</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>One reactant loses electrons.</li> <li>Reducing agent is oxidized.</li> <li>Oxidation number increases.</li> </ul>	$\begin{array}{c} \text{Zn} \text{ (s)} + 2\text{H}^+(\text{aq}) \longrightarrow \text{Zn}^{2+}(\text{aq}) + \text{H}_2 \text{ (g)} \\ \text{Zn: } \overset{0}{\text{Zn}} \longrightarrow \overset{+2}{\text{Zn}} \\ \text{H: } \overset{0}{\text{H}} \longrightarrow \overset{0}{\text{H}_2} \end{array}$	
<b>REDUCTION</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Other reactant gains electrons.</li> <li>Oxidizing agent is reduced.</li> <li>Reduction number decreases.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Hydrogen ion gains electrons.</li> <li>Hydrogen ion is the reducing agent and becomes oxidized.</li> <li>The oxidation number of H increases from +1 to +0.</li> </ul>	

Figure 21.1 A summary of redox terminology, as applied to the reaction of zinc with hydrogen ion.

## GAZLIELEKTRODLAR


Gazlielektrodlargazva gazionibo`lganeritma bilanto`qnashibturadiganbirornoaktivmetallo`tkazgich, masalanRtdaniboratbo`ladi. Metallo`tkazgichelektronlar oqiminihosilqiladi, o`ziesa eritmaga ioninibermaydi. Shunga misoltariqasida normalvodorodelektrodiniko`ribchiqaylik. Ptplastinkasini aktivvodorodionlarkonsentratsiyasi 1 mol/litr/ bo`lgan 2n.  $H_2SO_4$ eritmasiga tushirib, eritmadan 1 atmbosim /25<sup>0</sup>C/ da vodorodo`tkazsak,  $H_2$ Ptplastinka sirtiga yutilib,  $H_2$ pardasinihosilqiladi. Buningnaitjasida elektrolitsifatida olingan  $H_2SO_4$ Ptplastinka bilanto`qnashmasdan  $H_2$ parda bilanto`qnashadiva  $H_2$ elektrotdhosilbo`ladi.  $H_2$ elektrodmallelektrodkabieritmaga o`zioniniberadi:

$$H_2 \rightleftharpoons 2H^+ + 2e^-$$

standar. vodorod. elektrod.

Natijada eritma bilan  $H_2$ elektrod orasida kuchlanishlar ayirmasihosilbo`ladiva uninormalvodorodelektrodkuchlanishideyiladi. Ushartliravishda nolga tengdebqabulqilingan. Gazlielektroddagireaksiyalarda gazlarishtiroketganiuchunbuelektrodlarkuchlanishlarigazlarningpar sialbosimiga bog`liqbo`ladi.

Vodorod elektrodga o`xshash kislorod elektrodini ham tuzishi mumkin. Masalan Pt nisi kislorod va kislorod hosil qiluvchi ion /gidroksil ioni —  $OH^-$  bo`lgan eritma bilan to`qnashtirish kerak, bunda  $O_2$ , Pt / $OH^-$ . Agar kislorodli elektrodda quyidagi tenglama bilan reaksiya borsa,



Dekorativda imi läif/verd ochha imi  
jäseni Urum Urum uchunlikka imi  
jačiščenija

### Standart kuchlanish haqida tushuncha

Alovida olingen elektrondning kuchlanishi mutlaq kuchlanish deyiladi, lekin uni o'lhash qiyin. Shuning uchun amalda nisbiy elektrod kuchlanishi bilan ish ko'rildi. Buning uchun solishtirilayotgan elektrodlarning biriningmutlaq kuchlanishi nolga teng deb qabul qilinadi. Bunday elektorod sifatida standart vodorod elektrodi qabul qilingan.

Elektrodnинг standart kuchlanishi  $E^0$  deb, aktiv ionlar konsentratsiyasi 1mol/l ga teng bo'lgan,  $25^{\circ}\text{C}$  da o'z tuzi eritmasiga tushirilgan elektorod kuchlanishi bilan standart vodorod elektrodi kuchlanishi orasidagi ayirmaga aytildi.

Standart elektrod kuchlanishi qiymatini aniqlash uchun galvanik element tuziladi. Bu galvanik elementda birinchi elektrod sifatida kuchlanish qiymati aniqlanishi kerak bo'lgan metall plastinka olinadi. Masalan: ruhning normal potensialini aniqlashda aktiv ruh ionlari konsentratsiyasi 1mol/l ga teng bo'lgan  $\text{ZnSO}_4$  ning 1m eritmasiga tushirilgan ruhli elektrod standart vodorod elektrod bilan tutashtiriladi. Hosil qilingan galvanik elementning elektr yuritish kuchi o'lchanib,  $E=E_1-E_2$  formula asosida ruhning standart elektrod potensiali hisoblab topiladi. Bu formula:  $E_1$ — vodorod elektrod kuchlanishi,  $E_2$ — ruh elektrod kuchlanishi,  $E$ — galvanik elementning  $E$  Yu K Yuqoridagi formuladan ruhning standart kuchlanishi topiladi:

$$E^0_{\text{Zn/Zn}^{2+}} = -0,766 \text{ v}$$

Demak, galvaniq elementda ruh elektrod potensiali bilan vodorod potensialining ayirmasi 0,766 v ga teng. Ruh elektrod manfiy bo'lgani uchun undagi elektrodlar tashqi zanjir orqali vodorod elektrodg'a o'tadi.

Metallarning standart elektrod kuchlanishi ulardagi metall ioni bilan valent elektronlar orasidagi bog'lanishning mustahkamligini ifodalaydi. Standart elektrod kuchlanishi qiymati qancha kichik bo'lsa, bog'lanish shuncha kuchsiz bo'lib, metall atomi o'z elektronini shuncha oson yo'qotadi, ya'ni uning kimyoviy aktivligi yuqori bo'ladi. Kimyoviy aktivligiga qarab metallar quyidagi qatorga joylashadi.

$\text{Li}^+$ /Li	$\text{Ba}^{2+}$ /Ba	$\text{K}^+$ /K	$\text{Ca}^{2+}$ /Ca	$\text{Na}^+$ /Na	$\text{Mg}^{2+}$ /Mg	$\text{Al}^{3+}$ /Al
-3,04	-2,96	-2,92	-2,87	-2,71	-2,37	-1,66
$\text{Ti}^{2+}$ /Ti	$\text{Mn}^{2+}$ /Mn	$\text{Zn}^{2+}$ /Zn	$\text{Cu}^{3+}$ /Cu	$\text{Fe}^{2+}$ /Fe	$\text{Cd}^{2+}$ /Cd	
-1,63	-1,18	-0,76		-0,71	-0,44	-0,40
$\text{Co}^{2+}$ /Co	$\text{Ni}^{2+}$ /Ni	$\text{Sn}^{2+}$ /Sn	$\text{Pb}^{2+}$ /Pb	$\text{Fe}^{3+}$ /Fe	$\text{H}_2/2\text{H}^+$	
-0,28	-0,25	-0,14	-0,13	-0,04	0,00	
$\text{Bi}^{+3}$ /Bi	$\text{Cl}^{2+}$ /Cl	$\text{Hg}^{2+}$ /Hg	$\text{Ag}^+$ /Ag	$\text{Hg}_2^{2+}$ /Hg <sub>2</sub>	$\text{Pt}^{2+}$ /Pt	$\text{Au}^{3+}$ /Au
+0,30	+0,34	+0,79	+0,80	+0,85	+1,20	+1,68

Metallarning kuchlanishlar qatoridan quyidagi xulosalar kelib chiqadi.

- 1) Har bir metall aktivlik qatorida o'zidan keyingi metallni uning tuzidan siqib chiqaradi.
- 2) Vodorodni kislotalardan standart elektrod potensiallari manfiy qiymatga ega bo'lgan metallar siqib chiqaradi.
- 3) Metall standart elektrod potensialining musbat qiymati qancha katta bo'lsa, uning ioni shuncha kuchli oksidlovchilik xossasiga ega bo'ladi

## GALVANIK ELEMENT NAZARIYASI


Kimyoviy reaksiya natijasida elektroenergiya hosil qiladigan, ya`ni kimyoviy energiyani elektroenergiyaga aylantiradigan asbob, qurilmagalvanik elementlar deyiladi.

Galvanik element hosil qilish uchun elektrolit eritmasiga ikki xil metall tushirilib, ularning uchlari tashqi zanjir orqali ulanadi. Italiya olimi Volt mis va ruh plastinkalarini kislotaga tushirib, ularni o`zaro tutashtirganda elektr toki hosil bo`lishini kuzatdi va bu element keyinchalik volt elementi deb ataldi. Bunday galvanik elementda elektronlar tashqi zanjir orqali ruh elektoddan mis elektrodga o`tadi, ya`ni ruh manfiy, mis musbat zaryadlanadi.




Oksidlanish Qaytarilish  
Umumlashgan holda quyidagicha yoziladi.  
 $\text{Zn} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{ZnSO}_4 + \text{H}_2$

Galvanik elementni har xil juftidan hosil qilish mumkin: Masalan: Daniel-Yakobi elementida ruh va mis elektrodlar tegishlichcha  $\text{Zn SO}_4$  va  $\text{CuSO}_4$  tuzlarining bir molar eritmasiga tushirilgan va elektrod voltmetr orqali tushirilgan.



Bunda elektronlar aktiv metall /Zn/ dan noaktiv metall /Cu/ tomom yo`naladi. Agar elektrolit eritmalar o`zaro birlashtirilmasa, ruh sulfat eritmasida musbat zaryadlangan  $\text{Zn}^{2+}$  ionlari mis sulfat eritmasida manfiy zaryadlangan  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari to`planadi, bu esa jarayonning davom etishiga qarshilik ko`rsatadi.

Shuning uchun ikkala idishdagi eritmalar elektrolit eritmasi bilan to`ldirilgan nayga yoki yarim o`tkazgich to`siq yordamida tutashtiriladi. Bu bilan  $\text{Zn}^{2+}$  kationlari va  $\text{SO}_4^{2-}$  anionlarning bir idishdan ikkinchi idishga deffuziyalanishi ta`minlanadi va natijada oksilanish-qaytarilish jarayoni davom etadi:



Bu galvanik elementni quyidagi elektrokmiyoviy sxema bilan yozish mumkin:

Anod / - /  $\text{Zn}^{2+}/\text{Zn}/\text{Cu}^{2+}/\text{Cu}/+/$  katod

Bundan ko`rindiki, anodda oksidlanish, katoda qaytarilish sodir bo`ladi.

Galvanik elementning elektr yurituvchi kuchi quyidagicha aniqlanadi.


$$E_{\text{Yu K}} = E_{\text{Cu}}^0 - E_{\text{Zn}}^0 = +0,34 - (-0,76) = +1,1 \text{ V}$$

## METALL ELEKTRODLARNING ERITMADAGI IONLARI

Metall elektrodlarning eritmadiagi ionlar konsentratsiyasi oshsa, kuchlanish kamayadi, natijada metallmas elektrodlarning kuchlanishi ortadi. Metall ionlar konsentratsiyasi 1 mol/l ga teng bo`lmasa, galvanik elementdagi har qaysi elektrodning potensialini aniqlash uchun Nernst tenglamasidan foydalaniladi.

$$E=E^0 - 0,0053/n$$

Eritmadagi ionlar konsentratsiyasini o`zgartirish elektrod kuchlanish qiymatini o`zgartiradi. Shu asosida, har xil konsentratsiyali bitta tuz eritmasiga bir xil elektrodlarni tushirib, konsentratsion galvanik



element hosil qilish mumkin. Masalan, ikkita Cd plastinkani Cd ionlari konsentratsiyasi 0,1 n va 0,001 bo`lgan Cd²⁺ li eritmalarga tushirib, ular bir-biriga ulansa, konsentratsion element vujudga keladi:

Anod(-)Cd/ CdSO<sub>4</sub> c=0,001 n //CdSO<sub>4</sub>/Cd c=0,1 n (+) katod


Uning E Yu K = E<sub>1</sub>-E<sub>2</sub>=-0,40-(-0,49)=0,09 v ga teng

Konsentratsion galvanik elementning E.Yu.K. kichik bo`lganligidan, ular ayrim qiyin eriydigan tuzlarning ionlar konsentratsiyasini aniqlashda ishlataliladi.



## QUTBLANISH VA QUTBSIZLANISH HODISALARI

Har qanday galvanik element ishlaganda, uning E Yu K kamayadi. Galvanik elementlardagi elektronlar harakati natijasida E.Yu.K. ning kamayishi galvanik elementning qutblanishi deyiladi.

E Yu K kamayishi jarayoni elektrodlar sirtining va elektrodlar orasidagi elektrolit konsentratsiyasining o`zgarishi natijasidir. Masalan, elektrolit eritma sifatida NaCl tuzi temir anod va grafit katod




yuzasidagi vodorod gazli vodorod elektrodlı galvanik elementda qutblanishi



**Figure 21.2** Determining an unknown  $E_{\text{cell}}$  with the standard reference (hydrogen electrode). The magnified view of the hydrogen half-reaction (right) shows two  $\text{H}_2\text{O}^{2-}$  ions being reduced to two  $\text{H}_2$  molecules and an  $\text{H}_2$  molecule, which emits the  $\text{H}_2$  bubble.

hodisasiniko`ribchiqaylik. Bugalvanikelementningsxemasiquyidagichadir.  
 $\text{Fe}^{2+}/\text{Fe} // \text{H}^+/\text{H}_2/+/-$  katod



Elementningishlashjarayonida anode elektroddagiqo` shelektrqavatda  $\text{Fe}^{2+}$  ionlarkonsentratsiya siortadivaeritmagaionlarnio` tishiqiyinlashadi, buesatashqizanjirorqalio` tadiganelektronlarsoniniko` paytiradi, natijada anode elektrodining potensialikamayadi. Bujarayonanoddagiqu tiblanishdeyiladi. Birvaqtningo` zidakatode elektroddagiqo` shelektronqavtida  $\text{H}^+$  ionlarkonsentratsiyasivatashqiz anjirorqalikatode elektrodgao` tayotganelektronlarningionlar bilan birikishisusayadi, natijada elektronlarto` planibqoladi.

Katode elektropotensiali ortadivakatoddagi qu tiblanishjarayoni hisilbo` ladi.

Qutblanish kamayish jarayoniga qutbsizlanishdeyiladi.

Eritmada  $\text{H}^+$  va  $\text{O}_2$  konsentratsiyasi ortishibilankatoddagi qu tiblanish kamayadi.

Oddiysharoitda  $\text{O}_2$  molekulasinieritmada oshirish gahavonisuvdaeritish natijasida aerishiladi.

Demak, oksidlovchilar -  $\text{O}_2$ ,  $\text{N}^+$  ionikatodli qu tiblanishni qutbsizlanir uchilar hisoblanadi.

Anodli qu tiblanishni qutbsizlanir uchilarian ionmasalan  $/\text{Cl}^-, \text{OH}^-$  vah.k./ lardir.

## OKSIDLOVCHI—QAYTARUVCHIKUCHLANISHLAR

$H_2$

elektrodganisbataンfaqatmetalljuftlarikuchlanishidantashqarioksidl  
anganholdagiistalganqaytaruvchiningvaqaytarilganholdagiistalga  
noksidlovchinginkuchlanishinianiqlashmumkin.


Oksidlovchivaqaytaruvchistandartkuchlanishliqiymatiularningqan  
daymuhitdaishlayotganligigabog`liq. Standartoksidlovchi-  
qaytaruvchikuchlanishlar  $/25^{\circ}C$ ,  $S=1\text{mol/l}$   
bujadvalasosidaquyidagimasalaniyechaylik



Oxidation half reaction:  
 $2I^{-}(aq) \rightarrow I_2(aq) + 2e^{-}$

Reduction half reaction:  
 $MnO_4^{-}(aq) + 8H^{+}(aq) + 5e^{-} \rightarrow Mn^{2+}(aq) + 4H_2O(l)$

Overall cell reaction:  
 $2MnO_4^{-}(aq) + 16H^{+}(aq) + 10e^{-} \rightarrow 2Mn^{2+}(aq) + 8I_2(aq) + 8H_2O(l)$



Sodir bo`lgan oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga asoslangan galvanik element sxemasini tuzamiz:

Anod  $-/\text{Cu}^{+}\{\text{Cu}(\text{NH}_3)_4\}/\text{O}_2/2\text{OH}^{-}/+/\text{katod}$

Hosil bo`lgan juftning standart elektrod potensiallarini jadvaldan olib, E Yu K ni hisoblaymiz.

$$E \text{ Yu K } E_{\text{O}_2/2\text{OH}^{-}}^0 - E_{\text{Cu}^{2+}/\text{Cu}}^0 = +0,40 - (-0,05) = 0,45 \text{ V}$$

Demak, ammiakli eritmada mis havo kislороди bilan oksidlanadi, chunki reaksiyaning E Yu K musbat qiymatga ega.


### masala

Mg va Zn plastinkalarini ularning eritmalarining aktiv konsentratsiyasi  $1\text{mol/l}$  bo`lgan o`z tuzi eritmalariga tushirilishidan hosil bo`lgan galvanik elementning anod va katod qutblarining aniqlangan holda bu galvanik elementning E Yu K ni hisoblang.


Mg ning normal elektrod kuchlanishining qiymati  $-2,37 \text{ V}$ , shunnig uchun u anod bo`ladi.




Zn ning normal elektrod kuchlanishining qiymati  $-0,763 \text{ V}$ , shuning uchun u katod bo`ladi.  $/+/\text{katodda}$



Umumiylenglama.



$$E \text{ D S} = E_{\text{Zn}^{2+}/\text{Zn}}^0 - E_{\text{Mg}^{2+}/\text{Mg}}^0 = -0,763 - (-2,37) = 1,607 \text{ B}$$



«Klaster» usulidan foydalangan holda

Galvanik element sxemasi:

Table 21.2 Selected Standard Electrode Potentials (298 K)

Half-Reaction	$E_{\text{half-cell}}^{\circ}$ (V)
$\text{F}_2(\text{g}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons 2\text{F}^-(\text{aq})$	+2.87
$\text{Cl}_2(\text{g}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons 2\text{Cl}^-(\text{aq})$	+1.36
$\text{MnO}_4^-(\text{aq}) + 4\text{H}^+(\text{aq}) + 3\text{e}^- \rightleftharpoons \text{Mn}^{2+}(\text{aq}) + 2\text{H}_2\text{O}(\text{l})$	+1.23
$\text{NO}_3^-(\text{aq}) + 4\text{H}^+(\text{aq}) + 3\text{e}^- \rightleftharpoons \text{NO}(\text{g}) + 2\text{H}_2\text{O}(\text{l})$	+0.96
$\text{Ag}^+(\text{aq}) + \text{e}^- \rightleftharpoons \text{Ag}(\text{s})$	+0.80
$\text{Fe}^{2+}(\text{aq}) + \text{e}^- \rightleftharpoons \text{Fe}^{3+}(\text{aq})$	+0.77
$\text{O}_2(\text{g}) + 2\text{H}_2\text{O}(\text{l}) + 4\text{e}^- \rightleftharpoons 4\text{OH}^-(\text{aq})$	+0.40
$\text{Cu}^{2+}(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons \text{Cu}(\text{s})$	+0.34
$2\text{H}^+(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons \text{H}_2(\text{g})$	<b>0.00</b>
$\text{N}_2(\text{g}) + 5\text{H}^+(\text{aq}) + 4\text{e}^- \rightleftharpoons \text{NH}_5^+(\text{aq})$	-0.23
$\text{Fe}^{2+}(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons \text{Fe}(\text{s})$	-0.44
$\text{Zn}^{2+}(\text{aq}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons \text{Zn}(\text{s})$	-0.76
$2\text{H}_2\text{O}(\text{l}) + 2\text{e}^- \rightleftharpoons \text{H}_2(\text{g}) + 2\text{OH}^-(\text{aq})$	-0.83
$\text{Na}^+(\text{aq}) + \text{e}^- \rightleftharpoons \text{Na}(\text{s})$	-2.71
$\text{Li}^+(\text{aq}) + \text{e}^- \rightleftharpoons \text{Li}(\text{s})$	-3.05

Ayrim metallarning standart (normal) elektrod potensiali.

Metall	Elektrod reaksiyasi	* $\psi^0$	Metall	Elektrod reaksiyasi	** $\psi^0$
Li	$\text{Li}^+ + \text{e} \dots \text{Li}$	-3,04	Cr	$\text{Cr}^{+3} + 3\text{e} = \text{Cz}$	-0,74
Rb	$\text{Rb}^+ + \text{e} \dots \text{Rb}$	-2,99	Fe	$\text{Fe}^{+2} + 2\text{e} = \text{Fe}$	-0,44
Cs	$\text{Cs}^+ + \text{e} \dots \text{Cs}$	-2,93	Cd	$\text{Cd}^{+2} + 2\text{e} = \text{Cd}$	-0,40
K	$\text{K}^+ + \text{e} \dots \text{R}$	-2,92	Zn	$\text{Zu} + 3\text{e} = \text{Zn}$	-0,34
Ba	$\text{Ba}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Ba}$	-2,90	Co	$\text{Co}^{+2} + 2\text{e} = \text{So}$	-0,28
Sz	$\text{Sz}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Cz}$	-2,89	Ni	$\text{Ni}^{+2} + 2\text{e} = \text{Ni}$	-0,25
Ca	$\text{Ca}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Sa}$	-2,87	Sn	$\text{Sn}^{+2} + 2\text{e} = \text{Sn}$	-0,14
Na	$\text{Na}^+ + \text{e} \dots \text{Na}$	-2,71	Pb	$\text{Pb}^{+2} + 2\text{e} = \text{Rb}$	-0,13
La	$\text{La}^{+3} + 3\text{e} \dots \text{La}$	-2,52	H	$2\text{H}^+ + 2\text{e} \dots \text{N}2$	0,00
Mg	$\text{Mg}^{+2} + \text{e} \dots \text{Mg}$	-2,37	Ge	$\text{Ge}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Se}$	+0,1
Al	$\text{Al}^{+3} + 3\text{e} \dots \text{Al}$	-1,66	Cu	$\text{Cu}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Su}$	+0,34
Ti	$\text{Ti}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Ti}$	-1,63	Ag	$\text{Ag}^+ + \text{e} \dots \text{Ag}$	+0,80
Mn	$\text{Mn}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Mn}$	-1,18	Hg	$\text{Hg}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Ng}$	+0,85
Zn	$\text{Zn}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Zn}$	-1,76	Rt	$\text{Pt}^{+2} + 2\text{e} \dots \text{Rt}$	+0,20

## 16. TUZLAR ERITMALARI VA SUYUQLANMALARINI ELEKTROLIZI

**Reja:**

1. Elektroliz haqida tushuncha.
2. Tuz eritmalari va suyuqlanmalarini elektrolizi.
3. Katod va anoddagi jarayonlar.
4. Elektroliz jarayonlarini sanotda qo'llanilishi.

**Tayanch so'zlar:** anod, katod, elektroliz, eritma, suyuqlanma, katod jarayonlari, anod jarayonlari.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** talabalarga elektroliz qonunlari va unda borayotgan jarayonlar haqida ma'lumot berish.

Elektroliz – bu elektr toki ta'sirida elektrolit eritmalarda yoki suyuqlanmalarda boradigan oksidlanish – qaytarilish jarayondir.

Elektrolizni amalga oshirish uchun elektrolit eritmasiga yoki suyuqlanmaga tushirilgan katod elektrodga o'zgarmas tok manbaining manfiy qutbini va anod elektrodga musbat qutbini ulash kerak.

Elektrodlar o'zi ikki xil bo'ladi :

1. Erimaydigan – ularga grafit, platina kiradi. Eriymadigan elektrodlar kimyoviy jarayonda ishtirok etmaydi, ular faqat elektron o'tkazgich vazifasini o'tadi.
2. Eriydigan elektrodlar – ularga yuqorida ko'rsatilgan metallardan boshqa hamma metall elektrodlar kiradi. Bu elektrodlar elektroliz jarayonida eritmaga o'zining ionlarini yuboradi, ya'ni anod elektrod o'zi eriydi.

Katod elektrodda elektrolitni musbat zaryadlangan ionlari elektron qabul qilib, zaryadsizlanadi. Qaysi ionning oldin zaryadsizlanishi eng avval metallarning kuchlanishlar qatorida vodorodga nisbatan joylanishiga, metall ionining konsentratsiyasiga va ayrim hollarda elektrod materialiga bog'liq bo'ladi?

Bir xil sharoitda kam aktiv metallar ionlari ya'ni kuchlanishlar qatorida vodoroddan keyin joylashgan metall engil zaryadsizlanadi va metallarning kuchlanish qatorida vodorodgacha joylashgan metallarning ionlari qiyin zaryadsizlanadi.

Suvli eritmalarda elektrolitning kationi va suvning  $H^+$  ioni konsentratsiyalari bir xil sharoitda bo'lmaydi. Bu esa, suvli eritmalarda vodoroddan aktiv metallar ionlarining qaytarilishiga olib keladi. Suvli eritmalarda juda aktiv kuchlanishlar qatorida alyminiygacha bo'lgan metallar ionlari qaytarilmaydi.

Suvli eritmalarda anodda elektrolit anionlaridan faqat kislortsiz kislota qoldiklari:  $Cl^-$ ,  $Br^-$ ,  $I^-$ ,  $F^-$ ,  $S^{2-}$ ,  $CN^-$  va boshqalar zaryadsizlanadi, ya'ni oksidlanadi. Agar kislordi kislota qoldiqlari :  $NO_3^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ,  $PO_4^{3-}$ ,  $CO_3^{2-}$ , va boshqalar bo'lsa ular o'rniغا suvning gidroksid  $OH^-$  ionlarining o'zi zaryadsizlanadi. Masalan, osh tuzi  $NaCl$  ni suvli eritmasining elektroliz jarayoni ko'rib chiqaylik. Hamma tuzlar kuchli elektrolitlardir, shuning uchun ular eritmalarda ion holda bo'ladi. Elektroliz jarayoni yozishda suvli eritma elektrolizga uchrayotganligini ko'rsatish uchun tuz bilan birga suv molekulasini yozish kerak. Lekin suv kam dissotsiatsiyalanuvchi birikma bo'lgani uchun uni dissotsiatsiyasini ko'rsatmasa ham bo'ladi.

1 – Misol. Osh tuzi –  $NaCl$  suvli eritmasining elektroliz sxemasi





<b>Katod</b>	(-)	$2\text{Na}^+ + 2\text{H}_2\text{O} + 2e^- = 2\text{Na}^+ + 2\text{OH}^- + \text{H}_2 \uparrow$	Qaytarilish jarayoni. Ishqoriy muhit.
<b>Anod</b>	(+)	$2\text{Cl}^- - 2e^- = \text{Cl}_2 \uparrow$	Oksidlanish jarayoni. Neytral muhit.

Katodda vodorod ajralibchiqadiva muhitishqoriy, anodda esa xlor ajralibchiqadiva muhitneytralbo`ladi.

2 – Misol. Kaliy sulfat  $\text{K}_2\text{SO}_4$  tuzining suvli eritmasining elektroliz sxemasi.




Katod	(-)	$2\text{K}^+ + 2\text{H}_2\text{O} + 2e^- = 2\text{K}^+ + 2\text{OH}^- + \text{H}_2 \uparrow$	Qaytarilish jarayoni. Muhit ishqoriy.
Anod	(+)	$2\text{SO}_4^{2-} + 2\text{H}_2\text{O} - 4e^- = 4\text{H}^+ + 2\text{SO}_4^{2-} + \text{O}_2 \uparrow$	Oksidlanish jarayoni. Muhit kislotali.

Katodda vodorod qaytarilib ajralib chiqadi va muhit ishqoriy, anodda esa kislород ajralib chiqadi va muhit kislotali bo`ladi. Bu misolimizda suvning o`zi oksidlanib, o`zi qaytariladi, natijada vodorod va kislород ajralibchiqadi.

Keltirilgan misollardan ko`rinib turibdiki, katodda ishqoriy metallar ionlari qaytarilmasdan ularning o`rniga suvning vodorod  $\text{H}^+$  ionlari qaytariladi. Agar anodda kislородли kislota qoldig`I bo`lsa, anod elektrodda ham suvning o`zi elektron berib oksidlanadi.

Agar tuz kuchlanishlar qatorida aluminiydan keyinda turgan metalldan tashkil topgan bo`lsa, u holda katodda shu metallning ioni va juda oz miqdorda vodorod ioni qaytariladi. Masalan :

1. ruh sulfat  $\text{ZnSO}_4$  tuzi suvli eritmasining elektroliz sxemasi.




Katod	(-)	$\text{Zn}^{2+} + 2e^- = \text{Zn}^0$	
Anod	(+)	$4\text{H}_2\text{O} - 4e^- = \text{O}_2 + 4\text{H}^+ + 2\text{H}_2\text{O}$ yoki $2\text{HOH}^- - 4e^- = \text{O}_2 + 4\text{H}^+ + \text{SO}_4^{2-}$	

Katoddaruhioniqaytariladi, anoddakislородajralibchiqadi.

Kaliyxloridtuzsuyuqlanmasining elektrolizsxemasi :

Suyuqlanmaholatdakristallpanjaradaragiionlarorasidagibog`lanishsusayadi, shuninguchun  $\text{KCl} = \text{K}^+ + \text{Cl}^-$




Anod (+)  $2\text{Cl}^- - 2e^- = \text{Cl}_2$  katodda kaliy, anodda xlor ajralib chiqadi. Agarda suyuqlanmada bir nechta kation bo`lsa, metallarning kuchlanish qatoriga qarab qaysi metall ioni oldin qo`rgoshin ioni, keyn ruh ioni oldin qaytarilishini aytish mumkin. Masalan, suyuqlanmada  $\text{K}^+$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$  kationlari bo`lgada oldin qo`rgoshin ioni, keyin ruh ioni va oxiri kaliy ioni qaytariladi.

### ERIYDIGAN ANOD ELEKTROD YORDAMIDA SUVLI

#### ERITMALAR ELEKTROLIZI

Ervchan anodli elektrodlar – bular elektroliz jarayonida yemiriladigan, ya`ni eritmaga ionlar holida o` tadigan elektrodlardir. Masalan eriydigan misli, anod elektrod yordamida, mis (2) xlorid  $\text{CuCl}_2$  eritmasi orqali elektrtok o`tkazilsa, katodda mis ajralib chiqadi, anodda esa xlor ionlari zaryadsizlanmaydi, demak, bunda xlor ajralib chiqmaydi. Bunday holda mis atomlari  $\text{Cl}$  ionlariga qaraganda o`z elektronini oson beradi. Natijada anodning o`zi eriydi, ya`ni mis anoddan  $\text{Cu}^{2+}$  ionlar holida eritmaga o`tadi. Shu bilan birga katodda  $\text{Cu}^{2+}$  ionlari qaytarilib, neytral atomga aylanishi sababli, eritmadiagi  $\text{Cl}^{2-}$  ionlar konsentratsiyasi o`zgarmaydi.  $6\text{ CuCl}_2$  eritmasining anod sifatida mis ishlatilgandagi elektrolizini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin.





Ervchan anoddan foydalaniladigan elektroliz juda toza metallar olish uchun ishlatiladi. Bunda elektroliz jarayoni tozalana yotgan metall tuzining eritmasida olib borilishi kerak.

Tuzlarning eritmalarini elektrolizlab anodda mis, ruh, kadmiy, nikel, kobalt, marganes va boshqa metallar olinadi.

Eriydigan anod yordamida elektroliz jarayoni metallni boshqa metall bilan qoplashda keng qo'llaniladi. Masalan, nikellashda katodda qoplanishi kerak bo'lgan narsa anodda nikel eltrodlar olib, ikkalasini nikel tuzining eritmasiga tushiradilar va tok o'tkazadilar. Tok o'tkazilganda nikel erib anoddan eritmaga ion holda o'tib, elektrod yuzasida qaytariladi. Bunday qoplash metodiga galvanostegiya deyiladi. Shu usul bilan metallar yuziga zar yuritiladi, kumushlanadi va hokazo.

## ELEKTROLIZDAGI IKKILAMCHI JARAYONLAR


Elektrolizda birlamchi va ikqilamchi jarayonlarni bilish kerak. Birlamchi – asosiy protsess bu bevosita elktroddan elektron qabul qilish yoki elektron berish va ikqilamchi – qo'shimcha jarayon – bu birlamchi jarayon mahsuloti, elektr toki ishtirokisiz, elektrolit yoki elektrod moddasi bilan birikishi. Bunday ikkilamchi jarayonni biz osh tuzining suvli eritmasini mis elektrod yordamida elektroliz jarayonlarida ko'rib chiqaylik. Elektroliz sxemasini yozsak:



Katodda  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{Na}^+$  ionlariga nisbatan engil qaytariladi. Chunki  $E_{\text{H}_2}/\text{H}^+ < E_{\text{Na}/\text{Na}^+}$

Anod elektrod ( $\text{Cu}$ ) erib eritmada  $\text{OH}^-$  ionlari bilan to'qnashib  $\text{Cu}(\text{OH})_2$  holda cho'kmaga tushadi, bu esa ikkilamchi jarayondir.

Elektrolizda ikkilamchi jarayon bormasligi uchun elektroldardaajralib chiqayotgan moddalar mustaqil yashay oladigan formada bo'lishi kerak. Masalan, Grafit elektrod yordamida mis xlorid  $\text{CuCl}_2$  tuzining suvli eritmasi elektroliz jarayoni, ikkilamchi jarayoni bormaydi.



Kimyoviy aktiv metallarni (natriy, kaliy, magniy va boshqalar ) ni olishda ikkilamchi jarayon bormasligi uchun elektroliz jarayoni suvsiz muhitda tuzlarning suyuqlanmalaridaolib boriladi. Alyuminiy esa suyuqlantirilgan kriolit (kriolit – mineral tarkibi  $\text{AlF}_3\text{NaF}$ ) ishtirokidaaluminiy oksid  $\text{Al}_2\text{O}_3$  eritmasini elektroliz qilib olinadi.

### elektrolizda polyarizatsiya hodisasi

Elektroliz jarayonida ko'pincha elektrolizerdn o'tkazilayotgan ishchi tok kuchi tashqi EYuK hisobiga o'z - o'zidan asta-sekin kamayadi. Elektroliz sekinlashadi va hattoki to'xtab ham qoladi. Bu elektroldardagi polarizatsiya natijasidir. Polarizatsiyaning asosiy turlari kimyoviy va konsentratsion polyarizatsiyadir.

a) Kimyoviy polyarizatsiya – elektrodlarning holatiga bog'liqidir.

Elektroldarda elektroliz mahsulotlarining adsorbsiyalanishi natijasida elektrodlar yuzasining kimyoviy tabiatni o'zgaradi. Bu esa elektrodn o'zining asosiy elektrokimyoviy vazifasida tashqari, qarama-qarshi funksiyani bajarishgaolib keladi. Masalan, ko'p elektrolitlarning suvli eritmalarini elektrolizda katod elektrod yuzasidaadsorbsiyalanadigan vodorod ajralib chiqadi va natijada vodorod elektrod hosil bo'ladi, katod elektrod materiali esa «astar» vazifasini o'taydi:  $(\text{H}_2/2\text{H}^+) \text{ esaanod vazifasini o'taydi. O'z navbatida elektrolizerning anodida kislород ajralib chiqish } (2\text{HOH}-4e=4\text{H}^++\text{O}_2)$  jarayoni boradi, ajralib chiqqan kislород elektrod yuzasidaadsorbsiyalanadi, ya'ni kislород elektrod hosil bo'ladi. Bu yangi elektrod ichki galvanik elementni katod elektrod vazifasini o'taydi. Bunday zanjirning EYuK ishchi tokka qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.

b) Konsentratsion poliarizatsiya – elektroliz vaqtida elektrodlar yaqinida elektrolit konsentratsiyasi o’zgaradi. Elektrodlar yaqinida elektrolit konsetratsiyasi o’zgarishi natijasida vujudga keladigan polarizasiya konsentratsion polarizatsiya deyiladi.

### 16-2. Amaliy mashgulot

**1-masala.** Mis ionining konsentrasiyasi 0,01 mol/ion/litr ga teng bo`lgan CuSO<sub>4</sub> eritmasiga mis plastinka botirilgan. Misning elektrod kuchlanishni hisoblang

**Yechish:** Metallning o`z tuzi eritmasiga botirishda metall ionining konsentrasiyasi 1 mol /ion-litrdan katta yoki kichik bolsa, metall kuchlanish qiymatini quyidagi tenglama bo`yicha hisoblanadi

$$\varphi = \varphi^\circ + \frac{0,059}{n} \lg C$$

Bunda  $\varphi^\circ$  (mis uchun) = +0,34 B

$$\varphi = +0,34 + \frac{0,059}{2} \lg 10^{-2} = +0,34 + 0,0295 \cdot (-2 \cdot 1) = +0,34 + (-0,059) = +0,282 \text{ B}$$

**2-masala.** Galvanik elementning elektrodlari ikkita kumush plastinkadan iborat. Ularning biri AgNO<sub>3</sub>ning 0,1 mol-ion/litr eritmasiga, ikkinchisi esa 0,001 mol-ion/litr eritmasiga tushirilgan. Shu konsentrasiyasi galvanik elementning E.Y.K. toping

**Yechish:** Nernst formulasidan foydalanib, har xil konsentrasiyalı ikkita eritmaning har biriga to`gri keladigan kumushning elektrod kuchlanishni hisoblaymiz: 0,1 mol-ion/litr eritma uchun

$$\varphi = +0,80 + 0,059 \cdot \lg 10^{-1} = +0,80 + (-0,059) = +0,742 \text{ B}$$

0,001 mol-ion/litr eritma uchun

$$\varphi = +0,80 + 0,059 \cdot \lg 10^{-3} = +0,80 + (-0,174) = +0,626 \text{ B} \quad +0,742 \text{ B} > +0,626 \text{ B}$$

bo`lgani uchun E.Y.K. = (+0,742) - (+0,626) = +0,116 B

### 16.3. Labaratoriya ishi Galvanik elementlar

**Ishning maqsadi:** Galvanik elementlar, ularning tuzilishi va xossalari bilan tanishish. Galvanik element sxemasini tuzish, elektrod potensiallar, Yakobi-Daniel galvanik elementini tuzish, prosesslarini aniqlash.

**1- tajriba.** Birinchi stakanga  $\frac{3}{4}$  hajmgacha 1M ruh sulfat eritmasidan quying va eritmaga ruh plastinkasini tushiring; ikkinchi stakanga ham shuncha hajm 1M mis sulfat eritmasidan quying va eritmaga mis plastinkasini tushiring. Eritmalarni elektrolit ko`prikcha bilan bog`lang va metall plastinkalarini sim bilan galvanometrga ulang. Elektr toki hosil bo`lishi natijasida galvanometr strelkasining og’ishini kuzating.

Galvanik elementning e.yu.k. ini hisoblang va elektronlarning tashqi zanjir bo`yicha yo’nalishini ko’rsating.

Tajriba natijalarini yozing. Tuzilgan galvanik element Zn/ZnSO<sub>4</sub>/CuSO<sub>4</sub>/Cu ektrolitlarida boradigan kimyoviy jarayonlarning tenglamalarini va tok hosil qiluvchi kimyoviy reaksiyaning umumiy tenglamasini yozing.

Quyidagi galvanik elementlarning tashqi zanjirida elektronlarning yo’nalishini ko’rsating:  
Ni/Ni;SO<sub>4</sub>//Fe SO<sub>4</sub>/ Fe;Zn/ ZnSO<sub>4</sub> /FeSO<sub>4</sub>/Fe.

### 16.4. Tarqatma material

- Mis plastinkasi 0,001 mol-ion/litr Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> eritmasiga tushirilgan. Misning elektrod kuchlanishni hisoblang ( javob: 0,788B ).

2. Kumush plastinkasi 0,01 mol-ion/litr  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga tushirilgan. Kumush ning elektrod kuchlaninshni hisoblang ( javob: 1,730B).
3. Birida katodi kadmiy, ikkinchisida esa anodi kadmiy bo`lgan ikkita galvanik elementning sxemalarini tuzing Elektrodlarda sodir bo`ladigan jarayonlarning electron tenglamalarini yozing
4.  $\text{NiSO}_4$  ning 0,2 mol-ion/litr eritmasiga tushirilgan nikel elektrod bilan  $\text{CuSO}_4$  ning 0,2 mol-ion/litr eritmasiga tushirilgan mis elektroddan tashkil topgan galvanik elementning E.Y.K. ni hisoblang(javob: 0,61B).
5. Quyidagi sxemalar bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K..ni hisoblang
  - a) (-)  $\text{Zn} / \text{Zn}^{2+}$  c= 0,01 mol/ ion-litr //  $\text{Ag}^+$  c=2 mol/ ion- litr /  $\text{Ag} (+)$
  - b) (-)  $\text{Zn} / \text{Zn}^{2+}$  c= 0,001 mol/ ion-litr //  $\text{Cu}^{2+}$  c=2 mol/ ion-litr /  $\text{Cu} (+)$   
( javob: a)1,65B; b)1,20B ).
6. Temir plastinkasi konsentrasiyasi 0,1 mol bo`lgan  $\text{FeCl}_2$  eritmasiga tushirilgan. Temirning elektrod kuchlaninshni toping
7. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang  $\text{Mg} / \text{MgCl}_2 // \text{NiCl}_2 / \text{Ni}$
8. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang  $\text{Mn} / \text{Mn SO}_4 // \text{FeSO}_4 / \text{Fe}$
9. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang  $\text{Fe} / \text{FeCl}_3 // \text{PbCl}_2 / \text{Pb}$
10. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang  $\text{Cr} / \text{CrCl}_3 // \text{SnCl}_2 / \text{Sn}$
11.  $\text{Co}(\text{NO}_3)_2$  ,  $\text{MgSO}_4$  ,  $\text{NaNO}_3$  ,  $\text{Na}_2\text{S}$  tuzlari eritmamalarining elektroliz shemalarini tuzing
12. Agar anod kumush bo`lsa,  $\text{AgNO}_3$  eritmasi elektroliz qilinganda qanday jarayon sodir bo`ladi? Agar anod grafit bo`lsachi?
13. Natriy xlorid suyuqlanmasininig elektroliz shemasi tuzing Anod va katodda jarayonlarni yozing
14. Natriy xlorid va mis(II) xlorid eritmalarining elektroliz shemalarini tuzing Anod va katoddagi jarayonlarni yozing
15. Rux sul`fat eritmasining elektroliz shemalarini tuzing Anod va katoddagi jarayonlarni yozing
16.  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$  mis nitrat eritmasining elektroliz shemalarini tuzing Anod va katoddagi jarayonlarni yozing
17.  $\text{NiJ}_2$  nikel yodid eritmasining elektroliz shemalarini tuzing Anod va katodda jarayonlarni yozing


### 16.5. Test sinov variant savollari

1. Qo`rgoshin sulfatning to`yingan eritmasiga qo`rgoshin elektrod tushirilganda vujudga keladigan elektrod kuchlaninshni aniqlang
  - A. -0,25 B
  - B. -0,45 B
  - C. -0,55 B
  - D. -0,65 B
  - E. -0,75 B
2. Konsentrasiyasi tegishli ravishda 1 va 0,001 mol-ion/litr bo`lgan  $\text{Mg} / \text{Mg}^{2+} // \text{Fe}^{2+} / \text{Fe}$  ko`rinishdagi galvanik elementning E.Y.K. ni aniqlang.
  - A. 1,85 B
  - B. 1,99 B
  - C. 2,02 B
  - D. 2,91 B
  - E. 3,55 B
3. Quyidagi keltirilgan galvanik elementlarning qaysi birida vodorod elektrod anod vazifasini o`taydi
  - A.  $\text{Fe} / \text{Fe}^{2+} // \text{H}^+ / \text{H}_2(\text{Pt})$
  - B.  $(\text{Pt}) \text{H}_2 / \text{H}^+ // \text{Ag}^+ / \text{Ag}$
  - C.  $(\text{Pt}) \text{H}_2 / \text{H}^+ // \text{Cd}^{2+} / \text{Cd}$
  - D.  $\text{Ni} / \text{Ni}^{2+} // \text{H}^+ / \text{H}_2(\text{Pt})$
  - E.  $\text{Mg} / \text{Mg}^{2+} // \text{H}^+ / \text{H}_2(\text{Pt})$
4. Magniy sulfatning to`yingan eritmasiga magniy elektrodi tushirilganda vujudga keladigan elektrod kuchlaninshni aniqlang
  - A. -2,36 B
  - B. 2,36 B
  - C. -1,23 B
  - D. 1,23 B
  - E. -0,75 B
- 5 . Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang



A. 0,8B. 1,92 C. 2,25 D. 3,1 E. 3,25

6. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang.




A. 0,25B. -1,66 C. 1,41 D. -2,5 E. -0,25

7. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang



A. 0,74B. -0,74 C. 1,5 D. -1,5 E. 0,25

8. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang




A. 0,35B. -0,35 C. 0,62 D. -0,62 E. 0,52

9. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang



A. -0,12BB. 0,12B C. 1, 2B D. -1, 2B E. 2,4B

10. Quyidagi sxema bilan ifodalangan galvanik elementning E.Y.K.ni hisoblang



A. 0,18BB. -0,79B C. 0, 61B D. -0,61B E. 0,45B

Tuzlarning elektrolizini tushuntiring.

Tuzlar suvli eritmalarining eriydigan va erimaydigan eritmalar yordamidagi elektrolizi.

Suyuqlanmalar elektrolizi.

Elektrodlardagi jarayonlar.

Elektrolizdagagi ikkilamchi jarayonlar.

Elektroliz-Faradey qonunlari.

Elektrolizdagi o'ta kuchlanish hodisasi.

Akkumulyatorlar, ularning turlari, kislotali va ishqoriy akkumulya-torlarning ishlash prinsipi, hamda ularning elektr yurituvchi kuchlari haqida ma'lumotlar bering.

## 17. ELEKTROLIZ. FARADEUY QONUNLARI. AKKUMULYATORLAR.

### Reja:

1. Elektrolit eritmalarini va suyuqlanmalari elektrolizi.
2. Elektroliz qonunlari.
3. Akkumulyatorlar.

**Tayanch so'zlar:** elektroliz, eritmalar, suyuqlanmalar, anod, katod, elektroliz, katod jarayonlari, anod jarayonlari, Faradey qonunlari.

**O'quv mashgúlotining maqsadi:** talabalarga elektroliz qonunlari va unda borayotgan jarayonlar haqida ma'lumot berish.

Elektroliz protsessining miqdoriy tomonini ingliz olimi Faradey tomonidan kashf qilgan.

### FARADEYNING BIRINCHI QONUNI

Elektroliz jarayonida elektrodlarda ajralib chiqayotgan moddalar miqdori elektroliddan o'tgan elektr miqdoriga to'g'ri proporsionaldir

$$m = K \bullet Qyoki = \frac{\mathcal{E} \cdot J \cdot Z}{96500k}$$

bu yerda, m - modda miqdori, K - proporsionallik koeffitsienti, moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti ham deyiladi, Q – elektrolitdan o'tgan elektr miqdori (kulonda). I – tok kuchi, Z – tokni o'tish vaqtisi.

K – elektrokimyoviy ekvivalent – elektrolitdan bir sekund davomida bir amper tok kuchi yoki bir kulon elektr toki o'tgandaajralib chiqqan modda miqdori.

### FARADEYNING IKKINCHI QONUNI

Har xil kimyoviy birikmalardan bir xil miqdorda elektr toki o'tganda, elektrodlarda ekvivalent miqdori moddaajralib chiqadi.

Bir gramm – ekvivalent istalgan moddaajralib chiqishi uchun elektrolitdan 96500 kulon elektr o'tkazish kerak. Bu konstanta Faradey soni deyiladi. Faradey qonunining matematik ifodasi:

$$m = \frac{\varrho \cdot a}{96500},$$

bunda; m – qaytarilgan yoki oksidlangan moddaning miqdori: e – moddaning gramm – ekvivalenti, Q – elektr miqdori, kulon.

Kuchi 1A bo'lgan tok sekundiga 1 kulon elektr o'tishiga muvofiq kelishi ma'lum bo'lsa, quyidagicha yozish mumkin.

$$m = \frac{\varrho \cdot I \cdot T}{96500},$$

bu yerda I – tok kuchi, T – tok o'tish vaqt, sek.

Faradey qonunlarini bilgan holda quyidagilarni hisoblash mumkin:

1. Elektr miqdoriga qarab ajralib chiqargan modda miqdorini;
2. Ajralib chiqan modda miqdoriga va tokni elektrolitdan o'tish vaqtiga qarab tokning kuchini;
3. Berilgan tok kuchida qancha vaqtda ma'lum miqdor moddaajralishin.

1 - misol Mis sulfat  $\text{CuSO}_4$  eritmasidan 20 minut davomida kuchi 5 amper tok o'tkazilganda katodda qancha mis ajralib chiqadi?

Yechish. Eritmadan o'tgan tok miqdorini aniqlaymiz.

$$Q = I T$$

Bu yerda, I – tok kuchi, amper; T – vaqt, sek. da.

Masalaninng shartiga ko'ra  $I = 5\text{ A}$ ,  $T = 20\text{ min}$  yoki  $1200\text{ sek}$ .

Bu yerdan  $Q = I T = 5 \cdot 1200 = 6000$  kulon.

Misning ekvivalenti ( $A_{\text{si}}=63, 54$ )  $63, 54 : 2 = 31, 77$  ga teng.

Izlanayotgan misning miqdori:

$$m = \frac{31,77 \cdot 6000}{96500} = 1,975 \text{ g.}$$

2 - misol. Normal sharoitda 5, 6 l vodorod olish uchun kuchi 10 A bo'lgan elektr tokni kislota eritmasidan qancha vaqt o'tkazish kerak?

Yechish: 5, 6 l vodorod olish uchun kislotadan o'tgan elektr miqdorini aniqlaymiz. Normal sharoitda 1 gramm – ekvivalent vodorod 11, 2 l hajm egallagan uchun

$$Q = \frac{96500 \cdot 5,6}{11,2} = 48250 \text{ kulon}.$$

Tokning eritmadan o'tish vaqtini aniqlaymiz:

$$T = \frac{48250}{10} = 4825 \text{ sek yoki } 1 \text{ soat } 20 \text{ min } 25 \text{ sek.}$$

3 - misol. Kumush tuzi eritmasidan 10 minut davomida elektr toki o'tkazilganda 1 g kumush ajralib chiqqan bo'lsa, tokning kuchi qanday?

Yechish: kumushning gramm – ekvivalenti  $E_{\text{Ag}} = 107, 9 \text{ g. teng}$ . Bir gramm kumush ajralib chiqishi uchun eritmadan

$96500 : 107, 9 = 894$  kulon tok o'tishi kerak.

$$\text{Bu yerdan tok kuchi } I = \frac{894}{10,60} = 1,5a$$

## AKKUMULATORLAR


Elektrolizda elektrodlardagi jarayonilar, galvanik elementlarda boradigan jarayonilarga qarama-qarshidir. Bu esa tashqi elektr energiyani o'zida kimyoviy energiyaga aylantirib to'playdigan va kerakli vaqtda yana elektr energiyasiga aylantirib beradigan elektrokimyoviy

sistemani tuzishga imkon beradi. Bunday engil qaytar gal`vaniq sistemalar akkumulyatorlar deyiladi. Shunday qilib, akkumulyatorlar – ikkilamchi elektr energiyasining manbaidir.

Har qanday qaytar galvanik sistemaakkumulator sifatida ishlatalishi mumkin. Lekin, bunday sistemalarning hammasi kerakli natijani bermaydi. Amaldaakkumulyator sifatida ishlataladigan galvanik sistemalar bir-biridan elektrodlarning va elektrolit eritmaning tabiatlari bilan farq qiladi. Amalda eng ko'p kislotali (qo'rg'oshinli) va ishqoriy (temir-nikelli, kadmuy-nikelli) akkumulyatorlar keng qo'llaniladi.

### **Kislotali (qo'rg'oshinli) akkumulyatorlarning ishlash sxemasi**

Kislotali akkumulyatorlar panjara shaklidagi qo'rg'oshin plastinkadan iborat bo'lib, panjaraning oralari qo'rg'oshin oksidi PbO ning suvda qorilgan pastasi bilan to'ldiriladi. Plastinkalar – sulfat kislotaning  $H_2SO_4$  25-30% li eritmasiga (akkumulyatorning ishlash sharoitiga qarab kislotaning konsentratsiyasi o'zgarishi mumkin) tushiriladi. Bir oz vaqt o'tgandan keyin qo'rg'oshin oksid sulfat kislotada erib, plastinka yuzasida qo'rg'oshin sulfat tuzini hosil qiladi.



Qo'rg'oshin sulfat tuzi sulfat kislotada erimagan uchun elektrod yuzasida qoladi, shuning uchun elektrolit sifatida sulfat kislota xizmat qiladi.

Akkumulyatorni zaryadlash uchun, ya`ni kimyoviy energiyani to`plash uchun qo'rg'oshin plastinkaning bir uchini o`zgarmas elektr manbaining musbat qutbiga, ikkinchi uchinchi manfiy qutbiga ulab, sistemadan tok o'tkazamiz akkumulyatorning manfiy qutbida (katodda) qo'rg'oshin qaytariladi:



Anodda qo'rg'oshin oksidlanib, to`rt valentli holatga o`tadi.




Bu ikki reaksiya tenglamasining yig`indisi quyidagi ko`rinishga ega:




akkumulyator zaryadlanganda sulfat kislota hosil bo`lib, suv reaksiyasiga kirishadi. Demak, eritmada sulfat kislota konsentratsiyasi ortadi. Akkumulyatorning zaryadlanish jarayoni suv elektroliz bo`lguncha, ya`ni katodda vodorod, anodda esa kislorod ajrala boshlaguncha (bu hodisa «akkumulyatorning qaynashi» deyiladi) davom ettiriladi.

Shunday qilib akkumulyator zaryadlanganda bir elektrondaoksidlovchi xossaga ega bo`lgan qo'rg'oshin (IV) oksidi  $PbO_2$  va ikkinchi elektrodda  $PbO_2$  ga nisbatan qaytaruvchi xossaga ega bo`lgan qo'rg'oshin Pb hosil bo`ladi. Bu ikki moddaning valentlik holatlari o`rtasida farq bo`lgani uchun ular orasida potensiallar ayirmasi hosil bo`ladi. Shuning uchun anodda hosil bo`lgan oksidlovchi  $PbO_2$  katodda hosil bo`lgan toza g`ovak qo'rg'oshin bilan birga galvanik juft hosil qiladi.



Zaryadlangan akkumulyator plastinkalarini o`zaro tutashtirsak, qo'rg'oshin bilan qoplangan plastinkadan, qo'rg'oshin (IV) oksidi bilan qoplangan plastinkaga elektronlar oqa boshlaydi ya`ni elektr toki hosil bo`ladi. Akkumulyator zaryadsizlanganda galvanik element vazifasini o`taydi va uning elektrodlarida quyidagi jarayonilar boradi :




Akkumulyator zaryadsizlanganda boradigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini umuman quyidagicha yozish mumkin:  $Pb + PbO_2 + 4H^+ + 2SO_4^{2-} = 2PbSO_4 + 2H_2O$

Akkumulator zaryadsizlanganda suv hosil bo`lib, vodorod  $N^+$  va  $SO_4^{2-}$  ionlari sarf bo`ladi, natijada sulfat kislota konsentratsiyasi eritmada kamayadi. Kislota konsentratsiyasining o`zgarishi akkumulyatorning zaryadlanish darajasini ko`rsatadi.

Akkumulyatorning zaryadlanish va zaryadsizlanish jarayonlarini solishtirsak, bu ikki jarayon qarama-qarshi ekanligini ko`rish mumkin. Shuning uchun ikkala jarayonni quyidagi bir tenglama bilan ifodalash mumkin:

zaryadlanish



Qo`rg`oshinli akkumulatorni E Yu K biroz katta.

Qo`rg`oshinli akkumulyatorlar ko`p afzalliklarga ega. Bu akkumulyatorlar anchaog`ir va yetarli darajada pishiq emas. Shu sababli, qo`rg`oshinli akkumulyator, asosan, statsionar holatlarda ishlataladi.

### Nazorat savollari

1. Qanday jarayonga elektroliz deb ataladi ?
2. Eriydigan anod elektrodlar.
3. Elektrolizdagi ikkilamchi jarayonlar.
4. Elektrolizda polyarizatsiya hodisasi.
5. Elektroliz qonunlari.
6. Kislotali akkumulyator va uning ishlash prinsipi.
7. Katod elektroddagi jarayon va uni tuzish tabiatiga bog`liqligi.
8. Anod elektroddagi jarayon va uning anion tabiatiga bog`liqligi.
9. Elektrolizda ikkilamchi jarayon.
10. Suyuqlanmalar elekt qobig`i.

## 17.2. Amaliy mashgulot

**1-masala.** CuSO<sub>4</sub> eritmasidan 1 soat davomida 4 amper kuchga ega bo`lgan tok o`tkazilsa, katoda necha gramm mis ajralib chiqadi.


**Yechish:** CuSO<sub>4</sub> da misning ekvivalent molyar massasi  $\frac{63,54}{2} = 31,77\text{g}$

teng Elektroliz qonuni tenglamasiga tegishli qiymatlari ; J= 4A; t=60·60=3600 sek.ni quyib, ajralib chiqqan mis miqdorini topamiz:


$$m = \frac{\varTheta \cdot J \cdot t}{96500} = \frac{31,77 \cdot 4 \cdot 3600}{96500} = 4,77$$

**2-masala.** AgNO<sub>3</sub> eritmasi erimaydigan anod yordamida 4 amper tok kuchi ta`sirida 25 daqika davomida elektroliz qilinganda katoda 4,8g kumush ajralib chiqdi. Kumushning tok bo`yicha unumdarligini va elektrokimyoviy ekvivalentini hisoblang

**Yechish:** AgNO<sub>3</sub>ning suvli eritmasi erimaydigan anod (masalan platina, grafit) ishtirokida elektroliz qilinganda elektrodlarda quyidagi jarayon sodir bo`ladi:



AgNO<sub>3</sub> eritmasining elektroliz tenglamalasini umumiyl ko`rinishida quyidagicha yozish mumkin:



Q=J·t ekanligini bilgan holda

m=K·J·t ni keltirib chiqaramiz.

Faradey soni 96500 kulon (yoki 26,8 amper) elektr miqdori eritmadan o`tkazilganda elektrodlarda ekvivalent molyar massa miqdorda modda ajraladi

$$m = \frac{\varTheta \cdot J \cdot t}{96500} \text{ elektrokimyoviy ekvivalent } K = \frac{E}{F} \text{ yoki } K = \frac{E}{96500}$$

Bu tenglamani yana boshqacha ko`rinishda  $K = \frac{E}{26,8}$  deb yozish mumkin

Kumushning ekvivalent molyar massasi 107,87gga teng, u holda

$$K = \frac{107,87}{96500} = 0,00112 \text{ g/kulon} \text{ yoki } K = \frac{107,87}{26,8} = 4,02 \text{ g/A soat}$$

Ko`pchilik hollarda elektroliz vaqtida elektrodlarda ajralgan modda massasi(m<sub>fakt</sub>)

Faradeyqonuni bo`icha nazariy yo`l bilan hisoblab topilgan modda massasi (m<sub>naz</sub>)dan kam

bo`ladi. Shuning uchun elektrodlarda ajralgan haqiqiy modda massasini aniqlash uchun tok bo`yicha umumidorlik hisoblanadi:



$$Y_t = \frac{m_{fakt}}{m_{naz}} \cdot 100\%$$

Yuqoridagi jarayon uchun  $m_{naz} = K \cdot J \cdot t = 0,00112 \cdot 3 \cdot 25 \cdot 60 = 5,04 \text{ g}$

$$Y_t = \frac{4,8}{5,04} \cdot 100\% = 95,24\%$$

**3-masala.** Natriy gidroksid suyuqlanmasi 2500 amper tok kuchi ta`sirida elektroliz qilinib 1 kg natriy metall olish uchun kerak bo`lgan vaqtini va elektroliz vaqtida ajralgan kislorod hajmini aniqlang Bunda tok bo`yicha unumidorlikni 35% deb oling

**Yechish:** NaOHning elektrolizi  $300^{\circ}\text{C}$  va 400 amper tok kuchi ta`sirida olib boriladi. Bunday haroratda  $\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlariga dissotsiatsiyalanadi. Suykylanmasidan tok o`tkazilganda elektrodlarda qyidagi jarayon sodir bo`ladi:



1 kg metallni olish uchun kerak bo`lgan vaqtini topamiz:  $t = \frac{m \cdot F}{M \cdot J}$   $M_{\text{Na}} = 23 \text{ g/mol}$

1 kg natriy metallni olish uchun sarflanadigan vaqt tok bo`yicha unumidorlikni hisobga olgan holda :

$$t = \frac{m \cdot F}{M \cdot J} = \frac{1000 \cdot 96500}{0,35 \cdot 23 \cdot 2500} = 4795 \text{ sek yoki } t = 1 \text{ soat} 20 \text{ min}$$

Kislorodning ekvivalent massasining n.sh.da egallagan hajmi 5,6litr ekanligini bilgan holda, anodda ajralgan kilorod hajmini aniqlaymiz:

$$V_{\text{O}_2} = \frac{M \cdot J \cdot t \cdot Y_t}{F} = \frac{5,6 \cdot 2500 \cdot 4795 \cdot 0,35}{96500} = 243,5 \text{ l.}$$

### 17.3. Labaratoriya ishi Suvli eritmalar elektrolizi

**Ishning maqsadi:** Doimiy elektr toki ta`sirida inert va eriydigan anod yordamida elektrolit eritmalarining elektrolizini tuzish. Katod va anod elektrodlaridagi prosesslarni aniqlash. Elektrod potensial qiymatlariga binoan jarayonlarni aniqlash.

#### 1- tajriba. Ikki valentli qalay xloridining elektrolizi

Elektrolizyorni (U simon trubkani) qalay xloridi eritmasi bilan to`ldiring. Elektrolizyorning ikkala tirsagiga grafit elektrodlar tushiring va ularni mis sim bilan tok manbaiga ulang. Katodda qalay kristallarining hosil bo`lishini kuzating. Katod jarayonining tenglamasini yozing. 2-3 minut davomida tok o`tkazgandan so`ng, anodni chiqarib oling, anod sathiga 3-4 tomchidan kaliy yodid va kraxmal eritmalaridan tomizing va ko`k rang bo`lishini kuzating. Kraxmal  $\text{I}_2$  molekulalari bilan ko`k rangli kompleks hosil qilishini hisobga olib, anod jarayonining tenglamasini yozing va eritma rangining o`zgarishini tushuntiring.

#### 2 - tajriba. Qalay yodidning elektrolizi

Probirkaning  $\frac{3}{4}$  hajmigacha qalay yodid eritmasidan qo`yib, unga 5-6 tomchidan fenolftalein va kraxmal eritmasidan tomizing. Eritmani aralashtirib, so`ngra elektrolizyorga quying. Grafit elektronlarni tushirib, ularni tok manbaiga yoki to`g`rilagichga ulang.

Tajriba natijalarini yozing. Katod va anod atrofida eritmalar rangining o'zgarishini kuzating, katod va anod jarayonlarining tenglamasini keltiring. Katod va anod eritma rangining o'zgarishini tushuntiring.

### 3 - tajriba. Natriy sulfatning elektrolizi

Probirkada natriy sulfat eritmasini laksmus bilan aralashtiring va hosil bo'lgan eritmani elektrolizyorga quying. Eritma orqali elektr toki o'tkazing va elektrodlar atrofida eritma rangining o'zgarishini kuzating.

Tajriba natijalarini yozing. Anod va katod jarayonlari tenglamalarini keltiring. Katod va anodda qanday modda hosil bo'ladi? Nima sababdan elektrodlar atrofida eritma rangi o'zgaradi?

### 4- tajriba. Grafit va mis elektrodlar ishtirokida mis sulfatning elektrolizi

Elektrolizyorga mis sulfati eritmasidan quying, unga grafit elektrodlar tushiring va eritma orqali elektr toki o'tkazing. Bir necha minutdan so'ng katodda qizil rangli mis hosil bo'lganini kuzating. Katod va anod jarayonlarining tenglamasini yozing. To'g'rilaqich ulangan simlarning o'rnini almashtirib ulang: mis bilan qoplangan elektrod endi anodga ulanadi. Tok o'tkazing va misning anoddan katodga o'tishini kuzating. Katod va anod jarayonlarining tenglamalarini keltiring.

#### 17.4. Tarqatma material

- Agar anod kumush bo`lsa,  $\text{AgNO}_3$  eritmasi elektroliz qilinganda qanday jarayon sodir bo'ladi? Agar anod grafit bo`lsachi?
- $\text{AgNO}_3$  eritmasidan 6 amper tok 30 daqiqa davomida o'tkazilganda, qancha kumush ajralib chiqadi. ( javob: 12g ).
- NaCl eritmasidan tok o'tkazib 20g NaOH olish uchun kuchi 2,5 amper bo'lgan tokni qancha vaqt davomida o'tkazish kerak? ( javob: 5 soat 42 daqiqa 20 sek.).
- Elektroliz vaqtida 40 daqiqa davomida 2 amper tok kuchi ta'sirida katodda 4, 542 g metall ajralib chiqdi. Shu metallning elektrokimiyoviy ekvivalentini hisoblang ( javob: 3,39g ).
- Toza rux metalli HCl bilan deyarli reaksiyaga kirishmaydi. Agar kislotaga  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  qo'shilsa, reaksiya juda shiddatli bo`radi. Buning sababini izohlang
- $\text{CuSO}_4$  eritmasiga alyminiyl tushirilsa reaksiya sekin boradi. Agar unga osh tuzi qo'shilsa, reaksiya tezlashadi. Buning sababini tushuntiring
- Rux va temir plastinkalarning har biri mis kuporosi eritmasiga alohida-alohida botirib qo'yilsa qanday jarayonlar sodir bo'ladi? Eritmadagi plastinkalarning uchi sin bilan tutashtirilsa qanday jarayonlar sodir bo'ladi? Elektron tenglamalarini tuzing?
- Nima uchun texnik temirga qaraganda kimyoviy toza temir korroziyaga birmuncha chidamli bo'ladi? Texnik temirning dengiz suvida korroziyalanish jarayonining elektron tenglamalarini tuzing
- Temir metallini natriy sul'fat va mis sul'fat eritmalariga tushirildi. Qaysi eritma bilan reaksiya sodir bo'ladi? Reaksiya tenglamalarini yozing
- Temir ustiga qoplangan nikel biroz ko'chgan. Shu joyga suv tomizilsa qanday jarayon boradi? Metallning qaysi biri katod vazifasini bajaradi? Sodir bo'ladigan jarayonlarni yozing
- Nikel metalli rux sul'fat va qo'rgoshin sul'fat eritmasiga tushirilgan. Qaysi eritma bilan kimyoviy jarayon ketadi. Reaksiya tenglamalasini yozing
- Qalay metalli uchun quyidagi metallarning qaysi biri katod vazifasini bajaradi
  - Ca
  - Zn
  - Fe
  - Cu

#### 17.5. Test sinov variant savollari

- Qyidagi keltirilgan tuz eritmalarining elektrolizida qaysi bir holatda vodorod ajralib chiqdi  
A.  $\text{CuCl}_2$  B.  $\text{CuSO}_4$  C.  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$  D.  $\text{AlCl}_3$  E.  $\text{AgCl}$

2. Kaliy sul`fat eritmasi orqali 96500 kulon elektr tok o`tkazilganda anodda n.sh. o`lchangan qancha hajm kislorod ajralishligini aniqlang.
- A. 5,6 litr      B. 11,2 litr      C. 22,4 litr      D. 33,6 litr      E. 44,8 litr
3. KCL eritmasi elektroliz qilinganda qanday moddalar elektrodlarda hosil bo`ladi?
- A. K va Cl<sub>2</sub>B. H<sub>2</sub> va Cl<sub>2</sub>      C. K va H<sub>2</sub>D. KOH va H<sub>2</sub> E. H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>
4. NaClning suvli eritmasi elektroliz qilinib, 8,0 g. natriy gidroksid hosil qilish uchun qancha miqdor (F=96500) elektr tok sarflanishi kerakligini aniqlang
- A. 0,1F      B. 1F      C. 2F      D. 0,4F      E. 0,6F
- 5 . 44,8 litr (n.sh) xlor olish uchun qancha miqdordagi natriy xloridni elektroliz qilish kerak
- A. 117 gB. 234 g.      C. 2 mol      D. 1 mol      E. 3 mol
6. Magniy xlorid MgCl<sub>2</sub> eritmasi elektroliz qilinganda, katodda nima ajraladi?
- A. Mg      B. H<sub>2</sub>      C. Cl<sub>2</sub>      D. O<sub>2</sub>      E. Mg(OH)<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>
7. Bariy sul`fat eritmasi elektroliz qilinganda, elektrodlarda qanday moddalar hosil bo`ladi?
- A. H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>B. Ba va O<sub>2</sub>      C. H<sub>2</sub> va SO<sub>2</sub>      D. Ba va SO<sub>2</sub> E. SO<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>
8. Temir nitrat Fe(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> eritmasi elektroliz qilinganda, elektrodlarda ajraladigan moddalarni ko`rsating
- A. H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>B. Fe va NO<sub>2</sub>      C. H<sub>2</sub> va NO<sub>2</sub>      D. Fe va O<sub>2</sub> E. NO<sub>2</sub> va O<sub>2</sub>
- 9.Kaliy yodid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda, anodda qanday modda ajraladi?
- A. K      B. H<sub>2</sub>      C. J<sub>2</sub>      D. O<sub>2</sub>      E. KOH
- 10.Mis sul`fat eritmasi elektroliz qilinganda, elektrodlarda qanday moddalar ajralib chiqadi?
- A. H<sub>2</sub> va Cu      B. H<sub>2</sub> va O<sub>2</sub> C. Cu va O<sub>2</sub>      D. SO<sub>2</sub> va O<sub>2</sub> . SO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>

## 18. KIMYOVIY KORROZIYASI VA UNING TURLARI

**Reja:**

- Metallar karroziyasi va ularning turlari.
- Metallarni korroziyadan himoyalash usullari.

**Tayanch so'zlar:** korroziya, elektrokimyoviy korroziya, kamyoviy korroziya, Metallarni korroziyadan himoyalash usullari.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** talabalarga metallar korroziyasi va undan saqlanish usullari haqida ma'lumot berish.

### KIMYOVIY KORROZIYA

Metall atrofidagi muhit bilan kamyoviy reaksiyaga kirishib, elektr toki hosil qilmay oksidlanishiga kamyoviy korroziya deyiladi.

Metallarning kamyoviy yemirilishiga olib keladigan muhit agressiv muhit deyiladi. Agressiv muhitga: havo yonishi natijasida hosil bo`lgan gazlar, tarkibida oltingugurt bo`lgan benzin va boshqalar misol bo`la oladi.

Kamyoviy korroziya o`z navbatida gazli va suyuqli korroziyaga ajraladi:

a) Gazli kamyoviy korroziyada gazlar havo kislorodi ko`mirning yonish mahsulotlari bilan oksidlanadi. Korroziya jarayoni uy yoki yuqori haroratda borishi mumkin. Gazli muhitda past harorati borishi mumkin. Gazli muhitda past haroratda korroziya metall yuzasiga yutilishi – xemosorbsiya yotadi. Bunda ko`p metallarda juda ingichka metall pardasi hosil bo`ladi va bu plyonka metallni keyingi oksidlanishidan saqlaydi.

Nikel, xrom, mis va shunga o`xshash metallarda juda ingichka bo`lib metallni tashqi ko`rinishini o`zgartirmaydi. Bunday pardalarning qalinligi tahminan 10 – 15 A° bo`ladi. Pardalar qalinligi 50 – 100 va undan ortiq angestrem bo`lganda metallning tashqi ko`rinishi o`zgaradi, ya`ni metall o`ziga xos yaltiroqlikni yo`qotadi. Magniy, alyuminiy, qo`rg`oshinlarda hosil bo`lgan oksid pardanining qalinligi 200 – 400 A° ga boradi, shuning uchun bu metall ular oksidlarining rangini egallaydi. Oksid pardanining qalinligi harorat ko`tarilishi bilan ortadi.

Oksid pardalarini himoya qilish xossasi metall va pardanining tuzilishiga bog`liq. Masalan, suvsiz temir (3) oksidi Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> temirning o`ziga o`xshash kub tuzilishiga ega. Shuning uchun u temirni keyingi korroziyadan saqlay oladi, lekin nam havoda hosil bo`lgan zang temir oksidining

gidratidan  $\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$  iboratdir, va rombik tuzilishga ega. Temir zangining kristall panjaralarida mana bunday farq temirni keyingi emirilishida saqlay olmaydi.

Atmosfera sharoitida korroziya jarayonining davom yetishi hosil bo'lgan oksid mahsulotlarining xossaliga bogliq bo'ladi. Masalan ruh o'zining kuchlanishi qatorida joylanishiga qarab temirga nisbatan ancha aktiv, shuning uchun ham u havoda temirga nisbatan yengil oksidlanishi kerak. Haqiqatan ham shunday bo'ladi, lekin amalda temirni zanglashdan saqlash uchun ruh bilan qoplaydilar. Chunki ruhlangan temir atmosfera sharoitida korroziyaga chidamli. Bu esa ruh oksidining  $\text{ZnO}$  metall yuzasini tashqi muhitdan germetik qoplash bilan tushuntiriladi.

Zich himoya oksid pardani temirdan ham past jarayonida hosil qilish mumkin. Buning uchun temirga kuchli oksidlovchilar (masalan nitrat kislotasi) ta'sir ettiriladi. Natijada temir passivlashadi. Passivlangan temir suyultirilgan azot kislotasi bilan reaksiyaga kirishmaydi. Xuddi shunday Al, Cr, Ti, zanglamaydigan po'latni passivlash mumkin. Kimyoviy suyuqlik ishtirokidagi korroziya – tok o'tkazmaydigan suyuq muhitdagi metall korroziyasi. Neft, benzin, kerosin, moylovchi yog'lar ishtirokida kimyoviy korroziya kuchayadi.

### **Elektrokimyoviy korroziya**

Suv, nam, suvli eritmalar ishtirokida sistemada elektr toki hosil bo'lib boradigan korroziyadir.

Elektrokimyoviy korroziya ikki xil bo'ladi:

- a) galvanokorroziya;
- b) elektrokorroziya.


Galvanokorroziya o'z – o'zidan galvanik zanjir hosil bo'lib boradigan korroziya.

Elektrokorroziya tashqi elektr manbai ta'sirida boradigan korroziya.


Tabiiy sharoitda metallarning texnik vazifalarida ishlatalishda galvanokorroziya ko'p uchrab turadi.

Elektrokimyoviy korroziya nazariyasi rus olimlarining bir qancha ishlari asosida yuksaldi. 20 asr boshlarida V.A.Kistyakovskiy (1865-1953) metallar passivligini parda (plenka) nazariyasi, 1913 yilda akademik L.V.Piserjevskiy elektrodlar potensialining gidrat nazariyasini yaratdi va o'sha yili N.A.Izgarishev (1884-1956) elektrolit eritmalaridagi metallar yuzasida elektrokimyoviy jarayonlar borishini ko'rsatadi.

N.A.Izgarishev tajribasiga asosan metallarning kislotalarda erish jarayoni umuman boshqa ko'rinishiga ega. Agar sulfat kislotali idishga toza ruh tashlasak, vodorod ajralib chiqishi sezilmay, xuddi reaksiya bormaganday bo'ladi. Reaksiya davom etmasligining sababi shundaki eritmaga o'ta boshlagan ruh ionlari  $\text{Zn}^{2+}$  gidratlanadi va ruh parchasini musbat zaryadlangan ionlar qavati qurshab oladi, ya'ni qo'sh elektr qavati hosil bo'ladi. Bu qavat vodorod ionlarining ruh yuzasining juda yaqin kelishiga va undan elektronlar olishiga imkon bermaydi, buning natijasida ruh erimay qo'yadi.



Agar ruh yuzasiga qandaydir kam aktiv metallni, masalan, mis sim yoki grafit sterjin tekkizsak, u vaqtida metallar tegishgan joyda vodorod shiddatli ajralib chiqayotganligini kuzatish mumkin. Elektronlar ruhdan misga va undan vodorod ioniga o'tadi, ruh esa eritmaga yangidan-yangi ionlar yuborib oksidlanadi, eriydi. Bu reaksiyani quyidagicha yozish mumkin



Demak quyidagi sxema bilan ishlaydigan galvanik element hosil bo'ladi.

Sulfat kislota eritmasida ruhning erishi:

- a) – toza ruh:    b) – mislangan ruh.


Bu ko'rib chiqilgan elektrokimyoviy korroziya – metallning anod oksidlanishiga misoldir. Xuddi shu prinsipda temir po'latning korroziya jarayoni boradi. Agar temirning tarkibida uglerod qo'shimcha bo'lsa, temir anod oksidlanib, uglerod esa katod astar vazifasini o'tadi.

Korroziyalanayotgan temir yuzasidagi mikrogalvanik elementlarning ishslash prinsipi ham xuddi shunday, tabiiy sharoitda metall yuzasida yutilgan – adsorbsiyalangan suv natijasida hosil




bo`lgan «namlarda» elektrolit vazifasini o`taydi va bu elektrolitda atmosfera gazlari O<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub> va boshqalar eriydi. Uglerod (4) oksidining CO<sub>2</sub> erishi H<sup>+</sup> ionlar konsentratsiyasining ortishiga olib keladi.




Korroziyanishda ikkilamchi mahsulot sifatida Fe(OH)<sub>2</sub> – cho`kmasi hosil bo`ladi va u havo kislorodi bilan oksidlanib, zangni hosil qiladi.




Elektrodlarda quyidagi jarayonlar bo`ladi:



Temir (2) gidroksidi hosil bo`lishida temir yuzasida oq dog` «oq zang» hosil bo`ladi, so`ngra u oksidlanib:



Fe(OH)<sub>3</sub> so`ng`ir gidroksiddir, so`ngra u qisman degidratatsiyalanadi:



Korroziyanish asosida esa mikrogalvanik elementlar yotadi.

Mikrogalvanokorroziya – bunday korrozion elementda elektrodlar bir-biridan farq qilib qurollanmagan ko`z bilan ko`zatish mumkin bo`ladi. Masalan, ruhlangan temirning korroziyanishidan ruh aktiv metall bo`lgani uchun u anodda oksidlanib ion holatga o`tadi: Zn – 2e = Zn<sup>2+</sup>.

Temir ruhga nisbatan kam aktiv metall bo`lgani uchun katod vazifasini bajaradi: Katodda 2HOH + 2e = ↑H<sub>2</sub> + 2OH<sup>-</sup>; ikkilamchi jarayon


Zn<sup>2+</sup> + 2OH<sup>-</sup> = Zn(OH)<sub>2</sub>. Korrozion galvanik juft Zn/Fe ishlashi natijasida ruh yemiriladi. Ruh elektronlari hisobiga temir korroziyanmaydi.

Temir – qalay Fe/Sn galvanik juftning ish jarayonini ko`rib chiqaylik. Bu holda temir qalayga nisbatan kimyoviy aktivroq metall bo`lgani uchun temir – anod, qalay katod vazifasini o`taydi.

Anoddagi reaksiya: Fe<sup>0</sup> + 2e = Fe<sup>2+</sup>

Katoddagi reaksiya: 2HOH + 2e = H<sub>2</sub> + 2OH<sup>-</sup>

Ikkilamchi jarayon: Fe<sup>2+</sup> + 2OH<sup>-</sup> = Fe(OH)<sub>2</sub> so`ngra temirni oksidlanish jarayoni:



Demak bunday galvanik juftning ishlashi natijasida temir oksidlanib (yemirilib), qalay o`zgarishsiz qoladi. Amalda bunday korroziyalar ruhlangan va qalaylangan temirning korroziyanishida uchraydi.

Korroziya metall yuzasida borgani uchun uning yuzasi butun qoplanguanda korroziya bormaydi. Agar qoplangan yuzada tiralish, darz hosil bo`lsa, korroziyaga sharoit yaratiladi. Temirni qalay bilan qoplashga katod qoplash, ruh bilan qoplashga anod qoplash (himoya qilish) deyiladi. Anodli qoplanishni protektorli himoya qilish ham deyiladi.

### KORROZIYA TEZLIGI

Korroziya tezligi (K) bir soatda bir kvadrat metr yuzadan yemirilgan grammalar soni bilan ifodalanadi. Masalan, temirning suvdagi korroziya tezligi K=0.05g/sm<sup>2</sup> soat bo`lsa va bir tekisda borsa, bir yil davomida

0.1 mm chuqurlikkacha boradi.

Korroziya tezligini elektrokimyoviy polyarizatsiya jarayoni chegaralaydi. Katodli va anodli konsentratsion polyarizatsiyatdan tashqari anodli polyarizatsiya, himoya parda hosil bo`lishi bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun korroziyaga qarshi kurashda depolyarizatorlar ishlataladi. Masalan, eritmada vodorod H<sup>+</sup> ionlar konsentratsiyasini oshirish metall yemirilishini tezlatadi,

gidroksid  $\text{ON}^-$  ionlar konsentratsiyasini oshirish esa Fe, Mg va shunga o`xhash metallarning korroziyasini sekinlashtiradi.

Oddiy galvanik elementlarda korroziyaga qarshi kurashda tok kuchini oshiradilar. Anod elektrodda metallning yemirilishi qancha sekin borsa, korroziya tezligi shuncha kichik bo`ladi.

**ANOD JARAYON.** Agar elektrod atrofida qiyin eriydigan modda hosil bo`lsa, u metallni korrozion muhitdan ajratuvchi himoya pardasi hosil bo`lishga olib keladi, masalan, ishqoriy muhitda temirning korroziyalanishida anodda qiyin eruvchi gidratlangan temir oksididan iborat bo`lgan himoya pardasi hosil bo`ladi. Bu esa korroziya jarayonini to`xtatadi.

Qo`rg`oshin esa suyultirilgan sulfat kislotada qiyin eriydigan parda hosil bo`lgani uchun juda oz korroziyalanadi.

**KATOD JARAYONI.** Katoddan elektronlarning olinishi qancha sekin bo`lsa, anoddagi metall yemirilishi shuncha sekin boradi. Katod elektrod yuzasida elektronlarning elektrolit ionlari bilan bog`lanishiga katod depolarizatsiya deyiladi.

**ATMOSFERA KORROZIYALANISHI** – atmosfera sharoitida metallarning atmosferada o`z - o`zidan oksidlanishi amalda eng ko`p tarqalgandir

Oksidlanish mexanizmi quyidagicha: metallni atmosferada nam havoni adsorbsiyalanishi natijasida ingichka suyuqlik parda (elektrolit) hosid bo`ladi. Toza va quruq havoda korroziya juda sekin boradi (suv – kuchsiz elektrolit). Atmosferada  $\text{O}_2$ , asosan  $\text{SO}_2$  bo`lishi korrozion jarayoni tezlatadi. Masalan, temir yo`lga yaqin joylashgan simlarga nisbatan kam xizmat qiladi. Hozirgi vaqtida po`lat – aluminiy simlar ko`p qo`llaniladi. Chunki ular tokni po`latga nisbatan yaxshi o`tkazadi va aluminiy simga nisbatan ancha mustahkam. Bunday simlar korroziyaga chidamli, chunki havodagi mayda kristall holdagi tuzlar ayniqsa  $\text{Cl}^-$  ionlari korrozion aktividir.

**YER OSTI KORROZIYASI.** Bu elektr toki ta`sirida elektrokimyoviy korroziya jarayonidir. Masalan, elektr temir yo`l yaqiniga joylashtirilgan yer osti truboprovodlarida “daydi toklar” hisobiga boradigan korroziyadir.

Relsni ulangan joylarida yaxshi kontakt bo`lmasligi relsning qarshiligini oshirishi va rels yaqinidagi nam yerning elektrni yaxshi o`tkazishi natijasida yer osti truboprovodga yaqin joylashgan rels uchastkasi katod (K), truboprovod uchastkasi esa anod (A) bo`ladi. Elektroliz jarayoni borib, truboprovod korroziyalanib anod vazifasini o`taydi. Yerda katoddan anodga, relsdan truboprovodga qarab anionlar (A) harakat qiladi. So`ngra elektr toki relsni qandaydir uchastkasiga qaytadi (truba orqali).

Endi truboprovodning biror qismi – katod ( $\text{K}_2$ ) rels yangi biror qismi anod ( $\text{A}_2$ ) vazifasini o`taydi va natijada rels korroziyalanadi. Tuproqdagi anionlar truboprovoddan relsga qarab harakat qiladi. Daydi toklar yo`nalishini sxemada punktir chiziq bilan ko`rsatilgan va anionlar yo`nalishiga teskaridir.

### KORROZIYADAN SAQLANISH METODLARI

Korroziyadan saqlanish usullaridan biri metallni korrozion muhitda izolatsiya qilish. Buning uchun metall yuzasi moylanadi, loklar, moylar hamda korroziyaga chidamli ruh va qalay bilan galvanostegiya usuli bilan qoplanadi – metallni metall bilan qoplashni ikki katod hamda anodli qoplashga ajratadilar.

Anodli qoplama temirni ruh bilan qoplash misol bo`la oladi. Bu misolda himoya qiluvchi metall ruh himoyalanuvchi temirdan aktivroq bo`lgani uchun qoplama yuzasi bo`lganda galvanik element hosil bo`ladi va bu elementda anod ruh yemiriladi, katod temir esa ruh to`liq yemirilib bo`limguncha yemirilmaydi.

Biror metall predmetni uning metalidan passivroq metall bilan qoplashga katod qoplama deyiladi. Bu holda qoplama yuzasi buzilganda himoyalanuvchi metall korroziyalanadi. Temir uchun mis, qalay, qo`rg`oshin, kumush bilan qoplash bunga misol bo`ladi.

### PROTEKTORLI HIMOYA

Protektorli himoya usulida metall buyumga uning metalidan aktivroq metallni sim bilan tutashtiradilar bunda galvanik juft hosil bo`ladi. Bu galvanik elementda protektor – anod,

himoyalanuvchi metall buyum – katod bo`ladi. Bunday usul bilan kemalarning dengiz suvida turadigan qismi, yer osti truboprovodlar himoya qilinadi.

### KIMYOVIY HIMOYA USULI

Korroziyaga chidamli metall birikmasi (plenka) hosil qilish uchun himoya qilinuvchi metall yuzasi kimyoviy ishlanadi. Bunday himoya plynka metall buyumlarni issiq holda temir va marganes digidrofosfat eritmalari bilan ishlanganda hosil bo`ladi va bunday metod fosfotizatsiya deyiladi. Amalda kimyoviy fosfatlash uchun temir va marganesning digidrofosfat eritmalari  $\text{Fe}((\text{OH})_2\text{PO}_4)$ ,  $\text{Mn}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$  preparat «Majef» ishlatiladi. Buyum majef tuzi bilan ishlanganda uning yuzasida fosfat va gidrofosfatlar ajraladi  $\text{FeHPO}_4$ ,  $\text{Fe}_3(\text{PO}_4)_2$ ,  $\text{MnHPO}_4$ ,  $\text{Mn}_3(\text{PO}_4)_2$ .

Polyak kimyogarlari 1974 y elektrotexnik buyumlar va kimyoviy apparatlar uchun haroratiga chidamli poliefir qoplama ishlab chiqdilar. Bunday qoplama  $150^{\circ}\text{C}$  haroratda 25 kv/mm gacha bo`lgan kuchlanishga chidamlidir. Bu qoplama quyidagicha olinadi: tereftalat kislotaning poliefiri kremniy (4) oksidi  $\text{SiO}_2$  bilan aralashtirib qizdiriladi. So`ngra sovitilib, metall yuzasida elektrostatik changlatilib qoplanadi.

### ELEKTROKIMIYA USULI

Elektrohimoyada himoyalanuvchi metall tashqi elektr toki manbaining manfiy qutbiga qo`shimcha elektrod esa musbat qutbiga ulanadi va elektrod anod polyarizatsiyalanadi. Yer osti korroziyada tashqi elektr toki manbaining musbat qutbi yerga ulanadi. Bunda kuchsiz tok ishlatib himoyalanayotgan metall korroziyasini to`xtatish mumkin.

Katodli himoya usuli yer osti qurilmalarini korroziyadan saqlashda ishlatiladi. Bu usul protektor himoya usulidan afzalliklarga ega. Agar protektorli himoyaning ta`sir etish radiusi taxminan 50 m ga teng bo`lsa, katodli himoyaning ta`sir etish radiusi 2900 m ga teng. Shuning uchun katta metall yuzlarini himoyalashda katod usuli qulaydir.

Elektrohimoya usulining protektor usulidan farqi shuki elektrolit muhitdagi himoyalanuvchi konstruksiya A tashqi elektr tok V manbaining katodiga ulanadi va bu muhitga tashqi o`zgarmas tok manbaining V anodiga ulangan eski metall (rels, balka) B tushiriladi.

### KORROZIYA INGIBITORLARI

Korrozion aktiv muhitda metall emirilishini sekinlashtiradigan moddalarga korroziya ingibitorlari deyiladi. Kislotali korroziya ingibitorlari metall yuzasida yaxshi adsorbsiyalanib, uning kimyoviy birikmasiga adsorbsiyalanmaydi. Ingichka adsorbsion parda metallni kislotali muhit ta`siridan saqlaydi. Metallning kimyoviy birikmasi himoyalanmay ingibitor bo`lgan kislotada eriydi.

Ingibitor sifatida asosan aminlar, mochevina  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ , tiromochevina -  $\text{SC}(\text{NH}_2)_2$ , sul`fitlar -  $\text{SO}_3^{2-}$ , aldegidlar - ominlar, xromatlar -  $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ , fosfatlar -  $\text{PO}_4^{3-}$ , silikatlar -  $\text{SiO}_3^{2-}$  va boshqalar ishlatiladi.

Ingibitorlar qora metallarni kuyindi, zanglardan himoyaviy tozalashda keng qo`llaniladi.

### Reproduktiv o`zlashtirishga doiz

Metallarning korroziysi deb nimaga aytildi?

- A) Gaz moddalar ta`siri ostida metallarning eskirish jarayoni metallarni korroziysi deyiladi.
- B) Metallning har qanday yemirilish jarayoni metallar korroziysi diyiladi.
- C) Metallardagi zangning kristall panjaralaridagi yemirilish jarayoni metallar korroziysi deyiladi.
- E) Atmosfera ta`siri ostida metallarning yemirilish jarayoniga metallarni korroziysi diyiladi.

### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Korroziya deb nimaga aytildi?
2. Korroziya turlari.
3. Temirning emirilishini va emirilish mahsulotining hosil bo`lish tenglamalarini yozing.
4. Elektrokimyoviy korroziya va katod – anod himoyasi.
5. Korroziyadan saqlanish.

Ingibitorlar.

**Korroziya o'ztabiatijihatidan** – kamyoviydir, oksidlanishjarayonidir, u 2 turga bo`linadi


Metallningharqanday emirilishi **korroziya** deyiladi.

**Kimyoviy korroziya** – metall atrofidagimuhit Bilankimyoviyeaksiyaga kirishib, elektrtoki hosil qilmay oksidlanishga aytiladi.




**Elektrokimyoviy korroziya** – elektrtokiishtirokida boradigankorroziyaga aytiladi

## 2-ilova


Po`latni elektrokimyoviy korroziyalanish sxemasi.



Elektrodlarda quyidagi prosesslar bo`ladi:




Temir (II) gidroksidi hosil bo`lishida temir yuzasida och dog` «och zang» hosil bo`ladi, so`ngra u oksidlanib:




## 3-ilova

**Qalaylangan (a) va ruxlangan (b) temirning korroziyalanish sxemasi.**




## 4-ilova

“Klaster” usulidan foydalangan xolda. Korroziya turlari va korroziyadan ximoya qilish usulari.



### 5-ilova «Metallarning korroziysi» mavzusi bo'yicha xulosa




1. Korroziya jarayoni, ularda boradigan oksidlanish reaksiyasi, turlari haqida ma'lumotga ega bo'lindi.
2. Kimyoviy va elekrokimyoviy korroziya turlarini misollar asosida tanishib chiqildi.
3. Korroziyadan saqlanish metodlari haqida tushunchaga ega bo'lindi.
4. Qalaylangan va ruxlangan temirning korroziyalanish misolida tushuntirildi.

#### 18.2-Amaliy mashgulot

**1-masala.** Mis bilan tutashtirilgan xrom kislotali muhit ( $\text{HCl}$ )ga to'shirilganda qaysi metall korroziyaga uchrab oksidlanishini aniqlang? Hosil bo'lgan galvanik elementning shemasini tuzing


**Yechish:** Metallarning kuchlanish qatoridan foydalanib, xrom ( $\mu^0\text{Cr}^{3+} / \text{Cr} = 0,744\text{B}$ )ning mis ( $\mu^0\text{Cu}^{2+} / \text{Cu} = +0,34\text{B}$ )dan aktiv ekanligini aniqlaymiz. Bunday galvanik juftda xrom-anod; mis esa katod vazifasini bajaradi. Bunday xrom oksidlanib eriydi, mis katodda esa vodorod ajraladi.

Bu galvanik elementning shemasi qyidagi qo'rinishga ega bo'ladi:



**2-masala.** Alyminiy uchun quyidagi keltirilgan metallardan qaysi biri katod qoplama vazifasini bajaradi      a) Mg      b) Ca      c) Fe      d) Na

**Yechish:** Katod qoplama – o`zidan passiv bo`lgan metall bilan qoplangan hisoblanadi. Mg, Ca, Na metallari alyminiyga nisbatan aktiv metallari bo`lib anod qoplama hisoblanadi. Fe metalli alyminiyga nisbatan kuchsiz, passiv metall hisoblanadi, katod qoplama vazifasini bajaradi.



### 18.3-Laboratoriya ishi Metallar korroziyasi

**Ishning maqsadi:** Metallarning atrof muhit ta'siriga va elektr toki ta'sirida karroziyaga uchrashi. Korroziya turlari: kimyoviy va elektrokimyoviy korroziya jarayonlari. Elektrod potensial qiymati, Nernst tenglamasi, korroziyadan saqlash usullarini aniqlash.

#### 1- tajriba. Ruxning sulfat kislota bilan mis ishtirokida va mis ishtirokisiz o'zaro ta'siri


Probirkaga 3-5 ml 2n. sulfat kislota eritmasidan quying va ustiga toza ruh bo'lakchasidan tashlang. Vodorod ajralib chiqadimi?

Toza mis simni probirkadagi ruh bo'lakchasiga tekkizing. Vodorod ajralishining intensivligi qanday o'zgaradi? Endi qaysi metallda vodorod ajralib chiqyapti? Mis simni ruh bo'lagidan ajrating va vodorod ajralishining intensivligini taqqoslang. Ruh-mis juftidagi qaysi metallning zaryadi manfiy? Shu metallardan qaysi biri vodorod ionlari uchun katod vazifasini bajaradi?

Tajribada kuzatilgan hodisalarni yozing va ularni tushuntiring. Hosil bo'ladigan galvanik elementning ishlash sxemasini izohlang.

#### 2- tajriba. Ruxlangan va qalaylangan temirning korroziyasi

Ikkita probirkaga yarim hajmgacha distillangan suv, 3 tomchidan 2n. sulfat kislota va qizil qon tuzi  $\text{K}_3[\text{Fe}/\text{CN}/_6]$  eritmalaridan tomizing. Qizil qon tuzi ikki valentli temir ionlari uchun reaktiv bo'lib, bu ionlar bilan intensiv ko'k rang hosil qiladi:



Ko'k rangli kompleks.

Eritmalarni shisha tayoqcha bilan aralashtiring. Ikkita skrepkani /qog'oz qiskichni/ qumqog'oz bilan tozalang, birinchisiga ruh bo'lakchasin, ikkinchisiga esa qalay bo'lagini mahkam qistiring va ularni probirkalardagi eritmalarga tushiring. Bir necha minutdan so'ng probirkalarning birida nima kuzatiladi? Eritmaning rangi o'zgarishini qanday tushuntirs bo'ladi? Nima uchun temir-ruh jufti tushirilgan probirkada rang o'zgarishi kechroq paydo bo'ladi? Ruhlangan va qalaylangan temir korroziyasi jarayonida elektronlar o'tishining sxemasini tuzing. Saqllovchi qavat shikastlanganda metallarning qaysi biri temirni korroziyadan muhofaza qiladi.

### 18.4. Tarqatma material

1. Toza rux metalli HCl bilan deyarli reaksiyaga kirishmaydi. Agar kislotaga  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  qo'shilsa, reaksiya juda shiddatli bo`radi. Buning sababini izohlang
2.  $\text{CuSO}_4$  eritmasiga alyminiy tushirilsa reaksiya sekin boradi. Agar unga osh tuzi qo'shilsa, reaksiya tezlashadi. Buning sababini tushuntiring
3. Rux va temir plastinkalarning har biri mis kuperosi eritmasiga alohida-alohida botirib qo'yilsa qanday jarayonlar sodir bo'ladi? Eritmadagi plastinkalarning uchi sin bilan tutashtirilsa qanday jarayonlar sodir bo'ladi? Elektron tenglamalarini tuzing?
4. Nima uchun texnik temirga qaraganda kimyoviy toza temir korroziyaga birmuncha chidamli bo'ladi? Texnik temirning dengiz suvida korroziyalanish jarayonining elektron tenglamalarini tuzing
5. Temir metallini natriy sul`fat va mis sul`fat eritmalariga tushirildi. Qaysi eritma bilan reaksiya sodir bo'ladi? Reaksiya tenglamalarini yozing
6. Temir ustiga qoplangan nikel biroz ko`chgan. Shu joyga suv tomizilsa qanday jarayon boradi? Metallning qaysi biri katod vazifasini bajaradi? Sodir bo'ladigan jarayonlarni yozing

7. Nikel metalli rux sul`fat va qo`rgoshin sul`fat eritmasiga tushirilgan. Qaysi eritma bilan kimyoviy jarayon ketadi. Reaksiya tenglamalasini yozing
8. Qalay metalli uchun quyidagi metallarning qaysi biri katod vazifasini bajaradi
  - a) Ca
  - b) Zn
  - c) Fe
  - d) Cu
  1. Metallarning korroziysi va ularning turlari haqida tushuncha bering.
  2. Kimyoviy va elektrokimyoviy korroziyalar haqida qanday ma'lumotga egasiz.
  3. Galvanokorroziya va elektrokorroziyalarning bir-biridan farqlarini izohlab bering.
  4. Korroziyadan himoyalanish usullarini batafsil misollar bilan tushuntirib bering.
  5. Korroziya ingibitorlari, bular qanday kimyoviy moddalar asosida tayyorlanadi va ularning samaradorligi haqida nimalarni bilasiz?

Metallning har qanday kimyoviy yemirilish jarayoni korroziya deyiladi? Korroziya o'z tabiatini jihatidan kimyoviy – oksidlanish jarayonidir.

Oksidlanish jarayonining mexanizmiga qarab korroziya bir qancha turlarga bo'linadi.

Metallar korroziyanishda muhit xarakteri katta rol o'ynaydi. Muhit xarakteriga qarab korroziyani ikkiga bo'lish mumkin:

a) Kimyoviy korroziya. Elektr toki o'tkazmaydigan muhit uchun xarakterlidir (gazlar, noelektrolit suyuqliklar, neft, kerosin, benzin va boshqalar) korroziya elektr toki ishtirokisiz boradi.

b) Elektrokimyoviy korroziya. Elektr toki ishtirokida boradigan korroziya.

## GLOSSARIY

<b>Terminlar</b>	<b>Rus tilida tushuncha</b>	<b>O'zbek tilida tushuncha</b>	<b>Ingliz tilida tushuncha</b>
<b>Atom</b> <b>Atom</b> <b>Atom</b>	- маленькая частица сохраняющая свойства вещества, но не существующая самостоятельно.	- modda xususiyatinisaqlovchi, lekinerkin xolda mavjudbo'lmaydiganzarra cha.	the small particle which is keeping properties of substance, but not existing independently.
<b>Атомный радиус</b> <b>Atom radiusi</b> <b>Radius of atom</b>	- величина определяющая размещение электронов каждого атома относительно ядра.	- xarbir atomelektronlariningyadroga nisbatanjoylashganliginib elgilovchikattalik.	the size defining placement of electrons of each atom concerning a kernel.
<b>Энергия актива ции</b> <b>Aktivlanish energiysi</b> <b>Activation energy</b>	- количество энергии затрачиваемое для активации молекул для прохождения реакции.	- Reaksiyaga kirishuvchimoddalarmolekulalarini aktivmolekulalarga aylantirishuchunberilishil ozimbo'lganenergiya aktivlanishenergiyasideyiladi.	the amount of energy spent for activation of molecules for reaction passing.
<b>Гомогенный рас твор</b> <b>Gamogen eritma</b> <b>Homogeneous mixture</b>	- однофазный раствор.	- bir xil fazadan iborat eritma.	single-phase solution.
<b>Гетерогенный раствор</b> <b>Geterogeneritma</b> <b>Heterogeneous mixture</b>	- многофазный раствор.	- har xil fazadan iborat eritma.	multiphase solution.
<b>Диффузия</b> <b>Diffuziya</b> <b>Diffusion</b>	- процесс взаимного проникновения молекул или атомов одного вещества между молекулами или атомами другого, приводящий к самопроизвольному выравниванию.	- konsentrasiyaningtenglas huvibirmodda zarrachalariningsuyulishy okigazfazoda xajmibo'yicha o'z-o'zidantarqalishi	the process of mutual penetration of molecules or atoms of one substance between molecules or atoms of another leading to spontaneous alignment.
<b>Ингибитор</b> <b>Ingibitor</b> <b>Inhibitor</b>	- вещество замедляющее скорость течения реакции.	- reaksiya tezligini sekinlashtiruvchi modda	Element which slow down the speed of reaction
<b>Ион</b> <b>Ion</b> <b>Ion</b>	- положительно или отрицательно заряженная частица.	- musbatyokimanfiyzaryadlizarracha	positively or negatively charged particle

<b>Катион</b> <b>Kation</b> <b>Cation</b>	-положительно заряженная частица.	- musbat zarracha (ion)	positively charged particle.
<b>Химическое уравнение</b> <b>Kimyoviy tenglama</b> <b>Chemical equation</b>	-выражение хим реакции с помощью хим формулы.	- kimyoviy formula yordamida reaksiyani ifodalash	To define the reaction by the help of chemical formula
<b>Концентрация</b> <b>Konsentrasiya</b> <b>concentration</b>	-количество вещества растворенного в растворе.	- eritmada erigan modda miqdori	The amount which dissolve in solution
<b>Молекула</b> <b>Molekula</b> <b>Molecule</b>	-мельчайшая частица вещества, имеющая все его основные химические свойства	- moddaningerishholdagiun ingasosiyxossalarinisaqla ganzarrachasi	the smallest particle of substance having all its main chemical properties
<b>Моль</b> <b>Mol</b> <b>Mol</b>	-единица измерения самого маленького элемента вещества.	- moddaningengkichikzarra chasinimiqdoriyo'lchovi	unit of measure of the smallest element of substance.
<b>Фаза</b> <b>Faza</b> <b>Phase</b>	-система одинаковых элементов.	- bir xil zarrachalar tizimi	system of identical elements.
<b>Кислотный раствор</b> <b>Kislotali eritma</b> <b>Acidic solution</b>	-водный раствор выше $1.00 \times 10^{-7}$	$1.00 \cdot 10^{-7}$ dan yuqori bo'lgan suvli eritma	Aqueous solution in which $[H^3O^+]$ is greater than $1.00 \times 10^{-7}$
<b>Кислоты</b> <b>Kislolar</b> <b>Acids</b>	-субстанции которые производят $H^+$	$H^+$ ishlab chiqaradigan substansiylar	Substances that produce $H^+$
<b>Основания</b> <b>Asoslar</b> <b>Bases</b>	-субстанции которые производят $OH^-$ в воде.	$OH^-$ ni suvda ishlab chiqaradigan substansiylar	Substances that produce $OH^-$ in water (Arrhenius definition).
<b>Сильная кислота</b> <b>Kuchli kislota</b> <b>Strong acid</b>	-основы водных растворов, передающие $H_3O^+$ все ойтит протоны.	Suvli eritmadagi asoslar, hamma ofit protonlarni $H_3O^+$ ga beradigan modda	Species which, in aqueous solution, donates virtually all ofits protons to form $H_3O^+$ .
<b>Сильное основание</b> <b>Kuchli asos</b> <b>Strong base</b>	-вещество имеющее в составе $OH^-$ ион, присоединяющее в водном растворе протон от $H_2O$ и передающее $OH^-$ .	$OH^-$ ion o'z ichiga olgan modda, suvli eritmada protonni $H_2O$ dan qabul qiladigan va $OH^-$ ga beradigan modda	Species which contains the $OH^-$ ion or which accepts a proton from $H_2O$ in aqueous solution to give $OH^-$ in high yield.
<b>Алюмотермия</b> <b>Alyuminotermiya</b>	-процесс восстановления	- metallarni alyuminiy bilanqaytarishja	Receiving issue with metals and

<b>Alyuminotermiya</b>	металлов алюминием.	rayoni.	alumina
<b>Изотопы</b> <b>Izotoplар</b> <b>Isotopes</b>	-атомы с близкими химическими свойствами и различным атомным весом.	- atom og'irligihar xilikmyoviy xossalariyaqinbo'lgan atomlar	Atoms which having different chemical peculiarities
<b>Гидриды</b> <b>Gidridlar</b> <b>hydride</b>	-соединения металлов с Н.	-metallarning vodorod bilan birikmasi	Combination metals with hydrogen
<b>Анион</b> <b>Anion</b> <b>Anion</b>	-отрицательно заряженная частица.	- manfiy zarracha (ion)	Ion ( - little element)
<b>Амфотерность</b> <b>Amfoterlik</b> <b>Amphoteric character</b>	способность некоторых химических соединений проявлять кислотные или основные свойства в зависимости от веществ, которые с ними реагируют	Ba'zikimyoviybirikmalar niqaysimoddabilanreaksiy agakirishigako'raasosyoki kislotaxossasininomoyonetishi	ability of some chemical compounds to show acid or main properties depending on substances which with them react
<b>Валентность</b> <b>Valentlik</b> <b>Valency</b>	(от лат. valentia — сила) - способность атома химического элемента (или атомной группы) образовывать определенное число химических связей с другими атомами (или атомными группами). Вместо валентности часто пользуются более узкими понятиями, напр. степень окисления, координационное число.	-kimyoviy element atomini boshqa atom bilan ma'lum miqdor kimyoviy bog' hosil qilishi. Amalda ko'pincha valentlik o'rniga oksidlanish darajasi tushunchasidan foydalilanildi.	(from armor. valentia — force) - ability of atom of chemical element (or nuclear group) to form a certain number of chemical bonds with other atoms (or nuclear groups). Instead of valency often the oxidation level, coordination number use narrower concepts, e.g.
<b>Ван-Дер-Ваальсовы силы</b> <b>Vander-vaalskuchlar</b> <b>Forcevan-der-Vaalsovy</b>	- силы межмолекулярного взаимодействия.	Molekulalararo kuchlar	- forces of intermolecular interaction.
<b>Водородные показатель (<math>p^H</math>)</b> <b>Vodorodko'rsatlich (<math>p^H</math>)</b> <b>Hydrogentheindicator (<math>p^H</math>)</b>	- характеризует концентрацию (активность) ионов водорода в растворах; численно равен отрицательному десятичному логарифму	Eritmadagivodorodionlar konsentratsiyasinixarakter laydivao'nligarifimnites kariqiyatigatengvabirlitr mollardaifodalanadi $[H^+]PH=-lg[H^+]$ suvljeritmalarda $PH=1-14$ gachabo'lishimumkinneyt	- characterizes concentration (activity) of ions of hydrogen in solutions; it is in number equal to a negative decimal logarithm of

	концентрации (активности) водородных ионов $[H^+]$ , выраженной в молях на литр: $pH = -\lg[H^+]$ . Водные растворы могут иметь $pH$ от 1 до 14; в нейтральных растворах $pH = 7$ , в кислых $< 7$ , в щелочных $> 7$ .	ralmuhitdaPH=7 gateng, kislotalidaPH=7 dankichikishqoriydaPH=7 dankattabo'ladi.	concentration (activity) of hydrogen ions $[H^+]$ expressed in moles on liter: $pH = -\lg [H^+]$ . Water solutions can have $pH$ from 1 to 14; in neutral solutions $pH = 7$ , in sour $< 7$ , in alkaline $> 7$ .
<b>Гидролиз</b> <b>Gidroliz</b> <b>Hydrolysis</b>	- реакция взаимодействия вещества с водой.	Moddalarni suv bilanta'sir reaksiyasi	- reaction of interaction of substance with water.
<b>Дисперсные системы</b> <b>Dispers sistemalar</b> <b>Disperse systems</b>	- состоят из множества частиц какого-либо тела (дисперсная фаза), распределенных в однородной среде (дисперсионной среде).	Dispers muhitda teng tarqalgan bir nechta moddadan iborat. Eri gan moddani o'lchamiga qarab dag'al kolloid chin dispers tizimga taqsimlanadi.	- consist of a set of the particles of any body (a disperse phase) distributed in a homogeneous environment (the dispersive environment).
<b>Диссоциация</b> <b>Dissosiatsiya</b> <b>Dissociation</b>	(от лат. dissociatio — разъединение) - распад частицы (молекулы, радикала, иона), на несколько более простых частиц.	Moddalarni ionlarga ajralish jarayoni	(from armor. dissociatio — separation) - disintegration of a particle (a molecule, the radical, an ion), on some simpler particles.
<b>Жесткость воды</b> <b>Suvning qattiqligi</b> <b>Hardness of water</b>	- совокупность свойств воды, обусловленная наличием в ней преимущественно солей кальция и магния. Использование жесткой воды приводит к осаждению твердого осадка (накипи) на стенах паровых котлов, теплообменников, затрудняет варку пищевых продуктов, стирку. Различают временную и постоянную жесткость воды.	Suvningqattiqligisuvdagik alsiyvamagniytuzlaribilanta'riflanadi. Bundatuzlarniishlatishbug, qozonlaridevorlaridaqattiqcho'kmahosilqiladi. Suvning qattiqligi vaqtinchalik va doimiy bo'ladi.	- the set of properties of water caused by availability in it mainly salts of calcium and magnesium. Use of hard water leads to sedimentation of a firm deposit (scum) on walls of boilers, heat exchangers, complicates cooking of foodstuff, washing. Distinguish temporary and

			constant hardness of water.
<b>Ковалентная связь</b> <b>Kovalent bog'</b> <b>Covalent bond</b>	- вид химической связи; осуществляется парой электронов, общих для двух атомов, образующих связь.	Umumiyelektronjuftihosil bo'lishibilanyuzagakeladi gankimyoviybog'lanish	- a type of a chemical bond; it is carried out by couple of electrons, the general for two atoms forming communication
<b>Меланж</b> <b>Melanj</b> <b>Melange</b>	— смесь концентрированных азотной и серной кислот при их соотношении по объему ок. 9:1. Применяют в производстве серной кислоты башенным способом.	Hajm bo'yicha 9:1 nisbatda aralashtirilgan nitrat va sulfat kislota aralashmasi	— mix of the concentrated nitric and sulfuric acids at their ratio on volume apprx. 9:1. Apply in production of sulfuric acid in the tower way.
<b>Плавление</b> <b>Suyuqlanish</b> <b>Melting -</b>	- переход твердого кристаллического вещества в жидкое состояние (фазовый переход первого рода).	Qattiq kristall moddani suyuqlanish holatga o'tishi	transition of strong crystal substance to a liquid state (phase transition of the first sort).
<b>Поверхностно-активные вещества (ПАВ)</b> <b>The Surface-active Substances (SAS)</b>	- химические соединения, способные адсорбироваться на границе раздела фаз, одна из которых обычно вода, и снижать поверхностное натяжение. Молекулы ПАВ состоят из углеводородного радикала (от 4 до 20 CH <sub>2</sub> -групп) и полярной группы (OH, COOH, NH <sub>2</sub> , SO <sub>3</sub> H и др.).	Sirt foal modda	- the chemical compounds capable to be adsorbed on limit of the section of phases one of which usually water, and to reduce a superficial tension. Molecules surfactant consist of the hydrocarbonic radical (from 4 to 20 CH <sub>2</sub> -groups) and polar group (OH, COOH, NH <sub>2</sub> , SO <sub>3</sub> H, etc.).
<b>Полиморфизм</b> <b>Polimorfizm</b> <b>Polymorphism</b>	(от поли... и греч. morphē — форма) - свойство некоторых веществ существовать в нескольких кристаллических состояниях	Bir nechta kristall holda bo'ladigan turli tuzilishiga ega bo'lgan modda	(from weed... and Greek morphē — a form) - property of some substances to exist in several crystal states (modifications)

	(модификациях) с разной структурой. Пример полиморфизма — алмаз и графит.		with different structure. A polymorphism example — diamond and graphite.
<b>Равновесие Muvozanat Balance</b>	- состояние системы, при котором параметры не зависят от времени.	Tizimni muvozanat holati	- a condition of system at which parameters don't depend on time.
<b>Растворы Eritmalar Solutions</b>	- однородные смеси переменного состава двух или большего числа веществ (компонентов).	Ikki va undan ortiq moddadan iborat gomogen holati	- uniform mixes of variable structure of two or bigger numbers of substances (components).
<b>Соли Tuzlar Salts</b>	- продукты замещения атомов водорода кислоты на металл или групп OH основания на кислотный остаток.	Metal atomi va kislota qoldig'idan tashkil topgan moddalar	- products of replacement of atoms of hydrogen of acid with metal or IT groups of the basis on the acid rest.
<b>Степень окислени я Oksidlanish darajasi Oxidation level</b>	(окислительное число) - условный показатель, характеризующий заряд атома в соединениях.	Birikmalarda atomning zaryadini ifodolovchi kattalik	(oxidizing number) - the conditional indicator characterizing an atom charge in connections.
<b>Суспензии Suspenziyalar Suspensions</b>	(от позднелат. suspensio — подвешивание) - дисперсные системы с жидкой дисперсионной средой и твердой дисперсной фазой, частицы которой достаточно крупны, чтобы противостоять броуновскому движению.	Suyuqerituvchidaqattiqm oddanierishidan hosil bo'lgan tizim.	(from late armor. suspensio — suspension) - disperse systems with the liquid dispersive environment and a firm disperse phase which particles are rather large to resist to Brownian motion.
<b>Тальк Talk Talc</b>	- силикатный минерал, самый мягкий по шкале твёрдости природный минерал; применяется в измельчённом виде в качестве белого наполнителя в резине, бумаге и т.д.	Qattiqlik jihatidan eng qattiq bo'gan tabiiy silikat minerali	- a silicate mineral, the softest on a hardness scale a natural mineral; it is applied in the crushed look as a white filler in rubber, paper, etc.

<b>Тепловой эффект реакции</b> <b>Kimyoviy reaksiyaning issiqlik efekti</b> <b>Thermal effect of reaction</b>	- количество теплоты, выделяемой или поглощаемой системой при химической реакции.	Kimyoviy reaksiyaning issiqlik efekti	- amount of heat, the allocated or absorbed system at chemical reaction.
